Tadqiqotchilar sababiy aloqa ehtimolini o'rganmoqchi bo'lsalar, **eksperiment** o'tkazadilar. Odatda bunda izohlovchi va javob o'zgaruvchilari mavjud bo'ladi. Masalan, dori berish yurak xuruji bo'lgan bemorlarning keyingi yil davomidagi o'lim darajasini kamaytiradi, deb taxmin qilishimiz mumkin. Izohlovchi o'zgaruvchi bilan javob o'zgaruvchisi orasida haqiqatan ham sababiy aloqa bormi-yo'qligini tekshirish uchun tadqiqotchilar bir guruh shaxslarni tanlab olib, ularni guruhlarga ajratadilar. Har bir guruhdagi shaxslarga biror davolash usuli *biriktiriladi*. Agar shaxslar guruhlarga tasodifiy ravishda biriktirilsa, eksperiment **tasodifiylashtirilgan eksperiment** deb ataladi. Masalan, dori sinovidagi har bir yurak xuruji bemori tanga tashlash kabi usul orqali ikki guruhdan biriga tasodifiy biriktirilishi mumkin. Birinchi guruh **plasebo** (soxta davolash) oladi, ikkinchi guruh esa dori oladi. Yana bir eksperiment misoli uchun 1.1-bo'limdagi tadqiqotni ko'ring, garchi o'sha o'rganishda *plasebo* qo'llanilmagan bo'lsa-da.

BOG'LIQLIK $\neq$ SABABIYAT

Umuman olganda, bog'liqlik sababiyatni anglatmaydi va sababiyat faqat tasodifiylashtirilgan eksperimentdan xulosa qilinishi mumkin.

Mashqlar

1.3 Havo ifloslanishi va tug'ilish natijalari tadqiqotning tarkibiy qismlari. Tadqiqotchilar Janubiy Kaliforniyada havo ifloslanishi bilan muddatidan oldin tug'ruqlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun ma'lu-

[9] Ba'zan izohlovchi o'zgaruvchi **bog'liqsiz o'zgaruvchi**, javob o'zgaruvchi esa **bog'liq o'zgaruvchi** deb ataladi. Biroq bu chalkashlik keltirishi mumkin, chunki o'zgaruvchilar bog'liqsiz yoki bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sabab bu atamalardan foydalanmaslikka harakat qilamiz (yoki erkli, erksiz atamalari ishlatiladi).

motlar to‘plashdi. Tadqiqot davomida havo ifloslanishi darajalari havo sifatini kuzatish stansiyalari yordamida o‘lchandi. Xususan, karbon monoksid millionga nisbatan qismlar (ppm), azot dioksid va ozon yuz millionga nisbatan qismlar (pphm) hamda yirik zarrachalar miqdori (PM_{10}) $\mu g/m^3$ da qayd etildi. 1989 yildan 1993 yilgacha bo‘lgan davrda 143196 ta tug‘ilish bo‘yicha homiladorlik davomiyligi haqidagi ma'lumotlar yig‘ildi va har bir tug‘ilish uchun homiladorlik davrida havo ifloslanishiga ta'sir miqdori hisoblandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, PM_{10} va kichikroq darajada CO konsentratsiyalarining oshishi muddatidan oldin tug‘ruqlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.[10]

(a) Tadqiqotning asosiy savolini aniqlang.

(b) Ushbu tadqiqotdagi subyektlar kimlar va ularning soni nechta?

(c) Tadqiqotdagi o‘zgaruvchilarni aniqlang. Har bir o‘zgaruvchini miqdoriy yoki toifali ekanini belgilang. Agar o‘zgaruvchi miqdoriy bo‘lsa — u diskret yoki uzluksiz ekanini, agar toifali bo‘lsa — u tartibli (ordinal) yoki tartibsiz (nominal) ekanini ko‘rsating.

1.4 Buteyko metodi tadqiqotning tarkibiy qismlari. Buteyko metodi – bu 1952 yilda rus shifokori Konstantin Buteyko tomonidan ishlab chiqilgan sayoz nafas olish texnikasi. Anekdotik dalillar Buteyko metodining astma simptomlarini kamaytirishi va hayot sifatini yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatadi. Ushbu metodning samaradorligini aniqlash uchun o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotda, tadqiqotchilar 600 nafar astma bilan og‘rigan, davolash uchun dori vositalariga tayanadigan 18-69 yoshdagi bemorlarni jalb qilishdi. Ushbu bemorlar tasodifiy ravishda ikkita tadqiqot guruhiga bo‘lindi. Biri Buteyko metodini mashq qilgan, ikkinchisi esa ushbu metodni qo‘llamagan. Barcha bemorlar hayot sifati, faollik, astma alomatlari va dori iste'molini kamaytirishi bo‘yicha 0 dan 10 gacha bo‘lgan shkalada baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, Buteyko usulini qo‘llagan ishtirokchilar o‘rtacha hisobda astma alomatlarining sezilarli kamayishini va hayot sifati yaxshilanishini boshdan kechirdilar.[11]

(a) Tadqiqotning asosiy savolini aniqlang.

(b) Ushbu tadqiqotdagi subyektlar kimlar va ular qancha?

(c) Tadqiqotdagi o‘zgaruvchilarni aniqlang. Har bir o‘zgaruvchini miqdoriy yoki toifali deb aniqlang. Agar miqdoriy bo‘lsa, o‘zgaruvchi diskret yoki uzluksiz ekanligini ko‘rsating. Agar toifali bo‘lsa, o‘zgaruvchi ordinal yoki nominal ekanligini ko‘rsating.

1.5 Aldovchilar tadqiqotning tarkibiy qismlari. Tadqiqotchilar halollik, yosh va o‘zini nazorat qilish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida 5 dan 15 yoshgacha bo‘lgan 160 nafar bola ishtirokida eksperiment o‘tkazdilar. Ishtirokchilar o‘z yoshlari, jinsi va yagona farzand ekanliklari yoki yo‘qligi haqida ma'lumot berdilar. Har bir bolaga tanga berilib, ular shaxsiy ravishda tanga tashlab, natijani (oq yoki qora) qog‘ozga yozishlari so‘raldi. Tadqiqotchilar ularga faqat oq chiqdi deb bildirgan bolalar mukofotlanishini aytishdi. Tadqiqot natijalari quyidagicha umumlashtirilgan: ishtirokchilarning yarmi “aldamang” deb aniq ko‘rsatma olgan, qolgan yarmi esa hech qanday ko‘rsatma olmagan. Ko‘rsatmasiz guruhda — bolalarning shaxsiy xususiyatlariga (yosh, jins va hokazo) qarab aldash ehtimoli bir xil (ya'ni, teng taqsimlangan) bo‘lgan. “Aldamang” deb ogohlantirilgan guruhda esa, qizlar o‘g‘illarga qaraganda kamroq aldashga moyil bo‘lgan; o‘g‘illar uchun yoshga qarab aldash darajasi o‘zgarmagan; qizlar uchun esa yosh ortgani sayin aldash ehtimoli kamaygan.[12]

(a) Tadqiqotning asosiy savolini aniqlang.

(b) Ushbu tadqiqotdagi subyektlar kimlar va ular qancha?

(c) Ushbu tadqiqotda mazkur natijalarga erishish uchun har bir subyekt bo‘yicha necha o‘zgaruvchi qayd etilgan? Ushbu o‘zgaruvchilar va ularning turlarini aniqlang.

1.6 O‘g‘rilar tadqiqotning tarkibiy qismlari. Ijtimoiy-iqtisodiy sinf va noaxloqiy xatti-harakatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida, Kaliforniya universitetining (Berkeley) 129 nafar bakalavr talabasi ishtirokida tadqiqot o‘tkazildi. Ishtirokchilardan o‘zlarini ijtimoiy sinf nuqtai nazaridan baholash so‘raldi. Ya'ni, ular o‘zlarini eng ko‘p (yoki eng kam) pulga, eng yuqori (yoki eng past) ma'lumot darajasiga, va eng hurmatli (yoki eng kam hurmatli) kasbga ega odamlarga nisbatan taqqoslashdi. Shu asosda ular o‘zlarini yuqori yoki past ijtimoiy sinfga mansub deb belgiladilar. Keyin ularga har biri alohida o‘ralgan shirinliklar (konfetlar) solingan idish ko‘rsatildi. Tadqiqotchilar bu shirinliklar yaqin atrofdagi laboratoriyadagi bolalar uchun mo‘ljallanganini, biroq agar istasalar, bir nechtasini olishlari mumkinligini aytishdi. Keyinchalik, ishtirokchilar bilan bog‘liq bo‘lmagan ba'zi vazifalarni bajargandan so‘ng, har bir ishtirokchi o‘zi olgan konfetlar sonini ma'lum qildi.[13]

[10] B. Ritz et al. “Effect of air pollution on preterm birth among children born in Southern California between 1989 and 1993”. In: *Epidemiology* 11.5 (2000), pp. 502–511.

[11] J. McGowan. “Health Education: Does the Buteyko Institute Method make a difference?” In: *Thorax* 58 (2003).

[12] Alessandro Bucciol and Marco Piovesan. “Luck or cheating? A field experiment on honesty with children”. In: *Journal of Economic Psychology* 32.1 (2011), pp. 73–78.

[13] P.K. Piff et al. “Higher social class predicts increased unethical behavior”. In: *Proceedings of the National Academy of Sciences* (2012).

(a) Tadqiqotning asosiy savolini aniqlang.

(b) Ushbu tadqiqotda subyektlar kimlar va qancha ishtirokchi qatnashgan?

(c) Tadqiqotda o'zini yuqori ijtimoiy sinfga mansub deb bilgan talabalar boshqalarga qaraganda ko'proq konfet olgani aniqlangan. Ushbu xulosaga kelish uchun har bir ishtirokchi bo'yicha nechta o'zgaruvchi qayd etilgan? O'zgaruvchilarni va ularning turlarini ko'rsating.

1.7 Migren va akupunktura, 2-qism. 1.1-mashqda akupunkturaning migrenlarga ta'siri bor-yo'qligini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot keltirilgan edi. Tadqiqotchilar tasodifiy nazoratli tadqiqot o'tkazib, bemorlarni tasodifiy ravishda ikkita guruhga bo'lishdi: davolash guruhi va nazorat guruhi. Davolash guruhidagi bemorlarga migrenni davolashga mo'ljallangan akupunktura qo'llanildi. Nazorat guruhidagi bemorlarga esa soxta akupunktura (ya'ni ignalar akupunktura nuqtalariga emas, boshqa joylarga kiritilgan) qo'llandi. Bemorlar akupunkturadan 24 soat o'tib, og'riqdan butunlay xalos bo'lgan yoki bo'lmaganliklari haqida so'raldi. Ushbu tadqiqotda izohlovchi va javob o'zgaruvchilar qaysi?

1.8 Sinusit va antibiotiklar, 2-qism. 1.2-mashqda o'tkazilgan tadqiqotda o'tkir sinusitni antibiotik bilan davolashning samarasi o'rganilgan. Tadqiqot ishtirokchilari 10 kunlik antibiotik kursi (davolash guruhi) yoki tashqi ko'rinishi va ta'mi bo'yicha bir xil soxta dori (nazorat guruhi) qabul qilishgan. 10 kunlik davolash davri yakunida bemorlardan alomatlarida yaxshilanish kuzatildimi-yo'qmi deb so'ralgan. Ushbu tadqiqotda izohlovchi va javob o'zgaruvchilar qaysi?

1.9 Fisherning iris gullari. Ser Ronald Aylmer Fisher — ingliz statistigi, evolyutsion biolog va genetik bo'lib, u iris gullarining uch turi *(setosa, versicolor va virginica)* bo'yicha ma'lumotlar to'plami ustida ishlagan. Ushbu ma'lumotlar to'plamida har bir turning 50 tadan guli bo'lib, har bir gul uchun gultojining uzunligi va eni hamda bargchalarining uzunligi va eni qayd etilgan.[14]

(a) Ma'lumotlar to'plamida nechta kuzatuv birligi mavjud?

(b) Ma'lumotlarda nechta miqdoriy o'zgaruvchi mavjud? Ularni sanab chiqing va ular uzluksizmi yoki diskret ekanini ko'rsating.

(c) Ma'lumotlarda nechta toifali o'zgaruvchi mavjud va ular qanday? Ularning darajalarini ko'rsating.



Rasm: Ryan Claussen (http://flic.kr/p/6QTcuX) CC BY-SA 2.0 license

1.10 Buyuk Britaniya aholisi orasidagi chekish odatlari. Buyuk Britaniya aholisi orasida chekish odatlarini o'rganish maqsadida so'rov o'tkazilgan. Quyida ushbu so'rov orqali to'plangan ma'lumotlarning bir qismi ma'lumotlar matritsasi ko'rinishida keltirilgan. Bu yerda "£" — ingliz funt sterlingi, "sig" — sigaret (chekiladigan dona sigaret) va "N/A" — ma'lumot yo'qligini (yetishmayotgan qiymatni) bildiradi.[15]

	Jinsi	Yoshi	Turmushi	Yalpi daromad	Chekish	Dam olish kuni	Hafta davomida
1	Ayol	42	Yolg'iz	£2,600 dan past	Ha	12 sig/kun	12 sig/kun
2	Erkak	44	Yolg'iz	£10,400 dan £15,600 gacha	Yo'q	N/A	N/A
3	Erkak	53	Uylangan	£36,400 dan yuqori	Ha	6 sig/kun	6 sig/kun
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮
1691	Erkak	40	Yolg'iz	£2,600 dan £5,200 gacha	Ha	8 sig/kun	8 sig/kun

(a) Ma'lumotlar matritsasining har bir qatori nimani ifodalaydi?

(b) So'rovda nechta ishtirokchi qatnashgan?


(c) Tadqiqotdagi har bir o'zgaruvchini miqdoriy yoki toifali ekanligini aniqlang. Agar miqdoriy bo'lsa, uzluksiz yoki diskret ekanligini aniqlang. Agar toifali bo'lsa, u tartiblimi?

1.11 AQSh aeroportlari. Quyidagi vizualizatsiya Qo'shma Shtatlarning asosiy hududlari (ya'ni, bir-biriga tutashgan shtatlar) va Vashington, Kolumbiya okrugi (Washington, D.C.) dagi aeroportlarning geografik taqsimotini ko'rsatadi. Ushbu vizualizatsiya har bir kuzatuv birligi aeroport bo'lgan ma'lumotlar to'plamiga asoslanib yaratilgan.[16]

[14] R.A Fisher. "The Use of Multiple Measurements in Taxonomic Problems". In: *Annals of Eugenics* 7 (1936), pp. 179–188.

[15] National STEM Centre, Large Datasets from stats4schools.


[16] Federal Aviation Administration, www.faa.gov/airports/airport_safety/airportdata_5010.



(a) Ushbu vizualizatsiyani yaratishda foydalanilgan o'zgaruvchilarni sanab bering.

(b) Har bir o'zgaruvchini miqdoriy yoki toifali ekanligini belgilang. Agar miqdoriy bo'lsa, uzluksiz yoki diskret ekanligini, agar toifali bo'lsa, u tartibli ekanligini aniqlang.

1.12 BMT ovozlari. Quyidagi vizualizatsiya Qo'shma Shtatlar, Kanada va Meksikaning Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasida turli mavzular bo'yicha ovoz berish tendensiyalarini ko'rsatadi. Xususan, 1946 yildan 2015 yilgacha bo'lgan davrda ma'lum bir mavzu bo'yicha mamlakatlarning "Ha" deb ovoz bergan foizlari tasvirlangan. Ushbu vizualizatsiya har bir kuzatuv mamlakat/yil juftligiga to'g'ri keladigan ma'lumotlar to'plamiga asoslanib yaratilgan.[17]



(a) Ushbu vizualizatsiyani yaratishda ishlatilgan o'zgaruvchilarni sanab o'ting.

(b) Tadqiqotdagi har bir o'zgaruvchini miqdoriy yoki toifali ekanligini ko'rsating. Agar miqdoriy bo'lsa, uzluksiz yoki diskretligini aniqlang. Agar toifali bo'lsa, uning tartibli ekanligini aniqlang.

1.3 Tanlanma olish tamoyillari va strategiyalari

[17] David Robinson. *unvotes: United Nations General Assembly Voting Data*. R package version 0.2.0. 2017. URL: https://CRAN.R-project.org/package=unvotes.

Tadqiqot o'tkazishning birinchi bosqichi — o'rganiladigan mavzu yoki savollarni aniqlashdir. Aniq ifodalangan tadqiqot savoli qaysi subyektlar yoki kuzatuv birliklari o'rganilishi va qaysi o'zgaruvchilar muhimligini belgilashga yordam beradi. Shuningdek, ma'lumotlar qanday to'planishini ko'rib chiqish ham muhim. Shunda ular ishonchli bo'ladi va tadqiqot maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

1.3.1 Bosh to'plamlar va tanlanmalar

Quyidagi uchta tadqiqot savolini ko'rib chiqing:

1. Atlantika okeanidagi qilichbaliqlarda o'rtacha simob miqdori qancha?
2. So'nggi 5 yil ichida Duke universiteti bakalavr talabalari uchun darajani yakunlashning o'rtacha muddati qancha?
3. Yangi dori og'ir yurak kasalligi bo'lgan bemorlarda o'limlar sonini kamaytiradimi?

Har bir tadqiqot savoli maqsadli **bosh to'plam**ga taalluqlidir. Birinchi savolda maqsadli bosh to'plam – Atlantika okeanidagi barcha qilichbaliqlar va har bir baliq bitta kuzatuv birligini ifodalaydi. Ko'pincha bosh to'plamdagi har bir birlik uchun ma'lumot yig'ish juda qimmatga tushadi. Buning o'rniga, **tanlanma** olinadi. Tanlanma – bu kuzatuv birliklarining qism-to'plami bo'lib, odatda bosh to'plamning kichik bir qismi hisoblanadi. Masalan, bosh to'plamdan 60 ta qilichbaliq tanlab olinishi mumkin va ushbu tanlanma ma'lumotlari bosh to'plam o'rtacha qiymatini baholash hamda tadqiqot savoliga javob berish uchun ishlatiladi.

Y

1.9-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Yuqoridagi ikkinchi va uchinchi savollar uchun maqsadli bosh to'plamni va alohida kuzatuv birligini nima ifodalashini aniqlang.[18]

1.3.2 Anekdotik dalillar

Quyidagi ehtimoliy javoblarni yuqoridagi uch tadqiqot savoliga nisbatan ko'rib chiqing:

1. Yangiliklarda bir kishi qilichbaliq yeb simobdan zaharlangan ekan, demak qilichbaliqlarda simobning o'rtacha kontsentratsiyasi xavfli darajada yuqori.
2. Men Dukeda 7 yildan ko'proq o'qib bitirgan ikkita talabani uchratdim, demak Dukeda ko'plab boshqa kollejlar bilan taqqoslaganda bitirish vaqti uzoqroq.
3. Do'stimning otasi unga yangi yurak kasalligi dorisini berganlaridan keyin yurak xuruji bo'lib vafot etdi, demak dori foyda bermaydi.

Har bir xulosa ma'lumotlarga tayangan. Biroq bu yerda ikkita muammo bor. Birinchidan, ma'lumotlar atigi bir-ikkita holatni ifodalaydi. Ikkinchidan va eng muhimi, bu holatlar bosh to'plamni haqiqatan ham ifodalaydimi-yo'qmi – bu noaniq. Bunday tartibsiz tarzda to'plangan ma'lumotlar **anekdotik dalillar** deb ataladi.

ANEKDOTIK DALILLAR

Tartibsiz tarzda yig'ilgan ma'lumotlardan ehtiyot bo'ling. Bunday dalillar haqiqat va tasdiqlangan bo'lishi mumkin, ammo ular faqat favqulodda holatlarni ifodalashi mumkin.

Anekdotik dalillar odatda o'zining g'ayrioddiy xususiyatlari bilan e'tiborni tortuvchi noodatiy holatlardan iborat bo'ladi. Masalan, biz 7 yil davomida o'qishni tugatgan ikkita kishini, to'rt yil ichida o'qishni tugatgan boshqa olti kishiga qaraganda ko'proq eslashimiz mumkin. Noodatiy holatlarga e'tibor qaratish o'rniga, bosh to'plamni ifodalovchi ko'plab holatlardan iborat tanlanma o'rganilishi kerak.


[18] 2) Savol faqat darajasini yakunlagan talabalarga tegishli. O'rtacha qiymatni o'qishni hech qachon tugatmagan talaba asosida hisoblab bo'lmaydi. Demak, ko'rib chiqilayotgan bosh to'plamda faqat so'nggi besh yil ichida bitirgan Duke bakalavr talabalari kuzatuv birliklarini ifodalaydi. Har bir shunday talaba — alohida kuzatuv birligi. 3)-har bir og'ir yurak kasalligiga chalingan shaxs — bitta kuzatuv birligi. Bosh to'plamga og'ir yurak kasalligi bo'lgan barcha shaxslar kiradi.



1.10-rasm. 2010-yil fevralida ayrim media sharhlovchilari bitta yirik qor bo‘ronini global isishga qarshi haqiqiy dalil sifatida keltirishdi. Komik Jon Styuart ta’kidlaganidek, ”Bu – bitta bo‘ron, bitta mintaqada, bitta mamlakat ichida”.

1.3.3 Bosh to‘plamdan tanlanma olish

So‘nggi 5 yil ichida Duke universiteti bakalavr talabalari uchun bitirish muddatini baholash maqsadida talabalardan *tanlanma* yig‘ishimiz mumkin. So‘nggi 5 yilda bitirganlarning barchasi *bosh to‘plam*ni tashkil etadi, ko‘rib chiqish uchun tanlab olingan bitiruvchilar esa birgalikda *tanlanma* deb ataladi. Umuman olganda, biz har doim tanlanmani bosh to‘plamdan *tasodifiy* tanlashga intilamiz. Eng sodda tasodifiy tanlash usuli lotereya o‘tkazishga o‘xshaydi. Masalan, bitiruvchilarni tanlashda har bir bitiruvchining ismini lotereya chiptasiga yozib, 100 ta chiptani tortib olishimiz mumkin. Tanlangan ismlar 100 nafar bitiruvchidan iborat tasodifiy tanlanmani ifodalaydi. Tanlanmani tasodifiy tanlash – og‘ishlarni kiritib yuborish ehtimolini kamaytiradi.




1.11-rasm. Ushbu grafikda bosh to‘plamdan tasodifiy tarzda besh nafar bitiruvchi tanlanmaga kiritilgan.

1.10-MISOL

Tasavvur qiling, biz to‘g‘ri ovqatlanish (nutrition) yo‘nalishida o‘qiydigan bir talabadan tadqiqot uchun bir nechta bitiruvchini tanlab berishni so‘radik. U qaysi turdagi talabalarni tanlashi mumkin? Uning tanlanmasi barcha bitiruvchilarni vakili (reprezentativ) bo‘la oladimi?

Ehtimol, u sog‘liq bilan bog‘liq sohalar bo‘yicha bitiruvchilarni nomutanosib ko‘p olib qo‘yishi mumkin. Yoki uning tanlovi bosh to‘plamni yaxshi ifodalar. Tanlanmalarni qo‘lda tanlaganda, hatto niyatda og‘ish bo‘lmasa ham, **og‘ishgan** tanlanma olish xavfi mavjud.


Agar kimdurga tanlanmaga qaysi bitiruvchilarni kiritishni o‘zi aniq belgilashga ruxsat berilsa, tanlanma o‘sha kishining qiziqishlariga tomon *egilishi* mumkin, bu butunlay beixtiyor bo‘lsa ham. Bu holat tanlanmaga **og‘ish** (inglizcha: bias) kiritadi. Tasodifiy tanlash bu muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Eng sodda tasodifiy tanlanma **oddiy tasodifiy tanlanma** deb ataladi. Bu usul kuzatuv birliklarini lotereya orqali tanlashga ekvivalent. Bunda bosh to‘plamdagi har bir birlik tanlanmaga tushish uchun teng imkoniyatga ega bo‘ladi va tanlanmadagi birliklar orasida hech



1.12-rasm. Tanlanma tuzish so‘ralganda, to‘g‘ri ovqatlanish yo‘nalishidagi talaba bilmagan holda sog‘liq bilan bog‘liq yo‘nalishlardan nomutanosib ko‘p bitiruvchini tanlab qo‘yishi mumkin.

qanday yashirin bog‘liqlik nazarda tutilmaydi.

Oddiy tasodifiy tanlanma olish og‘ishni minimallashtiradi. Biroq og‘ish boshqa yo‘llar bilan ham paydo bo‘lishi mumkin. Masalan, so‘rovlar uchun odamlardan tasodifiy tanlab olingan taqdirda ham, agar **javob bermaslik ulushi** yuqori bo‘lsa, ehtiyot bo‘lish kerak. Agar so‘rov uchun tasodifiy tanlanganlarning faqat 30% i javob bergan bo‘lsa, natijalar butun bosh to‘plam uchun **reprezentativ** (vakil) ekanligi noaniq qoladi. Bu **javob bermaslik og‘ishi** natijalarni egib yuborishi mumkin.



1.13-rasm. Javob bermaslik ehtimoli sababli, so‘rovlar ko‘pincha bosh to‘plamning faqat ma’lum bir qismigagina yetib boradi. Bu muammoni butunlay tuzatish qiyin, ba’zan esa imkonsiz.

Yana bir keng tarqalgan kamchilik — **qulay tanlanma**, ya’ni oson yetib boriladigan shaxslar tanlanmaga ko‘proq tushib qoladigan holat. Masalan, siyosiy so‘rov faqat Bronks ko‘chalarida yurgan odamlardan olinadigan bo‘lsa, u butun Nyu-York shahrini ifodalamaydi. Qulaylik tanlanmaning qaysi qism-to‘plamni ifodalayotganini aniqlash ko‘pincha mushkul.

Y **1.11-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Veb-saytlar orqali mahsulotlar, sotuvchilar va kompaniyalar reytinglarini oson topamiz. Bu reytinglar faqat baho berishga alohida vaqt ajratgan odamlarga asoslanadi. Agar internetdagi sharhlarning 50% i salbiy bo‘lsa, bu xaridorlarning 50% i mahsulotdan norozi deganimi?[19]

1.3.4 Kuzatuv tadqiqotlari

Hech qanday davolash (ta’sir) ochiqchasiga qo‘llanilmagan yoki ataylab qo‘llanilmay qolgan ma’lumotlar **kuzatuv ma’lumotlari** deb ataladi. Masalan, 1.2-bo‘limda tasvirlangan kreditlar (loan) va okruglar (county) haqidagi ma’lumotlar — kuzatuv ma’lumotlariga misol bo‘la oladi. Eksperimentlar asosida sababiy xulosalar chiqarish ko‘pincha mantiqan asosli bo‘ladi. Biroq, xuddi


[19] Javoblar turlicha bo‘lishi mumkin. O‘zimizning shaxsiy kuzatuvlarimizga ko‘ra, odamlar odatda kutilganidan yomonroq chiqqan mahsulotlar haqida ko‘proq shikoyat qiladilar, kutilganidek ishlagan mahsulotlar haqida esa kamroq maqtov bildiradilar. Shu sababli, biz Amazon kabi saytlardagi mahsulot reytinglarida salbiy og‘ish (inglizcha: bias) mavjud bo‘lishi mumkin, deb taxmin qilamiz. Biroq, bizning kuzatuvlarimiz bosh to‘plamni to‘liq ifodalamay qolgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas, shu sabab turli ehtimollarga ochiq munosabatda bo‘lamiz.

shunday sababiy xulosalarni kuzatuv ma'lumotlariga tayangan holda chiqarish xavfli va tavsiya etilmaydi. Shuning uchun, kuzatuv tadqiqotlari odatda faqat o'zgaruvchilar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatish yoki keyinchalik eksperimentlar yordamida tekshiriladigan gipotezalarni shakllantirish uchun yetarli bo'ladi.

Y **1.12-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Faraz qilaylik, bir kuzatuv tadqiqotida quyosh nuridan himoyalovchi krem ishlatish va teri saratoni o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan bo'lib, natijada shunday xulosa chiqqan: kim ko'proq krem ishlatsa, unda teri saratoni uchrashi ehtimoli ham yuqoriroq. Bu quyosh nuridan himoya kremi teri saratoniga sabab bo'lishini anglatadimi?[20]

Avvalgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, quyoshdan himoyalovchi kremdan foydalanish aslida teri saratoni xavfini kamaytiradi. Shunday ekan, krem ishlatish va teri saratoni o'rtasidagi bu faraziy bog'liqlikni boshqa bir o'zgaruvchi bilan tushuntirish mumkin. Bu yerda yo'q bo'lgan muhim ma'lumot — bu quyosh nuri ta'siri darajasidir. Agar kimdir kun bo'yi quyosh ostida bo'lsa, u kremni tez-tez ishlatishga moyil bo'ladi va shu bilan birga teri saratoni rivojlanish ehtimoli ham yuqoriroq bo'ladi. Demak, quyosh nuri ta'siri bu oddiy tahlilda hisobga olinmagan o'zgaruvchidir.



Quyosh nuri ta'siri shunday o'zgaruvchidirki, u **chalkashtiruvchi o'zgaruvchi**[21] deb ataladi. Chalkashtiruvchi o'zgaruvchi — bu izohlovchi o'zgaruvchi hamda javob o'zgaruvchisi bilan bir vaqtning o'zida bog'liq bo'lgan o'zgaruvchidir. Kuzatuv tadqiqotlaridan sababiy xulosa chiqarishning bitta usuli — barcha mumkin bo'lgan chalkashtiruvchi o'zgaruvchilarni aniqlashga urinishdir. Biroq, barcha chalkashtiruvchi o'zgaruvchilarni to'liq aniqlash yoki o'lchashning kafolati yo'q.

Y **1.13-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

1.8-rasmda okruglardagi uy-joyga egaligi bilan ko'p xonadonli binolarda yashovchilar ulushi o'rtasida manfiy bog'liqlik ko'rsatilgan edi. Biroq, bu ikki o'zgaruvchi orasida sababiy bog'liqlik mavjud deb xulosa qilish mantiqan to'g'ri emas. Ushbu manfiy bog'liqlikni tushuntirishi mumkin bo'lgan boshqa bir o'zgaruvchini taklif qiling.[22]

Kuzatuv tadqiqotlari ikki shaklda bo'ladi: prospektiv va retrospektiv tadqiqotlar. **Prospektiv tadqiqot** — bu hodisalar kechayotgan paytda shaxslar aniqlanib, ulardan ma'lumotlar to'planadigan tadqiqotdir. Masalan, tibbiyot tadqiqotchilari saraton xavfiga xulq-atvorning mumkin bo'lgan ta'sirini baholash maqsadida bir guruh bemorlarni ko'p yillar davomida kuzatib borishlari mumkin. Bunday tadqiqotga misol sifatida "Hamshiralar salomatligi tadqiqoti" (The Nurses' Health Study) ni keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot 1976-yilda boshlangan va 1989-yilda kengaytirilgan. Bu prospektiv tadqiqot ro'yxatdan o'tgan hamshiralarni jalb qilib, ulardan so'rovnomalar orqali ma'lumot to'playdi. **Retrospektiv tadqiqot**lar esa hodisalar sodir bo'lib bo'lgandan keyin ma'lumot to'playdi, masalan, tadqiqotchilar tibbiy yozuvlarda o'tgan holatlarni tahlil qilishlari mumkin. Ba'zi ma'lumotlar to'plamlarida esa prospektiv va retrospektiv yo'l bilan to'plangan o'zgaruvchilar birgalikda mavjud bo'lishi mumkin.


1.3.5 To'rt xil tanlanma olish usuli

Deyarli barcha statistik usullar tasodifiylik g'oyasiga asoslanadi. Agar kuzatuv ma'lumotlari bosh to'plamdan tasodifiy tanlash asosida to'plangan bo'lmasa, bunday ma'lumotlar asosida olingan statistik baholar va ularga tegishli xatoliklar ishonchli bo'lmaydi. Ushbu bo'limda to'rtta tasodifiy tanlanma olish usuli ko'rib chiqiladi. Bular oddiy, qatlamli, klasterli va ko'p bosqichli tanlash. 1.14- va 1.15-rasmlar ushbu usullarning grafik tasvirlarini ko'rsatadi.

[20] Yo'q. Tushunish uchun ushbu masaladan keyingi matnga qarang.

[21] Shuningdek, bu o'zgaruvchi **yashirin o'zgaruvchi**, **chalkashtiruvchi omil** yoki **chalkashtiruvchi** deb ham yuritiladi.

[22] Javoblar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, aholi zichligi muhim omil bo'lishi mumkin. Agar bir okrug aholisi juda zich joylashgan bo'lsa, bu ko'plab aholining ko'p xonadonli uylarda yashashini talab qilishi mumkin. Bundan



1.14-rasm. Oddiy tasodifiy tanlash va qatlamli tanlashga misollar. Yuqoridagi holatda – oddiy tasodifiy tanlash usuli yordamida 18 ta kuzatuv birligi tasodifiy ravishda tanlab olingan. Quyidagi holatda esa – qatlamli tanlash qo'llangan. Kuzatuv birliklari avval qatlamlarga ajratilgan, so'ngra har bir qatlam ichida oddiy tasodifiy tanlash amalga oshirilgan.

Oddiy tasodifiy tanlash – bu tasodifiy tanlashning eng intuitiv, ya'ni eng oson tushuniladigan shaklidir. Masalan, Katta ligadagi beysbol (ingliz tilida "Major League Baseball", qisqacha MLB) o'yinchilarining maoshlarini olaylik, bu yerda har bir o'yinchi liganing 30 ta jamoasidan biriga tegishli. 120 nafar beysbol o'yinchisi va ularning maoshlarini o'z ichiga olgan oddiy tasodifiy tanlanma olish uchun, biz o'sha mavsumdagi barcha o'yinchilarning ismlarini alohida qog'ozlarga yozib, ularni bir chelakka solamiz, yaxshilab aralashtiramiz va so'ngra 120 ta ism chiqmaguncha qog'ozlarni tasodifiy tarzda tortamiz. Umuman olganda, agar bosh to'plamdagi har bir kuzatuv birligi yakuniy tanlovga teng ehtimol bilan tushsa va biror kuzatuvning tanlanganini bilish boshqa kuzatuvlarning tanlanganiga oid foydali ma'lumot bermasa, u holda bunday tanlov oddiy tasodifiy tanlov deb ataladi.

Qatlamli tanlash esa "bo'lib oling va yeng" tamoyiliga asoslangan tanlash strategiyasidir. Bunda bosh to'plam **qatlamlar** deb ataluvchi guruhlarga bo'linadi. Qatlamlar shunday tanlanadiki, o'xshash kuzatuv birliklari bir guruhda jamlanadi. So'ngra har bir qatlam ichida, odatda, oddiy tasodifiy tanlash usuli qo'llaniladi. Beysbol maoshlariga oid misolda, jamoalarni qatlam sifatida qarash mumkin, chunki ba'zi jamoalarda boshqalarnikidan to'rt baravar ko'p mablag' mavjud. Shunda har bir jamoadan tasodifiy tarzda 4 nafar o'yinchini tanlab, jami 120 nafar o'yinchini olish mumkin.

Qatlamli tanlash ayniqsa shunda foydali bo'ladi – agar har bir qatlam ichidagi kuzatuv birliklari natija o'zgaruvchisi nuqtai nazaridan bir-biriga juda o'xshash bo'lsa. Biroq, bu usulning kamchiligi shundaki, qatlamli tanlov orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish oddiy tasodifiy tanlovdagi tahlilga qaraganda murakkabroq bo'ladi. Shu sababli, ushbu kitobda keltirilgan tahlil usullarini qatlamli tanlov ma'lumotlariga tatbiq etish uchun kengaytirish talab qilinadi.

Ⓜ **1.14-MISOL**

Nima uchun har bir qatlam ichidagi kuzatuv birliklari bir-biriga juda o'xshash bo'lishi foydali?

Agar qatlam ichidagi kuzatuv birliklari bir-biriga juda o'xshash bo'lsa, u holda biz shu qatlam (ya'ni kichik bosh to'plam) uchun barqarorroq baho olishimiz mumkin bo'ladi. Bu esa har bir guruh ichida aniqroq statistik baholar bo'lishiga olib keladi. So'ngra biz ushbu aniq baholarni yagona umumiy bahoga birlashtirganimizda, bosh to'plam uchun yakuniy baho ham yanada aniqlik bilan ifodalanadi, chunki har bir guruhning o'z bahosi allaqachon aniq hisoblangan bo'ladi.

Klasterli tanlash usulida bosh to'plam ko'plab guruhlarga – **klaster**larga bo'linadi. So'ngra ma'lum miqdordagi klasterlar tasodifiy tanlab olinadi va ularning har biridagi barcha kuzatuv birliklari tanlanmaga kiritiladi. **Ko'p bosqichli tanlash** esa klaster tanlashga o'xshash, biroq bunda har bir tanlangan klaster ichidagi barcha kuzatuvlarni emas, balki har bir klaster ichidan yana tasodifiy kichik tanlov olish amalga oshiriladi.


Ba'zan klasterli yoki ko'p bosqichli tanlash usullari boshqa tanlash usullariga nisbatan iqtisodiy jihatdan tejamkorroq bo'lishi mumkin. Shuningdek, qatlamli tanlashdan farqli ravishda, bu yondashuvlar klaster ichidagi kuzatuv birliklari o'rtasida katta farqlar mavjud bo'lganda, ammo klasterlarning o'zaro farqi uncha katta bo'lmaganda eng samarali natija beradi. Masalan, agar mahallalar klaster sifatida qaralsa, unda klasterli yoki ko'p bosqichli tanlash usullari mahallalar ichida turli xil aholi guruhlari mavjud bo'lganda eng yaxshi ishlaydi. Biroq, bu usullarning kamchiligi shundaki, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun odatdagidan murakkabroq statistik usullar talab qilinadi. Shunga qaramay, ushbu kitobda keltirilgan tahlil usullari bunday ma'lumotlarni ham qayta ishlashga moslashtirilishi mumkin.

Ⓜ **1.15-MISOL**

Faraz qilaylik, biz Indoneziyaning tropik o'rmonlaridagi qishloq hududida bezgak bilan kasallanish darajasini baholashni xohlaymiz. Bizga ma'lumki, bu hududda 30 ta qishloq mavjud bo'lib, ularning har biri taxminan bir-biriga o'xshash. Bizning maqsadimiz – 150 nafar kishini bezgakka tekshirishdir. Qaysi tanlash usulidan foydalanish kerak?

Oddiy tasodifiy tanlov natijasida ehtimol barcha 30 ta qishloqdan odamlar tanlanadi, bu esa ma'lumot to'plashni juda qimmat va mashaqqatli qiladi. Qatlamli tanlash esa murakkab bo'ladi, chunki o'xshash shaxslar qatlamlarini qanday tuzishni aniqlash qiyin. Biroq, klasterli yoki ko'p bosqichli tanlash bu holatda juda yaxshi g'oya bo'lishi mumkin. Agar biz ko'p bosqichli tanlash

tashqari, yuqori aholi zichligi ko'chmas mulk narxining oshishiga olib keladi, bu esa ko'plab aholi uchun uy sotib olishni imkonsiz holga keltiradi.



1.15-rasm. Klasterli tanlash va ko'p bosqichli tanlashga misollar. Yuqoridagi holatda – klasterli tanlash qo'llanilgan. Ma'lumotlar to'plami to'qqizta klasterga ajratilgan, ulardan uchtasi tanlab olingan va ushbu uchta klaster ichidagi barcha kuzatuv birliklari tanlanmaga kiritilgan. Quyidagi holatda esa – ko'p bosqichli tanlash qo'llanilgan bo'lib, u klaster tanlashdan faqat bitta jihat bilan farq qiladi. Ya'ni har bir tanlangan klaster ichida barcha kuzatuvlarni o'lchash o'rniga, klasterning tasodifiy kichik qismi tanlovga kiritiladi.

usulini qo‘llasak, avvalo 30 ta qishloqdan yarmini tasodifiy tanlaymiz, so‘ngra har bir tanlangan qishloqdan 10 kishini tasodifiy tanlaymiz. Bu yondashuv ma’lumot yig‘ish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va klasterli tanlash asosida olingan tanlov bizga ishonchli natijalar beradi. Faqat shuni yodda tutish kerakki, bu holatda ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ushbu kitobda ko‘rib chiqilgan oddiy usullardan biroz murakkabroq tahlil usullarini qo‘llash talab qilinadi.

Mashqlar

1.13 Havoning ifloslanishi va tug‘ilish natijalari, xulosa doirasi. 1.3-mashqda Janubiy Kaliforniyada havoning ifloslanishi va muddatidan oldin tug‘ilishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun ma’lumot yig‘ilgan tadqiqotni tanishtiradi. Tadqiqot davomida havo ifloslanishi darajalari havo sifatini kuzatish stansiyalari tomonidan o‘lchandi. 1989 yildan 1993 yilgacha bo‘lgan 143196 ta tug‘ilish bo‘yicha homiladorlikning davomiyligi haqidagi ma’lumotlar yig‘ildi va har bir tug‘ilish bo‘yicha havo ifloslanishining homiladorlik davriga ta’siri baholandi.

(a) Ushbu tadqiqotda o‘rganilayotgan bosh to‘plam va tanlanmani aniqlang.

(b) Tadqiqot natijalari bosh to‘plamga umumlashtirilishi va natijalar sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi yoki yo‘qligini izohlang.

1.14 Aldovchilar, xulosa doirasi. 1.5-mashqda halollik, yosh va o‘z-o‘zini boshqarish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan tadqiqotni tanishtiradi. Tadqiqotchilar 5 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan 160 nafar bolalarda eksperiment o‘tkazishdi. Bolalardan har biri o‘z xonasida adolatli tanga tashlab, natijani yozib olishni so‘rashdi (oq yoki qora). Oq rangni bildirganlarga mukofot berilishi aytildi. Bolalarning yarmi aldashni taqiqlash haqida aniq ko‘rsatma oldi, qolgan yarmi esa hech qanday aniq ko‘rsatma olmadi.

(a) Ushbu tadqiqotda o‘rganilayotgan bosh to‘plam va tanlanmani aniqlang.

(b) Tadqiqot natijalari bosh to‘plamga umumlashtirilishi va natijalar sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi yoki yo‘qligini izohlang.

1.15 Buteyko usuli, xulosa doirasi. 1.4-mashqda Buteyko chuqur nafas olish usulini astma alomatlarini kamaytirish va hayot sifatini yaxshilashda foydalanish tadqiqotini tanishtiradi. Ushbu tadqiqot doirasida astmani davolash uchun dori-darmonga tayanadigan 18-69 yoshdagi 600 nafar astma bemorlari yollandi va tasodifiy ravishda ikki guruhga bo‘lindi. Biri Buteyko usulini qo‘lladi, ikkinchisi esa qo‘llamadi. Buteyko guruhidagi ishtirokchilar, o‘rtacha, astma alomatlarida sezilarli kamayish va hayot sifatining yaxshilanishini boshdan kechirishdi.

(a) Ushbu tadqiqotda o‘rganilayotgan bosh to‘plam va tanlanmani aniqlang.

(b) Tadqiqot natijalari bosh to‘plamga umumlashtirilishi va natijalar sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi yoki yo‘qligini izohlang.

1.16 O‘g‘rilar, xulosa doirasi. 1.6-mashqda ijtimoiy-iqtisodiy sinf va axloqsizlik xulq-atvori o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan tadqiqotni tanishtiradi. Ushbu tadqiqot doirasida Kaliforniya Universitetining 129 nafar talabasi o‘zlarini yuqori yoki past ijtimoiy sinfga mansub ekanligini aniqlash uchun o‘zlarining moliyaviy holati, ta’lim darajasi va lavozimiga taqqoslashdi. Ularga bolalar laboratoriyasi uchun mo‘ljallangan qandlar berildi va ular xohlasa, qandlarni olishlari mumkinligi aytildi. Tadqiqot natijalari yuqori sinfga mansub bo‘lganlarning boshqalarga qaraganda ko‘proq qand olganligini ko‘rsatdi.

(a) Ushbu tadqiqotda o‘rganilayotgan bosh to‘plam va tanlanmani aniqlang.

(b) Tadqiqot natijalari bosh to‘plamga umumlashtirilishi va natijalar sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi yoki yo‘qligini izohlang.

1.17 Ishdan keyingi dam olish. Umumiy Ijtimoiy So‘rov (General Social Survey) “O‘rtacha ish kunidan keyin qancha vaqt dam olish yoki o‘zingizni qiziqtirgan faoliyat bilan shug‘ullanishga vaqt topasiz?” degan savolni 1155 nafar tasodifiy amerikaliklar tanlanmasi orasida so‘raldi. O‘rtacha dam olish vaqti 1,65 soat ekanligi aniqlandi. Quyidagilardan qaysi biri kuzatuv, o‘zgaruvchi, tanlanma statistikasi yoki bosh to‘plam parametri ekanligini aniqlang.

(a) Tanlanmadagi bir amerikalik;

(b) O‘rtacha ish kunidan keyin dam olish soatlari;

(c) 1,65;

(d) Barcha amerikaliklarning o‘rtacha ish kunidan keyin dam olish vaqti.

1.18 YouTubedagi mushuklar. Faraz qiling, YouTubedagi videolarning qanchasi mushuklar haqida ekanligini baholamoqchisiz. YouTubedagi barcha videolarni tomosha qilish imkonsiz bo'lganligi sababli, siz tasodifiy video tanlovchidan foydalanib, 1000 ta video tanlaysiz. Ushbu videolarning 2% i mushuklar haqida ekanligini aniqlaysiz. Quyidagilarning qaysi biri kuzatuv, o'zgaruvchi, tanlama statistikasi (kuzatilgan tanlama asosida hisoblangan qiymat) yoki bosh to'plam parametri ekanligini aniqlang.

(a) YouTubedagi barcha videolarning mushuklar haqida ekanligi foizi;

(b) 2%;

(c) Tanlangan bir video;

(d) Video mushuklar haqida ekanligi yoki yo'qligi.

1.19 Kursdan qoniqish bo'limlar bo'yicha. Katta hajmli kollej darsida 160 nafar talaba qatnashadi. Barcha 160 talaba ma'ruzada birga qatnashadi. Lekin ular 4 ta guruhga (har bir guruhda 40 nafar talaba) bo'linadi. Laboratoriya bo'limlari turli o'qituvchi yordamchilari tomonidan olib boriladi. Professor talabalarni kursdan qanchalik qoniqish darajasi haqida so'rovnoma o'tkazmoqchi. Talabalar bo'limlari ularning umumiy qoniqishiga ta'sir qilishi mumkin deb hisoblaydi.

(a) Bu qanday tadqiqot turi?

(b) Ushbu tadqiqotni o'tkazish uchun tanlanma olish strategiyasini taklif qiling.

1.20 Yotoqxona bo'yicha turar-joy takliflari . Katta kollej kampusida birinchi kurs talabalari va ikkinchi kurs talabalari kampusning sharqiy qismidagi yotoqxonalarda yashaydi. Uchinchi kurs va to'rtinchi kurs talabalari esa kampusning g'arbiy qismidagi yotoqxonalarda yashaydi. Kollej ma'muriyati tomonidan taklif etilayotgan yangi yotoqxona tuzilishi haqida talabalar fikrini yig'ishni xohlaydi. Ular barcha kurslardagi talabalar fikrlarini teng darajada ifoda etishni xohlaydilar.

(a) Bu qanday tadqiqot turi?


(b) Ushbu tadqiqotni o'tkazish uchun tanlanma olish strategiyasini taklif qiling.

1.21 Internetdan foydalanish va umr ko'rish davomiyligi. Quyidagi sochma diagrammasi 208 mamlakat bo'yicha taxminiy umr ko'rish davomiyligi (2014 yil holatiga) va internet foydalanuvchilari ulushi (2009 yil holatiga) o'rtasidagi munosabatni baholash uchun olib borilgan tadqiqotning bir qismi sifatida yaratilgan.[23]

(a) Umr ko'rish davomiyligi va internet foydalanuvchilari ulushi o'rtasidagi munosabatni tasvirlab bering.

(b) Bu qanday tadqiqot turi?

(c) Ushbu munosabatni tushuntirishi mumkin bo'lgan aralashuvchi o'zgaruvchini va uning potentsial ta'sirini ayting.



1.22 Stress va mushak tirishishi, I qism. Tasodifiy tanlangan sog'lom o'rta maktab o'quvchilari bilan o'tkazilgan tadqiqotda ularning stress holatida mushak tirishishini ko'proq boshdan kechirishlari aniqlangan. Tadqiqot shuningdek, stress holatida talabalarning ko'proq qahva ichishini va kamroq uxlashini qayd etgan.

(a) Bu qanday tadqiqot turi?

(b) Ushbu tadqiqot stressning oshishi va mushak tirishishi o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatini aniqlash uchun ishlatilishi mumkinmi?

(c) Stressning oshishi va mushak tirishishi o'rtasidagi kuzatilgan munosabatni tushuntirishi mumkin bo'lgan aralashuvchi o'zgaruvchilarni ayting.

1.23 Tanlanma olish usullarini baholash. Universitet talabalarning yangi talabalar uyushmasini yaxshilash uchun taklif qilingan $25 yillik to'lovni qo'llab-quvvatlash ulushini aniqlamoqchi. Quyida taklif qilingan usullarni ko'rib chiqib, ularning asosli yoki asossiz ekanligini belgilang:

(a) 500 talabadan iborat oddiy tasodifiy tanlanmani so'rovnoma qiling.

(b) Talabalarni ularning o'qish yo'nalishlari bo'yicha qatlamlang, so'ngra har bir qatlamdan 10% talabani tanlang.

[23] CIA Factbook, Country Comparisons, 2014.

(c) Talabalarni yoshi bo‘yicha klasterlang (masalan, 18 yoshdagilar bitta klasterda, 19 yoshdagilar bitta klasterda va h.k.), so‘ngra uchta klasterni tasodifiy tanlab, ushbu klasterlardagi barcha talabalardan so‘rovnoma qiling.

1.24 Tasodifiy raqamlar bilan qo‘ng‘iroq qilish. Gallup Poll Amerikadagi barcha hududiy kodlar ro‘yxatiga va har bir hududiy koddagi yashash xonadonlari soniga asoslangan holda telefon raqamlarini yaratadigan tasodifiy raqamlar bilan qo‘ng‘iroq qilish usulidan foydalanadi. Gallup Poll telefon raqamlarini telefon kitobidan tanlash o‘rniga, nega tasodifiy raqamlar bilan qo‘ng‘iroq qilish usulini tanlayotganiga mumkin bo‘lgan sababni ko‘rsating.

1.25 Nafrat qiluvchilar doim nafratlanadi, tadqiqot tasdiqlaydi. *Journal of Personality and Social Psychology* jurnalida e’lon qilingan tadqiqotda tasodifiy tanlangan 200 nafar erkak va ayoldan iborat guruh turli mavzular, masalan, kamping, sog‘liqni saqlash, arxitektura, taksidekmiya, krossvordlar va Yaponiya haqidagi fikrlarini o‘rganish uchun so‘ralgan. So‘ngra ishtirokchilarga yangi mahsulot – mikroto‘lqinli pech haqida ma’lumot taqdim etilgan. Ushbu mikroto‘lqinli pech aslida mavjud emas, lekin ishtirokchilar bundan xabardor emas edilar va ularga uchta ijobiy va uchta salbiy soxta sharhlar berildi. Dispozitsion munosabatni o‘lchashda ijobiy javob berganlar mikroto‘lqinli pechga ham ijobiy munosabat bildirishga moyil bo‘lgan, salbiy munosabat bildirganlar esa salbiy munosabat ko‘rsatgan. Tadqiqotchilar quyidagicha xulosaga kelishdi: “ba’zi odamlar narsalarni yoqtirishga moyil, boshqalari esa yoqtirmaslikka moyil va ushbu tendensiyani chuqurroq tushunish munosabatlar psixologiyasini yaxshiroq tushunishga olib keladi.”[24]

(a) Ishtirokchilar kimlar?

(b) Ushbu tadqiqotdagi javob o‘zgaruvchisi (lari) nima?

(c) Ushbu tadqiqotdagi izohlovchi o‘zgaruvchi(lar) nima?

(d) Ushbu tadqiqot tasodifiy tanlanma olishni qo‘llayaptimi?

(e) Bu kuzatuv tadqiqotimi yoki eksperiment? Sababini tushuntiring.

(f) Izohlovchi va javob o‘zgaruvchilari o‘rtasida sabab-oqibat aloqasini aniqlash mumkinmi?

(g) Ushbu tadqiqot natijalarini keng aholi qatlamiga umumlashtirish mumkinmi?

1.26 Oila hajmi. Faraz qilaylik, biz “uy xo‘jaligi”ni bir joyda birga yashaydigan va yashash joylarini baham ko‘radigan odamlar deb aniqlab, ularning hajmini baholamoqchimiz. Agar biz tasodifiy ravishda boshlang‘ich maktabdagi o‘quvchilarni tanlab, ulardan oila hajmlari haqida so‘rasak, bu uy xo‘jaligi hajmini yaxshi o‘lchovi bo‘ladimi? Yoki bizning o‘rtacha qiymatimiz noto‘g‘ri bo‘ladimi? Agar shunday bo‘lsa, bu haqiqiy qiymatdan yuqori yoki past baholanadimi?

1.27 Tanlanma olish strategiyalari. Ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazilgan vaqt va o‘quvchilarni o‘qishdagi muvaffaqiyati o‘rtasidagi munosabatga qiziqqan statistik talaba tadqiqot o‘tkazishga qaror qiladi. Ma’lumotlarni to‘plash uchun turli tadqiqot strategiyalari quyida tavsiflangan. Har birida, taklif qilingan tanlanma olish usulini aniqlang va kutilishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri talqinlarni belgilang.

(a) U tadqiqot bosh to‘plamidan tasodifiy 40 ta talaba tanlab, ularga so‘rovnoma beradi va uni ertasi kuni to‘ldirib olib kelishni so‘raydi.

(b) U faqat o‘z do‘stlariga so‘rovnoma tarqatadi va har biri uni to‘ldirishiga ishonch hosil qiladi.

(c) U Facebookda onlayn so‘rovnoma havolasini joylashtiradi va do‘stlaridan uni to‘ldirishlarini so‘raydi.

(d) U tasodifiy ravishda 5 ta sinfni tanlaydi va o‘sha sinflardan tasodifiy talabalardan so‘rovnomani to‘ldirishni so‘raydi.

1.28 Gazeta maqolalarini o‘qish. Quyida *NY Times* gazetasida chop etilgan ikkita maqoladan parchalar keltirilgan:

(a) *“Xavflar: Chekuvchilarda demensiya rivojlanishi ehtimoli yuqoriroq”* nomli maqolada quyidagilar aytiladi:[25]

> “Tadqiqotchilar 1978–1985 yillarda ixtiyoriy tibbiy ko‘rik va sog‘liqni saqlash xulqi bo‘yicha so‘rovda qatnashgan, yoshi 50–60 yosh oralig‘ida bo‘lgan sog‘liqni saqlash rejasi ishtirokchilari — jami 23123 kishi — haqidagi ma’lumotlarni tahlil qildilar. 23 yil o‘tgach, guruh a’zolarining qariyb 25% ida demensiya aniqlangan, jumladan 1136 nafarida Altsgeymer kasalligi va 416 nafarida tomir (vaskulyar) demensiya qayd etilgan. Boshqa omillarni inobatga olgan holda tadqiqotchilar kuniga bir quti sigaret chekuvchilarda demensiya rivojlanish ehtimoli chekmaydiganlarga nisbatan 37% yuqori degan xulosaga keldilar va chekish kuchaygani sari xavf ham ortgan: kuniga bir-bir yarim quti chekadiganlar uchun 44%, kuniga ikki qutidan ko‘p chekuvchilar uchun esa xavf ikki baravar yuqori.”

[24] Justin Hepler and Dolores Albarracín. “Attitudes without objects - Evidence for a dispositional attitude, its measurement, and its consequences”. In: *Journal of personality and social psychology* 104.6 (2013), p. 1060.

[25] R.C. Rabin. “Risks: Smokers Found More Prone to Dementia”. In: *New York Times* ().

Ushbu tadqiqotga asoslanib, chekish keyinchalik demensiyaga olib keladi, ya'ni demensiyaga sabab bo'ladi, degan xulosaga kelishimiz mumkinmi? O'zingizning fikr-mulohazalaringizni tushuntirib bering.

(b) *Maktab bezorisi uyquchan* nomli boshqa maqolada quyidagilar keltirilgan:[26]

> "Michigan universiteti tadqiqotida har bir bolaning uyqu odatlari haqida ota-onalardan so'rov ma'lumotlari yig'ildi va ota-onalar ham, o'qituvchilar ham bolalarning xulq-atvoridagi muammolarni baholashlari so'raldi. O'rganilgan o'quvchilarning qariyb uchdan bir qismi ota-onalar yoki o'qituvchilar tomonidan tartibni buzuvchi xulq yoki bezorilik (bullying) muammolariga ega deb aniqlangan. Tadqiqotchilar xulq-atvor muammolari bor, shuningdek bezori sifatida aniqlangan bolalarda uyqu buzilishlari alomatlari ikki baravar ko'proq uchrashini aniqladilar."

Ushbu maqolani o'qigan do'stingiz shunday deydi: "Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, uyqu buzilishlari maktab o'quvchilarida bezorilikka olib keladi." Bu bayonot asoslimi? Agar yo'q bo'lsa, ushbu tadqiqotdan chiqarish mumkin bo'lgan xulosani qanday qilib eng to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan ifodalash mumkinligini tushuntirib bering.

1.4 Eksperimentlar

Tadqiqotchilar davolash usullarini kuzatuv birligiga o'zlari tayinlaydigan tadqiqotlar **eksperiment**lar deb ataladi. Agar bu tayinlash tasodifiylashtirishni, masalan, bemorga qaysi davolashni olishni aniqlash uchun tanga tashlashni o'z ichiga olsa, bu **tasodifiylashtirilgan eksperiment** deb ataladi. Tasodifiylashtirilgan eksperimentlar ikki o'zgaruvchi o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishini ko'rsatishda juda muhimdir.

1.4.1 Eksperiment dizayni tamoyillari

Tasodifiylashtirilgan eksperimentlar odatda to'rtta tamoyilga asoslanadi.

Nazorat. Tadqiqotchilar davolashni kuzatuv birliklariga taqsimlaydilar va guruhlar o'rtasidagi boshqa farqlarni imkon qadar **nazorat** qilishga harakat qiladilar.[27] Masalan, bemorlar dori-darmonlarni tabletka shaklida qabul qilganda, ba'zi bemorlar tabletkani faqat bir qultum suv bilan ichsa, boshqalari esa to'liq bir stakan suv bilan ichishi mumkin. Suv iste'molining ta'sirini nazorat qilish uchun shifokor barcha bemorlardan tabletkani 12 untsiyali stakan bilan ichishni so'rashi mumkin.


Tasodifiylashtirish. Tadqiqotchilar nazorat qilib bo'lmaydigan o'zgaruvchilarni hisobga olish uchun bemorlarni tasodifiy ravishda davolash guruhlariga taqsimlaydi. Masalan, ba'zi bemorlar o'zlarining ovqatlanish odatlari tufayli kasallikka boshqalarga qaraganda ko'proq moyil bo'lishi mumkin. Bemorlarni davolash yoki nazorat guruhlariga tasodifiy ravishda ajratish bunday farqlarni bartaraf etishga yordam beradi va tadqiqotga tasodifiy xatolar kirishining oldini oladi.

Replikatsiya. Tadqiqotchilar qancha ko'p holatlarni kuzatsa, izohlovchi o'zgaruvchining javob o'zgaruvchiga ta'sirini shunchalik aniq baholashlari mumkin. Yagona tadqiqotda biz yetarlicha katta tanlanma yig'ish orqali **replikatsiya** qilamiz. Bundan tashqari, olimlar guruhi avvalgi natijani tasdiqlash uchun butun bir tadqiqotni qayta o'tkazishi mumkin.

Bloklash. Tadqiqotchilar ba'zida davolashdan tashqari boshqa o'zgaruvchilarning javob o'zgaruvchiga ta'sir qilishini biladi yoki gumon qiladi. Bunday holatlarda ular avval shaxslarni ushbu o'zgaruvchiga asoslangan holda **bloklar**ga guruhlab, keyin har bir blok ichidagi holatlarni davolash guruhlariga tasodifiy ravishda ajratishi mumkin. Ushbu strategiya odatda **bloklash** deb ataladi. Masalan, agar biz dori yurak xurujlariga qanday ta'sir qilishini o'rganayotgan bo'lsak, tadqiqotdagi bemorlarni avval past xavf va yuqori xavf bloklariga ajratamiz, so'ngra har bir blokdagi bemorlarning yarmini nazorat guruhiga va qolgan yarmini davolash guruhiga tasodifiy ajratamiz. Bu 1.16-rasmda ko'rsatilgan. Ushbu strategiya har bir davolash guruhida past xavf va yuqori xavf toifalaridan teng sonli bemorlar mavjud bo'lishini ta'minlaydi.

[26] T. Parker-Pope. "The School Bully Is Sleepy". In: *New York Times* (June 2, 2011).

[27] Bu *nazorat guruhi* tushunchasidan farq qiladi, bu ikkinchi tamoyilda va 1.4.2-bo'limda muhokama qilinadi.



1.16-rasm. Bemor xavfi ko‘rsatadigan o‘zgaruvchini bloklash. Bemorlar avval past xavf va yuqori xavf bloklariga ajratiladi, so‘ngra har bir blok ichidagi holatlar davolash guruhlariga tasodifiy ravishda ajratiladi. Ushbu strategiya har bir davolash guruhida past xavf va yuqori xavf toifalaridan teng sonli bemorlarning vakillik qilishini ta’minlaydi.

Eksperiment dizaynining birinchi uchta tamoyilini har qanday tadqiqotga qo'shish muhimdir. Ushbu kitob bunday eksperimentlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qo'llaniladigan usullarni tavsiflaydi. Bloklash esa biroz ilg'or texnikadir va ushbu kitobda kiritilgan statistik usullar bloklash yordamida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun kengaytirilishi mumkin.

1.4.2 Insoniy eksperimentlarda xatolikni kamaytirish

Tasodifiylashtirilgan eksperimentlar ma'lumot yig'ishning oltin standarti hisoblanadi, ammo ular barcha hollarda sabab va ta'sir munosabatiga xolis qarashni ta'minlamaydi. Insoniy tadqiqotlar xatolik kutilmagan tarzda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mukammal misollar hisoblanadi. Bu yerda yurak xuruji bemorlarini davolash uchun yangi doridan foydalanilgan tadqiqotni qayta ko'rib chiqamiz. Xususan, tadqiqotchilar dorining bemorlardagi o'limni kamaytirishini bilishni xohlashadi.

Tadqiqotchilar asosli xulosalarni chiqarish uchun tasodifiylashtirilgan eksperimentni rejalashtirgan. Tadqiqot ishtirokchilari[28] tasodifiy ravishda ikkita tadqiqot guruhiga joylashtirilgan. Bir guruh, **davolash guruhi**, dori qabul qilgan. Ikkinchi guruh, **nazorat guruhi**, hech qanday dori qabul qilmagan.

O'zingizni ushbu tadqiqotdagi bir ishtirokchining o'rnida tasavvur qiling. Agar siz davolash guruhida bo'lsangiz, sizga yordam beradi deb kutilayotgan yangi dorini olasiz. Boshqa tomondan, nazorat guruhidagi odam hech qanday dori olmaydi. Shuningdek, uning ishtiroki o'lim xavfini oshirmasligiga umid qiladi. Ushbu qarashlar shuni ko'rsatadiki, aslida ikki ta'sir mavjud: biri dorining samaradorligi, ikkinchisi esa miqdor jihatidan ifodalash qiyin bo'lgan hissiy ta'sir.

Tadqiqotchilar odatda hissiy ta'sirga qiziqmaydi, chunki u tadqiqotga xatolik olib kelishi mumkin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tadqiqotchilar bemorlarning qaysi guruhda ekanliklarini bilmasliklarini ta'minlashni xohlashadi. Agar tadqiqotchilar bemorlarni davolash bo'yicha xabardor qilmasalar, tadqiqot **ko'r** deb ataladi. Ammo bu yerda bir muammo bor. Agar bemor davo olmasa, u nazorat guruhida ekanligini biladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun tadqiqotchilar nazorat guruhidagi bemorlarga soxta davolash beradi. Soxta davolash **plasebo** deb ataladi va samarali plasebo tadqiqotni haqiqatan ham ko'r qilishning kaliti hisoblanadi. Plasebo uchun klassik misol - asl dori tabletkasiga o'xshab tayyorlangan shakar tabletkasidir. Ko'pincha, plasebo bemorlarda biroz, ammo haqiqiy yaxshilanishga olib keladi. Ushbu ta'sir **plasebo ta'siri** deb ataladi.

Bemorlar ko'r bo'lishi kerak bo'lgan yagona odamlar emas. Shifokorlar va tadqiqotchilar ham tasodifan tadqiqotga xatolik olib kelishi mumkin. Agar shifokor bemorga haqiqiy davo berilganini bilsa, u bemorga plasebo olgan bemorga qaraganda ko'proq e'tibor yoki yordam ko'rsatishi mumkin. Ushbu xatolikni oldini olish uchun, bu holat ba'zi holatlarda o'lchovli ta'sirga ega ekanligi aniqlangan, aksariyat zamonaviy tadqiqotlar **ikki tomonlama ko'r** tuzilmani qo'llaydi. Bunda bemorlar bilan ishlaydigan shifokorlar yoki tadqiqotchilar bemorlarning qaysi biri davo olganini bilmaydi.[29]

Y **1.16-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

1.1-bo'limdagi tadqiqotni, ya'ni tadqiqotchilar stentlarning xavf ostidagi bemorlarda insultni kamaytirishda samaradorligini sinab ko'rishganini qayta ko'rib chiqing. Bu eksperimentmi? Tadqiqot ko'r holda o'tkazilganmi? Ikki tomonlama ko'r bo'lganmi?[30]

Y **1.17-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

1.1-bo'limdagi tadqiqot uchun tadqiqotchilar plasebo qo'llagan bo'lishi mumkinmi? Agar shunday bo'lsa, ushbu plasebo qanday ko'rinishda bo'lar edi?[31]

Siz 1.17-yo'naltirilgan mashqdagi soxta operatsiyalar yordamida plasebo yaratish haqidagi fikrni o'qiganingizdan so'ng, ushbu usulning etikasi haqida ko'p savollar paydo bo'lishi mumkin. Ushbu savollar, nazorat guruhidagi shaxslarga foydali bo'lishi mumkin bo'lgan davoni bermaslik umu-

[28] Insoniy subyektlar ko'pincha **bemorlar**, **ko'ngillilar** yoki **tadqiqot ishtirokchilari** deb ataladi.

[29] Tadqiqotda qatnashgan bemorlarning qaysi biri qaysi davoni qabul qilganini biladigan tadqiqotchilar doimo mavjud. Ammo ular tadqiqotning bemorlari bilan aloqa qilmaydi va plasebo yoki haqiqiy davoni qabul qilgan bemorlar haqida ko'r shifokorlarga xabar bermaydi.

[30] Tadqiqotchilar bemorlarni davolash guruhlariga taqsimlagan, shuning uchun bu tadqiqot eksperiment hisoblanadi. Ammo, bemorlar qanday davolash olganini bilganlari uchun, bu tadqiqot ko'r holda o'tkazilmagan. Tadqiqot ikki tomonlama ko'r bo'lishi mumkin emas edi, chunki u ko'r emas edi.

[31] Oxir-oqibat, biz bemorlarga ularga operatsiya qilinib, davolangan deb o'ylashlariga erisha olamizmi? Aslida, biz buni uddalay olamiz va ba'zi eksperimentlarda **soxta operatsiya** deb ataladigan usuldan foydalaniladi. Soxta operatsiyada bemorga operatsiya qilinadi, ammo bemor to'liq davoni olmaydi, garchi ularda plasebo ta'siri paydo bo'lishi mumkin.

miy tajriba sharoitida ham paydo bo‘lishi mumkin edi; asosiy farq shundaki, soxta operatsiyalar qo‘shimcha xavf tug‘diradi, davoni bermaslik esa insonning xavfini ushlab turadi.

Eksperimentlar va plasebolarning har doim ko‘p nuqtai nazarlari mavjud va qaysi biri etik jihatdan “to‘g‘ri” ekanligi kamdan-kam hollarda aniq bo‘ladi. Masalan, soxta operatsiya bemor uchun xavf tug‘diradigan holatlarda undan foydalanish yaxshimi? Ammo, agar biz soxta operatsiyalardan foydalanmasak, hech qanday haqiqiy ta’sir ko‘rsatmaydigan qimmat davoni targ‘ib qilamiz. Agar bu sodir bo‘lsa, mablag‘lar va boshqa resurslar mavjud davolash usullaridan chalg‘itiladi va resurslar boshqa bemorlar foydasi uchun ishlatilishi mumkin. Oxir-oqibat, qiyin vaziyatda tadqiqot uchun ko‘ngilli bemorlarni va kelajakda davoni qabul qilishi mumkin bo‘lgan bemorlarni mukammal himoya qilish imkonsizdir.

Mashqlar

1.29 Yoritish va imtihon natijalari. Bir tadqiqot yoritish darajasining talabalar imtihon natijalariga ta’sirini tekshirish uchun mo‘ljallangan. Tadqiqotchi yoritish darajalari erkaklar va ayollarga turlicha ta’sir qilishi mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun har ikki jins teng vakillikka ega bo‘lishini ta’minlashni xohlaydi. Davolashlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: floresan shift yoritgichi, sariq shift yoritgichi va shift yoritgichsiz (faqat stol chiroqlari).

(a) Javob o‘zgaruvchisi nima?

(b) Izohlovchi o‘zgaruvchi nima? Uning darajalari qanday?

(c) Bloklash o‘zgaruvchisi nima? Uning darajalari qanday?

1.30 Vitamin qo‘shimchalari. Oddiy shamollash davomiyligini qisqartirishda yuqori dozada C vitamini qabul qilish samaradorligini baholash uchun tadqiqotchilar universitetning xodimlari va talabalari orasidan 400 nafar sog‘lom ko‘ngillilarni yollashdi. Bemorlarning chorak qismi plasebo qabul qildi, qolganlari teng ravishda 1g C vitamini, 3g C vitamini yoki 3g C vitamini qo‘shimchalar bilan shamollash boshlanganidan keyingi ikki kun davomida qabul qilishga bo‘lingan. Barcha tabletkalar ko‘rinishi va o‘rami bo‘yicha bir xil edi. Belgilangan tabletkalarni bemorlarga tarqatgan hamshiralar qaysi bemorga qaysi davolashni olishini bilishardi, ammo bemorlarni kasal bo‘lganda baholagan tadqiqotchilar buni bilishmagan. Shamollash davomiyligi yoki og‘irligining hech bir o‘lchovi bo‘yicha to‘rt guruh orasida sezilarli farq aniqlanmadi va plasebo guruhi eng qisqa simptom davomiyligiga ega edi.[32]

(a) Bu eksperimentmi yoki kuzatuv tadqiqotmi? Nima uchun?

(b) Ushbu tadqiqotdagi izohlovchi va javob o‘zgaruvchilari qanday?

(c) Bemorlar o‘z davolaridan bexabar edimi?

(d) Ushbu tadqiqot ikki tomonlama ko‘r edimi?

(e) Ishtirokchilar o‘zlariga belgilangan tabletkalarni iste’mol qilish yoki qilmaslikni tanlashlari mumkin. Biz ularning barchasi tabletkalarni iste’mol qilishlariga umid qila olmaymiz. Bu tadqiqotga aralashuvchi o‘zgaruvchi olib keladimi? Sababini tushuntiring.

1.31 Yoritish, shovqin va imtihon natijalari. Bir tadqiqot yoritish va shovqin darajasining talabalar imtihon natijalariga ta’sirini tekshirish uchun mo‘ljallangan. Tadqiqotchi yoritish va shovqin darajalari erkaklar va ayollarga turlicha ta’sir qilishi mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun har ikki jins har bir davolashda teng vakillikka ega bo‘lishini xohlaydi. Yoritish bo‘yicha davolashlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: floresan shift yoritgichi, sariq shift yoritgichi, shift yoritgichsiz (faqat stol chiroqlari). Shovqin bo‘yicha davolashlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shovqinsiz, qurilish shovqini, insonlarning gaplashuvi.

(a) Bu qanday turdagi tadqiqot?

(b) Ushbu tadqiqotda nechta omil ko‘rib chiqilgan? Ularni aniqlang va darajalarini tavsiflang.

(c) Ushbu tadqiqotda jins o‘zgaruvchisining roli nima?

1.32 Musiqa va o‘qish. Siz talabalarning musiqa bo‘lmagan holda, faqat instrumental musiqa bilan yoki so‘zli musiqa bilan o‘qiganda yaxshiroq o‘rganishlarini aniqlash uchun sinfda eksperiment o‘tkazmoqchisiz. Ushbu tadqiqot dizaynini qisqacha tuzing.

1.33 Gazli ichimlik tanlovi. Siz sinfdoshingiz oddiy “Coca-Cola” yoki “Diet Coca-Cola” ta’mini afzal ko‘rishini aniqlash uchun eksperiment o‘tkazmoqchisiz. Ushbu tadqiqot dizaynini qisqacha tuzing.

[32] C. Audera et al. “Mega-dose vitamin C in treatment of the common cold: a randomised controlled trial”. In: *Medical Journal of Australia* 175.7 (2001), pp. 359–362.

1.34 Mashq va ruhiy salomatlik. Bir tadqiqotchi mashq qilishning ruhiy salomatlikka ta'sirini o'rganishga qiziqadi va quyidagi tadqiqotni taklif qiladi. Bosh to'plamdan 18-30, 31-40 va 41-55 yoshli guruhlardan vakillik nisbatlarini ta'minlash uchun qatlamli tasodifiy tanlashdan foydalaning. Keyin har bir yosh guruhining yarmisini haftada ikki marta mashq qilish uchun tasodifiy tanlang va qolganlarini mashq qilmaslikka ko'rsatma bering. Tadqiqot boshida va oxirida ruhiy salomatlik bo'yicha tekshiruv o'tkazing va natijalarni taqqoslang.

(a) Bu qanday turdagi tadqiqot?

(b) Ushbu tadqiqotda davolash va nazorat guruhlari qanday?

(c) Ushbu tadqiqotda bloklashdan foydalanilganmi? Agar shunday bo'lsa, bloklash o'zgaruvchisi nima?

(d) Ushbu tadqiqotda ko'r qilishdan foydalanilganmi?

(e) Ushbu tadqiqot natijalari mashq va ruhiy salomatlik o'rtasida sababli bog'liqlikni o'rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi? Natijalar umumiy bosh to'plamga nisbatan umumlashtirilishi mumkinmi?

(f) Ushbu taklif etilgan tadqiqotni moliyalashtirishga ruxsat berish yoki bermaslik mas'uliyati sizga topshirilgan deb tasavvur qiling. Ushbu tadqiqot taklifi haqida qandaydir shubhalaringiz bormi?

Bob bo'yicha mashqlar


1.35 Uy hayvonlari ismlari. Vashington shtati, Sietl shahrining ochiq ma'lumotlar portali shaharda ro'yxatdan o'tgan uy hayvonlarini o'z ichiga oladi. Har bir ro'yxatdan o'tgan hayvon uchun, ismi va turi haqida ma'lumotlar mavjud. Quyidagi vizualizatsiya itlarning berilgan ismli ulushi bilan bir xil ismga ega mushuklarning ulushi o'rtasidagi munosabatni tasvirlaydi. 20 ta eng keng tarqalgan mushuk va it ismlari ko'rsatilgan. Grafikdagi diagonal chiziq $x = y$ chizig'idir. Agar ism ushbu chiziqda joylashgan bo'lsa, bu ismning itlar va mushuklar orasida bir xil mashhurlikka ega ekanligini anglatadi.

(a) Ushbu ma'lumotlar eksperimentning bir qismi sifatida yig'ilganmi yoki kuzatuv tadqiqotining bir qismi sifatidami?

(b) Eng keng tarqalgan it ismi nima? Eng keng tarqalgan mushuk ismi nima?

(c) Mushuklar uchun itlarga qaraganda keng tarqalgan ismlar qaysilar?

(d) Ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi munosabat ijobiymi yoki salbiy? Bu ma'lumotlar kontekstida nimani anglatadi?



1.36 Stress holati, 2-qism. Stress va mushaklarning qisqarishi o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun tadqiqotda ishtirokchilarning yarmi tez tushib, to'satdan to'xtaydigan liftga joylashtirilgan holda yuqori stressga duchor qilindi. Qolgan yarmi esa normal yoki asosiy stress holatida qoldirildi.

(a) Bu qanday turdagi tadqiqot?

(b) Ushbu tadqiqot stressning ortishi va mushaklarning qisqarishi o'rtasida sababiy bog'liqlikni o'rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi?

1.37 Chia urug'lari va vazn yo'qotish. Chia o'simligi dastlab terakota figuralari kabi tarqalib, keyinchalik dieta qo'shimchasi sifatida mashhur bo'ldi. 2009 yilda o'tkazilgan tadqiqotda, tadqiqotchilar 38 nafar erkakni yollashdi va ularni tasodifiy ravishda ikkita guruhga: davolash va nazoratga bo'lishdi. Shuningdek, 38 nafar ayolni yollashdi va ularni ham tasodifiy ravishda davolash va nazorat guruhlariga bo'lishdi. Bitta guruhga kuniga ikki marta 25 gramm chia urug'i, boshqasiga esa plasebo berildi. Ishtirokchilar tadqiqotda ko'ngilli bo'lishdi. 12 hafta o'tgach, olimlar guruhlar o'rtasida ishtaha yoki vazn yo'qotish bo'yicha sezilarli farq yo'qligini aniqlashdi.[33]

(a) Bu qanday turdagi tadqiqot?

(b) Ushbu tadqiqotda eksperimental va nazorat davolashlari qanday?

[33] D.C. Nieman et al. "Chia seed does not promote weight loss or alter disease risk factors in overweight adults". In: *Nutrition Research* 29.6 (2009), pp. 414–418.

(c) Tadqiqotda bloklashdan foydalanilganmi? Agar shunday bo‘lsa, bloklash o‘zgaruvchisi nima?
(d) Ushbu tadqiqotda ko‘r qilish usulidan foydalanilganmi?
(e) Ushbu tadqiqot sababiy bog‘liqlikni o‘rnatish uchun ishlatilishi mumkinmi? Natijalarni umumiy bosh to‘plamga tatbiq qilish mumkinmi?

1.38 Shahar kengashi so‘rovi. Shahar kengashi o‘z shaharining shahar atrofi hududida uy xo‘jaliklari so‘rovini o‘tkazishni talab qildi. Hudud ko‘plab o‘ziga xos va noyob mahallalarga bo‘lingan, ba’zilari katta uylarni, ba’zilari faqat kvartiralarni va boshqalari turli xil uy-joy turlarini o‘z ichiga oladi. Quyida har bir qismda keltirilgan usullarni aniqlang va ushbu usullarning statistik afzallik va kamchiliklarini shahar kontekstida tavsiflang.


(a) Shahar bo‘ylab tasodifiy ravishda 200 ta uy xo‘jaliklarini tanlang.
(b) Shaharning 20 ta mahallasini aniqlang va har bir mahalladan 10 ta uy xo‘jaliklarini tanlang.
(c) Shaharning 20 ta mahallasini aniqlang, ulardan tasodifiy ravishda 3 tasini tanlang va ushbu 3 ta mahalladagi barcha uy xo‘jaliklarini tanlang.
(d) Shaharning 20 ta mahallasini aniqlang, ulardan tasodifiy ravishda 8 tasini tanlang va ushbu mahallalardan tasodifiy ravishda 50 ta uy xo‘jaliklarini tanlang.
(e) Shahar kengashi idoralariga eng yaqin 200 ta uy xo‘jaliklarini tanlang.

1.39 Xato mantiqiy xulosa chiqarish. Quyidagi vaziyatlarda xato mantiqiy xulosa chiqarishni aniqlang. Agar ushbu shaxslar shunday kuchli xulosalarni chiqarishni istagan bo‘lsalar, ular nimani boshqacha qilishlari kerakligini tushuntiring.

(a) Boshlang‘ich maktab o‘quvchilariga ota-onalari to‘ldirishlari uchun so‘rovnoma beriladi va uni qaytarib berish so‘raladi. So‘rovnomadagi savollardan biri quyidagicha: “Ish jadvalingiz maktabdan keyin farzandlaringiz bilan vaqt o‘tkazishni qiyinlashtiradimi?” Javob bergan ota-onalarning 85% i “yo‘q” deb javob beradi. Ushbu natijalarga asoslanib, maktab rasmiylari ota-onalarning katta qismi farzandlari bilan maktabdan keyin vaqt o‘tkazishda hech qanday qiyinchilik yo‘q deb xulosa qiladilar.
(b) Yaqinda tug‘ruq qilgan 1000 nafar ayoldan iborat oddiy tasodifiy tanlama ustida so‘rovnoma o‘tkazilib, ulardan homiladorlik paytida chekish-chekmasliklari so‘raladi. 3 yil o‘tgach, farzandlarida nafas olish muammolari mavjud yoki yo‘qligi haqidagi kuzatuv so‘rovi o‘tkaziladi. Biroq, ushbu ayollarning faqat 567 tasi avvalgi manzillarida topiladi. Tadqiqotchi ushbu 567 ayol barcha onalar uchun vakil ekanligini ta’kidlaydi.
(c) Ortoped shifokor 30 nafar bo‘g‘im muammosi bo‘lmagan bemorlariga so‘rovnoma tarqatadi va ulardan 20 nafari muntazam yugurish bilan shug‘ullanishini aniqlaydi. U yugurish bo‘g‘im muammolari xavfini kamaytiradi degan xulosaga keladi.

1.40 AQSh okruglarida daromad va ta’lim darajasi. Quyidagi sochma diagramma 2010 yilda AQShdagi 3143 ta okrugda jon boshiga daromad (ming dollar) va aholining bakalavr darajasiga ega bo‘lgan foizi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi.

(a) Izohlovchi va javob o‘zgaruvchilari nima?
(b) Ushbu ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi munosabatni tasvirlab bering. G‘ayrioddiy kuzatuvlar haqida gapirib o‘ting, agar mavjud bo‘lsa.
(c) Bakalavr darajasiga ega bo‘lish insonning daromadini oshiradi deb ayta olamizmi?



1.41 Yaxshi ovqatlan, o‘zingni yaxshi his qil. Yosh kattalardagi meva va sabzavot iste’molining psixologik farovonlikka ta’siri bo‘yicha ommaviy salomatlik tadqiqotida ishtirokchilar tasodifiy ravishda uchta guruhga bo‘lindi. (1) odatdagidek dieta, (2) meva va sabzavot iste’molini oshirishga qaratilgan matnli xabarlar va ularni sotib olish uchun vaucher bilan ekologik intervensiya, yoki (3) qo‘shimcha ravishda har kuni meva va sabzavotning ikki porsiyasi beriladigan intervensiya. Ishtirokchilardan smartfonlari orqali kechki so‘rovnoma o‘tkazish so‘ralgan. Ishtirokchilar Yangi Zelandiyaning Otago Universitetidagi talaba ko‘ngillilaridan iborat edi. 14 kunlik tadqiqot yakunida faqat uchinchi guruhdagi ishtirokchilarda psixologik farovonlikda yaxshilanish kuzatildi.[34]

[34]Tamlin S Conner et al. “Let them eat fruit! The effect of fruit and vegetable consumption on psychological

(a) Bu qanday tadqiqot turi?

(b) Izohlovchi va javob o'zgaruvchilarini aniqlang.

(c) Tadqiqot natijalari umumiy bosh to'plamga umumlashtirilishi mumkinmi? Izoh bering.

(d) Tadqiqot natijalari sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkinmi? Izoh bering.

(e) Tadqiqot haqida xabar beruvchi gazeta maqolasida quyidagicha yozilgan: "Tadqiqot natijalari yoshi kattalarga yangi meva va sabzavot berish qisqa vaqt ichida psixologik foyda keltirishini isbotlaydi." Ushbu bayonotni tadqiqot tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun qanday tahrir qilishni taklif qilasiz?

1.42 Ekran, o'smirlar va ruhiy salomatlik. Irlandiya, Qo'shma Shtatlar va Buyuk Britaniyadan (n = 17247) uchta milliy vakillikka ega katta hajmdagi ma'lumotlar to'plami asosida o'tkazilgan tadqiqotda 12-15 yoshdagi o'smirlardan ekran vaqtini kundalik tarzda yozib borish va ular qanday his qilishlari yoki o'zlarini qanday tutishlari haqida savollarga javob berishlari so'ralgan. Ushbu javoblar ruhiy salomatlik ballarini hisoblash uchun ishlatilgan. Tadqiqotda shuningdek, har bir bolaning jinsi va yoshi, onasining ma'lumoti, etnik kelib chiqishi, ruhiy holati va bandligi haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni ham yig'gan. Tadqiqot ekran vaqti o'smirlarning salomatligini kamaytiradi degan aniq dalillarni ko'rsatmadi.[35]

(a) Bu qanday tadqiqot turi?

(b) Izohlovchi o'zgaruvchilarni aniqlang.

(c) Javob o'zgaruvchisini aniqlang.

(d) Tadqiqot natijalari umumiy bosh to'plamga umumlashtirilishi mumkinmi va nima uchun?

(e) Tadqiqot natijalari sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash uchun ishlatilishi mumkinmi? Izoh bering.

1.43 Stanford ochiq politsiya loyihasi. Stanford Open Policing loyihasi AQSh bo'ylab huquqni muhofaza qilish idoralari tomonidan olib borilgan transport vositalarini to'xtatish holatlari bo'yicha yozuvlarni yig'adi, tahlil qiladi va nashr etadi. Ularning maqsadi tadqiqotchilar, jurnalistlar va siyosatchilarga politsiya va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganish va yaxshilashda yordam berishdir.[36] Quyida ushbu loyiha doirasida yig'ilgan ma'lumotlar asosida yaratilgan jadvaldan bir parchasi keltirilgan:

Okrug	Shtat	Haydovchining irqi	To'xtatishlarning yillik soni	To'xtatilganlarning %i mashinalar tekshirilgan	haydovchilar hibsga olingan
Apachi okrugi	Arizona	Qora tanli	266	0,08	0,02
Apachi okrugi	Arizona	Ispan	1008	0,05	0,02
Apachi okrugi	Arizona	Oq tanli	6322	0,02	0,01
Kochis okrugi	Arizona	Qora tanli	1169	0,05	0,01
Kochis okrugi	Arizona	Ispan	9453	0,04	0,01
Kochis okrugi	Arizona	Oq tanli	10826	0,02	0,01
...	...	...	...	...	...
Vud okrugi	Viskonsin	Qora tanli	16	0,24	0,10
Vud okrugi	Viskonsin	Ispan	27	0,04	0,03
Vud okrugi	Viskonsin	Oq tanli	1157	0,03	0,03

(a) Har bir individual transport vositasini to'xtatish holati bo'yicha qanday o'zgaruvchilar yig'ilgan va yuqoridagi jadvalni yaratish uchun ishlatilgan?

(b) Har bir o'zgaruvchi miqdoriy yoki toifali ekanligini belgilang. Agar miqdoriy bo'lsa, u uzluksizmi yoki diskretmi, agar toifali bo'lsa, u tartiblimi?

(c) Agar biz haydovchilarning irqlari bo'yicha mashina qidiruv darajalarini baholamoqchi bo'lsak, ushbu tahlilda izohlovchi o'zgaruvchi va javob o'zgaruvchisi qaysi bo'ladi?

1.44 Kosmik parvozlar. Quyidagi umumiy jadval 1957 yildan 2018 yilgacha AQShda kosmik parvozlarning turli agentliklar tomonidan amalga oshirilishi va ularning muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik natijalari bo'yicha taqsimotini ko'rsatadi.[37]

	1957 - 1999		2000 - 2018	
	Muvaffaqiyatsizlik	Muvaffaqiyat	Muvaffaqiyatsizlik	Muvaffaqiyat
Xususiy	13	295	10	562
Davlat	281	3751	33	711
Startap	-	-	5	65

well-being in young adults: A randomized controlled trial". In: *PloS one* 12.2 (2017), e0171206.

[35] Amy Orben and AK Baukney-Przybylski. "Screens, Teens and Psychological Well-Being: Evidence from three time-use diary studies". In: *Psychological Science* (2018).

[36] Emma Pierson et al. "A large-scale analysis of racial disparities in police stops across the United States". In: *arXiv preprint arXiv:1706.05678* (2017).

[37] JSR Launch Vehicle Database, A comprehensive list of suborbital space launches, 2019 Feb 10 Edition.

(a) Har bir parvoz bo‘yicha qanday o‘zgaruvchilar yig‘ilgan va yuqoridagi jadvalni yaratish uchun ishlatilgan?

(b) Har bir o‘zgaruvchi miqdoriy yoki toifali ekanligini belgilang. Agar miqdoriy bo‘lsa, u uzluksizmi yoki diskretmi, agar toifali bo‘lsa, u tartiblimi?

(c) Agar biz parvozlarning muvaffaqiyat darajasi turli agentliklar va vaqt o‘tishi bilan qanday farq qilishini o‘rganmoqchi bo‘lsak, ushbu tahlilda izohlovchi o‘zgaruvchi va javob o‘zgaruvchisi qaysi bo‘ladi?

2-BOB

Ma’lumotlarni umumlashtirish

2.1 Sonli ma’lumotlarni tahlil qilish

2.2 Toifali ma’lumotlarni ko‘rib chiqish

2.3 Amaliy misol: bezgakka qarshi vaksina

Ushbu bob ma'lumotlarni umumlashtirish, grafiklarning mexanikasi va qurilishiga bag'ishlangan. Ushbu bob va kitobda keltirilgan xulosalar hamda grafiklarni hosil qilish uchun statistik dasturiy ta'minotdan foydalanamiz. Shuningdek, bu tushunchalar bilan ilk bor tanishayotgan bo'lishingiz mumkinligi sababli, ushbu bobda ularni qanday yaratishni batafsil bayon qilamiz. Ushbu bobda bayon etilgan mazmunni puxta o'zlashtirish kitobning qolgan qismlarida taqdim etiladigan usul va texnikalarni tushunish uchun nihoyatda muhim rol o'ynaydi.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**


2.1 Sonli ma'lumotlarni tahlil qilish

Ushbu bo'limda sonli o'zgaruvchilarni umumlashtirish usullarini o'rganamiz. Masalan, `loan50` ma'lumotlar to'plamidagi kredit miqdori `(loan_amount)` o'zgaruvchisini ko'rib chiqamiz, u ushbu to'plamdagi 50 ta kreditning har biri uchun kredit miqdorini ifodalaydi. Bu o'zgaruvchi sonli, chunki ikkita kredit hajmlari orasidagi sonli farq haqida ma'noli ravishda gapirishimiz mumkin. Boshqa tomondan, telefonlar uchun hudud kodlari va pochta indekslari sonli emas, balki toifali o'zgaruvchilardir.

Bu bo'lim va undan keyingi bo'limlar davomida mavjud usullarni 1.2-bo'limda taqdim etilgan `loan50` va `county` ma'lumotlar to'plamlarida qo'llaymiz. Agar ma'lumotlar to'plamlarining o'zgaruvchilarini qayta ko'rib chiqmoqchi bo'lsangiz, 1.3- va 1.5-rasmlarga qarang.

2.1.1 Juft ma'lumotlar uchun sochma diagrammalar

Sochma diagramma ikkita sonli o'zgaruvchi uchun ma'lumotlarning holati bo'yicha ko'rinishini beradi. 18-betdagi 1.8-rasmda `county` ma'lumotlar to'plamida uy-joyga egalik qilish darajasini ko'p xonadonli ko'chmas mulklar (masalan, kvartiralar) tarkibiga kiruvchi uy-joy birliklari ulushiga nisbatan o'rganish uchun sochma diagrammadan foydalanilgan. Yana bir sochma diagramma 2.1-rasmda keltirilgan bo'lib, u `loan50` ma'lumotlar to'plamida qarzdorning umumiy daromadi (`total_income`) ni u olgan kredit miqdori (`loan_amount`) bilan taqqoslaydi. Har qanday sochma diagrammada har bir nuqta bitta holatni ifodalaydi. `loan50` da 50 ta holat mavjud bo'lganligi sababli, 2.1-rasmda ham 50 ta nuqta bor.



2.1-rasm. `loan50` ma'lumotlar to'plamidagi qarzdorning umumiy daromadi `(total_income)` va olgan kredit miqdori uchun `(loan_amount)` sochma diagramma.

2.1-rasmga nazar tashlasak, grafikning chap tomonida daromadi $100000 dan past bo'lgan ko'plab qarz oluvchilar borligini, o'ng tomonda esa daromadi $250000 dan yuqori bo'lgan bir nechta qarz oluvchilar mavjudligini ko'ramiz.

2.1-MISOL

2.2-rasmda 3142 ta okrug uchun o'rtacha uy xo'jaligi daromadi medianasini qashshoqlik darajasiga nisbatan tasvirlaydi. Bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabat haqida nima deyish mumkin?


Munosabat aniq **nochiziqli**, buni shtrixli chiziq ta'kidlab turibdi. Bu ilgari ko'rgan sochma diagrammalarimizdan farq qiladi, ular orasidagi tendensiyada sezilarli egri chiziqlilik kuzatilmagan edi.

2.2-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Sochma diagrammalari ma'lumotlar haqida nimani ko'rsatadi va ular nimasi bilan foydali?[1]

2.3-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Sochma diagrammada taqa (∩ yoki ⌒ shaklida) ko'rinishidagi bog'lanishga ega bo'ladigan ikkita o'zgaruvchini tasvirlab bering.[2]



2.2-rasm. `county` ma'lumotlar to'plami uchun o'rtacha uy xo'jaligi daromadi va qashshoqlik darajasining sochma diagrammasi. Statistik model ham ma'lumotlarga moslashtirilgan bo'lib, uzuq-uzuq chiziq orqali ko'rsatilgan.


2.1.2 Nuqtali diagrammalar va o'rtacha qiymat

Ba'zan ikki o'zgaruvchi ham ortiqcha bo'lishi mumkin. Gohida faqat bitta o'zgaruvchi qiziqish uyg'otadi. Bunday vaziyatlarda nuqtali diagramma eng sodda tasvirlardan birini beradi. **Nuqtali diagramma** – bu bitta o'zgaruvchining sochma diagrammasi. 2.3-rasmda 50 ta kreditning foiz stavkasidan foydalanilgan misol ko'rsatilgan. Ushbu nuqtali diagrammaning ustma-ust ko'rinishi 2.4-rasmda keltirilgan.


Arifmetik o'rtacha ko'pincha **o'rtacha** deb ham ataladi va u ma'lumotlar **taqsimot**ining markazini o'lchashning keng tarqalgan usulidir. Foiz stavkasining o'rtacha qiymatini hisoblash uchun

[1] Javoblar turlicha bo'lishi mumkin. Sochma diagrammalari o'zgaruvchilar orasidagi bog'lanishlarni tezda aniqlashga yordam beradi, bu bog'lanishlar sodda tendensiyalar ko'rinishida bo'ladimi yoki yanada murakkab munosabatlar shaklida bo'ladimi, barchasini ko'rsatadi.

[2] Vertikal o'q "yaxshi" bo'lgan nimanidir, gorizontal o'q esa faqat me'yorida bo'lganda "yaxshi" bo'ladigan narsani ifodalaydigan holatni tasavvur qiling. Sog'liq va suv iste'moli buning yaxshi misolidir: yashashimiz uchun ma'lum miqdorda suv zarur, biroq juda ko'p suv iste'mol qilsak, u zaharli bo'lib qoladi va insonni o'ldirishi ham mumkin.



2.3-rasm. `loan50` ma'lumotlar to'plami foiz stavkasining (`interest_rate`) nuqtali diagrammasi. Foiz stavkasining o'rtacha qiymati qizil uchburchak bilan ko'rsatilgan.



2.4-rasm. `loan50` ma'lumotlar to'plami foiz stavkasining (`interest_rate`) yig'ilgan nuqtali diagrammasi. Ushbu diagrammada foiz stavkalari yaqin butun foizgacha yaxlitlangan va foiz stavkasining o'rtacha qiymati qizil uchburchak bilan ko'rsatilgan.

barcha foiz stavkalarini qo'shamiz va kuzatuvlar soniga bo'lamiz:

$$\bar{x} = \frac{10{,}90\% + 9{,}92\% + 26{,}30\% + \cdots + 6{,}08\%}{50} = 11{,}57\% \ .$$

Tanlanma o'rtachasi odatda $\bar{x}$ bilan belgilanadi. Bu yerda x harfi qiziqish uyg'otayotgan o'zgaruvchi, ya'ni foiz stavkasi uchun umumiy belgi sifatida ishlatilmoqda va x ustidagi chiziq biz foiz stavkasining o'rtacha qiymatini qarayotganimizni bildiradi. Bu 50 ta kredit uchun u 11,57% ga teng. O'rtachani taqsimotning muvozanat nuqtasi sifatida tasavvur qilish foydali va u 2.3- hamda 2.4-rasmlarda uchburchak bilan ko'rsatilgan.

O'RTACHA QIYMAT

Tanlanma o'rtachasini topish uchun kuzatilgan qiymatlar yig'indisini ularning soniga bo'lish zarur:

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + \cdots + x_n}{n},$$

bu yerda x_1, x_2, ..., x_n – n ta kuzatilgan qiymatni ifodalaydi.

`loan50` ma'lumotlar to'plami "Lending Club" orqali berilgan kreditlarning bosh to'plamidan olingan tanlanmani ifodalaydi. Biz ushbu bosh to'plam uchun o'rtacha qiymatni tanlanma o'rtachasini hisoblaganimiz kabi hisoblashimiz mumkin. Biroq, bosh to'plam o'rtachasi uchun maxsus belgi μ qo'llanadi. μ belgisi yunon alifbosidagi *myu* harfi bo'lib, bosh to'plamdagi barcha kuzatishlarning o'rtacha qiymatini bildiradi. Ba'zan pastki indeks, bosh to'plam o'rtachasi qaysi o'zgaruvchiga

tegishli ekanini ko'rsatish uchun qo'llanadi, masalan, μ_x. Ko'pincha bosh to'plam o'rtachasini aniq o'lchash juda qimmatga tushadi, shuning uchun μ ni ko'pincha tanlanma o'rtachasi $\bar{x}$ yordamida baholanadi.

Y **2.4-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

O'rtacha qiymat formulasini ko'rib chiqing. Bu yerda x_1 nimaga mos keladi? x_2-chi? Umuman olganda, x_i nimani ifodalashini ayta olasizmi?[3]

Y **2.5-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Ushbu kreditlar tanlanmasida n ning qiymati qancha edi?[4]

M **2.6-MISOL**

Bosh to'plamdagi barcha kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasini tanlanma ma'lumotlari yordamida baholash mumkin. 50 ta kreditdan iborat tanlanmaga asoslanib, to'liq ma'lumotlar to'plamidagi barcha kreditlar uchun o'rtacha foiz stavkasi bo'lgan μ_x ning qanday asosli bahosini olish mumkin?

Tanlanma o'rtachasi 11,57%, μ_x uchun taxminiy bahoni beradi. U mukammal bo'lmasada, bu o'rganilayotgan bosh to'plamdagi barcha kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi bo'yicha yagona eng yaxshi taxminimizdir.

5-bobda va undan keyingi boblarda biz tanlanma o'rtachasi kabi *nuqtaviy baholar* aniqligini tavsiflash uchun vositalarni ishlab chiqamiz. Siz taxmin qilgan bo'lishingiz mumkin, katta tanlanmalarga asoslangan nuqtaviy baholar kichik tanlanmalarga asoslangan baholarga nisbatan odatda aniqroq bo'ladi.

M **2.7-MISOL**

O'rtacha qiymat foydali, chunki u ko'rsatkichni yanada oson talqin qilinadigan va taqqoslanadigan shaklga keltirish uchun uni qayta masshtablash yoki standartlashtirish imkonini beradi. O'rtacha qiymat taqqoslashlar uchun foydali bo'lgan 2 ta misol keltiring.

---

1. Biz yangi dori astma xurujlarini davolashda standart doriga qaraganda samaraliroqmi yo'qligini tushunmoqchimiz. 1500 nafar katta yoshdagilarda sinov o'tkaziladi, bunda 500 nafari yangi dorini, 1000 nafari esa nazorat guruhida standart dorini qabul qiladi:

	Yangi dori	Standart dori
Bemorlar soni	500	1000
Jami astma xurujlari	200	300

Astma xurujlarining 200 va 300 kabi dastlabki natijalarni taqqoslash yangi dori yaxshiroqdek ko'rinishiga olib keladi, biroq bu guruh o'lchamlarining nomutanosibligi natijasidagi sun'iy ta'sirdir. Buning o'rniga, guruhlardagi har bir bemorga to'g'ri keladigan astma xurujlarining o'rtacha soniga qarashimiz kerak:

$$\text{Yangi dori: } 200/500 = 0{,}4 \qquad \text{Standart dori: } 300/1000 = 0{,}3\ .$$

Standart doridan foydalangan guruhda har bir bemorga to'g'ri keladigan astma xurujlarining o'rtacha soni davolash (yangi dori) guruhidagidan pastroq.

2. Emilio o'tgan yili burrito (bu asosan Meksika oshxonasiga oid taom) sotadigan oziq-ovqat furgonini ochdi va so'nggi 3 oy ichida uning biznesi barqarorlashdi. Shu 3 oylik davrda u 625 soat ishlagan holda \$11000 daromad qilgan. Emilioning o'rtacha soatlik daromadi, ushbu faoliyati, hech bo'lmaganda moliyaviy nuqtai nazardan, arzish-arzimaganini baholash uchun foydali statistikadir:

$$\frac{\$11000}{625 \text{ soat}} = \$17{,}60 \text{ soatiga}\ .$$

O'zining o'rtacha soatlik ish haqini bilgan holda, Emilio endi o'z daromadini u ko'rib chiqishi

[3] x_1 tanlanmadagi birinchi kreditning foiz stavkasiga (10,90%) mos keladi, x_2 esa ikkinchi kreditning foiz stavkasiga (9,92%) mos keladi, x_i esa ma'lumotlar to'plamidagi i-kreditning foiz stavkasiga mos keladi. Masalan, agar $i = 4$ bo'lsa, biz x_4 ni ko'rib chiqamiz, ya'ni bu to'plamdagi to'rtinchi kuzatuvga tegishli.

[4] Tanlanma hajmi $n = 50$ edi.

mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab ishlar bilan taqqoslash oson bo‘lgan standart birlikda ifodalagan bo‘ladi.

2.8-MISOL

Faraz qilaylik, biz AQShdagi har bir kishi uchun o‘rtacha daromadni hisoblamoqchimiz. Buning uchun avval `county` ma'lumotlar to‘plamidagi 3142 ta okrug bo‘yicha jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning o‘rtacha qiymatini olishni o‘ylasak bo‘ladi. Buning o‘rniga qanday yaxshiroq yondashish mumkin?

`county` ma'lumotlar to‘plami shunisi bilan o‘ziga xoski, undagi har bir okrug aslida ko‘plab alohida shaxslarni ifodalaydi. Agar biz shunchaki daromad (`income`) o‘zgaruvchisi bo‘yicha o‘rtacha qiymatni hisoblasak, hisob-kitoblarda aholisi 5000 bo‘lgan okrug bilan 5000000 nafar aholiga ega okrugni teng darajada hisobga olgan bo‘lamiz. Buning o‘rniga har bir okrug uchun jami daromadni hisoblashimiz, barcha okruglarning jami daromadlarini qo‘shishimiz va so‘ng bu yig‘indini barcha okruglardagi odamlar soniga bo‘lishimiz mumkin. Agar biz bu bosqichlarni `county` ma'lumotlari bilan bajarsak, AQSh uchun jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad $30861 ekanini topamiz. Agar biz okruglar bo‘yicha jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarning *oddiy* o‘rtacha qiymatini hisoblaganimizda natija atigi $26093 bo‘lgan bo‘lardi!


Ushbu misolda **vaznli o‘rtacha** deb ataladigan usuldan foydalandik. Bu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma'lumot olish uchun vaznli o‘rtachalar haqidagi quyidagi onlayn qo‘shimcha materialni ko‘ring: openintro.org/d?file=stat_wtd_mean.

2.1.3 Gistogrammalar va shakl

Nuqtali diagrammalar har bir kuzatishning aniq qiymatini ko‘rsatadi. Bu kichik ma'lumotlar to‘plamlari uchun foydalidir ammo katta tanlanmalar bilan ular o‘qilishi qiyin bo‘lib qolishi mumkin. Har bir kuzatish qiymatini ko‘rsatish o‘rniga, biz qiymatni *bin* (ustuncha, interval, oraliq) deb ataladigan intervalga tegishli deb qarashni afzal ko‘ramiz. Masalan, `loan50` ma'lumotlar to‘plamida biz foiz stavkasi 5,0% dan 7,5% gacha bo‘lgan kreditlar soni, keyin 7,5% dan 10,0% gacha bo‘lganlar soni va hokazo uchun sonlar jadvalini yaratdik. Intervalning chegarasiga tushgan kuzatishlar (masalan, 10,0%) pastki intervalga ajratiladi. Ushbu jadval 2.5-rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu intervalga ajratilgan sonlar 2.6 rasmda ustunlar shaklida chizilgan bo‘lib, bu **gistogramma** deb ataladi. Bu yig‘ilgan nuqtali diagrammaning intervallarga bo‘lingan ko‘rinishiga o‘xshaydi (2.4-rasmini ko‘ring).

Foiz stavkasi	5,0% - 7,5%	7,5% - 10,0%	10,0% - 12,5%	12,5% - 15,0%	···	25,0% - 27,5%
Soni	11	15	8	4	···	1

2.5-rasm. Foiz stavkasi ma'lumotlarining intervalga ajratilgan sonlari.



2.6-rasm. Foiz stavkasi (`interest_rate`) uchun gistogramma. Ushbu taqsimot o‘ng tomonga kuchli siljigan.

Gistogrammalar **ma'lumotlar zichligi**ni ko‘rish imkoniyatini beradi. Yuqori ustunlar ma'lumot-

larning nisbatan ko'proq uchraydigan joylarini ifodalaydi. Masalan, ma'lumotlar to'plamida 5% va 10% oralig'ida foiz stavkasiga ega kreditlar soni 20% va 25% oralig'idagi kreditlarga qaraganda ancha ko'p. Ustunlar yordamida foiz stavkasiga nisbatan ma'lumotlarning zichligi qanday o'zgarayotganini ko'rish osonlashadi.

Gistogrammalar ayniqsa ma'lumotlar taqsimotining shaklini tushunishda qulaydir. 2.6-rasm shuni ko'rsatadiki, kreditlarning ko'pchilik qismi 15% dan past foiz stavkasiga ega, holbuki faqat bir nechta kreditlar 20% dan yuqori stavkalarga ega. Ma'lumotlar o'ng tomonga bu tarzda sekin pasayib, uzunroq o'ng quyruqqa ega bo'lsa, shakl **o'ngga siljigan** deb ataladi.[5]

Agar ma'lumotlar teskari xususiyatga, ya'ni uzoqroq va yupqaroq chap quyruqqa ega bo'lsa, bunday taqsimot **chapga siljigan** deb ataladi. Bunday taqsimotning uzun chap quyruqqa ega ekanligini ham aytamiz. Ma'lumotlarning ikkala yo'nalishda ham bir xil pasayishini ko'rsatgan taqsimotlar **simmetrik** deb ataladi.

UZUN QUYRUQLAR SILJISHNI ANIQLASH UCHUN

Agar ma'lumotlar bir yo'nalishda sekin pasaysa, taqsimot **uzun quyruq**ga ega. Agar taqsimot uzun chap quyruqqa ega bo'lsa, u chapga siljigan. Agar taqsimot uzun o'ng quyruqqa ega bo'lsa, u o'ngga siljigan.

Y **2.9-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

2.3- va 2.4-rasmlardagi nuqtali diagrammalarga qarang. Ma'lumotlardagi siljishni ko'rishingiz mumkinmi? Ushbu gistogrammada yoki nuqtali diagrammalarning qaysi birida siljishni ko'rish osonroq?[6]

Y **2.10-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

O'rtacha qiymatdan tashqari (u alohida belgilangan bo'lgani uchun), nuqtali diagrammalarda ko'rib, ammo gistogrammada ko'ra olmaydigan yana nimalarni ko'rishingiz mumkin?[7]

Taqsimot qiyshaygan yoki simmetrik ekanini ko'rishdan tashqari, gistogrammalar modalarni aniqlash uchun ham ishlatilishi mumkin. **Moda** taqsimotdagi yaqqol cho'qqi bilan ifodalanadi. Kredit miqdori (`loan_amount`)gistogrammasida faqat bitta yaqqol cho'qqi mavjud.

Ba'zan matematika darslarida *moda*ning ta'rifi sifatida ma'lumotlar to'plamida eng ko'p uchraydigan qiymat keltiriladi. Biroq ko'plab real ma'lumotlar to'plamlarida ma'lumotlar to'plamida bir xil qiymatga ega *hech qanday* kuzatuv bo'lmasligi odatiy hol, bu esa ushbu ta'rifni amaliy ma'lumot tahlilida noqulay qiladi.

2.7-rasmda bitta, ikkita yoki uchtadan yaqqol cho'qqiga ega gistogrammalar ko'rsatilgan. Bunday taqsimotlar mos ravishda **unimodal**, **bimodal** va **multimodal** deb ataladi. Ikkitadan ortiq yaqqol cho'qqiga ega istalgan taqsimot multimodal taqsimot deyiladi. Unimodal taqsimotda bitta yaqqol cho'qqi. Shuningdek, ikkinchi, (unchalik yaqqol bo'lmagan) cho'qqi ham bor edi, ammo u bir necha kuzatuv bilan o'ziga qo'shni binlar (segmentlar)dan farq qilgani uchun hisobga olinmadi.

M **2.11-MISOL**

2.6-rasm foiz stavkalari taqsimotida faqat bitta yaqqol moda borligini ko'rsatadi. Taqsimot unimodalmi, bimodalmi yoki multimodalmi?

Unimodal. Eslang, *uni* 1 sonini bildiradi (masalan, *uni*cycle). Shuningdek, *bi* 2 sonini bildiradi (masalan, *bi*cycle). Bu o'xshatishni to'liq qilish uchun bir kuni *multicycle* ixtiro qilinishiga umid qilamiz.

Y **2.12-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

K–3 boshlang'ich maktabidagi kichik yoshdagi o'quvchilar va kattalar (o'qituvchilar)ning bo'y o'lchovlari olingan. Bu bo'y ma'lumotlar to'plamida nechta moda bo'lishini kutgan bo'lardingiz?[8]


Modalarni izlash taqsimotdagi modalar soni haqida aniq va yagona to'g'ri javob topish haqida

[5] o'ngga siljigan ma'lumotlarni boshqa nomlari: **o'ngga og'gan**, **yuqori qiymat tomonga siljigan** yoki **ijobiy tomonga siljigan**.

[6] Siljish uchala diagrammada ham ko'rinadi, ammo oddiy nuqtali diagramma kamroq foydalidir. Yig'ilgan nuqtali diagramma va gistogramma siljishni aniqlash uchun qulayroq vizualizatsiyadir.

[7] Har bir alohida kreditning foiz stavkalarini.

[8] Ma'lumotlar to'plamida bo'y bo'yicha ikkita guruh ko'rinishi mumkin. Biri o'quvchilar, ikkinchisi esa kattalar. Demak, ma'lumotlar ehtimol bimodal.



2.7-rasm. Faqat yaqqol cho'qqilarni hisobga olgan holda, taqsimotlar (chapdan o'ngga) mos ravishda unimodal, bimodal va multimodal hisoblanadi. Shuni unutmangki, chap tomondagi grafikni atayin unimodal deb atayapmiz. Buning sababi shundaki, biz har qanday cho'qqini emas, balki aynan *yaqqol* cho'qqilarni hisoblayapmiz.

emas. Shuning uchun *yaqqol* bu kitobda qat'iy ta'riflanmagan. Bu tahlilning eng muhim tomoni – o'z ma'lumotlaringizni yaxshiroq tushunishdir.

2.1.4 Dispersiya va standart og'ish

Tanlanma markazini tavsiflash usuli sifatida o'rtacha qiymatni kiritgan edik. Shuningdek, ma'lumotlardagi tarqoqlik ham muhim. Bu yerda tarqoqlikning ikkita o'lchovini kiritamiz: dispersiya va standart og'ish. Ularning ikkalasi ham ma'lumotlarni tahlil qilishda juda foydali, garchi ularning formulalarini qo'l bilan hisoblash biroz mashaqqatli bo'lsa ham. Ikki ko'rsatkichdan tushunish osonrog'i standart og'ish bo'lib, u odatdagi (tipik) kuzatuvning o'rtacha qiymatdan taxminan qanchaga og'ishini tavsiflaydi.

Kuzatuvning o'rtacha qiymatdan uzoqlashish masofasi uning **og'ish**i deb ataladi. Quyida foiz stavkasi o'zgaruvchisidagi 1−, 2−, 3− va 50− kuzatuvlar uchun og'ishlar keltirilgan:

$$\begin{aligned} x_1 - \bar{x} &= 10{,}90 - 11{,}57 = -0{,}67 \text{ ;} \\ x_2 - \bar{x} &= 9{,}92 - 11{,}57 = -1{,}65 \text{ ;} \\ x_3 - \bar{x} &= 26{,}30 - 11{,}57 = 14{,}73 \text{ ;} \\ &\vdots \\ x_{50} - \bar{x} &= 6{,}08 - 11{,}57 = -5{,}49 \text{ .} \end{aligned}$$

Agar biz ushbu og'ishlarni kvadratga oshirsak va so'ngra ularning o'rtachasini olsak, natija s^2 bilan belgilanuvchi tanlanma **dispersiya** ga teng bo'ladi:

$$s^2 = \frac{(-0{,}67)^2 + (-1{,}65)^2 + (14{,}73)^2 + \cdots + (-5{,}49)^2}{50 - 1} = \frac{0{,}45 + 2{,}72 + 216{,}97 + \cdots + 30{,}14}{49} = 25{,}52 \text{ .}$$

Tanlanma dispersiyasini hisoblashda maxrajda n emas, $n - 1$ dan foydalanamiz. Bu yerda ma'lum bir matematik noziklik mavjud, biroq bu usul statistikani biroz ishonchliroq va foydaliroq qiladi.

Og'ishlarni kvadratga oshirish ikki narsani amalga oshiradi. Birinchidan, katta qiymatlarni nisbatan ancha kattalashtiradi, buni $(-0{,}67)^2$, $(-1{,}65)^2$, $(14{,}73)^2$ va $(-5{,}49)^2$ ni solishtirish orqali ko'rish mumkin. Ikkinchidan, u barcha manfiy ishoralarni yo'qotadi.

Standart og'ish esa dispersiyaning kvadrat ildizi sifatida aniqlanadi:

$$s = \sqrt{25{,}52} = 5{,}05 \text{ .}$$


Ko'pincha tashlab yuborilsa-da, bu kattaliklarning aynan x_1, x_2, ..., x_n bilan ifodalangan kuzatuvlar uchun dispersiya va standart og'ish ekanini eslatib turishi uchun dispersiya va standart og'ishga $_x$ pastki indeksi qo'shilishi mumkin, ya'ni s_x^2 va s_x.

DISPERSIYA VA STANDART OG'ISH

Dispersiya o'rtacha qiymatdan uzoqlashish masofalarining kvadrat o'rtacha qiymatidir. Standart og'ish esa dispersiyaning kvadrat ildizidir. Standart og'ish ma'lumotlarning o'rtacha qiymatdan qanchaga tarqalganini ko'rishda foydalidir.

Standart og'ish kuzatuvlarning o'rtacha qiymatdan odatdagi (tipik) og'ishini ifodalaydi. Odatda ma'lumotlarning taxminan 70% qismi o'rtacha qiymatdan bir standart og'ish oralig'ida, taxminan 95% qismi esa ikki standart og'ish oralig'ida joylashadi. Biroq 2.8- va 2.9-rasmlarda ko'rib turganingizdek, bu foizlar qat'iy qoidalar emas.

O'rtacha qiymatdagidek, dispersiya va standart og'ishning bosh to'plam bo'yicha qiymatlari uchun ham maxsus belgilar qo'llanadi. Dispersiya uchun σ^2 va standart og'ish uchun esa σ. σ belgisi yunon alifbosidagi *sigma* harfidir.



2.8-rasm. foiz stavkasi o'zgaruvchisi uchun 50 ta kreditning 34 tasi (68%) foiz stavkasi o'rtacha qiymatdan 1 standart og'ish ichida, 50 tadan 48 tasi (96%) esa 2 standart og'ish ichida joylashgan. Odatda ma'lumotlarning taxminan 70% qismi o'rtacha qiymatdan 1 standart og'ish, 95% qismi esa 2 standart og'ish oralig'ida joylashadi, biroq bu qat'iy qoida emas.

Y

2.13-YO'NALTIRILGAN MASHQ


49-betda taqsimot shakli tushunchasi kiritilgan edi. Taqsimot shaklini yaxshi tavsiflashda uning modaligi (ya'ni modalar soni) va taqsimot simmetrikmi yoki bir tomonga og'ishganmi ekani kiritilishi kerak. 2.9-rasmni misol sifatida olib, bunday tavsif nima uchun muhim ekanini tushuntiring.[9]

M

2.14-MISOL

2.6-rasmdagi gistogrammadan foydalanib foiz stavkasi o'zgaruvchisining taqsimotini tasvirlab bering. Tavsifda taqsimotning markazi, dispersiyasi (tarqoqligi) va shakli keltirilsin hamda kon-

[9] 2.9-rasmda tashqi ko'rinishi ancha farq qiladigan uchta taqsimot ko'rsatilgan, biroq ularning barchasida o'rtacha qiymat, dispersiya va standart og'ish bir xil. Modallikdan foydalanib, birinchi grafikni (bimodal) oxirgi ikkitasidan (unimodal) ajratishimiz mumkin. Og'ishganlikdan foydalanib esa, oxirgi grafikni (o'ngga og'ishgan) birinchi ikkitadan farqlashimiz mumkin. Gistogramma kabi tasvir to'liqroq manzara bersa-da, biz taqsimot haqida asosiy ma'lumotlarni tavsiflash uchun modallik va shakldan (simmetriya/og'ishlik) foydalanishimiz mumkin.



2.9-rasm. Bir xil $\mu = 0$ o'rtacha va $\sigma = 1$ standart og'ishga ega bo'lgan uchta turli bosh to'plam taqsimotlari.


tekstga joylashtirilsin. Shuningdek, ayniqsa noodatiy holatlarga ham e'tibor bering.

Foiz stavkalari taqsimoti unimodal bo'lib, yuqori qiymatlar tomonga og'ishgan. Stavkalarning katta qismi o'rtacha qiymat – 11,57% atrofida joylashgan va ko'pchilik qiymatlar o'rtacha qiymatdan bir standart og'ish 5,05% ichida tushadi. Tanlanmada 20% dan yuqori bo'lgan bir nechta g'ayrioddiy katta foiz stavkalari mavjud.

Amaliyotda dispersiya va standart og'ish ba'zan ma'lum bir yakuniy maqsadga erishish uchun vosita sifatida ishlatiladi, bu yerda "yakuniy maqsad" tanlanma statistikasi bilan bog'liq aniqlik (noaniqlik)ni to'g'ri baholashdir. Masalan, 5-bobda standart og'ish turli tanlanmalar uchun tanlanma o'rtachasi qanchaga o'zgarib turishini tushunishga yordam beradigan hisob-kitoblarda qo'llanadi.

2.1.5 Qutili diagramma, kvartillar va mediana

Qutili diagramma ma'lumotlar to'plamini beshta statistik ko'rsatkich yordamida qisqacha ifodalaydi hamda noodatiy kuzatuvlarni ham tasvirlaydi. 2.10-rasmda `loan50` ma'lumotlar to'plamidagi foiz stavkasi o'zgaruvchisi uchun vertikal nuqtali diagramma va uning yonida qutili diagramma keltirilgan.



2.10-rasm. Vertikal nuqtali diagramma (nuqtalar gorizontal yo'nalishda joylashtirilgan) va 50 ta kreditning foiz stavkalari uchun qutili diagramma.

Qutili diagramma qurishning birinchi bosqichi ma'lumotlarni teng ikki qismga ajratuvchi **median**i ifodalovchi qoraroq chiziqni chizishdan iborat. 2.10-rasmda medianadan pastda ma'lumotlarning 50% qismi, medianadan yuqorida esa qolgan 50% qismi joylashganini ko'rish mumkin. Ma'lumotlar to'plamida 50 ta kredit mavjud (juft son), shuning uchun ma'lumotlar 25 tadan ikkita guruhga aniq bo'linadi. Bu holda medianani 50− foizlikka eng yaqin ikkita kuzatuvning o'rtacha qiymati sifatida olamiz va aynan shu ikkala qiymat bu yerda bir xil: $(9{,}93\% + 9{,}93\%)/2 = 9{,}93\%$. Agar kuzatuvlar soni toq bo'lsa, ma'lumotlarni teng ikki qismga ajratuvchi aniq bitta kuzatuv bo'ladi va bunday holda aynan shu kuzatuv (hech qanday o'rtacha olishsiz) medianani beradi.

MEDIANA BU – O'RTADAGI QIYMAT

Agar ma'lumotlar eng kichigidan eng kattasiga qarab tartiblangan bo'lsa, **mediana** aynan o'rtadagi kuzatuvdir. Agar kuzatuvlar soni juft bo'lsa, o'rtada ikkita qiymat bo'ladi va mediana ularning o'rtacha qiymati sifatida olinadi.

Qutili diagramma qurishning ikkinchi bosqichi ma'lumotlarning o'rtadagi 50% qismini ifodalovchi to'rtburchakni chizishdir. 2.10-rasmda vertikal ko'rinishda ko'rsatilgan qutining umumiy uzunligi **kvartillar aro oraliq** (qisqacha KAO) deb ataladi. U ham xuddi standart og'ish kabi ma'lumotlardagi tarqoqlikning o'lchovidir. Ma'lumotlar qanchalik o'zgaruvchan bo'lsa, standart

og'ish va KAO shunchalik katta bo'lishga moyil bo'ladi. Qutining ikki chegarasi **birinchi kvartil** (25− foizlikda, ya'ni ma'lumotlarning 25% qismi bu qiymatdan pastda) va **uchinchi kvartil** (75− foizlik) deb ataladi va ular mos ravishda Q_1 va Q_3 bilan belgilanadi.

KVARTILLAR ARO ORALIQ (KAO)

KAO qutining uzunligini bildiradi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$KAO = Q_3 - Q_1,$$

bu yerda Q_1 va Q_3 mos ravishda 25- va 75-foizliklarni ifodalaydi.

2.15-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Ma'lumotlarning necha foizi Q_1 bilan mediananing orasiga to'g'ri keladi? Necha foizi mediana bilan Q_3 orasida?[10]

Qutidan tashqariga cho'zilgan **mo'ylovlar** ma'lumotlarning qutidan tashqarida joylashgan qismini ham qamrab olishga harakat qiladi. Biroq ularning yetish masofasi hech qachon $1{,}5 \times KAO$ dan ortiq bo'lishiga ruxsat etilmaydi. Ular shu masofa ichidagi barcha ma'lumotlarni qamrab oladi. 2.10-rasmda yuqori mo'ylov oxirgi ikki nuqtaga yetib bormaydi, chunki ular $Q_3 + 1{,}5 \times KAO$ dan yuqorida joylashgan. Shuning uchun yuqori mo'ylov faqat shu chegaradan pastdagi oxirgi nuqtaga qadar cho'zilgan. Quyi mo'ylov esa eng kichik qiymat 5,31% da to'xtaydi, chunki undan pastda qo'shimcha ma'lumot yo'q. Quyi mo'ylovning chegarasi chizmada ko'rsatilmagan, chunki chizma $Q_1 - 1{,}5 \times KAO$ gacha tushmaydi. Ma'lum ma'noda quti tana, mo'ylovlar esa ma'lumotlarning qolgan qismiga yetishga urinayotgan qo'llariga o'xshaydi.

Mo'ylovlardan tashqarida yotuvchi har qanday kuzatuv nuqta bilan belgilab qo'yiladi. Bu nuqtalarni – minimal va maksimal kuzatilgan qiymatlarga qadar mo'ylovlarni cho'zish o'rniga alohida belgilashdan maqsad ma'lumotlarning asosiy qismidan g'ayrioddiy darajada uzoqlashgan kuzatuvlarni aniqlashga yordam berishdir. Bunday g'ayrioddiy uzoq kuzatuvlar chetlashganlar deb ataladi. Bizning holatimizda 24,85% va 26,30% foiz stavkalarini ma'lumotlarning asosiy qismidan son jihatidan ancha uzoqda joylashgani sababli chetlashganlar sifatida tasniflash mantiqiy bo'ladi.

CHETLASHGANLAR — G'AYRIODDIY QIYMATLAR

Chetlashganlar — bu qolgan ma'lumotlarga nisbatan juda chekka (g'ayrioddiy) ko'rinadigan kuzatuvdir. Ma'lumotlarni chetlashganlar bor-yo'qligiga ko'ra tekshirish bir qancha foydali maqsadlarga xizmat qiladi. Taqsimotdagi kuchli og'ishganlikni aniqlash ma'lumotlarni yig'ish yoki kiritishdagi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash. Ma'lumotlarning qiziqarli xususiyatlari haqida qo'shimcha tasavvur hosil qilish.

2.16-YO'NALTIRILGAN MASHQ


2.10-rasmdan foydalanib, `loan50` ma'lumotlar to'plamidagi foiz stavkasi o'zgaruvchisi uchun quyidagi qiymatlarni taxmin qiling:
(a) Q_1, (b) Q_3 va (c) KAO.[11]

2.1.6 Barqaror statistikalar

Tanlanma statistika ma'lumotlar to'plamidagi tanlanma statistikalar 26,3% qiymatdagi kuzatuv ta'sirida qanday o'zgaradi? Agar bu kredit foiz stavkasi buning o'rniga faqat 15% bo'lganida nima bo'lardi? Agar 26,3% dagi kuzatuv bundan ham kattaroq, masalan 35% bo'lganida. Ushbu umumiy statistikalar bilan nima sodir bo'lgan bo'lardi? Bu holatlar asl ma'lumotlar bilan birga 2.11-rasmda tasvirlangan va har bir holat uchun tanlanma statistikalar 2.12-rasmda hisoblangan.

[10] Q_1 va Q_3 ma'lumotlarning o'rtadagi 50% qismini qamrab olgani va mediana ma'lumotlarni o'rtadan ikkiga ajratgani uchun ma'lumotlarning 25% qismi Q_1 bilan mediana orasiga, yana 25% qismi esa mediana bilan Q_3 orasiga to'g'ri keladi.

[11] Bu vizual baholar bir odamdan boshqasiga biroz farq qilishi mumkin: $Q_1 = 8\%$, $Q_3 = 14\%$, KAO $= Q_3 - Q_1 = 6\%$. (Haqiqiy qiymatlar: $Q_1 = 7{,}96\%$, $Q_3 = 13{,}72\%$, KAO $= 5{,}76\%$.)



2.11-rasm. Asl foiz stavkalari ma'lumotlari va o'zgartirilgan ikkita ma'lumotlar to'plami uchun nuqtali diagrammalar.

	barqaror		**barqaror emas**	
Holat	Mediana	KAO	$\bar{x}$	s
asl foiz stavkalari bilan	9,93%	5,76%	11,57%	5,05%
26,3% ni 15% ga o'tkazish	9,93%	5,76%	11,34%	4,61%
26,3% ni 35% ga o'tkazish	9,93%	5,76%	11,74%	5,68%

2.12-rasm. foiz stavka o'zgaruvchisidagi chekka kuzatuv boshqa qiymatlarga o'zgartirilganda mediana, KAO, o'rtacha ($\bar{x}$) va standart og'ish (s) qanday o'zgarishini taqqoslash.

Y **2.17-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

(a) Ekstremal (chekka) kuzatuvlar ta'sirida qaysi biri ko'proq o'zgaradi. O'rtacha qiymatmi yoki mediana? Bu yerda 2.12-rasm yordam berishi mumkin. (b) Ekstremal kuzatuvlardan ko'proq qaysi biri ta'sirlanadi. Standart og'ishmi yoki KAO?[12]

Mediana va KAO ekstremal kuzatuvlar ularning qiymatlariga juda kam ta'sir ko'rsatgani uchun **barqaror statistika**lar deb ataladi. Eng chekka qiymatni o'zgartirish odatda bu statistikalarga nihoyatda kam ta'sir qiladi. Aksincha, o'rtacha qiymat va standart og'ish ekstremal kuzatuvlardagi o'zgarishlarga ancha kuchli reaksiya bildiradi, bu esa ayrim vaziyatlarda juda muhim bo'lishi mumkin.

M **2.18-MISOL**

2.12-rasmdagi uchta holatda mediana va KAO o'zgarmadi. Bu nimaning evaziga sodir bo'lishi mumkin?

Mediana va KAO faqat Q_1, mediana va Q_3 atrofidagi qiymatlarga sezgir. Bu hududlardagi qiymatlar uchala ma'lumotlar to'plamida ham barqaror bo'lib turgani uchun mediana va KAO baholari ham barqaror bo'lib qolgan.

Y **2.19-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

`loan50` ma'lumotlar to'plamidagi kredit miqdorlari taqsimoti o'ngga og'ishgan bo'lib, o'ng quyruqda bir nechta yirik kreditlar "cho'zilib" turibdi. Agar siz odatiy (tipik) kredit hajmini tushunmoqchi bo'lsangiz, ko'proq o'rtacha qiymatga e'tibor qaratasizmi yoki medianagami?[13]

2.1.7 Ma'lumotlarni transformatsiya qilish (maxsus mavzu)


2.31-rasmga ko'ra, kamida 64,3% (64,3) farqni qanchalik tez-tez kuzatasiz? Tez-tez, ba'zan, kamdan-kam hollarda yoki hech qachon?

Faqat tasodifiylik tufayli kamida 64,3% farq 2.31-rasmga ko'ra faqat taxminan 2% holatlarda yuzaga kelishi mumkin. Bunday past ehtimollik noyob hodisani ko'rsatadi.

[27] $4/6 - 7/14 = 0{,}167$ yoki taxminan 16,7% vaksina foydasiga. Bu tasodifdan kelib chiqqan farq haqiqiy guruhlardagi kuzatilgan farqdan ancha kichik.

64,3% farqining noyob hodisa ekanligi tadqiqot natijalarining ikki xil talqinini taklif qiladi:

H_0 **Bog‘liqsizlik modeli.** Vaksina infeksiya darajasiga ta’sir qilmaydi va biz faqat noyob holatda yuz beradigan farqni kuzatdik.

H_A **Alternativ model.** Vaksina infeksiya darajasiga ta’sir qiladi va kuzatilgan farq bezgakka qarshi kurashda vaksina samaradorligi tufayli yuzaga kelgan. Bu esa 64,3% katta farqni tushuntiradi.

Simulyatsiyalar asosida bizda ikkita tanlov mavjud: (1) Tadqiqot natijalari bog‘liqsizlik modeliga qarshi kuchli dalil bermaydi degan xulosaga kelamiz. Ya’ni, biz klinik sharoitda vaksinaning ta’sir qilganligini tasdiqlash uchun yetarlicha kuchli dalilga ega emasmiz. (2) Dalillar yetarlicha kuchli ekanligi sababli H_0 ni rad etamiz va vaksina foydali bo‘lgan degan xulosaga kelamiz. Formal tadqiqotlarni o‘tkazishda, odatda biz faqat tasodifiy noyob hodisani kuzatganlik g‘oyasini rad etamiz.[28] Shunday qilib, bu holatda biz bog‘liqsizlik modelini alternativ model foydasiga rad etamiz. Ya’ni, biz ma’lumotlar ushbu klinik sharoitda vaksina bezgakdan himoya qilishda qandaydir samaradorlik ko‘rsatganiga kuchli dalil beradi degan xulosaga kelamiz.

Statistikaning bir sohasi, statistik xulosa, bunday farqlar tasodif tufayli yuzaga kelganmi yoki yo‘qligini baholashga asoslangan. Statistik xulosada, ma’lumotlar olimlari qaysi model ma’lumotlarga asoslanib eng mantiqiy ekanligini baholaydilar. Xatolar sodir bo‘ladi, xuddi noyob hodisalar kabi va biz noto‘g‘ri modelni tanlashimiz mumkin. Har doim to‘g‘ri tanlamasligimiz mumkin bo‘lsada, statistik xulosa bu xatolarning qanchalik tez-tez yuz berishini nazorat qilish va baholash uchun vositalarni beradi. 5-bobda biz model tanlash masalasiga rasmiy kirish beramiz. Keyingi ikki bobda, ushbu muhokamani aniqlik bilan olib borish uchun zarur bo‘lgan ehtimollik va nazariya asoslarini yaratamiz.

Mashqlar

2.25 Avandianing yon ta’sirlari. Rosiglitazon tarkibiy qismi Avandia nomli 2-turdagi diabet uchun mo‘ljallangan dori tarkibida bo‘lib, insult, yurak yetishmovchiligi va o‘lim kabi jiddiy yurak qon-tomir muammolari bilan bog‘liq. Oddiy muqobil davolash usuli pioglitazon bo‘lib, bu “Actos” nomli diabet dorisining tarkibiy qismidir. 227571 nafar 65 yosh va undan katta “Medicare” foydalanuvchilariga o‘tkazilgan butun mamlakat bo‘ylab retrospektiv kuzatuv tadqiqotida rosiglitazon ishlatgan 67593 nafar bemorning 2593 nafari va pioglitazon ishlatgan 159978 nafar bemorning 5386 nafari jiddiy yurak qon-tomir muammolariga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu ma’lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.[29]

		Yurak-qon tomir muammolari		
		Ha	Yo‘q	Jami
Davolash turi	Rosiglitazon	2593	65000	67593
	Pioglitazon	5386	154592	159978
	Jami	7979	219592	227571

(a) Quyidagi bayonotlarning har biri to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, nima uchunligini tushuntiring. *E’tibor bering:* Xulosa to‘g‘ri bo‘lsa ham, mulohaza noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Bunday holatda bayonot noto‘g‘ri deb hisoblanadi.

i. Pioglitazon qabul qilgan bemorlarning yurak qon-tomir muammolari ko‘proq bo‘lganligi sababli (5386 ga nisbatan 2593), pioglitazon qabul qilganlarda yurak qon-tomir muammolari darajasi yuqori ekanligini xulosa qilishimiz mumkin.

ii. Ma’lumotlar rosiglitazon qabul qilgan diabet bemorlarida yurak qon-tomir muammolarining ehtimoli yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda, chunki bu davolash turi uchun holatlar darajasi (2593 / 67593 = 0,038) 3,8%, pioglitazon uchun esa (5386 / 159978 = 0,034) 3,4% edi.

[28] Bu mantiq odatda anekdotik kuzatuvlarga tatbiq etilmaydi. Har birimiz har kuni oldindan bashorat qilishni umid qila olmaydigan juda noyob hodisalarni kuzatamiz. Biroq, anekdot dalillarning noaniq sharoitida, deyarli hamma narsa noyob hodisa bo‘lib tuyulishi mumkin. Shuning uchun kundalik faoliyatlarda noyob hodisalarni qidirish g‘oyasi xavfli. Masalan, lotereyaga qarasak: tarixdagi eng katta “Powerball” jackpotida (2016-yil 13-yanvar) (04, 08, 19, 27, 34) “Powerball” raqami (10) bo‘lgan sonlar chiqish ehtimoli 292 milliondan 1 edi. Lekin baribir bu raqamlar chiqdi! Biroq, qanday raqamlar chiqmasin, ular bir xil darajada noyob ehtimollikka ega bo‘lishi kerak edi. Ya’ni, *biz kuzatgan har qanday raqamlar to‘plami juda noyob bo‘ladi.* Bu turdagi vaziyatlar kundalik hayotimizda odatiy: har bir mumkin bo‘lgan voqea o‘zi juda noyob tuyuladi, lekin barcha alternativlarni hisobga olsak, bu natijalar ham juda noyobdir. Bunday anekdot dalillarni noto‘g‘ri talqin qilmaslikka harakat qilishimiz kerak.

[29] D.J. Graham et al. “Risk of acute myocardial infarction, stroke, heart failure, and death in elderly Medicare patients treated with rosiglitazone or pioglitazone”. In: *JAMA* 304.4 (2010), p. 411. ISSN: 0098-7484.

iii. Rosiglitazon guruhidagi holatlar darajasining yuqoriroq ekanligi rosiglitazon yurak qon-tomir muammolarini keltirib chiqarishini isbotlaydi.

iv. Berilgan ma'lumotlarga asoslanib, holatlar darajalari o'rtasidagi farq ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik tufaylimi yoki tasodif tufayli ekanligini aniqlashning iloji yo'q.

(b) Barcha bemorlarning qancha qismi yurak qon-tomir muammolariga ega edi?


(c) Agar davolash turi va yurak qon-tomir muammolarining borligi mustaqil bo'lsa, rosiglitazon guruhida qancha bemorda yurak qon-tomir muammolari bo'lishini kutishimiz mumkin?

(d) Ushbu tadqiqotda natijalar va davolash turi o'rtasidagi bog'liqlikni tekshirish uchun randomizatsiya texnikasidan foydalanishimiz mumkin. Haqiqatda randomizatsiya uchun simulyatsiyalarni statistik dastur yordamida amalga oshirgan bo'lardik, lekin faraz qilaylik, biz ushbu simulyatsiyani index kartalari yordamida o'tkazamiz. Mustaqillik modelini, ya'ni natijalar davolash turidan mustaqil ekanligini, simulyatsiya qilish uchun, biz har bir bemorda yurak qon-tomir muammosi bor yoki yo'qligini kartalarga yozamiz, barcha kartalarni aralashtiramiz, so'ng ularni 67593 va 159978 o'lchamdagi ikkita guruhga ajratamiz. Ushbu simulyatsiyani 1000 marta takrorlaymiz va har safar rosiglitazon guruhidagi yurak qon-tomir muammolari bo'lgan odamlar sonini qayd qilamiz. Quyidagi nisbiy chastota gistogrammasidan foydalanib savollarga javob bering.


i. Qanday da'volar tekshirilmoqda?

ii. (c) Qismida hisoblangan raqam bilan solishtirganda, alternativ gipotezani ko'proq qo'llab-quvvatlash uchun rosiglitazon guruhida yurak-qon tomir muammolari bo'lgan *ko'proq* yoki *kamroq* bemor bo'lishi kerakmi?


iii. Simulyatsiya natijalari rosiglitazon qabul qilish va diabet bemorlari orasida yurak-qon tomir muammolari o'rtasidagi bog'liqlik haqida nima ko'rsatmoqda?



2.26 Yurak ko'chirib o'tkazishlar. Stanford Universitetining Yurak Ko'chirib o'tkazish Tadqiqoti tajriba yurak ko'chirib o'tkazish dasturi umrni uzaytirishini aniqlash uchun o'tkazilgan. Dasturga kirgan har bir bemor rasmiy yurak ko'chirib o'tkazish nomzodi sifatida belgilangan, ya'ni u og'ir ahvolda bo'lib, yangi yurakka muhtoj bo'lishi ehtimoli katta edi. Ba'zi bemorlarga yurak ko'chirib o'tkazildi, boshqalariga esa yo'q. `transplant` o'zgaruvchisi bemorlar qaysi guruhga tegishli ekanligini ko'rsatadi; davolash guruhidagi bemorlarga yurak ko'chirib o'tkazilgan, nazorat guruhidagi bemorlarga esa yo'q. Nazorat guruhidagi 34 bemordan 30 tasi vafot etgan. Davolash guruhidagi 69 kishidan 45 tasi vafot etgan. `survived` nomli yana bir o'zgaruvchi bemor tadqiqot oxirida tirik bo'lgan yoki bo'lmaganini ko'rsatadi.[30]



[30] B. Turnbull et al. "Survivorship of Heart Transplant Data". In: *Journal of the American Statistical Association* 69 (1974), pp. 74–80.



(a) Mozaik diagrammaga asoslanib, tirik qolish bemorga yurak ko‘chirib o‘tkazilgan yoki o‘tkazilmaganligidan mustaqilmi? Izohlang.

(b) Quyidagi quti diagrammalar yurak ko‘chirib o‘tkazish davolash usulining samaradorligi haqida nima ko‘rsatadi?

(c) Davolash guruhidagi va nazorat guruhidagi bemorlarning qanchasi vafot etdi?


(d) Davolash samaradorligini tekshirishning bir usuli randomizatsiya texnikasidan foydalanishdir.

i. Qanday da’volar sinovdan o‘tkazilmoqda?

ii. Agar statistik dasturiy ta’minotdan foydalanmasdan, bunday yondashuvni amalga oshiradigan bo‘lsak, quyidagi paragraf bu usulni qanday tashkil etilishini tavsiflaydi. Bo‘sh joylarni mos son yoki iboralar bilan to‘ldiring.

Tirik so‘zini tadqiqot oxirida tirik bo‘lgan bemorlarni ifodalovchi _____ ta kartaga, va *o‘lgan* so‘zini tirik bo‘lmagan bemorlarni ifodalovchi _____ ta kartaga yozamiz. So‘ngra, bu kartalarni aralashtirib, ularni ikkita guruhga ajratamiz: _____ ta kartadan iborat guruh davolashni va _____ ta kartadan iborat guruh nazoratni ifodalaydi. Davolash va nazorat guruhlaridagi *o‘lgan* kartalarning ulushlari o‘rtasidagi farqni (davolash - nazorat) hisoblaymiz va bu qiymatni yozib olamiz. Bu jarayonni 100 marta takrorlab, _____ da markazlashgan taqsimot yaratamiz. Oxirida, ushbu taqsimotda farqlar _____ bo‘lgan simulyatsiyalar ulushini hisoblaymiz. Agar bu ulush past bo‘lsa, tasodif natijasida bunday natija kuzatilishi ehtimoli past deb xulosa qilamiz va nol gipotezani alternativaga qarshi rad etamiz.

iii. Quyidagi simulyatsiya natijalari transplantatsiya dasturining samaradorligi haqida nima ko‘rsatadi?



Bob bo‘yicha mashqlar

2.27 Qo‘shimcha imtihon. 25 nafar talaba ishtirok etgan darsda, 24 nafari imtihonni darsda topshirdi va 1 talaba qo‘shimcha imtihonni keyingi kuni topshirdi. Professor birinchi 24 ta imtihonni baholab, o‘rtacha ball 74 va standart og‘ish 8,9 ball ekanligini aniqladi. Keyingi kuni qo‘shimcha imtihon topshirgan talaba 64 ball oldi.

(a) Yangi talabaning bali o‘rtacha ballni oshiradimi yoki pasaytiradimi?


(b) Yangi o‘rtacha ball qancha bo‘ladi?

(c) Yangi talabaning bali ballarning standart og‘ishini oshiradimi yoki pasaytiradimi?

2.28 Go'daklar o'limi. Go'daklar o'limi darajasi har 1000 jonli tug'ilish uchun go'dak o'limlari soni bilan belgilanadi. Ushbu ko'rsatkich ko'pincha mamlakatdagi sog'liq darajasining indikatori sifatida ishlatiladi. Quyida 2014-yilda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ega 224 ta mamlakat uchun taxminiy go'daklar o'limi darajalarining taqsimotini ko'rsatuvchi nisbiy chastota gistogrammasi keltirilgan.[31]

(a) Gistogrammadan Q1, median va Q3 ni taxmin qiling.

(b) Ushbu ma'lumotlar to'plamining o'rtacha qiymati medianadan kichikroq yoki kattaroq bo'lishini kutasizmi? Nima uchun?



2.29 Televizor ko'ruvchilar. AP Statistika darsidagi talabalardan haftasiga qancha soat televizor tomosha qilishlarini (onlayn strimingni ham o'z ichiga oladi) so'rashdi. Ushbu namunada o'rtacha tomosha qilish vaqti 4,71 soat, standart og'ish esa 4,18 soat bo'ldi. Talabalar haftalik televizor tomosha qilish soatlarining taqsimoti simmetrikmi? Agar yo'q bo'lsa, ushbu taqsimotning qanday shaklga ega bo'lishini kutasiz? Izohlang.


2.30 Yangi statistika. $\frac{\bar{x}}{median}$ statistikasi egrilikning o'lchovi sifatida ishlatilishi mumkin. Faraz qilaylik, barcha kuzatuvlar 0 dan katta, $x_i > 0$. Quyidagi sharoitlarda taqsimotning kutilayotgan shakli qanday bo'ladi? Izohlang.

(a) $\frac{\bar{x}}{median} = 1$

(b) $\frac{\bar{x}}{median} < 1$

(c) $\frac{\bar{x}}{median} > 1$

2.31 Oskar sovrindorlari. Birinchi "Oskar" mukofotlari 1929-yilda eng yaxshi aktyor va aktrisa uchun berildi. Quyida 1929-yildan 2018-yilgacha bo'lgan eng yaxshi aktyor va aktrisa g'oliblarining yosh taqsimotini ko'rsatadigan gistogrammalar keltirilgan. Ushbu taqsimotlar bo'yicha qisqacha statistik ma'lumotlar ham berilgan. Eng yaxshi aktyor va aktrisa g'oliblarining yosh taqsimotlarini taqqoslang.[32]



	Eng yaxshi aktrisa
O'rtacha	36,2
SCh	11,9
n	92

	Eng yaxshi aktyor
O'rtacha	43,8
SCh	8,83
n	92

2.32 Imtihon ballari. Tarix imtihonining (100 ballik) o'rtacha bali 85, standart og'ishi esa 15 bo'ldi. Ushbu imtihon ballarining taqsimoti simmetrikmi? Agar yo'q bo'lsa, ushbu taqsimotning qanday shaklga ega bo'lishini kutasiz? Izohlang.

2.33 Statistika imtihon ballari. Quyida statistikaga kirish kursi bo'yicha yigirma nafar talabaning yakuniy imtihon ballari berilgan:

57, 66, 69, 71, 72, 73, 74, 77, 78, 78, 79, 79, 81, 81, 82, 83, 83, 88, 89, 94.


Ushbu ballarning taqsimotini ko'rsatuvchi qutili diagramma yarating. Quyida keltirilgan beshta son xulosasi sizga yordam berishi mumkin.

Min	Q1	Q2 (Mediana)	Q3	Maks
57	72,5	78,5	82,5	94

[31] CIA Factbook, Country Comparisons, 2014.

[32] Oscar winners from 1929 – 2012, data up to 2009 from the Journal of Statistics Education data archive and more current data from wikipedia.org.


2.34 Marafon g‘oliblari. Quyida 1970–1999-yillar oralig‘ida Nyu-York marafonida erkaklar va ayollar g‘oliblarining yugurishni tugallash vaqtlari taqsimotini ko‘rsatuvchi gistogramma va qutili diagramma keltirilgan.




(a) Gistogrammada ko‘rinadigan, lekin qutili diagrammada ko‘rinmaydigan taqsimotning xususiyatlari qanday? Bokx-plotda ko‘rinadigan, lekin gistogrammada ko‘rinmaydigan xususiyatlar qanday?

(b) Taqsimotning ikki cho‘qqili bo‘lishining sababi nima bo‘lishi mumkin? Izohlang.

(c) Quyidagi qutili diagrammaga asoslanib, erkaklar va ayollarning marafon vaqtlarining taqsimotini solishtiring.



(d) Quyidagi vaqt qatorlari diagrammasi ushbu ma’lumotlarga boshqa bir qarashni taqdim etadi. Ushbu diagrammada ko‘rinadigan, ammo boshqalarda ko‘rinmaydigan narsalar haqida izoh bering.



3-BOB

Ehtimollik

3.1 Ehtimollikni ta’riflari

3.2 Shartli ehtimollik

3.3 Kichik bosh to‘plamdan tanlanma olish

3.4 Tasodifiy miqdorlar

3.5 Uzluksiz taqsimotlar

Ehtimollik statistikaning asosini tashkil qiladi va siz ushbu bobda keltirilgan ko‘plab g‘oyalar bilan allaqachon tanish bo‘lishingiz mumkin. Ammo ehtimollik tushunchalarini rasmiylashtirish ko‘pchilik o‘quvchilar uchun yangilik hisoblanadi. Ushbu bob keyingi boblardagi g‘oyalar uchun nazariy asosni ta’minlaydi va chuqurroq tushunishga yo‘l ochadi, lekin ushbu bobda keltirilgan tushunchalarni, kitobning qolgan qismida kiritilgan usullarni qo‘llash uchun mukammal egallash shart emas.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**

3.1 Ehtimollikni ta'riflari

Statistika ehtimollikka asoslanadi va garchi ushbu kitobdagi qo'llanma texnikalari uchun ehtimollik zarur bo'lmasa-da, bu sizga usullarni chuqurroq tushunishga yordam berishi va keyingi kurslar uchun yaxshiroq asos yaratishi mumkin.

3.1.1 Kirish misollari

Texnik g'oyalarga o'tishdan oldin, tanishroq tuyulishi mumkin bo'lgan ba'zi oddiy misollarni ko'rib chiqaylik.

3.1-MISOL

Shoshqol toshi (Kubik yoki zarik deb ham ataladi. Bir xillikni taminlash maqsadida keyingi o'rinlarda kub yozuvini ishlatamiz), oltita tomoniga 1, 2, 3, 4, 5 va 6 raqamlari tushirilgan kub shaklida bo'ladi. Kub tashlanganda 1 chiqish ehtimoli qancha?

Agar kub simmetrik bo'lsa, 1 chiqish ehtimolligi boshqa raqamlar chiqish ehtimolliklariga teng bo'ladi. Oltita teng imkoniyatli natija bo'lgani uchun, ehtimollik 1/6 (1 taqsim 6) ga teng bo'ladi.

3.2-MISOL

Keyingi tashlashda 1 yoki 2 chiqish ehtimoli qancha?

---

1 va 2 oltita teng imkoniyatli natijalarning ikkitasini tashkil qiladi, shuning uchun ushbu ikki natijadan birini olish ehtimoli $2/6 = 1/3$ ga teng bo'ladi.

3.3-MISOL

Keyingi tashlashda 1, 2, 3, 4, 5, yoki 6 chiqish ehtimoli qancha?

100%. Natija bu raqamlardan biri bo'lishi shart.

3.4-MISOL

2 chiqmaslik ehtimoli qancha?

---

2 chiqish ehtimoli 1/6 yoki $16,\bar{6}\%$ bo'lgani uchun, 2 chiqmaslik ehtimoli $100\% - 16,\bar{6}\% = 83,\bar{3}\%$ yoki 5/6 ga teng bo'ladi. E'tibor bering, masalan biz $16,\bar{6}\%$ yozuvini $16,66666\ldots\%$ uchun ishlatamiz. Balki siz maktabda bu davriy kasr uchun $16,(6)$ yozuvini ishlatgandirsiz.

Bundan tashqari, 2 chiqmaslik 1, 3, 4, 5 yoki 6 chiqish bilan bir xil ekanini payqashimiz mumkin edi. Bu oltita teng imkoniyatli natijadan beshtasini tashkil qiladi va ehtimoli 5/6 ga teng.

3.5-MISOL

Ikkita kubni tashlashni ko'rib chiqaylik. Agar birinchi kubning 1 bo'lish ehtimoli 1/6 bo'lsa va ushbu holatlarning 1/6 qismi ikkinchi kubning ham 1 bo'lishiga to'g'ri kelsa, ikkala kubning ham 1 bo'lish ehtimoli qancha?

Agar birinchi kub 1 bo'lishi ehtimoli 1/6 ($16,\bar{6}\%$) bo'lsa va ushbu holatlarning 1/6 qismi ikkinchi kubning ham 1 bo'lishiga to'g'ri kelsa, unda ikkala kubning ham 1 bo'lish ehtimoli $(1/6) \times (1/6)$ yoki 1/36 ga teng bo'ladi.

3.1.2 Ehtimollik

Ehtimollikdan biz ko'rinib turgan tasodifiylikni tavsiflash va anglash uchun vositalar yaratishda foydalanamiz. Odatda ehtimollikni biror **tasodifiy jarayon** muayyan natijani keltirib chiqaradi

degan tarzda qaraymiz.

kub tashlash	→	`1`, `2`, `3`, `4`, `5` yoki `6`
tanga tashlash	→	`R` yoki `G`


kub yoki tanga tashlash tasodifiy jarayon bo'lib, har biri ma'lum natijaga olib keladi.

EHTIMOLLIK

Ehtimollik - bu tasodifiy jarayonni cheksiz marta kuzatganimizda biror natijaning yuz berish ulushi.

Ehtimollik ulush sifatida aniqlanadi va har doim 0 va 1 oralig'idagi (chegaralar kiradi) qiymatlarni oladi. Uni shuningdek 0% dan 100% gacha ko'rinishida ifodalash ham mumkin.

Ehtimollikni ko'p marta kub tashlash orqali tasvirlash mumkin. $\hat{p}_n$ birinchi n marta tashlashdan keyin `1` chiqishi ulushi bo'lsin. Tashlashlar soni oshgani sayin, `1` tushishi ehtimoli $\hat{p}_n$ ning qiymati $p = 1/6$ ga yaqinlashadi. 3.1-rasmda bu yaqinlashuv 100000 marta kub tashlash uchun ko'rsatilgan. $\hat{p}_n$ ning p atrofida tebranish (yoki barqarorlashish) tendentsiyasi **katta sonlar qonuni** orqali izohlanadi.



3.1-rasm. Har bir bosqichda kub tashlashda `1` tushishining ulushi. Tajribalar soni ortgani sari bu ko'rsatkich $1/6 \approx 0{,}167$ ehtimollikka yaqinlashadi.

KATTA SONLAR QONUNI

Kuzatuvlar soni ortgani sari, ma'lum bir natijaning $\hat{p}_n$ ulushi ushbu natijaning p ehtimolligiga yaqinlashadi.

Ba'zida ulush ehtimollikdan uzoqlashadi va katta sonlar qonuniga zid ko'rinadi, masalan, $\hat{p}_n$ 3.1-rasmda ko'rsatilganidek bir necha marta bunday holatga tushadi. Ammo, bu og'ishlar kub tashlashlar soni ortgani sari kichiklashib boradi.

Yuqorida p ni `1` tushishi ehtimolligi sifatida yozdik. Ushbu ehtimollikni quyidagicha ham yozishimiz mumkin:

$$P(\texttt{1 tushish ehtimolligi}) \ .$$

Bu belgilashga ko'nikkanimiz sari, uni qisqartirib yozamiz. Masalan, jarayon "kub tashlash" ekanligi aniq bo'lsa, $P(\texttt{1 tushishi})$ qisqartirilgan holda $P(\texttt{1})$ deb yozilishi mumkin.

Y **3.6-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Tasodifiy jarayonlarga kub tashlash va tanga tashlash kiradi. (a) Yana bir tasodifiy jarayonni o'ylab toping. (b) Ushbu jarayonning barcha mumkin bo'lgan natijalarini tavsiflang. Masalan, kub tashlash tasodifiy jarayon bo'lib, mumkin bo'lgan natijalari `1`, `2`, ..., `6` bo'ladi.[1]

Biz tasodifiy jarayon deb hisoblaydigan narsalar har doim ham tasodifiy emas, balki ularni aniq tushunish qiyin bo‘lishi mumkin. 3.6-yo‘naltirilgan mashqda keltirilgan izohning to‘rtinchi misoli xonadoshning xatti-harakatlarini tasodifiy jarayon sifatida ko‘rsatadi. Ammo, xonadoshning xatti-harakati haqiqatan ham tasodifiy bo‘lmasa ham, uni tasodifiy jarayon sifatida modellashtirish foydali bo‘lishi mumkin.

3.1.3 Birgalikdamas yoki o‘zaro istisno natijalar

Ikki natija **birgalikdamas** (birgalikda bo‘lmagan) yoki **o‘zaro istisno** deb ataladi, agar ular bir vaqtda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lmasa. Masalan, agar biz kub tashlasak, `1` va `2` natijalari birgalikdamas hisoblanadi, chunki ular bir vaqtda yuzaga kelishi mumkin emas. Boshqa tomondan, `1` va “toq tushishi” natijalari birgalikda yuz berishi mumkin. Chunki agar tashlash natijasi `1` bo‘lsa, har ikkalasi ham yuz beradi. *Birgalikdamas* va *o‘zaro istisno* tushunchalari bir-biriga teng kuchli va bir-birining o‘rniga ishlatilishi mumkin.

Birgalikdamas natijalar ehtimolini hisoblash oson. Kub tashlaganda, `1` va `2` natijalari birgalikdamas bo‘lib, ushbu natijalardan birining yuzaga kelish ehtimolini ularning alohida ehtimollarini qo‘shish orqali hisoblaymiz:

$$P(\texttt{1 yoki 2}) = P(\texttt{1} \cup \texttt{2}) = P(\texttt{1}) + P(\texttt{2}) = 1/6 + 1/6 = 1/3.$$

Kubning `1`, `2`, `3`, `4`, `5` yoki `6` natijalari chiqishi ehtimoli ham birgalikdamas bo‘lib, biz ehtimolliklarni qo‘shamiz:

$$\begin{aligned} &P(\texttt{1 yoki 2 yoki 3 yoki 4 yoki 5 yoki 6}) \\ &\quad = P(\texttt{1}) + P(\texttt{2}) + P(\texttt{3}) + P(\texttt{4}) + P(\texttt{5}) + P(\texttt{6}) \\ &\quad = 1/6 + 1/6 + 1/6 + 1/6 + 1/6 + 1/6 = 1. \end{aligned}$$

Qo‘shish qoidasi natijalar birgalikdamas bo‘lganda bu yondashuvning to‘g‘riligini kafolatlaydi.

BIRGALIKDAMAS NATIJALAR UCHUN QO‘SHISH QOIDASI

Agar A_1 va A_2 ikkita birgalikdamas natijalarni ifodalasa, unda ulardan birining sodir bo‘lish ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(A_1 \text{ yoki } A_2) = P(A_1) + P(A_2).$$

Agar ko‘plab birgalikdamas natijalar mavjud bo‘lsa, masalan, A_1, ..., A_k unda ushbu natijalarning birining sodir bo‘lish ehtimoli quyidagicha aniqlanadi:

$$P(A_1) + P(A_2) + \cdots + P(A_k)\ .$$

3.7-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Biz `1`, `4` yoki `5` natijalarini olish ehtimolini hisoblamoqchimiz. (a) `1`, `4` va `5` natijalari nima uchun birgalikdamas ekanligini tushuntiring. (b) birgalikdamas natijalar uchun qo‘shish qoidasi yordamida $P(\texttt{1 yoki 4 yoki 5})$ ni aniqlang.[2]

3.8-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

`loans` ma’lumotlar to‘plamida (2-bob) `homeownership` o‘zgaruvchisi qarz oluvchining ijarada yashashi, ipoteka uyga egaligi yoki uyni o‘z mulkida ekanligini tasvirlaydi. 10000 qarz oluvchidan

[1] Mana to‘rtta misol. (i) Kimningdir kelasi oy kasal bo‘lishi yoki bo‘lmasligi tasodifiy jarayon bo‘lib, natijalari `kasal` va `kasal emas`. (ii) tasodifiy jarayonni yaratish uchun bir kishini tasodifiy tanlab, uning bo‘yini o‘lchash mumkin. Bu jarayonning natijasi musbat son bo‘ladi. (iii) Kelasi hafta fond bozori ko‘tariladi yoki tushadi, bu tasodifiy jarayon `ko‘tariladi`, `tushadi` va `o‘zgarmaydi` natijalari bilan ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, fond bozorining o‘zgarishini foizlarda raqamli natija sifatida ishlatish mumkin edi. (iv) Xonadoshingiz bugun kechqurun idishlarni yuvadimi yoki yo‘qmi, bu tasodifiy jarayon bo‘lib tuyuladi va natijalar `idish yuvdi` va `idish yuvmadi`.

[2] (a) tasodifiy jarayon kub tashlash bo‘lib, bu natijalardan bir vaqtning o‘zida faqat bittasi yuzaga kelishi mumkin. Bu ularning birgalikdamas ekanligini anglatadi. (b) $P(\texttt{1 yoki 4 yoki 5}) = P(\texttt{1}) + P(\texttt{4}) + P(\texttt{5}) = \frac{1}{6} + \frac{1}{6} + \frac{1}{6} = \frac{3}{6} = \frac{1}{2}$.


3858 tasi ijarada yashagan, 4789 tasi ipotekaga ega va 1353 tasi o'z uyiga ega bo'lgan.[3]

(a) ijara (`rent`), ipoteka (`mortgage`), va uy-joyga egalik (`own`) natijalari birgalikdami?

(b) Ipoteka va uy-joyga egalik qarzdorlar ulushini alohida hisoblang.

(c) birgalikdamas natijalar uchun qo'shish qoidasi yordamida tasodifiy tanlangan qarz ipoteka yoki uy-joyga ega bo'lgan shaxsga tegishli bo'lish ehtimolini hisoblang.

Ma'lumotlar bilan ishlaydigan olimlar kamdan-kam hollarda individual natijalar bilan ishlaydi. Buning o'rniga *natijalar to'plamlari* bilan shug'ullanadi. Keling, A hodisa kub tashlash natijasi `1` yoki `2` bo'lishini, B esa kub natijasi `4` yoki `6` bo'lishini ifodalasin. Biz A ni $\{$`1`, `2`$\}$ natijalar to'plami sifatida va $B = \{$`4`, `6`$\}$ sifatida yozamiz. Ushbu to'plamlar odatda **hodisa** deb ataladi. A va B umumiy elementlarga ega bo'lmagani uchun ular birgalikdamas hodisalar hisoblanadi. A va B 3.2-rasmda tasvirlangan.



3.2-rasm. Uchta hodisa A, B va D kub tashlash natijalaridan iborat. A va B birgalikdamas, chunki ular umumiy natijalarga ega emas.

Qo'shish qoidasi birgalikdamas natijalar va birgalikdamas hodisalar uchun qo'llaniladi. Birgalikdamas hodisalar A yoki B dan birining sodir bo'lish ehtimoli ularning alohida ehtimollari yig'indisiga teng:

$$P(A \text{ yoki } B) = P(A) + P(B) = 1/3 + 1/3 = 2/3.$$

3.9-YO'NALTIRILGAN MASHQ

(a) Qo'shish qoidasi yordamida A hodisa ehtimoli $P(A)$ ni $1/3$ ga teng ekanligini tasdiqlang. (b) Xuddi shu usulda B hodisa uchun ham hisoblang.[4]

3.10-YO'NALTIRILGAN MASHQ

(a) 3.2-rasmda tasvirlanganidek, D hodisa qaysi natijalarni ifodalaydi? (b) B va D hodisalari birgalikdami? (c) A va D hodisalari birgalikdami?[5]

3.11-YO'NALTIRILGAN MASHQ

3.10-yo'naltirilgan mashg'ulotida siz 3.2-rasmda B va D hodisalarining birgalikdamas ekanligini tasdiqladingiz. B yoki D hodisa sodir bo'lish ehtimolini hisoblang.[6]

3.1.4 Birgalikda bo'lgan hodisalar ehtimolliklari

Keling, 52 talik odatiy kartalar to'plamida birgalikdamas ikkita hodisa uchun hisob-kitoblarni ko'rib chiqamiz. Bular 3.3-rasmda tasvirlangan. Agar odatiy karta to'plami bilan tanish bo'lmasangiz, izohni qarang.[7]

3.3-rasmda o'yin kartalarining to'liq to'plami tasvirlangan. Ushbu rasmda kartalar shakllari (mastlari) ketma-ket qatorlar ko'rinishida joylashtirilgan. Quyida har bir shaklning o'zbek tilidagi nomi va uning 3.3-rasmdagi vizual ifodasi izohlanadi. Xususan, birinchi qatorda `chillak` (g'ola) (♣), ikkinchi qatorda `g'isht` (olmos) (♢) , uchinchi qator `toppon` (qalb, yurak) (♡) va to'rtinchi

[3](a) Ha. Har bir qarz faqat `homeownership` o'zgaruvchisining bitta toifasiga kiradi. (b) Ipoteka: $\frac{4789}{10000} = 0{,}479$. O'z uyi: $\frac{1353}{10000} = 0{,}135$. (c) $P($`ipoteka` yoki `egalik`$) = P($`ipoteka`$) + P($`egalik`$) = 0{,}479 + 0{,}135 = 0{,}614$.

[4](a) $P(A) = P($`1` yoki `2`$) = P($`1`$) + P($`2`$) = \frac{1}{6} + \frac{1}{6} = \frac{2}{6} = \frac{1}{3}$. (b) Xuddi shu tarzda, $P(B) = 1/3$.

[5](a) Natijalar: `2` va `3`. (b) Ha, B va D hodisalari birgalikdamas, chunki ular umumiy natijalarga ega emas. (c) A va D hodisalari umumiy natija `2` ga ega, shuning uchun ular birgalikda.

[6]Chunki B va D birgalikdamas hodisalar, Qo'shish qoidasi qo'llaniladi: $P(B$ yoki $D) = P(B) + P(D) = \frac{1}{3} + \frac{1}{3} = \frac{2}{3}$.

[7]52 ta karta to'rtta shaklga bo'linadi: ♣ (chillak), ♢ (g'isht), ♡ (tappon), ♠ (qarg'a). Har bir shakl 13 ta kartaga ega: `2`, `3`, ... , `10`, `J` (valet), `Q` (malika), `K` (qirol) va `A` (tuz). Shu bilan birga, har bir karta shakl va belgining o'ziga xos kombinatsiyasidir, masalan, 4♡ va J♣. Valet, malika va qirollar bilan ifodalangan 12 ta karta `suratli kartalar` deb ataladi. ♢ yoki ♡ bo'lgan kartalar odatda qizil rangda bo'ladi, qolgan ikkita shakl esa qora rangda bo'ladi.

2♣	3♣	4♣	5♣	6♣	7♣	8♣	9♣	10♣	J♣	Q♣	K♣	A♣
2♢	3♢	4♢	5♢	6♢	7♢	8♢	9♢	10♢	J♢	Q♢	K♢	A♢
2♡	3♡	4♡	5♡	6♡	7♡	8♡	9♡	10♡	J♡	Q♡	K♡	A♡
2♠	3♠	4♠	5♠	6♠	7♠	8♠	9♠	10♠	J♠	Q♠	K♠	A♠

3.3-rasm. Kartalar to‘plamidagi 52 ta karta tasviri.

qatorda esa `qarg‘a` (qilich) (♠) shakliga mansub kartalar ko‘rsatilgan.


Bundan tashqari, kartalar ikki asosiy turga ajratiladi: suratli kartalar va suratli bo‘lmagan kartalar. Suratli kartalarga valet (`J`), dama (malika) (`Q`) va qirol (`K`) kiradi, suratli bo‘lmagan kartalar esa raqamli kartalardan va tuzdan (`A`) iborat. Ushbu farqlash kartalar tuzilishini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi va 3.3-rasmni talqin qilishni osonlashtiradi.

Y

3.12-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

(a) Tasodifiy tanlangan karta g‘isht bo‘lish ehtimoli qanday? (b) Tasodifiy tanlangan karta suratli karta bo‘lish ehtimoli qanday?[8]

Venn diagrammalari natijalarni ikki yoki uchta o‘zgaruvchi, atribut yoki tasodifiy jarayon uchun “ichida” yoki “tashqarida” sifatida tasniflashda foydali. 3.4-rasmdagi Venn diagrammasida bir doira g‘ishtlarni, ikkinchisi esa suratli kartalarni ifodalaydi. Agar bir karta g‘isht va suratli karta bo‘lsa, u doiralar kesishmasiga tushadi. Agar karta g‘isht bo‘lib, suratli karta bo‘lmasa, u chap doiraning o‘ng doira bilan kesishmaydigan qismiga tushadi (va hokazo). G‘isht bo‘lgan kartalar soni g‘isht doirasidagi kartalar umumiy soni bilan berilgan: $10 + 3 = 13$. Ehtimollar ham ko‘rsatilgan (masalan, $10/52 = 0{,}1923$).



3.4-rasm. Olmoslar (yoki g‘ishtlar) va suratli kartalar uchun Venn diagrammasi.

A yordamida tasodifiy tanlangan karta g‘isht bo‘lish hodisasini, B bilan esa suratli karta bo‘lish hodisasini belgilaymiz. $P(A \text{ yoki } B)$ ni qanday hisoblaymiz? A va B hodisalari kesishadi – $J♢$, $Q♢$ va $K♢$ kartalari ikkala toifaga ham kiradi – shuning uchun biz kesishadigan hodisalar uchun qo‘shish qoidasidan foydalana olmaymiz. Buning o‘rniga Venn diagrammasidan foydalanamiz. Dastlab, ikkala hodisa ehtimollarini qo‘shamiz:

$$P(A) + P(B) = P(♢) + P(\text{suratli karta}) = 13/52 + 12/52 \ .$$

Biroq, ikkala hodisadagi uchta karta – ikkala ehtimolda ham ishtirok etgan. Ya’ni ikki marta hisoblangan. Biz bu ikki marta hisoblashni tuzatishimiz kerak:

$$\begin{aligned} P(A \text{ yoki } B) &= P(♢ \text{ yoki suratli karta}) \\ &= P(♢) + P(\text{suratli karta}) - P(♢ \text{ va suratli karta}) \\ &= 13/52 + 12/52 - 3/52 \\ &= 22/52 = 11/26 \ . \end{aligned}$$

Ushbu tenglama **umumiy qo‘shish qoidasi**ga misoldir.

[8] (a) 52 ta kartada jami 13 ta g‘ishtli karta mavjud. Agar kartalar yaxshilab aralashtirilgan bo‘lsa, har bir kartani tanlash ehtimoli bir xil, shuning uchun tasodifiy tanlangan karta g‘isht bo‘lish ehtimoli $P(♢) = \frac{13}{52} = 0{,}250$. (b) Xuddi shunday, 12 ta suratli karta mavjud, shuning uchun $P(\text{suratli karta}) = \frac{12}{52} = \frac{3}{13} = 0{,}231$.

UMUMIY QO'SHISH QOIDASI

Agar A va B har qanday ikkita hodisa bo'lsa (kesishadigan yoki kesishmaydigan), unda hech bo'lmaganda bittasi sodir bo'lish ehtimoli:

$$P(A \text{ yoki } B) = P(A) + P(B) - P(A \text{ va } B)$$

bu yerda $P(A \text{ va } B)$ ikkala hodisaning ham sodir bo'lish ehtimoli.

IZOH: "yoki" inklyuzivdir

Statistikada biz "yoki" deb yozsak, agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa "va/yoki" ni nazarda tutamiz. Shunday qilib, A yoki B sodir bo'lishi A, B yoki ikkalasi (A va B birgalikda) sodir bo'lishi deganidir.

3.13-YO'NALTIRILGAN MASHQ

(a) Agar A va B kesishmaydigan bo'lsa, nima uchun $P(A \text{ va } B) = 0$ bo'lishini tushuntiring. (b) yuqoridagi (a) qismdan foydalangan holda, umumiy qo'shish qoidasining A va B kesishmaydigan bo'lganda oddiy qo'shish qoidasiga soddalashishini tasdiqlang.[9]

3.14-YO'NALTIRILGAN MASHQ

`loans` ma'lumotlar to'plamida 10000 ta kredit tasvirlangan, 1495 ta kredit qo'shma arizalardan (masalan, juftlik birgalikda murojaat qilgan), 4789 ta murojaat qiluvchining ipotekasi bo'lgan, va 950 tasi ushbu ikkala xususiyatga ega edi. Ushbu vaziyat uchun Venn diagrammasini yarating.[10]

3.15-YO'NALTIRILGAN MASHQ

(a) 3.14-yo'naltirilgan mashqdagi Venn diagrammadan foydalanib, tasodifiy tanlangan kredit `loans` ma'lumotlar to'plamidan ipotekaga ega bo'lgan juftlikning qo'shma arizasidan ekanligini aniqlang. (b) Kredit ushbu xususiyatlardan hech bo'lmaganda biriga ega bo'lish ehtimoli qanday?[11]

3.1.5 Ehtimollik taqsimotlari


Ehtimollik taqsimoti – bu barcha birgalikdamas natijalar va ularga tegishli ehtimollarning jadvali. 3.5-rasmda ikkita kub yig'indisi uchun ehtimollik taqsimoti tasvirlangan.

Kublar yig'indisi	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ehtimollik	$\frac{1}{36}$	$\frac{2}{36}$	$\frac{3}{36}$	$\frac{4}{36}$	$\frac{5}{36}$	$\frac{6}{36}$	$\frac{5}{36}$	$\frac{4}{36}$	$\frac{3}{36}$	$\frac{2}{36}$	$\frac{1}{36}$

3.5-rasm. Ikkita kub yig'indisi uchun ehtimollik taqsimoti.

[9] (a) Agar A va B kesishmaydigan bo'lsa, A va B hech qachon bir vaqtning o'zida sodir bo'la olmaydi. (b) Agar A va B kesishmaydigan bo'lsa, unda umumiy qo'shish qoidasidagi $P(A \text{ va } B)$ oxirgi qismi 0 ga teng ((a) qismga qarang) va bizda kesishmaydigan voqealar uchun qo'shish qoidasigina qoladi.

[10] Faqat ipotekali uyga tegishli ehtimollar (masalan, 3839/10000 = 0,384) ko'rsatilgan. Chap doira bilan ifodalangan kreditlar soni 3839 + 950 = 4789 ga, va o'ng doira bilan ifodalangan kreditlar soni 950 + 545 = 1495 ga teng.



[11] (a) Yechim ikki doiraning kesishmasi bilan ifodalanadi: 0,095. (b) Bu doiralarda ko'rsatilgan uchta kesishmaydigan ehtimollarning yig'indisi: 0,384 + 0,095 + 0,055 = 0,534 (yaxlitlash xatosi tufayli 0,001 ga farq qilishi mumkin).

EHTIMOLLIK TAQSIMOTI QOIDALARI

Ehtimollik taqsimoti, quyidagi uchta qoidaga bo‘ysunadigan, mumkin bo‘lgan natijalar va ularga mos ehtimolliklar ro‘yxatidir:

1. Ro‘yxatdagi natijalar birgalikda bo‘lmasligi kerak;
2. Har bir ehtimollik 0 va 1 oralig‘ida bo‘lishi kerak;
3. Ehtimolliklarning yig‘indisi 1 ga teng bo‘lishi kerak.


Y **3.16-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.6-rasm AQShdagi uy xo‘jaliklari daromadlari uchun uchta taqsimotni taklif qiladi. Faqat bittasi to‘g‘ri. Qaysi biri to‘g‘ri? Qolganlari nima uchun noto‘g‘ri?[12]

Daromad diapazoni	$0-25k	$25k-50k	$50k-100k	$100k+
(a)	0,18	0,39	0,33	0,16
(b)	0,38	−0,27	0,52	0,37
(c)	0,28	0,27	0,29	0,16

3.6-rasm. AQShdagi uy xo‘jaliklari daromadlari uchun taklif qilingan taqsimotlar.

1-bobda ma’lumotlarni tezkor xulosa chiqarish uchun grafikli tasvirlashning muhimligi ta’kidlangan edi. Ehtimollik taqsimotlarini ham ustunli diagramma yordamida qisqacha ko‘rsatish mumkin. Masalan, AQSh uy xo‘jaliklari daromadlari taqsimoti 3.7-rasmda ustunli diagramma sifatida tasvirlangan. Ikkita kub yig‘indisi uchun ehtimollik taqsimoti 3.5-rasmda va uning ustunli diagramma ko‘rinishi 3.8-rasmda tasvirlangan.




3.7-rasm. AQShdagi uy xo‘jaliklari daromadlari uchun ehtimollik taqsimoti.

Ushbu ustunli diagrammalarda, ustunlarning balandligi natijalar ehtimollarini ifodalaydi. Agar natijalar raqamli va diskret bo‘lsa, ikkita kub yig‘indisi holatidagi kabi, gistogrammaga o‘xshash ustunli diagrammani tuzish odatda qulay bo‘ladi. Ustunlarning mos joylashuvlarda tasvirlangan yana bir misoli 3.18-rasmda (113-sahifa) ko‘rsatilgan.

3.1.6 Hodisaning to‘ldiruvchisi


Kub tashlash natija sifatida $\{1, 2, 3, 4, 5, 6\}$ to‘plamini hosil qiladi. Ushbu barcha mumkin bo‘lgan natijalarning to‘plami kub tashlash uchun **elementar hodisalar fazosi** deb ataladi. Biz ko‘pincha elementar hodisalar fazosidan voqea yuz bermagan holatni o‘rganish uchun foydalanamiz. Tasodifiy kub tashlash natijasi 2 yoki 3 bo‘lishi hodisasini $D = \{2, 3\}$ deb belgilaymiz. Unda D ning

[12] (a)-dagi ehtimolliklar yig‘indisi 1 ga teng emas. (b)-dagi ikkinchi ehtimollik manfiy. Faqat (c) qoladi va u ehtimollik taqsimoti talablariga mos keladi. Uchta taqsimotdan biri AQShdagi uy xo‘jaliklari daromadlarining haqiqiy taqsimoti deb aytilgan. Shuning uchun bu (c) bo‘lishi kerak.



3.8-rasm. Ikkita kub yig'indisi uchun ehtimollik taqsimoti.

to'ldiruvchisi (yoki teskarisi) muqarrar hodisa (elementar hodisalar fazosi)dagi D ga kirmaydigan barcha natijalarni ifodalaydi va $D^c = \{1, 4, 5, 6\}$ deb yoziladi. Ya'ni, D^c hodisa D ga kiritilmagan barcha mumkin bo'lgan natijalar to'plamidir. 3.9-rasmda D, D^c va muqarrar hodisa S o'rtasidagi munosabatlar tasvirlangan.



3.9-rasm. $D = \{2, 3\}$ hodisa va uning to'ldiruvchisi $D^c = \{1, 4, 5, 6\}$. S muqarrar hodisa (elementar hodisalar fazosi)ni ifodalaydi, bu barcha mumkin bo'lgan natijalar to'plamidir.

3.17-YO'NALTIRILGAN MASHQ

(a) $P(D^c) = P(1, 4, 5 \text{ yoki } 6)$ ni hisoblang. (b) $P(D) + P(D^c)$ ni hisoblang?[13]

3.18-YO'NALTIRILGAN MASHQ

85-sahifadagi 3.2-rasmda $A = \{1, 2\}$ va $B = \{4, 6\}$ hodisalari tasvirlangan. (a) A^c va B^c nimani ifodalaydi? (b) $P(A^c)$ va $P(B^c)$ ni hisoblang. (c) $P(A) + P(A^c)$ va $P(B) + P(B^c)$ ni hisoblang.[14]

Hodisa A ning to'ldiruvchisi A^c ikkita juda muhim xossaga ega: (i) A ga kirmaydigan har bir mumkin bo'lgan natija A^c ga kiradi va (ii) A va A^c birgalikdamas. (i) xossa quyidagini anglatadi:

$$P(A \text{ yoki } A^c) = 1 \ .$$

Ya'ni, agar natija A ga kirmasa, u A^c da bo'lishi kerak. Birgalikdamas hodisalar uchun qo'shish qoidasidan foydalangan holda, (ii)-xossani qo'llaymiz:

$$P(A \text{ yoki } A^c) = P(A) + P(A^c) \ .$$

So'nggi ikkita tenglamani birlashtirish hodisa va uning to'ldiruvchisi ehtimolligi o'rtasida juda foydali bog'liqlikni beradi.

[13](a) Hodisalar birgalikda emas, har biri 1/6 ehtimolga ega, shuning uchun umumiy ehtimol $4/6 = 2/3$. (b) Shuningdek, $P(D) = \frac{1}{6} + \frac{1}{6} = 1/3$. D va D^c birgalikda emas bo'lgani uchun, $P(D) + P(D^c) = 1$.

[14]Qisqa yechimlar: (a) $A^c = \{3, 4, 5, 6\}$ va $B^c = \{1, 2, 3, 5\}$. (b) Har bir hodisa birgalikdamas ekanligini hisobga olib, hodisa ehtimollarini qo'shing: $P(A^c) = 2/3$ va $P(B^c) = 2/3$. (c) A va A^c birgalikdamas va B va B^c uchun ham shunday. Shuning uchun, $P(A) + P(A^c) = 1$ va $P(B) + P(B^c) = 1$.

TO‘LDIRUVCHI

A hodisaning to‘ldiruvchisi A^c bilan belgilanadi va A^c hodisa A ga kirmaydigan barcha natijalarni ifodalaydi. A va A^c matematik jihatdan quyidagicha bog‘langan:

$$P(A) + P(A^c) = 1, \quad \text{ya'ni} \quad P(A) = 1 - P(A^c) \ .$$

Oddiy misollarda A yoki A^c ni hisoblash bir necha qadamda amalga oshirilishi mumkin. Ammo, masalalar murakkablashganida, to‘ldiruvchidan foydalanish ko‘p vaqtni tejashi mumkin.

Y **3.19-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

A hodisa ikkita kub tashlanganda, ularning yig‘indisi 12 dan kichik bo‘lgan holatni ifodalaydi. (a) A^c hodisa nimani anglatadi? (b) $P(A^c)$ ni 3.5-rasmdan (87-sahifa) foydalanib hisoblang. (c) $P(A)$ ni aniqlang.[15]

Y **3.20-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Ikki kub tashlash uchun quyidagi ehtimollarni aniqlang:[16]

(a) kub yig‘indisi 6 emas.

(b) Yig‘indi kamida 4 ga teng. Ya'ni, $B = \{4, 5, ..., 12\}$ hodisaning ehtimolini aniqlang.

(c) Yig‘indi 10 dan oshmasligi kerak. Ya'ni, $D = \{2, 3, ..., 10\}$ hodisaning ehtimolini aniqlang.

3.1.7 Bog‘liqsizlik

Xuddi o‘zgaruvchilar va kuzatuvlar bog‘liqsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgani kabi, tasodifiy hodisalar ham bog‘liqsiz bo‘lishi mumkin. Agar bir hodisa natijasini bilish ikkinchi hodisa natijasiga oid hech qanday foydali ma'lumot bermasa, bu hodisalar **bog‘liqsiz** deb ataladi. Masalan, tangani tashlash va kubni tashlash ikki bog‘liqsiz hodisadir – tangada gerb tushganini bilish kub tashlash natijasini aniqlashga yordam bermaydi. Boshqa tomondan, aksiya narxlarini olsak, ular odatda birgalikda ko‘tariladi yoki tushadi. Shuning uchun ularni bog‘liqsiz deb bo‘lmaydi.

3.5-misol ikkita kubning tashlanishiga oid bog‘liqsiz hodisa misolini taqdim etadi. Har ikkala kubda ham 1 chiqishi ehtimolini aniqlamoqchimiz. Faraz qilaylik, kublardan biri qizil, ikkinchisi oq. Agar qizil kub natijasi 1 bo‘lsa, bu oq kub natijasi haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Ushbu savolni biz ilk bor 3.5-misol (82-sahifa) da ko‘rib chiqdik va ehtimolni quyidagi mantiq yordamida hisobladik: tashlashlarning 1/6 qismida qizil kub 1 va tashlashlarning 1/6 qismida oq kub ham 1 bo‘ladi. Bu holat 3.10-rasmda ko‘rsatilgan. Tashlashlar bog‘liqsiz bo‘lgani uchun, tegishli natijalarning ehtimolliklarini yakuniy javobni olish uchun ko‘paytirish mumkin: $(1/6) \times (1/6) = 1/36$. Ushbu mantiqni ko‘plab bog‘liqsiz hodisa(jarayon)larga umumlashtirish mumkin.

M **3.21-MISOL**

Agar ikkitasidan boshqa bog‘liqsiz ko‘k kub ham bo‘lsa-chi? Uchta kubni tashlashda hammasida 1 tushish ehtimoli qanday?

Xuddi shu mantiq 3.5-misolda qo‘llaniladi. Agar 1/36 qismida oq va qizil kublar ikkalasida ham 1 tushsa, unda o‘sha holatlarning 1/6 qismida ko‘k kubda ham 1 tushadi, shuning uchun ko‘paytiramiz:

$$\begin{aligned} P(\text{oq} = 1 \text{ va qizil} = 1 \text{ va ko‘k} = 1) &= P(\text{oq} = 1) \times P(\text{qizil} = 1) \times P(\text{ko‘k} = 1) \\ &= (1/6) \times (1/6) \times (1/6) = 1/216. \end{aligned}$$


3.21-misol bog‘liqsiz hodisalar uchun ko‘paytirish qoidasini namoyish etadi.

[15] (a) A ning to‘ldiruvchisi yig‘indi 12 ga teng bo‘lgan holat. (b) $P(A^c) = 1/36$. (c) To‘ldiruvchining ehtimolidan foydalanib $P(A^c) = 1/36$ ni olamiz. Tenglama bo‘yicha $P(12 \text{ dan kichik}) = 1 - P(12) = 1 - 1/36 = 35/36$.

[16] (a) Avval $P(6) = 5/36$ ni toping, so‘ngra to‘ldiruvchidan foydalaning $P(6 \text{ emas}) = 1 - P(6) = 31/36$.

(b) Avval to‘ldiruvchisini toping, bu kamroq vaqt talab qiladi: $P(2 \text{ yoki } 3) = 1/36 + 2/36 = 1/12$. Keyin $P(B) = 1 - P(B^c) = 1 - 1/12 = 11/12$.

(c) Xuddi avvalgidek, to‘ldiruvchisini topish orqali $P(D)$ ni hisoblang. Avval $P(D^c) = P(11 \text{ yoki } 12) = 2/36 + 1/36 = 1/12$ ni toping. Keyin $P(D) = 1 - P(D^c) = 11/12$.



3.10-rasm. Tashlashlarning 1/6 qismida `1` tushadi. Keyin shu holatlarning 1/6 qismida ikkinchi tashlash ham `1` bo'ladi.

BOG'LIQSIZ HODISALAR UCHUN KO'PAYTIRISH QOIDASI

Agar A va B ikki turli va bog'liqsiz hodisalarni ifodalasa, unda har ikkala A va B hodisalarning sodir bo'lish ehtimolini ularning alohida ehtimolliklarining ko'paytmasi sifatida hisoblash mumkin:

$$P(A \text{ va } B) = P(A) \times P(B).$$

Xuddi shuningdek, agar A_1, ..., A_k hodisalar k ta bog'liqsiz hodisalar bo'lsa, unda ularning barchasini sodir bo'lish ehtimoli quyidagiga teng bo'ladi:

$$P(A_1) \times P(A_2) \times \cdots \times P(A_k).$$

3.22-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Taxminan 9% odamlar chap qo'l bilan yozadi. Faraz qilaylik, AQSh aholisidan 2 kishi tasodifiy tanlanadi. Tanlanma hajmi aholi soniga nisbatan juda kichik bo'lganligi sababli, bu ikki kishini bog'liqsiz deb faraz qilish mumkin. (a) Ikkalasini ham chap qo'l bilan yozish ehtimoli qanday? (b) Ikkalasini ham o'ng qo'l bilan yozish ehtimoli qanday?[17]

3.23-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Faraz qilaylik, 5 kishi tasodifiy tanlandi.[18]

(a) Hammasining o'ng qo'l bilan yozish ehtimoli qancha?

(b) Hammasining chap qo'l bilan yozish ehtimoli qancha?

(c) Barcha kishilar o'ng qo'l bilan yozmaydi, degan taxmin ehtimoli qancha?

[17] (a) Birinchi kishining chap qo'l bilan yozish ehtimoli 0,09 va bu ikkinchi kishi uchun ham bir xil. Bog'liqsiz hodisalar uchun ko'paytirish qoidasini qo'llab, ikkalasi ham chap qo'l bilan yozish ehtimolini aniqlaymiz: $0{,}09 \times 0{,}09 = 0{,}0081$.

(b) Odamlarning ikkala qo'l bilan yozadiganlari ulushi (ambidextrous) deyarli 0 ga teng deb faraz qilish mumkin. Bu esa $P(\text{o'ng qo'l}) = 1 - 0{,}09 = 0{,}91$ natijani beradi. (a) qismidagi mantiqni ishlatib, ikkalasi ham o'ng qo'l bilan yozish ehtimolini hisoblaymiz: $0{,}91 \times 0{,}91 = 0{,}8281$.

[18] (a) `O'Q` va `ChQ` qisqartmalari mos ravishda o'ng qo'l va chap qo'l uchun ishlatiladi. Har bir kishi bog'liqsiz bo'lgani uchun, Bog'liqsiz hodisalar uchun ko'paytirish qoidasi qo'llaniladi:

$$\begin{aligned} P(\text{besh kishining ham } \texttt{O'Q}) &= P(\text{birinchi} = \texttt{O'Q}, \text{ikkinchi} = \texttt{O'Q}, \ldots, \text{beshinchi} = \texttt{O'Q}) \\ &= P(\text{birinchi} = \texttt{O'Q}) \times P(\text{ikkinchi} = \texttt{O'Q}) \times \cdots \times P(\text{beshinchi} = \texttt{O'Q}) \\ &= 0{,}91 \times 0{,}91 \times 0{,}91 \times 0{,}91 \times 0{,}91 = 0{,}624\ . \end{aligned}$$

(b) (a)-qismidagi mantiqni ishlatib, $0{,}09 \times 0{,}09 \times 0{,}09 \times 0{,}09 \times 0{,}09 = 0{,}0000059$.

(c) Komplementni, ya'ni $P(\text{besh kishining ham } \texttt{O'Q})$ ni qo'llab, ushbu savolga javob bering:

$$P(\text{besh kishining ham } \texttt{O'Q} \text{ emasligi}) = 1 - P(\text{besh kishining ham } \texttt{O'Q}) = 1 - 0{,}624 = 0{,}376\ .$$

Faraz qilaylik, `qo‘li ustunligi` (`handedness`) va `jinsi` (`sex`) o‘zgaruvchilari bog‘liqsiz, ya’ni kimningdir `jinsi` haqida bilish uning `qo‘li ustunligi` haqida hech qanday foydali ma’lumot bermaydi va aksincha. Keyin tasodifiy tanlangan kishi o‘ng qo‘l bilan yozadigan va ayol bo‘lish ehtimolini hisoblash mumkin.[19] Bog‘liqsiz hodisalar uchun ko‘paytirish qoidasi yordamida:

$$\begin{aligned} P(\text{o‘ng qo‘l bilan yozadigan va ayol}) &= P(\text{o‘ng qo‘l bilan yozadigan}) \times P(\text{ayol}) \\ &= 0{,}91 \times 0{,}50 = 0{,}455. \end{aligned}$$

Y **3.24-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Uch kishi tasodifiy tanlandi.[20]

(a) Dastlabki kishi erkak va o‘ng qo‘l bilan yozuvchi bo‘lish ehtimoli qancha?

(b) Dastlabki ikkata kishi erkak va o‘ng qo‘l bilan yozuvchi bo‘lish ehtimoli qancha?

(c) Uchinchi kishi ayol va chap qo‘l bilan yozuvchi bo‘lish ehtimoli qancha?

(d) Dastlabki ikkata kishi erkak va o‘ng qo‘l bilan yozuvchi, uchinchi kishi esa ayol va chap qo‘l bilan yozuvchi bo‘lish ehtimoli qancha?

Ba’zida biz bir hodisa boshqa hodisa haqida foydali ma’lumot beradimi, deb qiziqamiz. Bizning savolimiz shuki, ikkita hodisaning sodir bo‘lishi bir-biriga bog‘liqmi? Agar ikkita hodisa A va B quyidagi shartni qanoatlantirsa, ular bog‘liqsiz deyiladi: $P(\text{A va B}) = P(A) \times P(B)$.

M **3.25-MISOL**

Kartalar to‘plamini aralashtirib, bir kartani tortganimizda, kartaning `tappon` (♡) bo‘lishi va bir vaqtda tuz bo‘lishi hodisalari bir-biriga bog‘liqsizmi?

Kartaning tappon ♡ bo‘lish ehtimoli $1/4$ va uning tuz bo‘lish ehtimoli $1/13$. Kartaning tuz tappon (♡ va tuz) bo‘lish ehtimoli $1/52$. Quyidagilarni tekshiramiz: $P(A \text{ va } B) = P(A) \times P(B)$ bajariladimi?

$$P(\heartsuit) \times P(\text{tuz}) = \frac{1}{4} \times \frac{1}{13} = \frac{1}{52} = P(\heartsuit \text{ va tuz}).$$

Tenglama to‘g‘ri bo‘lganligi sababli, kartaning tappon va tuz bo‘lishi hodisalari bog‘liqsiz hodisalardir.

Mashqlar

3.1 To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri. Quyidagi bayonotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlang va fikringizni izohlang.

(a) Agar simmetrik (adolatli) tanga ko‘p marta tashlansa va so‘nggi sakkiz tashlashning barchasi gerb bo‘lsa, keyingi tashlashda gerb tushish ehtimoli 50% dan kamroq.

(b) To‘liq kartalar to‘plamidan rasmli karta (valet, malika yoki qirol)ni tortib olish va qizil kartani tortib olish bir-biriga mos kelmaydigan hodisalardir.

(c) To‘liq kartalar to‘plamidan rasmli kartani tortib olish va tuzni tortib olish bir-biriga mos kelmaydigan hodisalardir.

3.2 Ruletka g‘ildiragi. Ruletka o‘yini 38 uyaga ega bo‘lgan g‘ildirakni aylantirishni o‘z ichiga oladi. Unda 18 ta qizil, 18 ta qora va 2 ta yashil. G‘ildirakka to‘p tashlanadi va u oxir-oqibat bir uyaga tushadi. Har bir uyaning to‘pni tutib olish ehtimoli tengdir.

---

[19] AQSh aholisining `ayol` jinsida bo‘lganlarning haqiqiy ulushi taxminan 50% ni tashkil qiladi, shuning uchun biz ayolni tanlash ehtimoli uchun 0,5 dan foydalanamiz. Biroq, bu ehtimol boshqa mamlakatlarda farq qilishi mumkin.

[20] Qisqa javoblar keltirilgan. (a) Bu ehtimolni quyidagicha yozish mumkin: $P(\text{tasodifiy tanlangan kishi erkak va o‘ng qo‘l bilan yozuvchi}) = 0{,}455$. (b) 0,207. (c) 0,045. (d) 0,0093.

(a) Agar ruletka g'ildiragini ketma-ket 3 marta aylantirsangiz va to'p har safarda qizil uyaga tushsa, keyingi aylantirishda to'p qizil uyaga tushish ehtimoli qancha?
(b) Agar ruletka g'ildiragini ketma-ket 300 marta aylantirsangiz va to'p har safarda qizil uyaga tushsa, keyingi aylantirishda to'p qizil uyaga tushish ehtimoli qancha?
(c) (a) va (b) qismlariga bergan javoblaringizga bir xil darajada ishonasizmi? Nima uchunligini tushuntiring.



Håkan Dahlström tomonidan fotosurat (http://flic.kr/p/93fEzp) CC BY 2.0 license

3.3 To'rt o'yin, bitta g'olib. Quyida bitta o'yinning to'rt xil versiyasi keltirilgan. Sizning asosiy raqibingiz o'yinning qaysi versiyasini tanlashni hal qiladi, keyin esa siz tangani 10 marta yoki 100 marta tashlashni tanlaysiz. Har bir o'yinni o'ynash narxi \$1. Har bir versiya uchun necha marta tanga tashlashni tanlashingiz kerakligini aniqlang. Fikringizni tushuntiring.

(a) Agar gerbning ulushi 0,60 dan katta bo'lsa, \$1 yutasiz.
(b) Agar gerbning ulushi 0,40 dan katta bo'lsa, \$1 yutasiz.
(c) Agar gerbning ulushi 0,40 va 0,60 orasida bo'lsa, \$1 yutasiz.
(d) Agar gerbning ulushi 0,30 dan kichik bo'lsa, \$1 yutasiz.

3.4 Narda o'yini. Narda o'yini bu ikki o'yinchi uchun mo'ljallangan stol o'yini bo'lib, bunda o'yin figuralari ikkita kubni tashlash natijasiga ko'ra harakatlanadi. O'yinchilar o'z figuralarini taxtadan olib tashlash orqali g'alaba qozonadi, shuning uchun odatda katta raqamlarni tashlash foydali. Do'stingiz bilan narda o'yini o'ynayapsiz va birinchi tashlashda ikkita 6, ikkinchi tashlashda ham ikkita 6 tashladingiz. Do'stingiz birinchi tashlashda ikkita 3 va ikkinchi tashlashda ham ikkita 3 tashladi. Do'stingiz ikki marta ketma-ket ikkita 6 tushishi imkonsiz ekanligini aytib, sizni aldashda aybladi. Ehtimollikdan foydalanib, sizning tashlashlaringiz do'stingiznikidan ko'ra ehtimoliyroq emasligini ko'rsating.

3.5 Tanga tashlash. Agar simmetrik (adolatli) tanga 10 marta tashlansa, quyidagi hodisalarning ehtimolligi qancha?

(a) Faqat gerb tushish ehtimoli?
(b) Faqat raqam tushish ehtimoli?
(c) Hech bo'lmaganda bir marta gerb tushish ehtimoli?

3.6 Kublarni tashlash. Agar simmetrik (adolatli) ikkita kubning natijalari yig'indisini hisoblasak, quyidagi ehtimolliklar qanday?

(a) Natijalar yig'indisi 1 bo'lish ehtimoli?
(b) Natijalar yig'indisi 5 bo'lish ehtimoli?
(c) Natijalar yig'indisi 12 bo'lish ehtimoli?

3.7 O'zgaruvchan saylovchilar. "Pew Research" tomonidan 2373 nafar tasodifiy tanlangan ro'yxatga olingan saylovchilardan ularning siyosiy mansubligi (respublikachi, demokrat yoki mustaqil) va o'zlarini o'zgaruvchan saylovchi sifatida biladimi yoki yo'qmi so'raldi. Respondentlarning 35% o'zlarini mustaqil deb hisoblaydilar, 23% o'zgaruvchan saylovchi va 11% ikkalasini birgalikda keltirishgan.[21]

(a) Mustaqil bo'lish va o'zgaruvchan saylovchi bo'lish birgalikda bo'lmagan hodisalarmi?
(b) O'zgaruvchilar va ularning tegishli ehtimolliklarini aks ettiruvchi Venn diagrammasini chizing.
(c) Saylovchilarning qancha foizi mustaqil, ammo o'zgaruvchan saylovchi emas?
(d) Saylovchilarning qancha foizi mustaqil yoki o'zgaruvchan saylovchi?
(e) Saylovchilarning qancha foizi na mustaqil, na o'zgaruvchan saylovchi?
(f) Biror kishining o'zgaruvchan saylovchi bo'lish hodisasi va uning siyosiy mustaqil bo'lish hodisasi bir-biriga bog'liqsizmi?

3.8 Qashshoqlik va til. Amerika hamjamiyati so'rovi jamoalarga sarmoya kiritish va xizmatlarni rejalashtirish uchun zarur bo'lgan dolzarb ma'lumotlarni taqdim etish uchun har yili o'tkaziladigan so'rovdir. 2010-yilgi so'rov natijalariga ko'ra, amerikaliklarning 14,6% qashshoqlik chegarasidan pastda yashaydi, 20,7% uyda ingliz tilidan boshqa tilda gapiradi va 4,2% ikkala toifaga kiradi.[22]

Birinchi savol uchun u boshqa odamni tanlash ehtimoli $14/15$ bo‘ladi. Ikkinchi savolni berganida, hali so‘roq qilinmagan 14 ta odam qoladi. Shunday qilib, agar birinchi savolda siz tanlanmagan bo‘lsangiz, sizni yana tanlanmaslik ehtimoli $13/14$ bo‘ladi. Xuddi shunday, uchinchi savolda yana tanlanmaslik ehtimoli $12/13$ bo‘ladi va uchta savoldan birortasida ham tanlanmaslik ehtimoli quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} &P(\text{3 ta savolda tanlanmaslik}) \\ &\quad = P(\texttt{Q1} = \texttt{tanlanmadi}, \texttt{Q2} = \texttt{tanlanmadi}, \texttt{Q3} = \texttt{tanlanmadi}.) \\ &\quad = \frac{14}{15} \times \frac{13}{14} \times \frac{12}{13} = \frac{12}{15} = 0{,}80\ . \end{aligned}$$

Y **3.49-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.1-misolda ehtimollarni ko‘paytirishga qanday qoida ruxsat berdi?[45]

M **3.50-MISOL**

Faraz qilaylik, professor oldin kimni tanlaganiga ahamiyat bermasdan tasodifiy ravishda tanlaydi, ya’ni talabalar bir necha marta tanlanishi mumkin. Uchta savolning birortasi uchun tanlanmaslik ehtimoli qanday?

Har bir tanlash bog‘liqmas va har bir savol uchun tanlanmaslik ehtimoli $14/15$ ga teng. Shunday qilib, bog‘liqsiz hodisa(jarayon)lar uchun ko‘paytirish qoidasidan foydalanishimiz mumkin.

$$\begin{aligned} &P(\text{uchta savolda tanlanmaslik}) \\ &\quad = P(\texttt{Q1} = \texttt{tanlanmadi}, \texttt{Q2} = \texttt{tanlanmadi}, \texttt{Q3} = \texttt{tanlanmadi}.) \\ &\quad = \frac{14}{15} \times \frac{14}{15} \times \frac{14}{15} = 0{,}813\ . \end{aligned}$$

Har bir savol uchun yangi odamni tanlagan holatga nisbatan tanlanmaslik ehtimoli biroz yuqoriroq. Biroq, endi siz bir necha marta tanlanishingiz mumkin.

Y **3.51-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.3-misoldagi holatda, uchta savolga javob berish uchun tanlanish ehtimoli qanday?[46]

[44] 10% qoidasi bu holatlarda muhim bo‘lishini ko‘rsatadigan bir tavsiya chegarasi.

[45] Hisoblangan uchta ehtimollikdan biri marginal ehtimollik edi: $P(\texttt{Q1=tanlanmadi})$ va ikkitasi shartli ehtimollik edi:

$$\begin{aligned} &P(\texttt{Q2} = \texttt{tanlanmadi} \mid \texttt{Q1} = \texttt{tanlanmadi}) \\ &P(\texttt{Q3} = \texttt{tanlanmadi} \mid \texttt{Q1} = \texttt{tanlanmadi}, \texttt{Q2} = \texttt{tanlanmadi})\ . \end{aligned}$$

Umumiy ko‘paytirish qoidasi (*General Multiplication Rule*) dan foydalanib, ushbu uchta ehtimollikning ko‘paytmasi uchta savolda tanlanmaslik ehtimolini bildiradi.

Agar kichik bosh to‘plamdan **takrorlarsiz** tanlash amalga oshirilsa, bizning kuzatuvlarimiz orasida bog‘liqsizlik bo‘lmaydi. 3.1-misolda, ikkinchi savol uchun tanlanmaslik ehtimoli birinchi savol uchun tanlanmaganlikka bog‘liq edi. 3.3-misolda esa, professor talabalarini **takroran** tanladi: u butun sinfni bir necha marta tanladi va oldin kimni tanlaganiga ahamiyat bermadi.

Y **3.52-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Sizning bo‘limingiz lotereya tashkil qilmoqda. Ular 30 ta chipta sotib, yettita mukofot taklif qilishadi. (a) Ular chiptalarni shapka ichiga solib, har bir mukofot uchun bittadan tanlaydilar. Chiptalar *takrorlarsiz* tanlanadi, ya’ni tanlangan chiptalar shapkaga qaytarilmaydi. Agar siz bir dona chipta sotib olsangiz, mukofot yutish ehtimoli qanday? (b) Agar chiptalar *takroran* tanlansa, natija qanday bo‘ladi?[47]

Y **3.53-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.52-yo‘naltirilgan mashqdagi javoblaringizni taqqoslang. Tanlash usuli mukofot yutish imkoniyatingizga qanday ta’sir qiladi?[48]

Agar 3.52-yo‘naltirilgan mashqni 30 ta chipta o‘rniga 300 ta chipta bilan takrorlaganimizda, qiziqarli natijani ko‘rgan bo‘lardik: natijalar deyarli bir xil bo‘ladi. Takrorlarsiz tanlashda ehtimollik 0,0233, takror bilan esa 0,0231 ga teng bo‘ladi. Agar namunalar bosh to‘plamning faqat kichik bir qismi (10% dan kam) bo‘lsa, takrorlarsiz tanlashda ham kuzatuvlar deyarli bog‘liqsiz bo‘ladi.

Mashqlar

3.23 Idishda marmarlar. Faraz qiling, sizda 5 ta qizil, 3 ta ko‘k va 2 ta to‘q sariq marmar bo‘lgan idish bor.

(a) Birinchi tortilgan marmar ko‘k bo‘lish ehtimoli qancha?

(b) Faraz qiling, birinchi tortishda ko‘k marmar tortildi. Agar qaytarib qo‘yish bilan tortilsa, ikkinchi tortishda ko‘k marmar tortilish ehtimoli qancha?

(c) Faraz qiling, buning o‘rniga birinchi tortishda to‘q sariq marmar tortildi. Agar qaytarib qo‘yish bilan tortilsa, ikkinchi tortishda ko‘k marmar tortilish ehtimoli qancha?

(d) Agar qaytarib qo‘yish bilan tortilsa, ketma-ket ikki ko‘k marmar tortilish ehtimoli qancha?

(e) Qaytarib qo‘yish bilan tortishda tortishlar bog‘liqsizmi? Tushuntiring.

3.24 Tortmada paypoqlar. Sizning paypoq tortmangizda 4 ta ko‘k, 5 ta kulrang va 3 ta qora paypoq bor. Bir kuni ertalab uyg‘onganingizda, yarim uxlab ikki paypoqni tasodifiy olib kiyib oldingiz. Quyidagi holatlarning ehtimolini toping:

(a) 2 ta ko‘k paypoq

(b) hech qanday kulrang paypoq

(c) hech bo‘lmaganda 1 ta qora paypoq

(d) yashil paypoq

(e) mos keluvchi paypoqlar

3.25 Sumkada chiplar. Faraz qiling, sizda 5 ta qizil, 3 ta ko‘k va 2 ta to‘q sariq chiplar bo‘lgan sumka bor.

(a) Faraz qiling, siz chip tortdingiz va u ko‘k edi. Agar qaytarib qo‘ymasdan tortilsa, keyingisi ham ko‘k bo‘lish ehtimoli qancha?

(b) Faraz qiling, siz chip tortdingiz va u to‘q sariq edi, va keyin qaytarib qo‘ymasdan ikkinchi chip tortildi. Ushbu ikkinchi chip ko‘k bo‘lish ehtimoli qancha?

(c) Agar qaytarib qo‘ymasdan tortilsa, ketma-ket ikki ko‘k chip tortilish ehtimoli qancha?

(d) Qaytarib qo‘ymasdan tortishda tortishlar bog‘liqsizmi? Tushuntiring.

[46] $P(\text{uchta savolga javob berish uchun tanlanish}) = \left(\frac{1}{15}\right)^3 = 0{,}00030$.

[47] (a) Avval yutqazish ehtimolini aniqlaymiz. Chiptalar *takrorlarsiz* tanlanadi, bu esa birinchi tanlovda yutmaslik ehtimoli 29/30, ikkinchisida 28/29, ... va yettinchisida 23/24 ekanligini bildiradi. Hech qanday mukofot yutmaslik ehtimoli bu alohida ehtimolliklarning ko‘paytmasiga teng: 23/30. Demak, mukofot yutish ehtimoli $1-23/30 = 7/30 = 0{,}233$. (b) Agar chiptalar *takror bilan* tanlansa, yettita bog‘liqsiz (mustaqil) tanlov amalga oshiriladi. Yana, avval mukofot yutmaslik ehtimolini topamiz: $(29/30)^7 = 0{,}789$. Shunday qilib, *kamida* bitta mukofot yutish ehtimoli 0,211 ga teng.

[48] Takrorlarsiz tanlashda mukofot yutish ehtimoli takror bilan tanlashga nisbatan taxminan 10% yuqori. Biroq, ushbu tanlash protsedurasi ostida ko‘pi bilan bitta mukofot yutib olish mumkin.

3.26 Kitoblar kitob javonida. Quyidagi jadvalda kitoblarning badiiy yoki ilmiy bo‘lishi va qattiq muqovali yoki yumshoq muqovali bo‘lishiga qarab taqsimoti keltirilgan.

		Format		
		Qattiq muqova	Yumshoq muqova	Jami
Turi	Badiiy	13	59	72
	Ilmiy	15	8	23
	Jami	28	67	95

(a) Qaytarib qo‘ymasdan tortishda birinchi bo‘lib qattiq muqovali kitob, keyin yumshoq muqovali badiiy kitob tortilish ehtimoli qancha?

(b) Qaytarib qo‘ymasdan tortishda birinchi bo‘lib badiiy kitob, keyin qattiq muqovali kitob tortilish ehtimoli qancha?

(c) (b) qismidagi holatning ehtimolini hisoblang, lekin bu safar birinchi kitob kitob javoniga qaytarilib, ikkinchi kitob tasodifiy tortilgan holatda hisoblang.

(d) (b) va (c) qismlarining yakuniy javoblari juda o‘xshash. Nima uchun bunday ekanligini tushuntiring.

3.27 Talabalarning kiyimlari. Sinfda 24 ta talaba bor, ularning 7 tasi jinsi shim kiygan, 4 tasi shorti kiygan, 8 tasi yubka kiygan, va qolganlari legging kiygan. Agar 3 talaba tasodifiy qaytarib qo‘ymasdan tanlansa, ulardan biri legging kiygan va qolgan ikkitasi jinsi shim kiygan bo‘lish ehtimoli qancha? E’tibor bering, bu kiyim variantlari bir-birini istisno qiladi.

3.28 Tug‘ilgan kun masalasi. Faraz qilaylik, uch kishini tasodifiy tanladik. Quyidagi savollar uchun har kimning tug‘ilgan kuni fevralning 29-kuniga to‘g‘ri kelishi maxsus holatini hisobga olmang va tug‘ilishlar yil davomida teng taqsimlangan deb faraz qiling.

(a) Birinchi ikkita odamning tug‘ilgan kuni bir xil bo‘lish ehtimoli qancha?

(b) Hech bo‘lmaganda ikkita odamning tug‘ilgan kuni bir xil bo‘lish ehtimoli qancha?

3.4 Tasodifiy miqdorlar

Jarayonni **tasodifiy miqdor** deb ataladigan model yordamida ifodalash foydali bo‘lishi mumkin. Bunday model bizga matematik ramka va statistik tamoyillarni qo‘llash orqali haqiqiy dunyodagi natijalarni yaxshiroq tushunish va bashorat qilish imkonini beradi.

Ⓜ **3.54-MISOL**

Statistika darsi uchun ikkita kitob: asosiy darslik va unga mos keladigan o‘quv qo‘llanma belgilangan. Universitet do‘koni ro‘yxatdan o‘tgan talabalarning 20% -i hech qaysi kitobni sotib olmasligini, 55% -i faqat asosiy darslikni sotib olishini va 25% -i ikkala kitobni sotib olishini aniqladi. Bu foizlar bir semestrdan boshqasiga qaraganda nisbatan barqaror. Agar 100 ta talaba ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lsa, bu sinfga universitet do‘koni qancha kitob sotishni kutishi mumkin?

Taxminan 20 talaba hech qanday kitob sotib olmaydi (jami 0 ta kitob), taxminan 55 tasi bitta kitob sotib oladi (jami 55 ta kitob) va taxminan 25 tasi ikkita kitob sotib oladi (bu 25 talaba uchun jami 50 ta kitob). Do‘kon bu sinfga taxminan 105 ta kitob sotishni kutishi mumkin.

Ⓨ **3.55-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Agar do‘kon 105 ta kitobdan bir oz ko‘proq yoki kamroq sotadigan bo‘lsa, ajablanasizmi?[49]

Ⓜ **3.56-MISOL**

Darslik narxi $137 va o‘quv qo‘llanmaning narxi $33. Bu 100 nafar talabadan iborat sinfdan universitet do‘koni qancha daromad kutishi mumkin?

Taxminan 55 talaba faqat darslik sotib oladi va bu quyidagicha daromad keltiradi:


$$\$137 \times 55 = \$7535 \ .$$

[49] Agar ular biroz ko‘proq yoki kamroq sotishsa, bu ajablanarli emas. Umid qilamanki, 1 bo‘limi tabiiy o‘zgaruvchanlikni tushuntirib bergan. Masalan, agar biz tanga 100 marta tashlasak, u odatda aynan yarmida ”gerb” bo‘lmaydi, lekin bu natija yaqin bo‘ladi.

Taxminan 25 talaba esa ikkala kitobni sotib oladi va ular quyidagicha jami to‘laydi:

$$(\$137 + \$33) \times 25 = \$170 \times 25 = \$4250 \ .$$

Shunday qilib, universitet do‘koni ushbu 100 talabadan bir sinf uchun taxminan $\$7535 + \$4250 = \$11785$ daromad olishni kutishi mumkin. Biroq, ba’zi *tanlash o‘zgaruvchanligi* mavjud bo‘lishi mumkin, shuning uchun haqiqiy summa biroz farq qilishi mumkin.



3.18-rasm. Universitet do‘konining bitta talaba uchun daromadining ehtimollik taqsimoti. Uchburchak har bir talaba uchun o‘rtacha daromadni ko‘rsatadi.

M **3.57-MISOL**

Ushbu kurs uchun har bir talaba bo‘yicha o‘rtacha daromad qancha?

Kutilayotgan jami daromad \$11785 va 100 ta talaba bor. Shunday qilib, har bir talaba uchun kutilayotgan daromad $\$11785/100 = \$117{,}85$ ga teng.

3.4.1 Matematik kutilma (Kutilma qiymat)

O‘zgaruvchi yoki natijasi sonli bo‘lgan jarayonni **tasodifiy miqdor** deb ataymiz va odatda ushbu tasodifiy miqdorni X, Y yoki Z kabi katta harflar bilan ifodalaymiz. Bir talaba statistik kitoblari uchun qancha pul sarflashi tasodifiy miqdordir va uni X bilan belgilaymiz.

TASODIFIY MIQDOR

Natijasi sonli bo‘lgan tasodifiy jarayon yoki miqdor.


X ning mumkin bo‘lgan natijalari mos keluvchi kichik harflar x va indekslar bilan belgilanadi. Masalan, biz $x_1 = \$0$, $x_2 = \$137$ va $x_3 = \$170$ deb yozamiz, bu natijalar ehtimolliklari 0.20, 0.55 va 0.25. X ning taqsimoti 3.18-rasmda va 3.19-rasmda umumlashtirilgan.

i	1	2	3	Jami
x_i	\$0	\$137	\$170	–
$P(X = x_i)$	0,20	0,55	0,25	1,00

3.19-rasm. Bitta talaba uchun universitet do‘konining daromadini ifodalaydigan tasodifiy miqdor X ning ehtimollik taqsimoti.

X ning o‘rtacha natijasini 3.57-misolda \$117,85 sifatida hisobladik. Ushbu o‘rtacha qiymatni X ning **matematik kutilmasi** deb ataymiz va uni $E(X)$ deb belgilaymiz. tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi har bir natijani uning ehtimolligiga ko‘paytirib, ularni qo‘shish orqali hisoblanadi:

$$\begin{aligned} E(X) &= 0 \times P(X = 0) + 137 \times P(X = 137) + 170 \times P(X = 170) \\ &= 0 \times 0{,}20 + 137 \times 0{,}55 + 170 \times 0{,}25 = 117{,}85 \ . \end{aligned}$$



3.20-rasm. X uchun ehtimollik taqsimotini ifodalovchi og‘irliklar tizimi. Ip tizimni muvozanatda saqlash uchun taqsimotni o‘rtacha qiymatda ushlab turadi.

DISKRET TASODIFIY MIQDORNING MATEMATIK KUTILMASI (KUTILMA QIYMATI)

Agar X tasodifiy miqdor x_1, ..., x_k qiymat (natija)larni $P(X = x_1)$, ..., $P(X = x_k)$ ehtimolliklar bilan olsa, X ning matematik kutilmasi (kutilma qiymati) har bir qiymat (natija)ni uning mos ehtimolligiga ko‘paytirib, ularning yig‘indisidan iborat:

$$\begin{aligned} E(X) &= x_1 \times P(X = x_1) + \cdots + x_k \times P(X = x_k) \\ &= \sum_{i=1}^{k} x_i P(X = x_i) \ . \end{aligned}$$

$E(X)$ belgilash o‘rniga yunon harfi μ ishlatilishi mumkin.

Tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi (kutilma qiymati) o‘rtacha qiymat(natija)ni bildiradi. Masalan, $E(X) = 117{,}85$ universitet do‘konining bitta talabadan kutayotgan o‘rtacha daromadini bildiradi va uni $\mu = 117{,}85$ deb ham yozishimiz mumkin.

Tasodifiy miqdorning kutilma qiymatini uzluksiz tasodifiy miqdor uchun ham hisoblash mumkin (qarang 3.5-bo‘lim). Biroq, bu biroz differensial hisoblashni talab qiladi va uni keyingi dars uchun qoldiramiz.[50]


Fizikada matematik kutilma (kutilma qiymat) tortish markazi (og‘irlik markazi) bilan bir xil ma’noga ega. Taqsimot har bir natijada joylashgan og‘irliklar seriyasini ifodalashi mumkin va o‘rtacha qiymat muvozanat nuqtasini bildiradi. Bu fikr 3.18 va 3.20 rasmlarida ifodalangan. Og‘irlik markazi tushunchasi uzluksiz ehtimollik taqsimotlariga ham kengayadi. 3.21-rasmda o‘rtacha qiymatda joylashtirilgan tayanch ustida muvozanatga keltirilgan uzluksiz ehtimollik taqsimoti ko‘rsatilgan.

3.4.2 Tasodifiy miqdorlar o‘zgaruvchanligi

Faraz qilaylik, siz universitet do‘konini boshqaryapsiz. Qancha daromad kutilayotganini bilishdan tashqari, daromadning o‘zgaruvchanligini (volatiligi) bilishni ham xohlashingiz mumkin.

Dispersiya va standart chetlanish tasodifiy miqdorning o‘zgaruvchanligini tavsiflash uchun ishlatiladi. 2.1.4-bo‘limida dispersiya va standart chetlanishni ma’lumotlar to‘plami uchun qanday topish ko‘rsatib o‘tilgan edi. Biz avval o‘rtacha qiymatdan farqlarni $(x_i - \mu)$ hisobladik, ushbu farqlarni kvadratga oshirdik va ularning o‘rtachasini dispersiya sifatida oldik. Tasodifiy miqdor holatida biz yana kvadrat farqlarni hisoblaymiz. Ammo, ularning yig‘indisini mos ehtimolliklarga ko‘paytirib, kutilma qiymat uchun qilganimiz kabi hisoblaymiz. Ushbu kvadrat farqlarning vaznli yig‘indisi dispersiyaga teng, hamda standart chetlanishni dispersiyaning kvadrat ildizini olib hisoblaymiz, xuddi

[50] $\mu = \int x f(x) dx$ bu yerda $f(x)$ uzluksiz tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasini ifodalaydi.



3.21-rasm. Uzluksiz taqsimotni ham uning o‘rtacha qiymatida muvozanatlash mumkin.

2.1.4-bo‘limidagi kabi.

UMUMIY DISPERSIYA FORMULASI

Agar X tasodifiy miqdor x_1, ..., x_k qiymat(natija)larni $P(X = x_1)$, ..., $P(X = x_k)$ ehtimolliklar bilan olsa (qabul qilsa) va matematik kutilmasi (kutilma qiymati) $\mu = E(X)$ bo‘lsa, X ning dispersiyasi $Var(X)$ yoki σ^2 bilan belgilanadi:

$$\begin{aligned}\sigma^2 &= (x_1 - \mu)^2 \times P(X = x_1) + \cdots \\ &\qquad \cdots + (x_k - \mu)^2 \times P(X = x_k) \\ &= \sum_{j=1}^{k} (x_j - \mu)^2 P(X = x_j)\ .\end{aligned}$$

X ning standart chetlanishi σ, dispersiyaning kvadrat ildiziga teng.

3.58-MISOL

Universitet do‘koni uchun bitta statistik talabaning daromadi bo‘lgan X tasodifiy miqdorning matematik kutilmasi (kutilma qiymati), dispersiyasi va standart chetlanishini hisoblang.

Har bir natija uchun hisoblarni alohida saqlovchi jadval yaratish foydali, so‘ng natijalarni qo‘shamiz.

i	1	2	3	Jami
x_i	\$0	\$137	\$170	
$P(X = x_i)$	0,20	0,55	0,25	
$x_i \times P(X = x_i)$	0	75,35	42,50	117,85

Shunday qilib, matematik kutilma (kutilma qiymat) $\mu = 117.85$, bu avvalroq hisoblangan edi. Dispersiyani hisoblash uchun jadvalni kengaytiramiz:

i	1	2	3	Jami
x_i	\$0	\$137	\$170	
$P(X = x_i)$	0,20	0,55	0,25	
$x_i \times P(X = x_i)$	0	75,35	42,50	117,85
$x_i - \mu$	−117,85	19,15	52,15	
$(x_i - \mu)^2$	13 888,62	366,72	2719,62	
$(x_i - \mu)^2 \times P(X = x_i)$	2777,7	201,7	679,9	3659,3

X ning dispersiyasi $\sigma^2 = 3659{,}3$, ya’ni standart chetlanish $\sigma = \sqrt{3659{,}3} = \$60{,}49$ ga teng.

Y **3.59-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Universitet do‘koni shuningdek, $159 narxdagi kimyo darsligini va $41 narxdagi qo‘shimcha kitobni taklif qiladi. Oldingi tajribaga asoslanib, ular kimyo talabalarining taxminan 25% i faqat darslikni sotib olishini, 60% i esa darslik va qo‘shimchani birga sotib olishini bilishadi.[51]

(a) Talabalar qanday ulushi hech qanday kitob sotib olmaydi? Faraz qilaylik, hech bir talaba faqat qo‘shimcha kitobni darsliksiz sotib olmaydi.

(b) Y ni bitta talabadan olinadigan daromadni ifodalovchi o‘zgaruvchi sifatida aniqlang. Y ning ehtimollik taqsimotini, ya’ni har bir natija va unga mos ehtimollik uchun jadval yozing.

(c) Bitta kimyo talabadan olinadigan o‘rtacha (kutilma) daromadni hisoblang.

(d) Standart chetlanishni topib, bitta talaba daromadiga bog‘liq o‘zgaruvchanlikni tavsiflang.

3.4.3 Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyalari

Hozirgacha biz har bir o‘zgaruvchini o‘z-o‘zidan to‘liq hikoya sifatida ko‘rib chiqdik. Ba’zida esa o‘zgaruvchilar kombinatsiyasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, odamning haftasiga ishga qatnashga sarflaydigan vaqti bir nechta kunlik qatnovlarga bo‘linishi mumkin. Xuddi shunday, aktsiyalar portfelidagi umumiy foyda yoki zarar uning tarkibiy qismlaridagi foyda va zararlarning yig‘indisidir.

M **3.60-MISOL**

John haftada besh kun ishga qatnaydi. Biz X_1 ni dushanba kuni, X_2 ni seshanba kuni va hokazo, uning ishga borish vaqtini ifodalash uchun ishlatamiz. Uning haftalik ishga borish vaqtini W bilan belgilaymiz va X_1, ..., X_5 dan foydalangan holda tenglama yozing.

Uning haftalik ishga borish vaqti besh kunlik qiymatlarning yig‘indisidir:

$$W = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5 \ .$$

Haftalik ishga borish vaqti W ni qismlarga ajratish tasodifiylikning har bir manbasini tushunish uchun ramka beradi va W ni modellashtirishda foydalidir.

M **3.61-MISOL**

John har kuni ishga borish uchun o‘rtacha 18 daqiqa sarflaydi. Uning haftalik ishga borish vaqti uchun o‘rtacha qancha vaqt sarflashini kutasiz?

Bizga aytildiki, ishga borish vaqtining o‘rtacha qiymati (ya’ni, kutilma qiymati) kuniga 18 daqiqa: $E(X_i) = 18$. Besh kunlik yig‘indining kutilayotgan vaqtini topish uchun har bir kun uchun kutilayotgan vaqtni qo‘shishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} E(W) &= E(X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5) \\ &= E(X_1) + E(X_2) + E(X_3) + E(X_4) + E(X_5) \\ &= 18 + 18 + 18 + 18 + 18 = 90 \text{ daqiqa} \ . \end{aligned}$$

Jami vaqtning o‘rtacha (kutilma) qiymati har bir kunning o‘rtacha (kutilma) qiymatlarining yig‘indisiga teng. Umuman olganda, tasodifiy miqdorlar yig‘indisining o‘rtacha (kutilma) qiy-

[51] (a) 100% - 25% - 60% = 15% talabalar dars uchun hech qanday kitob sotib olmaydi. (b)-qism quyidagi jadvalning birinchi ikki qatori bilan ifodalanadi. (c)-qism uchun kutilma qiymat $y_i \times P(Y = y_i)$ qatoridagi jami sifatida berilgan. (d)-qism natijasi oxirgi qatorning jami bo‘yicha dispersiyaning kvadrat ildizi: $\sigma = \sqrt{Var(Y)} = \$69{,}28$.

i (holat)	1 (`kitobYo‘q`)	2 (`darslik`)	3 (`ikkalasi`)	Jami
y_i	0,00	159,00	200,00	
$P(Y = y_i)$	0,15	0,25	0,60	
$y_i \times P(Y = y_i)$	0,00	39,75	120,00	$E(Y) = 159{,}75$
$y_i - E(Y)$	−159,75	−0,75	40,25	
$(y_i - E(Y))^2$	25 520,06	0,56	1620,06	
$(y_i - E(Y))^2 \times P(Y)$	3828,0	0,1	972,0	$Var(Y) \approx 4800$

mati har bir tasodifiy miqdor uchun o‘rtacha (kutilma) qiymatlar yig‘indisiga teng.

Y **3.62-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Elena bir kassa auksionida televizor sotmoqda va auksionda toster pechni sotib olishni rejalashtirmoqda. Agar X televizorni sotishdan tushgan foydani, Y esa toster pechining narxini ifodalasa, Elenaning naqd puldagi sof o‘zgarishini ifodalovchi tenglama yozing.[52]

Y **3.63-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Oldingi auksionlarga asoslanib, Elena televizordan taxminan \$175 daromad olishni va toster pech uchun taxminan \$23 to‘lashni kutmoqda. Umumiy hisobda, u qancha daromad yoki xarajat qilishni kutmoqda?[53]

Y **3.64-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Agar John’s haftalik ishga borish vaqti aynan 90 daqiqa bo‘lmasa yoki Elena aynan \$152 daromad qilmasa, ajablanasizmi? Izohlang.[54]

Hozirgacha tasodifiy miqdorlarning kombinatsiyalariga oid ikkita muhim tushuncha kiritildi. Birinchidan, yakuniy qiymat ba’zan tenglama orqali uning qismlarining yig‘indisi sifatida tavsiflanishi mumkin. Ikkinchidan, intuitiv ravishda ushbu tenglamaga har bir individual o‘rtacha qiymatni kiritish biz kutilayotgan jami o‘rtacha qiymatni beradi. Ushbu ikkinchi nuqta aniqlashtirishga muhtoj – bu *tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyalari* deb ataladigan holatlarda kafolatlangan to‘g‘ridir.

Ikki tasodifiy miqdor X va Y ning **chiziqli kombinatsiyasi** quyidagicha ifodalanadi:

$$aX + bY$$

bu yerda a va b ba’zi aniqlangan va ma’lum sonlardir. John ishga borish vaqti uchun har biri ish kuniga tegishli bo‘lgan beshta tasodifiy miqdor mavjud edi va har bir tasodifiy miqdor 1 koeffitsientga ega bo‘lgan:

$$1X_1 + 1X_2 + 1X_3 + 1X_4 + 1X_5$$

Elena uchun sof foyda yoki zarar holatida esa X tasodifiy miqdor +1 koeffitsientga va Y tasodifiy miqdor -1 koeffitsientga ega edi.

Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyasining o‘rtacha qiymatini hisoblashda, har bir tasodifiy miqdorning o‘rtacha qiymatini kiritish va yakuniy natijani hisoblash mumkin (xavfsiz)dir. Tasodifiy miqdorlarning chiziqli bo‘lmagan kombinatsiyalari uchun misollar – bunday holatlarda o‘rtacha qiymatlarni kiritish natijada aniq o‘rtacha qiymatga olib kelmaydi – izohni qarang.[55]

TASODIFIY MIQDORLARNING CHIZIQLI KOMBINATSIYALARI VA O‘RTACHA QIYMAT (NATIJA)

Agar X va Y tasodifiy miqdorlar bo‘lsa, ularning chiziqli kombinatsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$aX + bY$$

bu yerda a va b ba’zi o‘zgarmas (aniqlangan) sonlardir. Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyasining o‘rtacha qiymatini hisoblash uchun har bir tasodifiy miqdorning o‘rtacha qiymatini kiritib natijani hisoblang:

$$a \times E(X) + b \times E(Y) \ .$$

Eslatib o‘tamiz, kutilma qiymat o‘rtacha qiymat bilan bir xil, masalan, $E(X) = \mu_X$.

[52] U televizor uchun X dollar oladi, lekin toster pech uchun Y dollar sarflaydi: $X - Y$.

[53] $E(X - Y) = E(X) - E(Y) = 175 - 23 = \$152$. U taxminan \$152 daromad qilishni kutmoqda.

[54] Yo‘q, chunki ehtimol biroz o‘zgaruvchanlik mavjud. Masalan, har kuni tirbandlik har xil bo‘lishi mumkin va auksion narxlari tovarlarning sifati va ishtirokchilarning qiziqishiga qarab o‘zgarishi mumkin.

[55] Agar X va Y tasodifiy miqdorlar bo‘lsa, quyidagi kombinatsiyalarni ko‘rib chiqing: X^{1+Y}, $X \times Y$, X/Y. Bunday hollarda har bir tasodifiy miqdor uchun o‘rtacha qiymatni kiritish va natijani hisoblash, odatda, yakuniy natijaning aniq o‘rtacha qiymatini bermaydi.

3.65-MISOL

Leonard Caterpillar Inc (aksiyalar kodi: CAT) ga \$6000 va Exxon Mobil Corp (XOM) ga \$2000 sarmoya kiritgan. Agar X kelasi oy Caterpillar aksiyalarining o‘zgarishini va Y Exxon Mobil aksiyalarining o‘zgarishini ifodalasa, Leonardning aksiyalardan kelgan foyda yoki zararini ifodalaydigan tenglamani yozing.

Soddalik uchun, X va Y foizlarda emas, balki o‘nli kasr sonlar shaklida ifodalangan deb hisoblaymiz (masalan, agar Caterpillar aksiyalari 1% ga oshsa, unda $X = 0{,}01$; yoki agar u 1% ga kamaygan bo‘lsa, unda $X = -0{,}01$). Shunda Leonardning foydasini quyidagicha tenglama shaklida yozishimiz mumkin:

$$\$6000 \times X + \$2000 \times Y \ .$$

Agar biz X va Y uchun aksiyalar qiymatlaridagi o‘zgarishni kiritadigan bo‘lsak, ushbu tenglama Leonardning aksiyalar portfeli qiymatidagi oylik o‘zgarishni beradi. Musbat qiymat foydani, manfiy qiymat esa zararni bildiradi.

3.66-YO‘NALTIRILGAN MASHQ


Caterpillar aksiyalari so‘nggi paytlarda oyiga 2,0% ga va Exxon Mobil aksiyalari 0,2% ga oshmoqda. Leonardning aksiyalar portfeli kelasi oyda qancha o‘zgarishini hisoblang.[56]

3.67-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

3.66-yo‘naltirilgan mashqga ko‘ra, Leonard ijobiy foyda keltirishini kutishingiz kerak edi. Ammo, agar u aslida bu oyda zarar ko‘rsa, hayron bo‘lasizmi?[57]

3.4.4 Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyalaridagi o‘zgaruvchanlik

Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyalaridan o‘rtacha natijani aniqlash foydali bo‘lsada, ushbu kombinatsiyalarning umumiy natijasiga bog‘liq noaniqlikni tushunish ham muhimdir. Leonardning aksiyalar portfeli sof foydasi yoki zarari 3.66-mashqda ko‘rib chiqilgan edi. Biroq, ushbu portfelning o‘zgaruvchanligi haqida miqdoriy muhokama o‘tkazilmagan. Masalan, ma’lumotlarga ko‘ra, oylik o‘rtacha foyda \$124 atrofida bo‘lishi mumkin, lekin bu kafolatlanmagan. 3.22-rasmda Leonardnikiga o‘xshash portfelning uch yillik davrdagi oylik o‘zgarishlari ko‘rsatilgan. Foydalar va zararlar juda keng ko‘lamda farqlanadi va ushbu o‘zgarishlarni miqdoriy baholash aksiyalarga investitsiya qilishda muhimdir.



3.22-rasm. Leonardnikiga o‘xshash portfelning 36 oylik o‘zgarishi, \$6000 Caterpillar aksiyalarida va \$2000 Exxon Mobil aksiyalarida.

Ko‘plab oldingi hollarda bo‘lgani kabi, Leonardning oylik daromadiga bog‘liq noaniqlikni tavsiflash uchun dispersiya va standart chetlanishdan foydalanamiz. Buning uchun har bir aksiya bo‘yicha oylik daromadning dispersiyalari foydali bo‘ladi va bu qiymatlar 3.23-rasmda ko‘rsatilgan. Aksiyalarning daromadlari deyarli bog‘liqsizdir.

Bu yerda Leonardning oylik daromadiga bog‘liq noaniqlikni tavsiflash uchun ehtimollar nazariya-

[56] $E(\$6000 \times X + \$2000 \times Y) = \$6000 \times 0{,}020 + \$2000 \times 0{,}002 = \$124$.

[57] Yo‘q. Aksiyalar vaqt o‘tishi bilan ko‘tarilishga moyil bo‘lsa-da, ular qisqa muddatda ko‘pincha o‘zgaruvchan bo‘ladi.

	O‘rtacha ($\bar{x}$)	Standart chetlanish (s)	Dispersiya (s^2)
CAT	0,0204	0,0757	0,0057
XOM	0,0025	0,0455	0,0021

3.23-rasm. CAT va XOM aksiyalari uchun o‘rtacha, standart chetlanish va dispersiya. Ushbu statistikalar tarixiy aksiyalar ma’lumotlaridan baholanib, tanlanma statistikalar uchun belgilash ishlatilgan.

sidagi bir tenglamadan foydalanamiz; ushbu usulning isbotini maxsus ehtimollar kursiga qoldiramiz. Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyasi dispersiyasini hisoblash uchun har bir tasodifiy miqdorning dispersiyasini kiritib, koeffitsientlarni kvadratga oshirish orqali hisoblash mumkin:

$$Var(aX + bY) = a^2 \times Var(X) + b^2 \times Var(Y) \ .$$

Ushbu tenglamaning to‘g‘ri bo‘lishi uchun tasodifiy miqdorlar bir-biriga bog‘liqsiz bo‘lishi kerak; agar bog‘liqsizlik buzilgan bo‘lsa, ushbu tenglama o‘zgartirilishi kerak, bu mavzuni kelajakdagi kurslar uchun qoldiramiz. Ushbu tenglamadan Leonardning oylik daromadining dispersiyasini hisoblash uchun foydalanish mumkin:

$$\begin{aligned} Var(6000 \times X + 2000 \times Y) &= 6000^2 \times Var(X) + 2000^2 \times Var(Y) \\ &= 36000000 \times 0{,}0057 + 4000000 \times 0{,}0021 \\ &\approx 213600 \ . \end{aligned}$$

Standart chetlanish dispersiyaning kvadrat ildizi sifatida hisoblanadi: $\sqrt{213600} = \$463$. \$8000 investitsiya uchun oylik \$124 o‘rtacha daromad juda yaxshi ko‘rinadi, biroq oylik daromadlarning o‘zgaruvchanligi shunchalik yuqoriki, Leonard bu daromad barqaror bo‘lishini kutmasligi kerak.

TASODIFIY MIQDORLARNING CHIZIQLI KOMBINATSIYALARINING O‘ZGARUVCHANLIGI

Tasodifiy miqdorlarning chiziqli kombinatsiyalarining dispersiyasi koeffitsientlarni kvadratga oshirib, tasodifiy miqdorlarning dispersiyalarini kiritish orqali hisoblanishi mumkin:

$$Var(aX + bY) = a^2 \times Var(X) + b^2 \times Var(Y) \ .$$

Ushbu tenglama tasodifiy miqdorlar bir-biriga bog‘liqsiz bo‘lsa to‘g‘ridir. Chiziqli kombinatsiyaning standart chetlanishi dispersiyaning kvadrat ildizini olish orqali topiladi.

M **3.68-MISOL**

Johnning har kungi ishga borish vaqti standart chetlanishi 4 daqiqa bo‘lsa, uning haftalik ishga borish vaqtidagi noaniqlik qancha bo‘ladi?

Johnning ishga borish vaqti uchun ifoda quyidagicha edi:

$$X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5 \ .$$

Har bir koeffitsient 1 ga teng va har bir kunning vaqti dispersiyasi $4^2 = 16$. Shunday qilib, umumiy haftalik ishga borish vaqti dispersiyasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \text{dispersiya} \ &= 1^2 \times 16 + 1^2 \times 16 + 1^2 \times 16 + 1^2 \times 16 + 1^2 \times 16 = 5 \times 16 = 80 \\ \text{standart chetlanish} \ &= \sqrt{\text{dispersiya}} = \sqrt{80} = 8{,}94 \ . \end{aligned}$$

Johnning haftalik ishga borish vaqti uchun standart chetlanish taxminan 9 daqiqaga teng.

Y **3.69-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.68-misoldagi hisoblash muhim taxminlarga asoslangan edi: har bir kun uchun ishga borish vaqti shu haftaning boshqa kunlaridagi vaqtga bog‘liq emas. Bu taxminni haqli deb o‘ylaysizmi? Izohlang.[58]

Y **3.70-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

3.62-mashqdagi 117-sahifa bo‘yicha Elenaning ikki auksionini ko‘rib chiqing. Faraz qilaylik, ushbu auksionlar deyarli bog‘liqsiz va televizor va toster pechiga bog‘liq narxlarning o‘zgaruvchanligi $25 va $8 standart chetlanishlar bilan tavsiflanadi. Elenaning sof foydasining standart chetlanishini hisoblang.[59]

Yana 3.70-mashqni ko‘rib chiqing. Chiziqli kombinatsiyada Y uchun manfiy koeffitsiyent kvadratga oshirilganda yo‘q qilindi. Bu odatda to‘g‘ri: chiziqli kombinatsiyadagi manfiy qiymatlar o‘zgaruvchanlikni hisoblashga ta’sir qilmaydi, ammo ular kutilma qiymatni hisoblashga ta’sir qiladi.

Mashqlar

3.29 Kollej chekuvchilari. Bir universitetda talabalarning 13% sigaret chekadilar.

(a) Ushbu universitetdan 100 nafar talabani tasodifiy tanlashda sigaret chekuvchilar sonining o‘rtacha (kutilayotgan) qiymatini hisoblang.

(b) Universitet sport zali shanba kuni ertalab soat 9:00 da ochiladi. Bir shanba kuni ertalab soat 8:55 da sport zalining tashqarisida uni ochilishini kutayotgan 27 nafar talaba bor edi. Ushbu 27 talabadan sigaret chekuvchilar sonining o‘rtacha (kutilayotgan) qiymatini hisoblashda (a) banddagi yondashuvni ishlatish kerakmi?

3.30 Chillak tuzi yutadi. Quyidagi karta o‘yinini ko‘rib chiqing, bunda kartalar yaxshi aralashtirilgan. Agar qizil karta tortsangiz, hech narsa yutmaysiz. Agar g‘isht tortsangiz, $5 yutasiz. Har qanday chillak uchun $10, va chillak tuzi uchun qo‘shimcha $20 yutasiz.

(a) Ushbu o‘yinda yutgan summangiz uchun ehtimollik modelini yarating. Shuningdek, bitta o‘yin uchun kutilayotgan yutuqni va yutuq taqsimotining standart chetlanishini toping.

(b) Ushbu o‘yinni o‘ynash uchun qancha ko‘p pul to‘lashga tayyor bo‘lasiz? Fikringizni tushuntiring.

3.31 Yuraklar yutadi. Yangi karta o‘yinida siz yaxshi aralashtirilgan kartalar to‘plamidan 3 ta kartani almashtirmasdan tortasiz. Agar 3 ta yurak tortsangiz, $50 yutasiz. Agar 3 ta qora karta tortsangiz, $25 yutasiz. Boshqa har qanday tortishda, hech narsa yutmaysiz.

(a) Ushbu o‘yinda yutgan summangiz uchun ehtimollik modelini yarating va o‘rtacha (kutilayotgan) yutuqni toping. Shuningdek, ushbu taqsimotning standart chetlanishini hisoblang.

(b) Agar o‘yin uchun $5 to‘lash kerak bo‘lsa, sof foyda (yoki yo‘qotish) ning o‘rtacha (kutilayotgan) qiymati va standart chetlanishi qanday? *(Maslahat: foyda = yutuq − xarajat; $X - 5$)*

(c) Agar o‘yin uchun $5 to‘lash kerak bo‘lsa, ushbu o‘yinni o‘ynash kerakmi? Fikringizni tushuntiring.

3.32 Arziydimi? Endi har doim tez pul ishlashning yo‘llarini qidiradi. So‘nggi paytlarda u qimor o‘ynab pul ishlashga harakat qilmoqda. Mana u o‘ynashni ko‘rib chiqayotgan o‘yin: o‘yin uchun $2 to‘lash kerak. U kartalar to‘plamidan bir kartani tortadi. Agar u raqamli kartani (2-10) tortsa, hech narsa yutmadi. Yuzi bor har qanday karta (valet, malika yoki qirol) uchun u $3 yutadi. Har qanday tuz uchun $5 yutadi va chillak tuzini tortsa, qo‘shimcha $20 yutadi.

(a) Ehtimollik modelini yarating va Endining bitta o‘yindan kutilayotgan foydasini toping.

(b) Ushbu o‘yinni Endiga pul ishlashning yaxshi usuli sifatida tavsiya qilasizmi? Fikringizni tushuntiring.

3.33 Portfel daromadi. Portfel qiymati iqtisodiy ko‘tarilish paytida 18% ga, normal sharoitda 9% ga oshadi. Iqtisodiy tanazzul paytida esa 12% ga kamayadi. Agar har bir ssenariy teng ehtimolga ega bo‘lsa, ushbu portfelning kutilayotgan daromadi qancha bo‘ladi?

[58] Bitta xavotir shundaki, tirbandlik harakatlari haftalik tsiklga ega bo‘lishi mumkin (masalan, juma kunlari boshqa kunlarga qaraganda yomonroq bo‘lishi mumkin). Agar shunday bo‘lsa va John haydasa, bu taxmin haqli bo‘lmasligi mumkin. Ammo, agar John ishga piyoda borsa, uning qatnovi haftalik tirbandlik siklidan ta’sirlanmasligi ehtimoldan xoli.

[59] Elenaning tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$(1) \times X + (-1) \times Y \ .$$

X va Y ning dispersiyalari 625 va 64 ga teng. Koeffitsientlarni kvadratga oshirib, dispersiyalarni kiritamiz:

$$(1)^2 \times Var(X) + (-1)^2 \times Var(Y) = 1 \times 625 + 1 \times 64 = 689 \ .$$

Chiziqli kombinatsiyaning dispersiyasi 689 ga teng va standart chetlanish 689 ning kvadrat ildiziga teng: taxminan $26,25.

3.34 Bagaj to‘lovlari. Aviakompaniya quyidagi bagaj to‘lovlarini oladi: birinchi sumka uchun $25 va ikkinchi sumka uchun $35. Faraz qilaylik, yo‘lovchilarning 54% hech qanday yuk olib yurmaydi, 34% bitta sumka olib yuradi, va 12% ikki sumka olib yuradi. Faraz qilamizki, ikki sumkadan ko‘p yuk olib yuradigan odamlar ulushi e’tiborga olinmaydigan darajada kichik.

(a) Ehtimollik modelini yarating, bir yo‘lovchi uchun o‘rtacha tushumni va tegishli standart chetlanishni hisoblang.

(b) 120 yo‘lovchi bo‘lgan parvoz uchun aviakompaniya qancha tushum kutishi mumkin? Qaysi standart chetlanish bilan? Qabul qilgan har qanday taxminlaringizni ko‘rsating va ular asoslimi?

3.35 Amerika ruletkasi. Amerika ruletkasi o‘yini 38 ta uyali g‘ildirakni aylantirishni o‘z ichiga oladi: 18 ta qizil, 18 ta qora va 2 ta yashil. G‘ildirakka to‘p tashlanadi va u oxir-oqibat bir uyaga tushadi. Har bir uyaning to‘pni tutib olish ehtimoli tengdir. Qimorbozlar qizil yoki qora rangga tikishlari mumkin. Agar to‘p ularning rangiga tushsa, ular pulini ikki baravar oshiradi. Agar u boshqa rangga tushsa, ular pulini yo‘qotadi. Faraz qilaylik, siz qizil rangga $1 tikasiz. Sizning yutug‘ingizning kutilayotgan qiymati va standart chetlanishi qancha?

3.36 Yevropa ruletkasi. Yevropa ruletkasi o‘yini 37 ta uyali g‘ildirakni aylantirishni o‘z ichiga oladi: 18 ta qizil, 18 ta qora va 1 ta yashil. G‘ildirakka to‘p tashlanadi va u oxir-oqibat bir uyaga tushadi. Har bir uyaning to‘pni tutib olish ehtimoli tengdir. Qimorbozlar qizil yoki qora rangga tikishlari mumkin. Agar to‘p ularning rangiga tushsa, ular pulini ikki baravar oshiradi. Agar u boshqa rangga tushsa, ular pulini yo‘qotadi.

(a) Faraz qilaylik, siz ruletka o‘ynab, bitta raundda $3 tikasiz. Umumiy yutuqlaringizning o‘rtacha (kutilayotgan) qiymati va standart chetlanishi qancha?

(b) Faraz qilaylik, siz uchta turli raundda har biriga $1 tikasiz. Umumiy yutuqlaringizning o‘rtacha (kutilayotgan) qiymati va standart chetlanishi qancha?

(c) (a) va (b) qismlariga javoblaringizni solishtiring. Bu ikkita o‘yinning xavfliligiga nima deyishi mumkin?

3.5 Uzluksiz taqsimotlar

Bu bobda hozirgacha biz miqdorning natijasi diskret bo‘lgan hollarga e’tibor qaratdik. Ushbu bo‘limda biz natijasi uzluksiz sonli miqdor bo‘lgan kontekstni ko‘rib chiqamiz.

Ⓜ **3.71-MISOL**

3.24-rasm AQSh kattalarining bo‘ylari uchun bir nechta turli xil bo‘sh gistogrammalarni ko‘rsatadi. Binlar (yoki intervallar) sonining o‘zgarishi ma’lumotlarni turlicha talqin qilishga qanday imkon beradi?

Ko‘proq binlar qo‘shish ma’lumotlarning ko‘proq tafsilotlarini beradi. Ushbu namuna juda katta, shuning uchun juda kichik binlar ham yaxshi ishlaydi. Odatda kichik tanlanma (namuna) hajmlarida juda ko‘p binlardan foydalanilmaydi, chunki har bir bin uchun kichik sonlar bin balandliklarini juda o‘zgaruvchan qiladi.


Ⓜ **3.72-MISOL**

Bo‘yi `180` sm dan `185` sm gacha bo‘lgan (taxminan 5’11” dan 6’1”) tanlanma(namuna)ning qanday ulushi?


Biz `180` sm va `185` oralig‘idagi bin balandliklarini qo‘shib, tanlanma (namuna) hajmiga bo‘lishimiz mumkin. Masalan, bu 3.25-rasmda ko‘rsatilgan ikki soyali bin bilan amalga oshirilishi mumkin. Ushbu hududdagi ikkita binda 195307 va 156239 odam bor, bu quyidagi ehtimolni baholashga olib keladi:

$$\frac{195307 + 156239}{3000000} = 0{,}1172\ .$$

Ushbu ulush gistogrammaning `180` dan `185` sm oralig‘idagi maydon ulushiga teng.



3.24-rasm. AQSh kattalarining bo‘ylari uchun turli bin kengliklari bilan to‘rtta bo‘sh gistogramma.



3.25-rasm. Bin kengliklari 2,5 sm bo‘lgan gistogramma. bo‘yalgan soha 180 va 185 sm oralig‘idagi shaxslarni ifodalaydi.

3.5.1 Gistogrammalardan uzluksiz taqsimotlarga

3.24-rasmdagi yuqori chap tomondagi burchakli bo‘sh gistogrammadan past o‘ng tomondagi ancha silliq chiziqli tasvirdagi o‘tishni kuzating. Ushbu oxirgi tasvirdagi binlar shunchalik kichikki, bo‘sh gistogramma silliq chiziqqa o‘xshash ko‘rinadi. Bu shuni anglatadiki, bosh to‘plam bo‘yi *uzluksiz* sonli o‘zgaruvchi sifatida eng yaxshi tarzda juda tor binlarning chiziqlarini ifodalovchi chiziq bilan tavsiflanishi mumkin.


Ushbu silliq chiziq a **ehtimollik zichligi funksiyasi** (deb ham ataladi **zichlik** yoki **taqsimot**) va bunday chiziq 3.26-rasmda tanlanma(namuna)dagi gistogramma ustida chizilgan. Zichlik maxsus xossaga ega: zichlik chizig‘ining ostidagi umumiy yuza 1 ga teng.

3.5.2 Uzluksiz taqsimotlardan ehtimollar

3.72-misolda bo‘ylari 180 dan 185 sm gacha bo‘lgan shaxslar ulushi sifatida hisoblandi:

$$\frac{\text{180 dan 185 oralig‘idagi odamlar soni}}{\text{umumiy tanlanma hajmi}}.$$

Bu hududdagi gistogramma maydonining ulushini aniqlash orqali biz 180 va 185 sm oralig‘idagi bo‘yga ega bo‘lgan odamlar sonini topdik. Xuddi shunday, kompyuter yordamida chiziq ostidagi




3.26-rasm. AQShdagi katta yoshdagi aholining bo‘ylari uchun uzluksiz ehtimollik taqsimoti.

bo‘yalgan sohaning yuzasi yordamida ehtimolni topishimiz mumkin:

$P(\texttt{bo‘y 180 dan 185 oralig‘ida}) = \texttt{180 dan 185 oralig‘idagi bo‘yalgan soha yuzasi} = 0{,}1157$.

Tasodifiy tanlangan odamning bo‘yi 180 dan 185 sm oralig‘ida bo‘lish ehtimoli 0,1157. Bu 3.72-misoldagi bahoga juda yaqin: 0,1172.



3.27-rasm. AQShdagi katta yoshdagilarining bo‘ylari uchun zichlik chizig‘i, 180 va 185 sm oralig‘idagi bo‘yalgan soha yuzasini 3.25-rasmdagi bilan taqqoslang.

Y **3.73-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

AQShning katta yoshdagi aholisidan tasodifiy uchta tanlangan. Har bir katta yoshdagining bo‘yi 180 dan 185 sm oralig‘ida bo‘lish ehtimoli 0.1157.[60]

(a) Uchalasining ham bo‘yi 180 dan 185 sm oralig‘ida bo‘lish ehtimoli qanday?

(b) Hech birining bo‘yi 180 dan 185 sm oralig‘ida bo‘lmaslik ehtimoli qanday?

M **3.74-MISOL**

Tasodifiy tanlangan odamning bo‘yi aniq 180 sm bo‘lish ehtimoli qanday? Faraz qiling, o‘lchovlar mukammal amalga oshiriladi.

Ushbu ehtimol nolga teng. Odamning bo‘yi 180 sm ga yaqin bo‘lishi mumkin, lekin aniq 180 sm bo‘lish ehtimoli yo‘q. Bu ehtimolni yuza sifatida aniqlash bilan ham mos keladi; 180 sm va 180 sm oralig‘ida hech qanday yuza mavjud emas.

[60] Qisqa javoblar: (a) $0{,}1157 \times 0{,}1157 \times 0{,}1157 = 0{,}0015$. (b) $(1 - 0{,}1157)^3 = 0{,}692$

Y **3.75-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Faraz qilaylik, odamning bo‘yi eng yaqin santimetrgacha yaxlitlanadi. Tasodifiy odamning **o‘lchangan** bo‘yi `180` sm bo‘lish ehtimoli bormi?[61]


Mashqlar

3.37 Mushuklar vazni. Quyidagi gistogramma 47 urg‘ochi va 97 erkak mushukning vaznini (kg) ko‘rsatadi.[62]

(a) Ushbu mushuklarning qancha qismi 2,5 kg dan kam vaznga ega?

(b) Ushbu mushuklarning qancha qismi 2,5 va 2,75 kg oralig‘ida vaznga ega?

(c) Ushbu mushuklarning qancha qismi 2,75 va 3,5 kg oralig‘ida vaznga ega?



3.38 Daromad va jins. Quyidagi nisbiy chastota jadvali 2005-2009 yillar uchun Amerikaning 96420486 vakilidan iborat namunada yillik shaxsiy jami daromadning taqsimotini ko‘rsatadi (2009-yil inflyatsiya bilan moslashtirilgan dollar). Ushbu ma’lumotlar Amerika hamjamiyati tadqiqotidan olingan. Namuna 59% erkaklar va 41% ayollardan iborat.[63]

(a) Shaxsiy jami daromad taqsimotini tasvirlab bering.

(b) Tasodifiy tanlangan AQSh fuqarosi yiliga $50000 dan kam daromad olish ehtimoli qancha?

(c) Tasodifiy tanlangan AQSh fuqarosi yiliga $50000 dan kam daromad olishi va ayol bo‘lish ehtimoli qancha? Qabul qilgan taxminlaringizni ko‘rsating.

(d) Xuddi shu ma’lumotlar manbasi ayollarning 71,8% yiliga $50000 dan kam daromad olishini ko‘rsatadi. (c) bandida qilingan taxminingiz to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini aniqlash uchun ushbu qiymatdan foydalaning.

Daromad	*Jami*
$1 dan $9,999 yoki zarar	2,2%
$10000 dan $14999	4,7%
$15000 dan $24999	15,8%
$25000 dan $34999	18,3%
$35000 dan $49999	21,2%
$50000 dan $64999	13,9%
$65000 dan $74999	5,8%
$75000 dan $99999	8,4%
$100000 yoki ko‘proq	9,7%

Bob bo‘yicha mashqlar

3.39 Baholar taqsimoti. Quyidagi jadvalning har bir qatori sinf uchun taklif qilingan baholar taqsimotidir. Har birini haqiqiy yoki noto‘g‘ri ehtimollik taqsimoti sifatida aniqlang va fikringizni izohlang.

	Baholar				
	A	B	C	D	F
(a)	0,3	0,3	0,3	0,2	0,1
(b)	0	0	1	0	0
(c)	0,3	0,3	0,3	0	0
(d)	0,3	0,5	0,2	0,1	−0,1
(e)	0,2	0,4	0,2	0,1	0,1
(f)	0	−0,1	1,1	0	0

[61] Bu musbat ehtimolga ega. `179,5` sm va `180,5` sm oralig‘idagi har qanday odamning *o‘lchangan* bo‘yi `180` sm bo‘ladi. Bu, ehtimol, 3.74-misolga qaraganda amalda ko‘proq uchraydigan holat.

[62] W. N. Venables and B. D. Ripley. *Modern Applied Statistics with S*. Fourth Edition. www.stats.ox.ac.uk/pub/MASS4. New York: Springer, 2002.

[63] U.S. Census Bureau, 2005-2009 American Community Survey.

3.40 Sog‘liqni sug‘urtalash, chastotalar. Xulq-atvor xavf omillari monitoring tizimi (inglizcha: Behavioral Risk Factor Surveillance System yoki BRFSS) kattalar orasida xavf omillarini aniqlash va sog‘liqni saqlashning yangi tendensiyalarini xabar qilish uchun har yili o‘tkaziladigan telefon so‘rovdir. Quyidagi jadval respondentlar uchun ikkita o‘zgaruvchini - sog‘liq holati va sog‘liq sug‘urtasi (ya’ni har bir respondent sug‘urtaga ega bo‘lganmi yoki yo‘qmi) ni umumlashtiradi.[64]

		Sog‘liq Holati					
		Zo‘r	Juda yaxshi	Yaxshi	o‘rtacha	Yomon	Jami
Sug‘urta	Yo‘q	459	727	854	385	99	2524
Holati	Ha	4198	6245	4821	1634	578	17476
	Jami	4657	6972	5675	2019	677	20000

(a) Tasodifiy tanlangan bitta shaxsda zo‘r sog‘liq va sog‘liq sug‘urtasi bo‘lmasligi ehtimoli qancha?

(b) Tasodifiy tanlangan bitta shaxsda zo‘r sog‘liq yoki sog‘liq sug‘urtasi bo‘lmasligi ehtimoli qancha?

3.41 Svazilendda OIV. Svazilend (Esvatini) dunyodagi eng yuqori OIV (Inson immunitet tanqisligi virusi) tarqalishiga ega mamlakatdir: ushbu mamlakat aholining 25,9% OIV bilan zararlangan.[65] ELISA testi OIV uchun eng birinchi va eng aniq testlardan biridir. OIV tashuvchilari uchun ELISA testi 99,7% aniqlikka ega. OIV tashuvchi bo‘lmaganlar uchun esa test 92,6% aniqlikka ega. Agar Svazilenddan bir shaxsda test natijasi ijobiy bo‘lsa, unda u OIV tashuvchi bo‘lish ehtimoli qancha?

3.42 Egizaklar. Inson egizaklarining taxminan 30% i bir xil, qolgani esa har xil. Bir xil egizaklar majburiy ravishda bir xil jinsda bo‘ladi – yarmi erkak va yarmi ayol. Har xil egizaklarning to‘rtdan biri erkak, to‘rtdan biri ayol va yarmi aralash: biri erkak, biri ayol. Siz yaqinda egizaklarning ota-onasi bo‘ldingiz va ularga ikkovi ham qiz ekanligi haqida xabar berildi. Ushbu ma’lumotdan kelib chiqib, ularning bir xil bo‘lish ehtimoli qancha?

3.43 Nonushta narxi. Salliy har kuni ertalab o‘z mahallasidagi ko‘plab qahvaxonalardan biridan qahva va keks olib nonushta qiladi. U har kuni tasodifiy qahvaxonani tanlaydi va oldingi kunlardan bog‘liqsiz (mustaqil) ravishda tanlashni amalga oshiradi. Qahva stakanining o‘rtacha narxi \$1,40 va standart og‘ishi 30¢ (\$0,30), keksning o‘rtacha narxi \$2,50 va standart chetlanishi 15¢ (yoki \$0,15). Ikkala narx bir-biridan bog‘liqsiz (mustaqil).

(a) U nonushta uchun har kuni qancha pul sarflaydi? Ushbu sarfning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishi qancha?

(b) U bir hafta (7 kun) davomida nonushta uchun qancha pul sarflaydi? Ushbu sarfning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishi qancha?

3.44 Muzqaymoqni qoshiq bilan olish. Muzqaymoq odatda 1,5 kvartli qutilarda (48 suyuq unsiya ≈ 1,42 litr, 1 suyuq unsiya ≈ 29,57 millilitr) sotiladi va muzqaymoq qoshiqchalari taxminan 2 unsiya sig‘imga ega. Biroq, qutidagi muzqaymoq miqdorida ham, qoshiq bilan olinadigan muzqaymoq miqdorida ham ma’lum darajada o‘zgaruvchanlik mavjud. Qutidagi muzqaymoq miqdorini X bilan, olinadigan miqdorni esa Y bilan belgilaymiz. Faraz qilaylik, ushbu tasodifiy o‘zgaruvchilar quyidagi o‘rtacha qiymatlar, standart chetlanishlar va dispersiyalarga ega:

	o‘rtacha qiymat	SD	dispersiya
X	48	1	1
Y	2	0,25	0,0625

(a) Bir quti muzqaymoq va ikkinchi qutidan 3 qoshiq muzqaymoq bazmda tortiq qilindi. Ushbu bazmda qancha muzqaymoq tortiq qilinganini kutasiz? Tortiq qilingan muzqaymoq miqdorining standart chetlanishi qanday?

(b) Bir qoshiq muzqaymoq olingandan so‘ng qutida qancha muzqaymoq qolishini kutasiz? Ya’ni, $X-Y$ ning o‘rtacha (kutilayotgan) qiymatini toping. Qutida qolgan muzqaymoq miqdorining standart chetlanishi qanday?

(c) Ushbu mashq kontekstidan foydalanib, nima sababdan bir tasodifiy o‘zgaruvchini boshqasidan ayirganda dispersiyalarni qo‘shishimizni tushuntiring.

3.45 O‘rtacha qiymat dispersiyasi, 1-qism. Faraz qilaylik, bizda o‘rtacha qiymati μ va standart chetlanishi σ bo‘lgan taqsimotdan olingan bog‘liqsiz (mustaqil) kuzatuvlar X_1 va X_2 mavjud. Quyidagi ikki qiymat o‘rtachasining dispersiyasi nimaga teng: $\frac{X_1+X_2}{2}$?

[64] Office of Surveillance, Epidemiology, and Laboratory Services Behavioral Risk Factor Surveillance System, BRFSS 2010 Survey Data.

[65] Source: CIA Factbook, Country Comparison: HIV/AIDS - Adult Prevalence Rate.

3.46 O‘rtacha qiymat dispersiyasi, 2-qism. Faraz qilaylik, bizda o‘rtacha qiymati μ va standart chetlanishi σ bo‘lgan taqsimotdan olingan 3 ta bog‘liqsiz (mustaqil) kuzatuv X_1, X_2, X_3 mavjud. Quyidagi 3 ta qiymat o‘rtachasining dispersiyasi nimaga teng: $\frac{X_1+X_2+X_3}{3}$?

3.47 O‘rtacha qiymat dispersiyasi, 3-qism. Faraz qilaylik, bizda o‘rtacha qiymati μ va standart chetlanishi σ bo‘lgan taqsimotdan olingan n ta bog‘liqsiz (mustaqil) kuzatuv X_1, X_2, ..., X_n mavjud. Quyidagi n ta qiymat o‘rtachasining dispersiyasi nimaga teng: $\frac{X_1+X_2+\cdots+X_n}{n}$?

4-BOB

Tasodifiy miqdorlarning taqsimotlari

4.1 Normal taqsimot

4.2 Geometrik taqsimot

4.3 Binomial taqsimot

4.4 Salbiy binomial taqsimot

4.5 Puasson taqsimoti


Ushbu bobda ma'lumotlarni tahlil qilish yoki statistik xulosalar chiqarish jarayonida ko'p uchraydigan statistik taqsimotlarni muhokama qilamiz. Birinchi bo'limda ushbu kitobning keyingi boblarida ko'p marta qo'llaniladigan normal taqsimotni ko'rib chiqamiz. Qolgan bo'limlarga ixtiyoriy tarzda murojaat qilinishi kitobning mazmuniga mos keladi.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**

4.1 Normal taqsimot

Amaliyotda ko‘rib chiqiladigan barcha taqsimotlar orasida biri juda keng tarqalgan. Simmetrik, bitta cho‘qqili, qo‘ng‘iroq shaklidagi egri chiziq statistikada deyarli har qadamda uchraydi. Darhaqiqat, u shu qadar keng tarqalganki, odatda odamlar uni **normal egri chiziq** yoki **normal taqsimot** deb bilishadi.[1] Bu 4.1-rasmda da ko‘rsatilgan. Masalan, SAT (AQSh oliygohlariga qabulda qo‘llanadigan standartlashtirilgan imtihon) ballari va AQShdagi katta yoshdagi erkaklarining bo‘ylari normal taqsimotga yaqinlashadi.




4.1-rasm. Normal egri chizig‘i.

NORMAL TAQSIMOT HAQIDAGI MA’LUMOTLAR

Ko‘plab o‘zgaruvchilar deyarli normal, lekin hech biri to‘liq normal emas. Shu sababli, normal taqsimot biror muammo uchun mukammal yechim bo‘lmasa ham, u turli muammolar uchun juda foydali. Biz uni ma’lumotlarni o‘rganishda va statistikadagi muhim muammolarni hal qilishda qo‘llaymiz.


4.1.1 Normal taqsimot modeli

Normal taqsimot har doim simmetrik, bitta cho‘qqili va qo‘ng‘iroq shaklidagi egri chiziqni tasvirlaydi. Biroq, bu egri chiziqlar modelning tafsilotlariga qarab har xil ko‘rinishi mumkin. Xususan, normal taqsimot modelini ikkita parametr yordamida moslashtirish mumkin: o‘rtacha qiymat va standart chetlanish. Ehtimol siz taxmin qilgandirsiz, o‘rtacha qiymatni o‘zgartirish qo‘ng‘iroq shaklidagi egri chiziqni chapga yoki o‘ngga suradi, standart chetlanishni o‘zgartirish esa egri chiziqni cho‘zadi yoki siqadi. 4.2-rasmning chap tomonida o‘rtacha qiymati 0 va standart chetlanishi 1 bo‘lgan normal taqsimotni, o‘ngda esa o‘rtacha qiymati 19 va standart chetlanishi 4 bo‘lgan normal taqsimotlar tasvirlangan. 4.3-rasmda ushbu taqsimotlar bitta o‘qda tasvirlangan.



4.2-rasm. Ikkala egri chiziq ham normal taqsimotni ifodalaydi. Ammo, ularning markazi va tarqalishi turlicha.

[1] U Fridrix Gauss, uning matematik ifodasini birinchi bo‘lib rasmiylashtirgani uchun Gauss taqsimoti deb ham ataladi.



4.3-rasm. 4.2-rasmdagi normal taqsimotlar, lekin bu safar birgalikda va bir xil o‘lchovda tasvirlangan.

Agar normal taqsimotning o‘rtacha qiymati μ va standart chetlanishi σ bo‘lsa, bu taqsimotni $N(\mu;\sigma)$ deb yozish mumkin. 4.3-rasmdagi ikkita taqsimotni quyidagicha yozish mumkin:

$$N(\mu=0;\sigma=1) \quad \text{va} \quad N(\mu=19;\sigma=4).$$

Chunki o‘rtacha qiymat va standart chetlanish normal taqsimotni aniq ifodalaydi, ular **taqsimotning parametrlari** deb ataladi. O‘rtacha qiymati $\mu=0$ va standart chetlanishi $\sigma=1$ bo‘lgan normal taqsimot **standart normal taqsimot** deb ataladi.

Y **4.1-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Quyidagi qiymatlarga ega normal taqsimot uchun qisqa yozuvni yozing:[2]
(a) o‘rtacha qiymat 5 va standart chetlanish 3;
(b) o‘rtacha qiymat -100 va standart chetlanish 10;
(c) o‘rtacha qiymat 2 va standart chetlanish 9.

4.1.2 Z-ballar yordamida standartlashtirish

Ko‘pincha biz ma’lumotlarni standartlashtirilgan o‘lchovga o‘tkazishni xohlaymiz, bu esa taqqoslashlarni ancha qulay qilishga imkon beradi.

M **4.2-MISOL**

4.4-jadval SAT va ACT (AQSh oliygohlariga kirishda qo‘llanadigan standartlashtirilgan imtihon) bo‘yicha umumiy ballarning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishini ko‘rsatadi. SAT va ACT ballarining taqsimotlari deyarli normaldir. Faraz qilaylik, Anna SAT bo‘yicha 1300 ball olgan va Tom esa ACT bo‘yicha 24 ball olgan. Kim yaxshiroq natijaga erishgan?


Biz standart chetlanishni qo‘llanma sifatida ishlatamiz. Anna SAT bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan 1 standart og‘ish yuqorida $1100+200=1300$. Tom esa ACT bo‘yicha o‘rtacha qiymatdan 0,5 standart chetlanish yuqorida: $21+0{,}5\times 6=24$. 4.5-rasmdan ko‘rinib turibdiki, Annaning natijasi Tomnikiga nisbatan yaxshiroq.

	SAT	ACT
O‘rtacha qiymat	1100	21
Standart chetlanish	200	6

4.4-rasm. SAT va ACT ballari uchun o‘rtacha qiymat va standart chetlanish.

4.2-misolda Z-ball deb nomlanuvchi standartlashtirish usulidan foydalanildi. Asosan bu usul deyarli normal kuzatuvlar uchun ishlatiladi, lekin uni istalgan taqsimotda qo‘llash mumkin. **Z-ball** kuzatuvning o‘rtacha qiymatdan necha standart chetlanish yuqorida yoki pastda ekanligini aniqlaydi. Agar kuzatuv o‘rtacha qiymatdan bir standart chetlanish yuqorida bo‘lsa, uning Z-balli 1 bo‘ladi. Agar u o‘rtacha qiymatdan 1,5 standart chetlanish pastda bo‘lsa, uning Z-balli $-1{,}5$ bo‘ladi. Agar x tasodifiy miqdor $N(\mu;\sigma)$−taqsimotdan olingan kuzatuv bo‘lsa, Z-ball matematik ravishda

[2](a) $N(\mu=5;\sigma=3)$. (b) $N(\mu=-100;\sigma=10)$. (c) $N(\mu=2;\sigma=9)$.



4.5-rasm. Anna va Tomning ballari SAT va ACT taqsimotlariga nisbatan ko‘rsatilgan.

quyidagicha aniqlanadi:

$$Z = \frac{x - \mu}{\sigma}$$

$\mu_{SAT} = 1100$, $\sigma_{SAT} = 200$ va $x_{\text{Anna}} = 1300$ qiymatlaridan foydalanib, Annaning Z-ballini topamiz:

$$Z_{\text{Anna}} = \frac{x_{\text{Anna}} - \mu_{\text{SAT}}}{\sigma_{\text{SAT}}} = \frac{1300 - 1100}{200} = 1.$$

Z-BALL

Kuzatuvning Z-ballini hisoblash uning o‘rtacha qiymatdan necha standart chetlanish yuqorida yoki pastda ekanligini aniqlashdir. Agar $x-$ kuzatuv, $\mu-$ o‘rtacha qiymat va $\sigma-$ standart chetlanish bo‘lsa, Z-ball quyidagicha hisoblanadi:

$$Z = \frac{x - \mu}{\sigma}.$$

4.3-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Tomning ACT bo‘yicha balli 24 va ACT uchun o‘rtacha qiymat va standart chetlanishdan foydalanib, uning Z-ballini toping.[3]

O‘rtacha qiymatdan yuqori bo‘lgan kuzatuvlar har doim musbat Z-ballga ega, o‘rtacha qiymatdan pastda bo‘lganlar esa har doim manfiy Z-ballga ega bo‘ladi. Agar kuzatuv o‘rtacha qiymatga teng bo‘lsa, masalan, SAT balli 1100 bo‘lsa, unda Z-balli 0 bo‘ladi.

4.4-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

X tasodifiy miqdor $N(\mu = 3; \sigma = 2)$ dan olingan deb faraz qilaylik. $x = 5{,}19$ kuzatuv bo‘lsin.
(a) x uchun Z-ballni toping;
(b) Z-ball yordamida x o‘rtacha qiymatdan necha standart chetlanish yuqorida yoki pastda ekanligini aniqlang.[4]

4.5-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Keng quyruqli possumlar (brushtail possums) bosh uzunliklari o‘rtacha 92,6 mm va standart chetlanish 3,6 mm bo‘lgan normal taqsimotga bo‘ysunadi. Bosh uzunliklari 95,4 mm va 85,8 mm bo‘lgan possumlar uchun Z-ballni hisoblang.[5]

Biz Z-ball yordamida qaysi kuzatuvlar boshqalarga nisbatan g‘ayrioddiyroq ekanligini aniqlash-

[3] $Z_{Tom} = \frac{x_{\text{Tom}} - \mu_{\text{ACT}}}{\sigma_{\text{ACT}}} = \frac{24-21}{6} = 0{,}5$.

[4] (a) Uning Z-balli quyidagicha aniqlanadi: $Z = \frac{x-\mu}{\sigma} = \frac{5{,}19-3}{2} = 2{,}19/2 = 1{,}095$. (b) x o‘rtacha qiymatdan 1,095 standart chetlanish *yuqorida* joylashgan. Z-balli musbat bo‘lgani uchun kuzatuv o‘rtacha qiymatdan yuqorida joylashgan ekanligini bilamiz.

[5] $x_1 = 95{,}4$ mm uchun: $Z_1 = \frac{x_1 - \mu}{\sigma} = \frac{95{,}4-92{,}6}{3{,}6} = 0{,}78$. $x_2 = 85{,}8$ mm uchun: $Z_2 = \frac{85{,}8-92{,}6}{3{,}6} = -1{,}89$.


imiz mumkin. Agar x_1 kuzatuvning Z-ballining moduli ($|Z_1|$) boshqa kuzatuv x_2 ning Z-ballining modulidan ($|Z_2|$) katta bo‘lsa, x_1 kuzatuv x_2 ga qaraganda g‘ayrioddiyroq hisoblanadi. Ushbu texnika ayniqsa simmetrik taqsimotlarda foydalidir.

Y **4.6-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

4.5-yo‘naltirilgan mashqdagi qaysi kuzatuv g‘ayrioddiyroq?[6]

4.1.3 Taqsimotning quyruq qismlarini topish

Statistikada taqsimotlarning quyruq qismlarini aniqlay olish juda foydalidir. Masalan, odamlarning qanday ulushi Annaning 1300 ballik SAT natijasidan past ball olgan? Bu savol Annaning nechanchi **persentilda** (Persentil — bu statistik ko‘rsatkich bo‘lib, u ma’lum bir qiymatdan past bo‘lgan ma’lumotlarning foizini ko‘rsatadi.) ekaniga teng, ya’ni Anna natijasidan pastroq ball olgan hollarning foizi. Bunday quyruq qismini 4.6-rasmdagi egri chiziq va soya yordamida tasvirlash mumkin.



4.6-rasm. 1100 o‘rtacha qiymat va 200 standart chetlanishga ega normal taqsimot tasvirlangan. Egri chiziq va 1300 qiymatining chap tomonidagi soya Annaning ballidan past bo‘lgan odamlar ulushini ifodalaydi.

Buni amalga oshirish uchun ko‘plab texnikalar mavjud va biz uchta variantni muhokama qilamiz.

1. Amaliyotda eng keng tarqalgan yondashuv statistik dasturiy ta’minotdan foydalanishdir. Masalan, **R** dasturida 4.6-rasmdagi soya maydonini topish uchun quyidagi buyruqdan foydalanish mumkin, bu Z-ballni qabul qiladi va pastki quyruq qismini qaytaradi:

   ```
   > pnorm(1)
   [1] 0.8413447
   ```

   Ushbu hisob-kitobga ko‘ra, 1300 dan past bo‘lgan soya maydoni $Z = 1$ balldan past bo‘lgan SAT test topshiruvchilarining ulushi 0,841 (84,1%) ni tashkil etadi. Umumiy holda, o‘rtacha qiymat va standart chetlanishni ham ko‘rsatib, chegara qiymatini aniq belgilashimiz mumkin:

   ```
   > pnorm(1300, mean = 1100, sd = 200)
   [1] 0.8413447
   ```

   Shuningdek, Python yoki SAS kabi boshqa dasturiy ta’minotlardan foydalanish mumkin. Hatto Excel va Google Sheets kabi jadval dasturlari ham bu hisob-kitoblarni qo‘llab-quvvatlaydi.

2. Sinfxonalarda keng tarqalgan grafik kalkulyatorlardan “TI” yoki “Casio”. Ushbu kalkulyatorlar ketma-ket bir nechta tugmachalarni bosishni talab qiladi, bu jarayon qisqacha tavsiflanmaydi. Ushbu kalkulyatorlardan normal taqsimotning quyruq qismlarini topish uchun qanday foydalanish haqidagi ingliz tilidagi ma’lumotlarni OpenIntro video kutubxonasida topishingiz mumkin:

   www.openintro.org/videos

3. Quyruq qismlarini topishning oxirgi varianti **ehtimollik jadvali** deb ataladigan usuldan foydalanishdir. Bu usul sinfxonalarda ba’zida qo‘llaniladi, lekin amaliyotda kamdan-kam qo‘llaniladi. C.1-Ilovada bunday jadval va undan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud.

[6] Ikkinchi kuzatuvning Z-balli moduli birinchi kuzatuvnikidan katta bo‘lgani uchun, ikkinchi kuzatuvning bosh uzunligi ko‘proq g‘ayrioddiy hisoblanadi.

Biz ushbu bo‘limdagi normal taqsimot masalalarini yechishda har doim birinchi navbatda Z-ballni topamiz. Buning sababi shundaki, biz 5-bobdan boshlab kriteriy statistikasi deb ataladigan tushunchaga yaqin parallel tushunchalar bilan uchrashamiz. Bu ko‘p hollarda Z-ballning ekvivalentidir.


4.1.4 Normal ehtimollik misollari

SAT ballarining umumiy taqsimoti $N(\mu = 1100; \sigma = 200)$ normal modeli bilan yaxshi taxmin qilinadi.

4.7-MISOL

Shannon tasodifiy ravishda tanlangan SAT topshiruvchisi va Shannonning SAT qobiliyati haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Shannon SAT bo‘yicha kamida 1190 ball olish ehtimoli qancha?


Avval normal taqsimotning chizmasini chizing va belgilang. (Rasmlar aniq bo‘lishi shart emas, foydali bo‘lishi kifoya.) Biz uning 1190 balldan yuqori olish ehtimoli bilan qiziqyapmiz, shuning uchun yuqori quyruq qismini soyali qilamiz:



Rasm o‘rtacha qiymatni va o‘rtacha qiymatdan 2 standart chetlanish yuqoridagi va pastdagi qiymatlarni ko‘rsatadi. Egri chiziq ostidagi soyali maydonni topishning eng oddiy usuli - chegara qiymatning Z-ballidan foydalanishdir. $\mu = 1100$, $\sigma = 200$ va chegara qiymati $x = 1190$ bo‘lsa, Z-balli quyidagicha hisoblanadi:

$$Z = \frac{x - \mu}{\sigma} = \frac{1190 - 1100}{200} = \frac{90}{200} = 0{,}45 \ .$$

Statistik dasturiy ta’minotdan (yoki boshqa usuldan) foydalangan holda, biz $Z = 0{,}45$ ning chap tomonidagi maydonni 0,6736 sifatida topamiz. $Z = 0{,}45$ dan yuqoridagi maydonni topish uchun biz birdan pastki quyruq qismining maydonini ayiramiz:



Shannonning SAT bo‘yicha kamida 1190 ball olish ehtimoli 0,3264 ga teng.

HAR DOIM AVVAL RASM CHIZING VA KEYIN Z-BALLNI TOPING

Har qanday normal ehtimollik vaziyatida, har doim normal egri chiziqni chizib belgilang va qiziqarli maydonni soyali qiling. Rasm ehtimollikning taxminiy qiymatini beradi. Vaziyatni ifodalash uchun rasm chizib bo‘lgach, qiziqarli qiymat uchun Z-ballni aniqlang.


4.8-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Agar Shannonning kamida 1190 ball olish ehtimoli 0,3264 bo‘lsa, unda uning 1190 dan kam ball olish ehtimoli qancha? Ushbu mashqni ifodalovchi normal egri chizig‘ini chizib, yuqori qism o‘rniga quyi qismini soyalang.[7]

4.9-MISOL

Edvard SAT bo‘yicha 1030 ball to‘pladi. Uning persentili qanday?

Avval rasm chizish kerak. Edvardning persentili uning ballidan past bo‘lgan odamlar ulushidir (quyi quyruq qismi). Bu 1030 dan past bo‘lgan ballardir.



O‘rtacha qiymat $\mu = 1100$, standart chetlanish $\sigma = 200$ va quyruq qismi chegarasi $x = 1030$ ni aniqlash Z-ballni hisoblashni osonlashtiradi:

$$Z = \frac{x - \mu}{\sigma} = \frac{1030 - 1100}{200} = -0,35 \ .$$

Statistik dasturiy ta’minotdan foydalanib, quyruq qismi maydoni 0,3632 ekanini topamiz. Edvard 36− persentilda joylashgan.

4.10-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

4.9-misolning natijalaridan foydalanib, Edvarddan yaxshiroq natijaga ega bo‘lgan SAT topshiruvchilarning ulushini hisoblang. Shuningdek, yangi rasm chizing.[8]

O‘NG TOMONDAGI MAYDONNI TOPISH

Ko‘pgina dasturiy ta’minotlar Z-ball berilganda chap tomondagi maydonni qaytaradi. Agar o‘ng tomondagi maydonni topmoqchi bo‘lsangiz, avval chap tomondagi maydonni toping, so‘ng bu qiymatni birlikdan ayiring.

4.11-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Styuart SAT bo‘yicha 1500 ball to‘pladi. Har bir qism uchun rasm chizing.
(a) Uning persentili qanday?
(b) Styuartdan yaxshiroq natijaga ega bo‘lgan SAT topshiruvchilarning ulushi qancha?[9]


AQShda 100 kishilik tanlanmaga asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra, erkaklarning bo‘ylari deyarli normal taqsimotga ega bo‘lib, o‘rtacha qiymati 70,0” (dyuym, 1 dyuym = 2,54 cm) va standart chetlanishi 3,3”.

4.12-YO‘NALTIRILGAN MASHQ


Mayk 5’7” (5 fut 7 dyuym, 1 fut = 12 dyuym), Xose esa 6’4” bo‘yga ega bo‘lib, ular AQShda yashaydi.
(a) Maykning bo‘y persentili qanday?
(b) Xosening bo‘y persentili qanday?
Har bir qism uchun rasm chizing.[10]

Oxirgi bir nechta misollar ma’lum bir kuzatuv uchun persentilni (quyi quyruq) yoki yuqori

[7] Bu ehtimolni 4.7-misolda topdik: 0,6736.



[8] Agar Edvard SAT topshiruvchilarining 36% dan yaxshiroq natijaga erishgan bo‘lsa, taxminan 64% undan yaxshiroq natijaga erishgan.



[9] Rasmlarni o‘zingiz chizing. (a) $Z = \frac{1500-1100}{200} = 2 \rightarrow 0,9772$. (b) $1 - 0,9772 = 0,0228$.


[10] Avval bo‘ylarni dyuymga o‘tkazing: 67 va 76 dyuym. Quyida rasmlar ko‘rsatilgan.
(a) $Z_{\text{Mayk}} = \frac{67-70}{3,3} = -0,91 \ \rightarrow \ 0,1814$. (b) $Z_{\text{Xose}} = \frac{76-70}{3,3} = 1,82 \ \rightarrow \ 0,9656$.

quyruqni topishga qaratilgan edi. Agar siz ma'lum bir persentilga to'g'ri keladigan kuzatuvni bilishni xohlasangiz-chi?

M **4.13-MISOL**

Erikning bo'yi 40− persentilda. Uning bo'yi qancha?

Har doimgidek, avval rasmni chizing.



Ushbu holatda quyi quyruq ehtimoli (0,40) ma'lum bo'lib, diagrammada soyalanish bilan berilgan. Biz ushbu qiymatga mos keladigan kuzatuvni topmoqchimiz. Bu yo'nalishdagi birinchi qadam sifatida 40−persentilga mos keladigan Z-ballni aniqlaymiz. Dasturiy ta'minotdan foydalanib, biz mos keladigan Z-ballni taxminan −0,25 deb topamiz.

$Z_{Erik} = -0{,}25$ va aholi parametrlari $\mu = 70$ va $\sigma = 3{,}3$ dyuym bo'lganini bilgan holda, Erikning noma'lum bo'yi, x_{Erik} ni topish uchun Z-ball formulasini ishlatamiz:


$$-0{,}25 = Z_{\text{Erik}} = \frac{x_{\text{Erik}} - \mu}{\sigma} = \frac{x_{\text{Erik}} - 70}{3{,}3}.$$

x_{Erik} ni yechib olsak, bo'yi 69,18 dyuym bo'lib chiqadi. Ya'ni, Erikning bo'yi taxminan 5'9".

M **4.14-MISOL**

Katta yoshdagi erkaklarning bo'yi 82− persentilda qanday bo'ladi?

Yana bir bor, avval rasmni chizamiz.



Keyingi bosqichda, 82− persentildagi Z-ballni topamiz, bu musbat qiymat bo'lib, dasturiy ta'minot orqali $Z = 0{,}92$ sifatida topiladi. Nihoyat, bo'yi x Z-ball formulasi yordamida o'rtacha qiymat μ, standart chetlanish σ va Z-ball $Z = 0{,}92$ orqali topiladi:

$$0{,}92 = Z = \frac{x - \mu}{\sigma} = \frac{x - 70}{3{,}3}.$$


Bu 73,04 dyuym yoki taxminan 6'1" bo'lib, bu 82− persentildagi bo'yni bildiradi.

Y **4.15-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

SAT ballari $N(1100; 200)$ ga amal qiladi.[11]
(a) SAT uchun 95− persentil qanday?
(b) SAT uchun 97,5− persentil qanday?

Y **4.16-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Katta yoshdagi erkaklarning bo'ylari $N(70{,}0"; 3{,}3")$ ga bo'ysunadi.[12]
(a) Tasodifiy tanlangan erkakning bo'yi kamida 6'2" (74 dyuym) bo'lish ehtimoli qancha?
(b) Erkakning bo'yi 5'9" (69 dyuym) dan past bo'lish ehtimoli qancha?




[11] Qisqa javoblar: (a) $Z_{95} = 1{,}6449 \to 1429$ SAT balli. (b) $Z_{97{,}5} = 1{,}96 \to 1492$ SAT balli.

[12] Qisqa javoblar: (a) $Z = 1{,}21 \to 0{,}8869$, keyin bu qiymatni 1 dan ayiramiz va natija 0,1131 bo'ladi. (b) $Z = -0{,}30 \to 0{,}3821$.


M **4.17-MISOL**

Tasodifiy tanlangan erkakning bo‘yi 5’9” va 6’2” oralig‘ida bo‘lish ehtimoli qancha?

Ushbu bo‘ylar 69 dyuym va 74 dyuymga mos keladi. Avval rasmni chizamiz. Qiziqarli maydon endi yuqori yoki quyi quyruq emas.



Egri chiziq ostidagi umumiy maydon 1 ga teng. Soyalanmagan ikkita quyruq maydonini topsak (4.16-yo‘naltirilgan mashqga muvofiq, bu maydonlar 0,3821 va 0,1131), o‘rtadagi maydonni hisoblashimiz mumkin:



Demak, 5’9” va 6’2” oralig‘ida bo‘lish ehtimoli 0,5048 ga teng.

Y **4.18-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**


SAT ballari $N(1100; 200)$ ga bo‘ysunadi. SAT bo‘yicha 1100 va 1400 oralig‘ida ball olganlarning foizi qancha?[13]

Y **4.19-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Katta yoshdagi erkaklarning bo‘ylari $N(70{,}0”; 3{,}3”)$ ga amal qiladi. Katta yoshdagi erkaklarning bo‘ylarining 5’5” va 5’7” oralig‘ida bo‘lish foizini toping.[14]

4.1.5 68–95–99,7 qoidasi

Bu yerda biz normal taqsimotda o‘rtacha qiymatdan 1, 2 va 3 standart chetlanish doirasida bo‘lish ehtimoli uchun foydali qoida bilan tanishtiramiz. Bu qoida ko‘plab amaliy holatlarda, xususan kalkulyator yoki Z-jadvalsiz tezkor taxminlar qilishda juda foydali bo‘ladi.



4.7-rasm. Normal taqsimotda o‘rtacha qiymatdan 1, 2 va 3 standart chetlanish doirasida bo‘lish ehtimolliklari.

[13] Bu qisqartirilgan yechimdir. (Rasmni albatta chizing!) Avval 1100 dan past bo‘lganlar foizini va 1400 dan yuqori bo‘lganlar foizini toping: $Z_{1100} = 0{,}00 \to 0{,}5000$ (pastki maydon), $Z_{1400} = 1{,}5 \to 0{,}0668$ (yuqori maydon). Yakuniy javob: $1{,}0000 - 0{,}5000 - 0{,}0668 = 0{,}4332$.

[14] 5’5” 65 dyuymga ($Z = -1{,}52$) va 5’7” 67 dyuymga ($Z = -0{,}91$) teng. Raqamli yechim: $1{,}000 - 0{,}0643 - 0{,}8186 = 0{,}1171$, ya’ni 11,71%.

Ⓨ **4.20-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Dasturiy ta’minot, kalkulyator yoki ehtimollik jadvalidan foydalanib, normal taqsimotda o‘rtacha qiymatdan 1, 2 va 3 standart chetlanish doirasida mos ravishda 68%, 95% va 99,7% kuzatishlar joylashganligini tasdiqlang. Masalan, avval $Z = -1$ va $Z = 1$ orasidagi maydonni toping, bu taxminan 0,68 maydon bo‘lishi kerak. Xuddi shunday, $Z = -2$ va $Z = 2$ orasida taxminan 0,95 maydon bo‘lishi kerak.[15]

Normal tasodifiy miqdor 4, 5 yoki undan ham ko‘p standart chetlanish masofasida joylashishi mumkin. Biroq, agar ma’lumotlar deyarli normal bo‘lsa, bunday holatlar juda kam uchraydi. o‘rtacha qiymatdan 4 standart chetlanishdan uzoqda bo‘lish ehtimoli taxminan 15000 dan 1. 5 va 6 standart chetlanish uchun bu ehtimollar mos ravishda 2 milliondan 1 va 500 milliondan 1 atrofida.

Ⓨ **4.21-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

SAT ballari o‘rtacha qiymat $\mu = 1100$ va standart chetlanish $\sigma = 200$ bo‘lgan normal modelga yaqin.
(a) Taxminan necha foiz imtihon topshiruvchilar 700 dan 1500 gacha ball oladi?
(b) Necha foiz 1100 va 1500 orasida ball oladi?[16]

Mashqlar

4.1 Egri chiziq ostidagi maydon, 1-qism. Standart normal taqsimot $N(\mu = 0; \sigma = 1)$ ning qancha foizi quyidagi sohalarda joylashganligini aniqlang. Grafik chizishni unutmang.

(a) $Z < -1{,}35$ (b) $Z > 1{,}48$ (c) $-0{,}4 < Z < 1{,}5$ (d) $|Z| > 2$

4.2 Egri chiziq ostidagi maydon, 2-qism. Standart normal taqsimot $N(\mu = 0; \sigma = 1)$ ning qancha foizi quyidagi sohalarda joylashganligini aniqlang. Grafik chizishni unutmang.

(a) $Z > -1{,}13$ (b) $Z < 0{,}18$ (c) $Z > 8$ (d) $|Z| < 0{,}5$

4.3 GRE ballari, 1-qism. Graduate Record Examination (GRE) imtihonida Sofiya so’zli fikrlash (Verbal Reason) bo‘limida 160 ball, miqdoriy fikrlash (Quantitative Reason) bo‘limida esa 157 ball oldi. Barcha test topshiruvchilar uchun so’zli fikrlash bo‘limining o‘rtacha bali 151, standart chetlanishi 7; miqdoriy fikrlash bo‘limining o‘rtacha bali esa 153, standart chetlanishi 7,67. Ikkala taqsimotni ham deyarli normal deb faraz qilamiz.

(a) Ushbu ikkita normal taqsimot uchun qisqa belgilashni yozing.
(b) Sofiyaning so’zli fikrlash bo‘limidagi Z-balli qanday? Miqdoriy fikrlash bo‘limidagi Z-balli-chi? Standart normal taqsimot egri chizig‘ini chizib, ushbu Z-balllarni belgilang.
(c) Ushbu Z-ballar nimani anglatadi?
(d) Boshqalarga nisbatan u qaysi bo‘limda yaxshiroq natija ko‘rsatgan?
(e) Uning ikkala imtihondagi persentillarini toping.
(f) So’zli fikrlash bo‘limida Sofiyadan yaxshiroq natija ko‘rsatganlar foizi qancha? Miqdoriy fikrlash bo‘limida-chi?
(g) Ushbu ikki bo‘limdan qaysi birida talaba yaxshiroq natija ko‘rsatganligini aniqlashda xom ballarni taqqoslash noto‘g‘ri xulosaga olib kelishi mumkinligini tushuntiring.
(h) Agar ushbu imtihonlardagi ballar taqsimoti deyarli normal bo‘lmasa, (b)-(f) qismlariga bo‘lgan javoblaringiz o‘zgaradimi? Sababini tushuntiring.

4.4 Triatlon vaqtlari, 1-qism. Triatlonlarda musobaqachilarni yosh va jins bo‘yicha guruhlarga ajratish odatiy holatdir. Do‘stlar Leo va Meri g’arbiy qirg’oq triatlon (Hermosa Beach Triathlon) musobaqasida ishtirok etdilar. Leo *30-34 yoshli erkaklar* guruhida, Meri esa *25-29 yoshli ayollar* guruhida qatnashdi. Leo musobaqani 1:22:28 (4948 soniya) da tugatdi, Meri esa 1:31:53 (5513 soniya) da tugatdi. Shubhasiz, Leo tezroq tugatdi, ammo ular o‘z guruhlarida qanday natijaga erishganlarini bilishni istashadi. Ularga yordam bera olasizmi? Ularning guruhlariga oid ma’lumotlar:

[15] Avval rasmlarni chizing. Dasturiy ta’minot yordamida, 1 standart chetlanish ichida 0,6827, 2 standart chetlanish ichida 0,9545, va 3 standart chetlanish ichida 0,9973 ni olamiz.

[16] (a) 700 va 1500 qiymatlari o‘rtacha qiymatdan ikki standart chetlanish past va yuqori masofani ifodalaydi, ya’ni taxminan 95% imtihon topshiruvchilar 700 va 1500 orasida ball oladi. (b) 700 dan 1500 gacha bo‘lgan soha taxminan 95% ni tashkil etadi. Ushbu imtihon topshiruvchilar taqsimot markazi, 1100 bilan teng bo‘linadi, shuning uchun $\frac{95\%}{2} = 47{,}5\%$ imtihon topshiruvchilar 1100 va 1500 orasida ball oladi.

- *30-34 yoshli erkaklar* guruhining tugatish vaqtlari o‘rtacha 4313 soniya, standart chetlanishi 583 soniya;
- *25-29 yoshli ayollar* guruhining tugatish vaqtlari o‘rtacha 5261 soniya, standart chetlanishi 807 soniya;
- Har ikkala guruh uchun tugatish vaqtlarining taqsimoti deyarli normal.

Eslatma: yaxshiroq natija tezroq tugatishni bildiradi.

(a) Ushbu ikkita normal taqsimot uchun qisqa belgilashni yozing;
(b) Leoning va Merining tugatish vaqtlarining Z-balllari qanday? Ushbu Z-ballar nimani anglatadi?
(c) Leo yoki Meri o‘z guruhlarida yaxshiroq natija ko‘rsatganmi? Sababini tushuntiring;
(d) Leoning guruhidagi triatlonchilarning qancha foizidan tezroq tugatganligini hisoblang;
(e) Merining guruhidagi triatlonchilarning qancha foizidan tezroq tugatganligini hisoblang;
(f) Agar tugatish vaqtlarining taqsimoti deyarli normal bo‘lmasa, (b)-(e) qismlariga bo‘lgan javoblaringiz o‘zgaradimi? Sababini tushuntiring.

4.5 GRE ballari, 2-qism. 4.3-mashqda GRE ballarining ikkita taqsimoti keltirilgan. So’zli fikrlash bo‘limi uchun $N(\mu = 151; \sigma = 7)$ va miqdoriy fikrlash bo‘limi uchun $N(\mu = 153; \sigma = 7{,}67)$. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib quyidagilarni hisoblang:

(a) Miqdoriy fikrlash bo‘limida 80− persentilda talabaning balli qanday?
(b) So’zli fikrlash bo‘limida test topshiruvchilarning 70% dan yomonroq natija ko‘rsatgan talabaning balli qanday?

4.6 Triatlon vaqtlari, 2-qism. 4.4-mashqda triatlon vaqtlarining ikkita taqsimoti keltirilgan: *30-34 yoshli erkaklar* uchun $N(\mu = 4313; \sigma = 583)$ va *25-29 yoshli ayollar* uchun $N(\mu = 5261; \sigma = 807)$. Vaqtlar soniyalarda berilgan. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib quyidagilarni hisoblang:

(a) Erkaklar guruhidagi sportchilarning eng tezkor 5% uchun belgilangan tugash vaqti qanday?
(b) Ayollar guruhidagi sportchilarning eng sekin 10% uchun belgilangan tugash vaqti qanday?

4.7 Los-Anjeles ob-havosi, 1-qism. Los-Anjelesda iyun oyidagi o‘rtacha kunduzgi maksimal harorat 77°F bo‘lib, standart chetlanishi 5°F. Iyundagi haroratlar deyarli normal taqsimotga amal qiladi, deb faraz qilaylik.

(a) Iyunda tasodifiy tanlangan kunda 83°F yoki undan yuqori harorat kuzatilish ehtimoli qanday?
(b) Iyundagi eng sovuq 10% kunlarning (eng past haroratli kunlari) harorati qanday?

4.8 CAPM. Kapital aktivlarni baholash modeli (The Capital Asset Pricing Model, CAPM) bu portfel qaytishlarini normal taqsimotga ega deb faraz qiluvchi moliyaviy modeldir. Faraz qilaylik, bir portfelning o‘rtacha yillik daromadi 14,7% (ya’ni, o‘rtacha 14,7% foyda) bo‘lib, standart chetlanishi 33%. 0% qaytish portfel qiymati o‘zgarmaganini, salbiy qaytish esa portfel zarar ko‘rganini, musbat qaytish esa foyda olganini bildiradi.

(a) Ushbu portfel yillar davomida qanchalik foizda zarar ko‘rishini (ya’ni, 0% dan past qaytishni) hisoblang.
(b) Ushbu portfelning eng yuqori yillik daromadning 15% chegarasi qanday?

4.9 Los-Anjeles ob-havosi, 2-qism. 4.7-mashqda Los-Anjelesda iyun oyidagi o‘rtacha kunduzgi maksimal harorat 77°F, standart chetlanishi esa 5°F ekanligi aytilgan va bu haroratlar normal taqsimotga bo’ysunadi deb faraz qilingan. Biz haroratni °F (Farengeyt) dan °C (Selziy) ga quyidagi formuladan foydalangan holda o‘tkazamiz:

$$C = (F - 32) \times \frac{5}{9}.$$

(a) Los-Anjelesda iyundagi haroratning °C dagi taqsimoti uchun ehtimollik modelini yozing.
(b) Los-Anjelesda iyunda 28°C (taxminan 83°F ga to‘g‘ri keladi) yoki undan yuqori harorat kuzatilish ehtimolini hisoblang. (a) qismdagi °C modelidan foydalaning.
(c) Ushbu savolning (b) qismidagi javobingiz va 4.7-mashqning (a) qismidagi javobingiz bir xilmi yoki farqlimi? Hayron qoldingizmi? Tushuntiring.
(d) Los-Anjelesda iyundagi haroratlarning IQR (interkvartil farqi) ni (Selziy bo‘yicha) baholang.

4.10 Standart chetlanishni toping. 20 dan 34 yoshgacha bo‘lgan ayollarda xolesterin darajalari taxminan normal taqsimotga bo’ysunadi va o‘rtacha qiymati 185 milligramm/desiliter (mg/dl) ni tashkil etadi. Xolesterin darajasi 220 mg/dl dan yuqori bo‘lgan ayollar yuqori xolesterinli deb hisoblanadi va taxminan 18,5% ayollar ushbu toifaga kiradi. 20 dan 34 yoshgacha bo‘lgan ayollarning xolesterin darajalari taqsimotining standart chetlanishini toping.

4.2 Geometrik taqsimot

Tangani `gerb` tushguniga qadar necha marta tashlashimiz kerak? Yoki `1` chiqquniga qadar kubni necha marta tashlashimiz kerak? Ushbu savollarga geometrik taqsimot yordamida javob topish mumkin. Avval biz har bir tajribani yani, bir marta tanga tashlash yoki bir marta kubni otishni Bernulli taqsimoti yordamida shakllantiramiz. Keyin esa bularni ehtimollik vositalari (3-bob) bilan birlashtirib, geometrik taqsimotni hosil qilamiz.

4.2.1 Bernulli taqsimoti

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi ko‘plab tibbiy sug‘urta ta’rif rejalari to‘lanadigan miqdor chegarasini o‘z ichiga oladi, ya’ni sug‘urta qilinuvchi shaxs bu chegaragacha bo‘lgan xarajatlar uchun javobgar bo‘ladi, keyin esa yil oxirigacha bu xarajatlar sug‘urta kompaniyasi va shaxs o‘rtasida taqsimlanadi.

Tasavvur qiling, bir tibbiy sug‘urta kompaniyasi sug‘urta qilingan shaxslarning 70% o‘z xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirmasligini aniqladi. Har bir bunday shaxs **tajriba** sifatida qaralishi mumkin. Agar biror shaxsning sog‘liqni saqlash xarajatlari belgilangan chegaradan oshmasa, biz uni **muvaffaqiyat** deb belgilaymiz. Agar oshsa, biz uni **muvaffaqiyatsizlik** deb belgilaymiz. Shaxslarning 70% i xarajatlarini oshirmasligini hisobga olsak, biz **muvaffaqiyat ehtimoli**ni $p = 0{,}7$ deb belgilaymiz. Muvaffaqiyatsizlik ehtimoli ba’zan $q = 1 - p$ deb belgilanadi, sug‘urta misoli uchun bu 0,3 bo‘ladi.

Agar har bir tajribaning faqat ikkita mumkin bo‘lgan natijasi bo‘lsa, odatda `muvaffaqiyat` yoki `muvaffaqiyatsizlik` deb belgilanadi, u holda bu **Bernulli tasodifiy miqdori** deb ataladi. Biz biror shaxs xarajatlarini oshirmaganida `muvaffaqiyat` va qolgan holatlarni `muvaffaqiyatsizlik` deb belgiladik. Ammo, biz bu belgilashlarni osongina o‘zgartirishimiz mumkin edi. Qurilgan matematik asos qaysi natija muvaffaqiyat va qaysi muvaffaqiyatsizlik deb belgilanishiga bog‘liq emas, faqat izchil bo‘lishimiz kerak.

Bernulli tasodifiy miqdorlari ko‘pincha muvaffaqiyat uchun `1` va muvaffaqiyatsizlik uchun `0` sifatida belgilanadi. Bu faqat ma’lumotlarni kiritishda qulaylik yaratib qolmasdan, balki matematik jihatdan ham foydali. Masalan, biz o‘nta tajribani kuzatdik deylik:

`1 1 1 0 1 0 0 1 1 0`.

Keyin **tanlanma ulushi** $\hat{p}$ bu kuzatishlarning tanlanma o‘rtachasi bo‘ladi:

$$\hat{p} = \frac{\#\text{ muvaffaqiyatlar}}{\#\text{ tajribalar}} = \frac{1+1+1+0+1+0+0+1+1+0}{10} = 0{,}6.$$

Bernulli tasodifiy miqdorlarini matematik jihatdan yanada chuqurroq o‘rganish mumkin. Chunki `0` va `1` raqamli natijalar bo‘lgani uchun Bernulli tasodifiy miqdorlarining o‘rtacha qiymati va standart chetlanishini aniqlay olamiz (4.15- va 4.16-mashqlarni qarang).

BERNULLI TASODIFIY MIQDORI

Agar X tasodifiy miqdor p ehtimol bilan 1 va $1 - p$ ehtimol bilan 0 qiymatni olsa, unda X Bernulli tasodifiy miqdori bo‘lib, uning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishi quyidagicha bo‘ladi:

$$\mu = p; \qquad \sigma = \sqrt{p(1-p)}.$$

Umuman olganda, Bernulli tasodifiy miqdorini faqat ikkita `muvaffaqiyat` va `muvaffaqiyatsizlik` kabi natijaga ega bo‘lgan tasodifiy jarayon sifatida tasavvur qilish mumkin. Keyin biz o‘z matematik asosimizni muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar uchun mos ravishda `1` va `0` raqamli belgilardan foydalangan holda quramiz.

4.2.2 Geometrik taqsimot

Geometrik taqsimot muvaffaqiyatni kuzatish uchun qancha tajriba o‘tkazish kerakligini tasvirlash uchun ishlatiladi. Keling, avval bir misolni ko‘rib chiqaylik.

4.22-MISOL

Faraz qiling, biz sug‘urta kompaniyasida ishlayapmiz va tahlil qilish uchun xarajatlari belgilangan chegaradan oshmagan bir shaxsni tanlashimiz kerak. Agar bir shaxs xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirmaslik ehtimoli 0,7 bo‘lsa va biz odamlarni tasodifiy tanlayotgan bo‘lsak, birinchi shaxs xarajatlarini oshirmasligi, ya’ni muvaffaqiyat bo‘lishi ehtimoli qanday? Ikkinchi shaxs uchun-chi? Uchinchi shaxs uchun-chi? Agar birinchi muvaffaqiyat $n-1$ muvaffaqiyatsizlikdan keyin, ya’ni birinchi muvaffaqiyat n-odamda kuzatilsa-chi (Agar birinchi muvaffaqiyat beshinchi odamda bo‘lsa, demak $n=5$.)?

Birinchi shaxsda to‘xtash ehtimoli, ya’ni birinchi shaxs xarajatlarini oshirmasligi ehtimoli shunchaki: 0,7. Ikkinchi shaxs birinchi muvaffaqiyat bo‘lish ehtimoli esa quyidagicha hisoblanadi:


$$P(\text{ikkinchi shaxs birinchi muvaffaqiyat}) =$$
$$= P(\text{birinchi shaxs muvaffaqiyatsizlik, ikkinchi shaxs muvaffaqiyat}) = (0{,}3)(0{,}7) = 0{,}21\ .$$

Xuddi shunday, uchinchi shaxs birinchi muvaffaqiyat bo‘lish ehtimoli esa $(0{,}3)(0{,}3)(0{,}7) = 0{,}063$.

Agar birinchi muvaffaqiyat n-odamda kuzatilsa, unda $n-1$ ta muvaffaqiyatsizlik va nihoyat 1 muvaffaqiyat kuzatiladi. Bu ehtimol $(0{,}3)^{n-1}(0{,}7)$ kabi ifodalanadi. Bu shuningdek, quyidagiga teng: $(1-0{,}7)^{n-1}(0{,}7)$.

4.22-misolda **bog‘liqsiz va bir xil taqsimlangan (BBT)** (ingliz tilida: independent and identically distributed i.i.d) Bernulli tasodifiy miqdorlari uchun muvaffaqiyatgacha bo‘lgan kutish vaqtini (tajribalar sonini) tavsiflovchi **geometrik taqsimot**ning mohiyati tushuntirilgan. Bu holda, bog‘liqsizlik shuni anglatadiki, misoldagi shaxslar bir-biriga ta’sir qilmaydi, va *bir xillik* esa ularning har biri bir xil muvaffaqiyat ehtimoliga ega ekanini bildiradi.

4.22-misoldagi geometrik taqsimot 4.8-rasmda ko‘rsatilgan. Umuman olganda, geometrik taqsimot uchun ehtimollar **eksponensial** tezlikda kamayadi.



4.8-rasm. Geometrik taqsimot, muvaffaqiyat ehtimoli $p=0{,}7$ bo‘lganda.

Ushbu matnda muvaffaqiyatni topish uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha (kutilayotgan) tajribalar soni yoki ushbu taqsimotning standart chetlanishi va dispersiyasi formulalarini keltirib chiqarmaymiz, shunchaki har biri uchun umumiy formulalarni taqdim etamiz.

GEOMETRIK TAQSIMOT

Agar bir tajribada muvaffaqiyat ehtimoli p bo‘lsa va muvaffaqiyatsizlik ehtimoli $1-p$ bo‘lsa, unda n-tajribada birinchi muvaffaqiyatni topish ehtimoli quyidagicha ifodalanadi:

$$(1-p)^{n-1}p.$$

Muvaffaqiyatgacha bo‘lgan kutish vaqtining o‘rtacha qiymati (kutilgan qiymat), dispersiyasi va standart chetlanishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\mu = \frac{1}{p}; \qquad \sigma^2 = \frac{1-p}{p^2}; \qquad \sigma = \sqrt{\frac{1-p}{p^2}}.$$

O‘rtacha qiymat va kutilayotgan qiymat uchun bitta μ belgisidan foydalanganimiz bejiz emas. O‘rtacha qiymat va kutilayotgan qiymat bir xil bo‘ladi.

Geometrik taqsimot bo‘yicha muvaffaqiyatga erishish uchun, o‘rtacha $1/p$ tajriba talab etiladi. Ushbu matematik natija intuitiv tarzda kutganimiz bilan mos keladi. Agar muvaffaqiyat ehtimoli yuqori bo‘lsa (masalan, 0,8), muvaffaqiyat uchun uzoq kutishga to‘g‘ri kelmaydi o‘rtacha $1/0{,}8 = 1{,}25$ tajriba. Agar muvaffaqiyat ehtimoli past bo‘lsa (masalan, 0,1), muvaffaqiyatni kuzatish uchun ko‘p tajriba $1/0{,}1 = 10$ o‘tkazishimiz zarur

Y **4.23-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Aytaylik, biror shaxs o‘z xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirmaslik ehtimoli 0,7 ga teng. Agar biz xarajatlarini oshirmagan biror shaxsni topgunimizcha misollarni tekshirsak, qancha misolni ko‘rib chiqishni kutamiz?[17]

M **4.24-MISOL**

Birinchi muvaffaqiyatni dastlabki 3 ta holat ichida topish ehtimoli qanday?

Bu birinchi ($n = 1$), ikkinchi ($n = 2$), yoki uchinchi ($n = 3$) holatda muvaffaqiyat bo‘lish ehtimoli, bu uchta o‘zaro bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan natijalardir. Tanlanma katta bosh to‘plamdan tasodifiy tanlanayotgani uchun, bu holatlar bog‘liqsiz hisoblanadi. Biz har bir holat ehtimolini hisoblab, natijalarni qo‘shamiz:

$$P(n = 1 \text{ yoki } 2 \text{ yoki } 3) = P(n = 1) + P(n = 2) + P(n = 3) =$$
$$= (0{,}3)^{1-1}(0{,}7) + (0{,}3)^{2-1}(0{,}7) + (0{,}3)^{3-1}(0{,}7) = 0{,}973\ .$$

Shunday qilib, dastlabki 3 ta holatda muvaffaqiyatni topish ehtimoli 0,973 ga teng.

Y **4.25-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

4.24-misolni hal qilishning boshqa aqlliroq usulini toping. Xuddi shu natijaga kelishini isbotlang.[18]

M **4.26-MISOL**

Faraz qiling, bir avtomobillar uchun sug‘urta kompaniyasi sug‘urtalangan haydovchilarning 88% i bir yil ichida xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirmasligini aniqladi. Agar kompaniya xodimi tasodifiy ravishda haydovchilar fayllarini ko‘rib chiqib, belgilangan chegaradan oshirmagan bir haydovchini topguncha davom etsa, sug‘urta xodimi qancha haydovchini tekshirishini kutishi mumkin? Haydovchi fayllarini tekshirish bo‘yicha standart chetlanish qanday?

Bu misolda muvaffaqiyat sug‘urta chegarasini oshirmagan haydovchini topishdir, bu ehtimol $p = 0{,}88$ ga teng. Tekshirilishi kutilayotgan haydovchilar soni o‘rtacha $1/p = 1/0{,}88 = 1{,}14$ va standart chetlanish $\sqrt{(1-p)/p^2} = 0{,}39$ ga teng.

Y **4.27-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

4.26-misolning natijalaridan foydalanib ($\mu = 1{,}14$ va $\sigma = 0{,}39$) 3 yoki undan kamroq tajribalar bilan tugaydigan holatlarning ulushini topishda normal modeldan foydalanish mumkinmi?[19]

Bog‘liqsizlik farazi geometrik taqsimotning muayyan vaziyatni to‘g‘ri va aniq tasvirlab berishi uchun nihoyatda muhim. Matematik jihatdan ham buni ko‘rish mumkin. n-sinovda muvaffaqiyat yuz berish ehtimolini topishda biz bog‘liqsiz jarayonlar uchun ko‘paytirish qoidasidan foydalanishga majbur bo‘ldik. O‘zaro bog‘liq sinovlar uchun geometrik modelni umumlashtirish esa oson ish emas.

Mashqlar

4.11 Bu Bernulli sinovimi?. Quyidagi holatlarning har bir sinovini bog‘liqsiz Bernoulli sinovi deb hisoblash mumkinmi?

(a) Poker o‘yinida tarqatilgan kartalar.

(b) Har bir kubning tashlanish natijasi.

4.12 Qaytarib qo‘yish va qaytarmaslik. Quyidagi holatlarda ko‘rsatilgan bosh to‘plamning yarmi erkaklar va yarmi ayollar deb faraz qiling.

(a) Tasodifiy tanlashda xonadagi 10 kishidan ikkita ayolni ketma-ket tanlash ehtimolini tanlangan shaxslar qaytarib qo‘yilgan va qaytarib qo‘yilmagan holatlar uchun hisoblang. Agar tanlangan shaxslar qaytarib qo‘yilmasa.

---

[17] Birinchi muvaffaqiyatni topish uchun taxminan $1/0{,}7 \approx 1{,}43$ shaxsni tekshirishni kutishimiz mumkin.

[18] Avval qarama-qarshi ehtimolni toping $P(\text{dastlabki 3 tajribada muvaffaqiyat yo‘q}) = 0{,}3^3 = 0{,}027$. Keyin, birdan ushbu ehtimolni ayiring $1 - P(\text{dastlabki 3 ta tajribada muvaffaqiyat yo‘q}) = 1 - 0{,}027 = 0{,}973$.

[19] Yo‘q. Geometrik taqsimot har doim o‘ng tomonga qiyshaygan va uni normal model yordamida yaxshi yaqinlashtirib bo‘lmaydi.

(b) Maydonga 10000 kishi to‘plangan deb faraz qiling. Tasodifiy tanlashda ikki ayolni ketma-ket tanlash ehtimolini tanlangan shaxslar qaytarib qo‘yilgan va qaytarib qo‘yilmagan holatlar uchun hisoblang.

(c) Katta bosh to‘plamdan tanlangan shaxslarni bog‘liqsiz deb hisoblash odatiy holat. (a) va (b) qismlardagi topganlaringizdan foydalangan holda, ushbu faraz o‘rinli yoki o‘rinli emasligini tushuntiring.

4.13 Ko‘z rangi, 1-qism. Er-xotin ikkalasi ham jigarrang ko‘zga ega, lekin ularning farzandlarining jigarrang ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,75, ko‘k ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,125 va yashil ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,125 ga teng.

(a) Ularning birinchi ko‘k ko‘zli farzandi uchinchi farzand bo‘lish ehtimoli qanday? Farzandlarning ko‘z rangi o‘zaro bog‘liqsiz deb faraz qiling.

(b) Bunday ota-ona ko‘k ko‘zli bola ko‘rishdan oldin o‘rtacha qancha farzand ko‘radi? Ko‘k ko‘zli bolani ko‘rishgacha kutilayotgan farzandlar sonining standart chetlanishi qancha bo‘ladi?

4.14 Nosozlik darajasi. Maxsus turdagi tranzistor ishlab chiqaradigan mashinada 2% nosozlik darajasi mavjud. Ishlab chiqarish jarayonida har bir tranzistor bir-biriga bog‘liqsiz deb hisoblang.

(a) 10− ishlab chiqarilgan tranzistor birinchi nosoz tranzistor bo‘lish ehtimoli qanday?

(b) Mashina 100 ta tranzistordan iborat partiyada birorta ham nosoz tranzistor ishlab chiqarmaslik ehtimoli qanday?

(c) Mashina birinchi nosoz tranzistorni ishlab chiqarishdan oldin o‘rtacha qancha tranzistor ishlab chiqaradi? Standart chetlanish qanday bo‘ladi?

(d) Tranzistorlar ishlab chiqaruvchi boshqa mashinada 5% nosozlik darajasi mavjud va har bir tranzistor boshqalariga bog‘liqsiz ishlab chiqariladi. Ushbu mashina bilan birinchi nosoz tranzistorni ishlab chiqarishdan oldin o‘rtacha qancha tranzistor ishlab chiqariladi? Standart chetlanish qanday bo‘ladi?

(e) (c) va (d) qismlaridagi javoblaringizga asoslanib voqea ehtimolining oshishi muvaffaqiyatgacha bo‘lgan o‘rtacha kutilgan vaqtga va standart chetlanishga qanday ta’sir o‘tqazishini toping.?

4.15 Bernulli, o‘rtacha qiymat. 3.4-bo‘limdagi ehtimollik qoidalaridan foydalanib, Bernulli tasodifiy miqdorining o‘rtacha qiymatini toping. X tasodifiy miqdor p ehtimol bilan 1 va $1-p$ ehtimol bilan 0 qiymatni qabul qiladi. Bernoulli tasodifiy miqdorining o‘rtacha kutilayotgan qiymatini hisoblang.

4.16 Bernulli, standart chetlanish. 3.4-bo‘limdagi ehtimollik qoidalaridan foydalanib Bernulli tasodifiy miqdorining standart chetlanishini toping. X tasodifiy miqdor p ehtimol bilan 1 va $1-p$ ehtimol bilan 0 qiymatni qabul qiladi. Boshqacha aytganda, Bernulli tasodifiy miqdorining dispersiyasining kvadrat ildizini hisoblang.

4.3 Binomial taqsimot

Binomial taqsimot belgilangan tajribalar sonida muvaffaqiyatlar sonini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu geometrik taqsimotdan farq qiladi. Geometrik taqsimot muvaffaqiyat kuzatilgunga qadar kutilishi kerak bo‘lgan tajribalar sonini tasvirlagan edi.

4.3.1 Binomial taqsimot

Keling, yana sug‘urta agentligida ekanligimizni tasavvur qilamiz, bu yerda sug‘urtalangan shaxslarning 70% i o‘z xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirmaydi.

M

4.28-MISOL

Tasavvur qiling, sug‘urta agentligi sug‘urtalangan to‘rtta shaxsdan tasodifiy tanlangan tanlanma olmoqda. To‘rttadan faqat bittasi xarajatlarini belgilangan chegaradan oshirishi, qolgan uchtasi esa oshirmasligi ehtimoli qanday? Qulaylik uchun to‘rtta odamni Ariana (A), Brittany (B), Carlton (C), va Damian (D) deb ataymiz.

Keling, bitta odam belgilangan chegarani oshirgan holatni ko‘rib chiqamiz:

$$\begin{aligned} &P(A = \texttt{oshgan},\ B = \texttt{oshmagan},\ C = \texttt{oshmagan},\ D = \texttt{oshmagan}) = \\ &\quad = P(A = \texttt{oshgan})\ P(B = \texttt{oshmagan})\ P(C = \texttt{oshmagan})\ P(D = \texttt{oshmagan}) = \\ &\quad = (0{,}3)(0{,}7)(0{,}7)(0{,}7) = (0{,}7)^3(0{,}3)^1 = 0{,}103\ . \end{aligned}$$

Ammo yana uchta holat mavjud. Brittany yoki Carlton yoki Damian belgilangan chegarani oshirgan bo‘lishi mumkin edi. Har bir holatda ehtimol yana $(0{,}7)^3(0{,}3)^1$ ga teng. Ushbu to‘rtta holat faqat to‘rttadan bir kishi belgilangan chegarani oshirgan barcha mumkin bo‘lgan holatlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun umumiy ehtimol $4 \times (0{,}7)^3(0{,}3)^1 = 0{,}412$ ga teng bo‘ladi.

Y **4.29-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Brittany belgilangan chegarani oshirgan yagona odam bo‘lgan holatning ehtimoli $(0{,}7)^3(0{,}3)^1$ ekanligini tasdiqlang. [20]

4.28-misoldagi holat binomial taqsimotga oid misoldir. **Binomial taqsimot** muvaffaqiyat ehtimoli p bo‘lgan n ta bog‘liqsiz Bernulli tajribalarida k marta muvaffaqiyatning yuz berish ehtimolini anglatadi (4.28-misolda, $n = 4$, $k = 3$, $p = 0{,}7$). Biz binomial taqsimot bilan bog‘liq ehtimollarni yanada umumiy tarzda aniqlamoqchimiz. Ya’ni n, k va p larning qiymatlaridan foydalanib, ehtimollarni aniqlash uchun formulani keltirib chiqarishni xohlaymiz. Buni amalga oshirish uchun, 4.28-misolning har bir qismini qayta ko‘rib chiqamiz. To‘rtta shaxs belgilangan chegarani oshirishi mumkin edi. Ushbu to‘rtta holatning har biri bir xil ehtimolga ega edi. Shunday qilib, umumiy ehtimolni quyidagicha aniqlashimiz mumkin:

$$[\#\text{ holatlar}] \times P(\text{bir holat}).$$

Ushbu tenglamaning birinchi qismi $n = 4$ ta tajribalarda $k = 3$ ta muvaffaqiyatlarni joylashtirishning barcha mumkin bo‘lgan usullari sonini ifodalaydi. Ikkinchi qismi esa to‘rtta (bir xil ehtimolli) holatlardan istalgan birining ehtimolini ifodalaydi.

Umumiy holda n ta tajribada k ta muvaffaqiyat va $n - k$ ta muvaffaqiyatsizlik uchun $P(\text{bir holat})$ ni ko‘rib chiqamiz. Har qanday bunday holatda bog‘liqsiz hodisalar uchun ko‘paytirish qoidasini qo‘llaymiz:

$$p^k(1-p)^{n-k}.$$

Bu $P(\text{bir holat})$ uchun umumiy formuladir.

Ikkinchidan, n tajribada k muvaffaqiyatlarni tanlash, ya’ni k muvaffaqiyat va $n - k$ muvaffaqiyatsizliklarni joylashtirishning umumiy formulasi kiritiladi:

$$\binom{n}{k} = \frac{n!}{k!(n-k)!}.$$

$\binom{n}{k}$ ifodasi n **tadan** k **tani tanlash** deb o‘qiladi.[21] Faktorial ifoda (masalan, $k!$) quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} 0! &= 1 \\ 1! &= 1 \\ 2! &= 2 \times 1 = 2 \\ 3! &= 3 \times 2 \times 1 = 6 \\ 4! &= 4 \times 3 \times 2 \times 1 = 24 \\ &\vdots \\ n! &= n \times (n-1) \times \ldots \times 3 \times 2 \times 1 \end{aligned}$$

Ushbu formuladan foydalanib, $n = 4$ ta tajribada $k = 3$ ta muvaffaqiyatlarni tanlashning usullari sonini hisoblaymiz:

$$\binom{4}{3} = \frac{4!}{3!(4-3)!} = \frac{4!}{3!1!} = \frac{4 \times 3 \times 2 \times 1}{(3 \times 2 \times 1)(1)} = 4.$$

Ushbu natija 4.28-misolda har bir mumkin bo‘lgan holatni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali topgan natijamiz bilan aynan mos keladi.

n tadan k tani tanlash uchun $\binom{n}{k}$ va $p^k(1-p)^{n-k}$ ni bitta holat ehtimoli sifatida qo‘shish orqali binomial formulani umumiy holda hosil qilamiz.

[20] $P(A = \texttt{oshmagan},\ B = \texttt{oshgan},\ C = \texttt{oshmagan},\ D = \texttt{oshmagan}) = (0{,}7)(0{,}3)(0{,}7)(0{,}7) = (0{,}7)^3(0{,}3)^1$.

[21] n tadan k tani tanlash uchun boshqa belgilashlar ${}_nC_k$, C_n^k va $C(n,k)$.

BINOMIAL TAQSIMOT

Agar bitta tajribada muvaffaqiyat ehtimoli p bo‘lsa, unda n ta bog‘liqsiz tajribada aynan k ta muvaffaqiyat kuzatilishi ehtimoli quyidagicha ifodalanadi:

$$\binom{n}{k} p^k (1-p)^{n-k} = \frac{n!}{k!(n-k)!} p^k (1-p)^{n-k}.$$

Kuzatilgan muvaffaqiyatlar sonining o‘rtacha qiymati, dispersiyasi va standart chetlanishi quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu = np; \qquad \sigma^2 = np(1-p); \qquad \sigma = \sqrt{np(1-p)}.$$

BU BINOMIALMI? TEKSHIRISH UCHUN TO‘RTTA SHART.

(1) Tajribalar bog‘liqsizdir.
(2) Tajribalarning soni n oldindan belgilangan bo‘lishi kerak.
(3) Har bir tajriba natijasini *muvaffaqiyat* yoki *muvaffaqiyatsizlik* deb tasniflash mumkin.
(4) Har bir tajriba uchun muvaffaqiyat ehtimoli bir xil p bo‘lishi kerak.

M

4.30-MISOL

Tasodifiy tanlangan 8 ta shaxsdan 3 tasi sug‘urta chegarasini oshirishi, ya’ni 5 tasi oshirmasligi ehtimoli qanday? Sug‘urtalangan shaxslarning 70% i belgilangan chegarani oshirmasligini yodda tuting.

Binomial modelni qo‘llamoqchimiz. Shuning uchun shartlarni tekshiramiz. Tajribalar soni belgilangan $n = 8$ (shart 2) va har bir tajriba natijasini muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sifatida tasniflash mumkin (shart 3). Tanlanmalar tasodifiy bo‘lgani sababli tajribalar bog‘liqsiz (shart 1) va har bir tajriba uchun muvaffaqiyat ehtimoli bir xil (shart 4).

Qiziqish natijasida $n = 8$ ta tajribada $k = 5$ ta muvaffaqiyatlar mavjud (yodda tutingki, muvaffaqiyat sug‘urta chegarasini oshirmagan shaxsni anglatadi) va muvaffaqiyat ehtimoli $p = 0{,}7$. Shunday qilib, 5 tasi oshirmasligi va 3 tasi oshirishi ehtimoli quyidagicha ifodalanadi:

$$\binom{8}{5} (0{,}7)^5 (1-0{,}7)^{8-5} = \frac{8!}{5!(8-5)!} (0{,}7)^5 (1-0{,}7)^{8-5} = \frac{8!}{5!3!} (0{,}7)^5 (0{,}3)^3 \ .$$

Faktorial qismni hisoblaymiz:

$$\frac{8!}{5!3!} = \frac{8\times7\times6\times5\times4\times3\times2\times1}{(5\times4\times3\times2\times1)(3\times2\times1)} = \frac{8\times7\times6}{3\times2\times1} = 56 \ .$$

$(0{,}7)^5 (0{,}3)^3 \approx 0{,}00454$ ni hisoblab olamiz. Yakuniy ehtimol $56 \times 0{,}00454 \approx 0{,}254$ ga teng.

BINOMIAL EHTIMOLLARNI HISOBLASH

Binomial modeldan foydalanishda birinchi qadam modelning mosligini tekshirish. Ikkinchi qadam n, p va k ni aniqlash. So‘nggi bosqichda dasturiy ta’minot yoki formulalardan foydalanib ehtimolni aniqlang va natijalarni talqin qiling.

Agar hisob-kitoblarni qo‘lda bajarishingiz kerak bo‘lsa, binomial koeffitsiyentning yuqori va past qismlarida imkon qadar ko‘proq qisqartirish amalga oshirish foydali bo‘lishi mumkin.

Y

4.31-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Yuqorida muhokama qilingan sug‘urta agentligidan 40 ta holat faylini tasodifiy tanlasak, bir yilda necha holatda chegarani oshirmasligini kutamiz? Chegarani oshirmaydigan holatlar sonining standart chetlanishi qanday bo‘ladi?[22]

Y

4.32-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

[22] Bizdan o‘rtacha qiymatni (matematik kutilma) va standart chetlanishni aniqlash so‘ralmoqda, ikkalasini ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri formulalar yordamida hisoblash mumkin: $\mu = np = 40 \times 0{,}7 = 28$ va $\sigma = \sqrt{np(1-p)} = \sqrt{40 \times 0{,}7 \times 0{,}3} = 2{,}9$. Taxminan 95% kuzatishlar o‘rtacha qiymatdan 2 standart chetlanish ichida joylashganligi sababli (2.1.4-bo‘limga qarang), tanlanmada sug‘urta chegarasini oshirmaydigan shaxslar soni kamida 22 va ko‘pi bilan 34 bo‘lishini kutamiz.

Bir chekuvchining umr davomida og‘ir o‘pka kasalligiga chalinish ehtimoli taxminan 0.3 ga teng. Agar sizning 4 nafar chekuvchi do‘stingiz bo‘lsa, binomial modelning shartlari o‘rinli bo‘ladimi?[23]

Y **4.33-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Tasavvur qiling, ushbu to‘rtta do‘stingiz bir-birini tanimaydi va ularni bosh to‘plamdan tasodifiy olingan tanlanma sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Binomial model mos keladimi? Quyidagi ehtimollarni aniqlang:[24]

(a) Hech biri og‘ir o‘pka kasalligiga chalinmaydi.

(b) Faqat bittasi og‘ir o‘pka kasalligiga chalinadi.

(c) Bir yoki undan kam do‘stingiz og‘ir o‘pka kasalligiga chalinadi.

Y **4.34-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

To‘rtta chekuvchi do‘stingizdan kamida 2 tasi umr davomida og‘ir o‘pka kasalligiga chalinishi ehtimoli qanday?[25]

Y **4.35-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Tasavvur qiling, sizning 7 nafar chekuvchi do‘stingiz bor va ularni chekuvchilar bosh to‘plamining tasodifiy tanlanmasi sifatida ko‘rish mumkin.[26]

(a) Ulardan nechasi og‘ir o‘pka kasalligiga chalinishini kutasiz, ya’ni o‘rtacha qiymat qancha?

(b) 7 do‘stingizdan ko‘pi bilan 2 tasi og‘ir o‘pka kasalligiga chalinishi ehtimoli qanday?

Endi binomial ehtimollarning birinchi qismi bo‘lgan n tadan k tani tanlashning ayrim maxsus holatlarni ko‘rib chiqamiz.

Y **4.36-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Nima uchun har qanday n uchun $\binom{n}{0} = 1$ va $\binom{n}{n} = 1$ ifodalari to‘g‘ri?[27]

Y **4.37-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

n ta tajribada bitta muvaffaqiyat va $n-1$ ta muvaffaqiyatsizlikni qanday tartibda joylashtirish mumkin? n ta tajribada $n-1$ ta muvaffaqiyat va bitta muvaffaqiyatsizlikni qanday tartibda joylashtirish mumkin?[28]

4.3.2 Binomial taqsimotning normal taqsimotga yaqinlashuvi

Binomial formula tanlanmalar soni n katta bo‘lganda, xususan kuzatishlar oralig‘ini hisoblaganda, murakkab va mashaqqatli bo‘lib qoladi. Ba’zi hollarda binomial ehtimollarni baholashning osonroq va tezroq usuli sifatida normal taqsimotdan foydalanish mumkin.

M **4.38-MISOL**

AQSh aholisining taxminan 15% qismi sigaret chekadi. Mahalliy hukumat ularning jamoasida sigaret chekuvchilar soni pastroq deb hisoblaydi va tasodifiy tanlangan 400 kishidan so‘rovnoma o‘tkazadi. So‘rov

[23] Ehtimoliy javob: agar do‘stlar bir-birlarini bilishsa, unda bog‘liqsizlik bajarilmaydi. Masalan, tanishlar bir xil chekish odatlariga ega bo‘lishi yoki birgalikda chekishni tashlashga kelishib olishlari mumkin.

[24] Binomial modelga mosligini tekshirish uchun quyidagilarni tasdiqlash kerak: (i) Do‘stlarni tasodifiy tanlanma sifatida ko‘rib chiqish mumkin, shuning uchun ular bog‘liqsizdir. (ii) Tajriba soni ($n = 4$) belgilangan. (iii) Har bir natija muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sifatida tasniflanadi. (iv) Har bir sinovda “muvaffaqiyat” ehtimoli bir xil, chunki individlar tasodifiy tanlanmadan olingandek. Agar “muvaffaqiyat” deb kimdadir o‘pka kasalligi aniqlanishini olsak, u holda $p = 0{,}3$ (“Muvaffaqiyat”ni shunday belgilash — biroz noo‘rin tanlov). Binomial formula yordamida (a) va (b) qismlarni hisoblaymiz: $P(0) = \binom{4}{0}(0{,}3)^0(0{,}7)^4 = 1 \times 1 \times 0{,}7^4 = 0{,}2401$, $P(1) = \binom{4}{1}(0{,}3)^1(0{,}7)^3 = 0{,}4116$. Eslatma $0! = 1$ ga teng. (c) qismi (a) va (b) qismlarining yig‘indisi sifatida hisoblanadi: $P(0) + P(1) = 0{,}2401 + 0{,}4116 = 0{,}6517$. Demak, to‘rtta chekuvchi do‘stingizdan bir yoki undan kamrog‘i og‘ir o‘pka kasalligiga chalinish ehtimoli taxminan 65%.

[25] Qo‘shimcha ehtimol (bir yoki undan kam do‘stingiz og‘ir o‘pka kasalligiga chalinadi) 4.33-yo‘naltirilgan mashqda 0,6517 sifatida hisoblangan, shuning uchun $1 - 0{,}6517 = 0{,}3483$ qiymatini olamiz.

[26] (a) $\mu = 0{,}3 \times 7 = 2{,}1$. (b) $P(0$ yoki 1 yoki 2 tasi og‘ir o‘pka kasalligiga chalinadi$) = P(k = 0) + P(k = 1) + P(k = 2) = 0{,}6471$.

[27] Ushbu ifodalarni so‘z bilan izohlashga harakat qiling. n ta tajribada 0 ta muvaffaqiyat va n muvaffaqiyatsizlikni qanday tartibda joylashtirish mumkin? (1 ta usul.) n ta muvaffaqiyat va 0 ta muvaffaqiyatsizlikni qanday tartibda joylashtirish mumkin? (1 ta usul.)

[28] Bitta muvaffaqiyat va $n - 1$ ta muvaffaqiyatsizlik. Muvaffaqiyatni joylashtirish uchun n ta joy bor, shuning uchun n ta usul mavjud. Xuddi shu mantiqdan ikkinchi savol uchun foydalaniladi. Matematik jihatdan quyidagi tenglamalarni tasdiqlash orqali ushbu natijalarni ko‘rsatamiz

$$\binom{n}{1} = n; \qquad \binom{n}{n-1} = n.$$

natijalariga ko‘ra 42 ishtirokchi sigaret chekadi. Agar jamoada aslida sigaret chekuvchilar ulushi 15% bo‘lsa, 400 odamdan iborat tanlanmada 42 yoki undan kam chekuvchilarni kuzatish ehtimoli qanday?

Binomial model uchun to‘rt shartning to‘g‘ri ekanligini tasdiqlash mashq sifatida qoldiriladi.

Savol $n = 400$, $p = 0{,}15$ bo‘lganda $k = 0$, 1, 2, ..., 42 sigaret chekuvchilarni kuzatish ehtimolini aniqlashga teng. Ushbu 43 ta ehtimollarni hisoblab, ularni qo‘shish orqali javobni topamiz:

$$P(k = 0 \text{ yoki } k = 1 \text{ yoki } \cdots \text{ yoki } k = 42) = \\ = P(k = 0) + P(k = 1) + \cdots + P(k = 42) = 0{,}0054 \ .$$


Agar jamoada sigaret chekuvchilar ulushi $p = 0{,}15$ bo‘lsa, 400 odamdan iborat tanlanmada 42 yoki undan kam chekuvchilarni kuzatish ehtimoli 0,0054 ga teng.

4.38-misolda keltirilgan hisoblar murakkab va uzoq. Umuman olganda, agar tezroq, osonroq va yana ham aniqroq alternativ usul bo‘lsa, bunday ishlardan qochish kerak. Yodda tutingki, qiymatlar oralig‘ining ehtimollarini hisoblash normal modelda ancha osonroq. Shunday ekan, normal modeldan binomial taqsimot o‘rniga foydalanishni o‘ylab ko‘ramiz. Ajablanarli darajada, javob ha, agar ma’lum shartlar bajarilsa.

Y

4.39-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Bu yerda muvaffaqiyat ehtimoli $p = 0{,}10$ bo‘lganda binomial modelni ko‘rib chiqamiz. 4.9-rasmda binomial taqsimotdan simulyatsiya qilingan to‘rtta tanlanma uchun ichi bo‘sh gistogramma tasvirlangan. Bu yerda to‘rtta turli $n = 10$, 30, 100, 300 hajmli tanlanmalar soni qo‘llanilgan. Tanlanmalar hajmi oshgani sari taqsimotning shakli qanday o‘zgaradi? So‘nggi gistogramma qaysi taqsimotga o‘xshaydi?[29]



4.9-rasm. Binomial modeldan olingan tanlanmalar uchun ichi bo‘sh gistogrammalar, $p = 0{,}10$ bo‘lganda. To‘rtta grafik uchun tanlanma hajmi mos ravishda $n = 10$, 30, 100 va 300.

[29] Taqsimot “bo‘lak-bo‘lak” va qiyshiq ko‘rinishdan, so‘nggi ichi bo‘sh gistogrammada normal taqsimotga ko‘proq o‘xshaydigan ko‘rinishga o‘zgargan.

BINOMIAL TAQSIMOTNING NORMALGA YAQINLASHUVI

Agar muvaffaqiyat ehtimoli p bo‘lgan binomial taqsimotda tanlanmalar soni n etarlicha katta bo‘lsa, ya’ni np va $n(1-p)$ kamida 10 bo‘lsa, taqsimot deyarli normal shaklga ega bo‘ladi. Yaqinlashuvchi normal taqsimotning parametrlari binomial taqsimotning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishiga mos keladi:

$$\mu = np; \qquad \sigma = \sqrt{np(1-p)}\ .$$

Normal yaqinlashuv ko‘plab mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatlar oralig‘ini hisoblashda ishlatilishi mumkin. Masalan, normal taqsimotni 4.38-misoldagi holatga qo‘llashimiz mumkin.

M **4.40-MISOL**

Agar chekuvchilar ulushi $p = 0{,}15$ bo‘lsa, $n = 400$ tanlanmada 42 yoki undan kam chekuvchilarni kuzatish ehtimolini baholash uchun normal yaqinlashuvdan qanday foydalanish mumkin?

Binomial model mos ekanligini ko‘rsatish 4.38-misolda mashq sifatida tavsiya qilingan. Bundan tashqari, np va $n(1-p)$ kamida 10 ekanligini tasdiqlaymiz:

$$np = 400 \times 0{,}15 = 60; \qquad n(1-p) = 400 \times 0{,}85 = 340.$$

Ushbu shartlar bajarilgan holda, binomial taqsimot o‘rniga binomial modeldan olingan o‘rtacha qiymat va standart chetlanishdan foydalanib, normal yaqinlashuvni qo‘llashimiz mumkin

$$\mu = np = 60; \qquad \sigma = \sqrt{np(1-p)} = 7{,}14.$$

Biz ushbu model yordamida 42 yoki undan kam chekuvchilarni kuzatish ehtimolini topmoqchimiz.

Y **4.41-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Normal modeldan $N(\mu = 60; \sigma = 7{,}14)$ foydalanib, $n = 400$ tanlanmada 42 yoki undan kam chekuvchilarni kuzatish ehtimolini baholang. Sizning javobingiz taxminan 4.38-misoldagi 0,0054 yechimiga teng bo‘lishi kerak. [30]

4.3.3 Kichik intervalda normal yaqinlashuvning ishdan chiqishi

Binomial taqsimotning normalga yaqinlashuvi hatto shartlar bajarilganida ham kichik oralig‘larni baholashda unchalik yaxshi ishlamasligi mumkin.

Tasavvur qiling, $p = 0{,}15$ bo‘lganda $n = 400$ tanlanmada 49 yoki 50 yoki 51 chekuvchilarni kuzatish ehtimolini hisoblashimiz zarur. Shuncha katta tanlanmada normalga yaqinlashuvdan foydalanishga harakat qilish mumkin, ammo binomial yechim va normal yaqinlashuv sezilarli darajada farq qiladi:

Binomial: 0,0649 Normal: 0,0421


Ushbu farqning sababini 4.10-rasmdan ko‘rish mumkin. Bu yerda binomial ehtimolni ifodalovchi maydon (kontur bilan) va normal yaqinlashuv (soyalangan) ko‘rsatilgan. Normal taqsimot ostidagi maydonning kengligi har ikki tomonda 0,5 birlikka tor ekanligini sezamiz.

BINOMIAL TAQSIMOT UCHUN NORMAL YAQINLASHUVNI YAXSHILASH

Binomial taqsimotning normal yaqinlashuvi odatda qiymatlar oralig‘i uchun to‘xtash nuqtalari biroz o‘zgartirilsa, yaxshilanadi. Soyalanadigan maydonning pastki chekkasi uchun to‘xtash qiymati 0,5 ga kamaytirilishi, yuqori chekkasi uchun esa 0,5 ga oshirilishi kerak.

Normal yaqinlashuvni qo‘llaganda qo‘shimcha maydonni hisoblash bo‘yicha maslahat, kuzatishlar oralig‘ini tahlil qilganda eng foydali bo‘ladi. Yuqoridagi misolda, tuzatilgan normal taqsimot bahosi 0,0633 bo‘lib, aniq qiymat 0,0649 ga ancha yaqinlashadi. Shu bilan birga, bunday tuzatishni quyruq maydonini hisoblashda ham qo‘llash mumkin, ammo odatda tuzatishdan foyda yo‘qoladi, chunki umumiy interval odatda juda keng bo‘ladi.

[30] Avval Z-ko‘rsatkichni hisoblang: $Z = \frac{42-60}{7{,}14} = -2{,}52$. Mos keluvchi chap tomondagi maydon 0,0059.



4.10-rasm. 49 va 51 oralig‘idagi maydonining soyalangan qismi normal yaqinlashuvni aks ettiradi. Qizil kontur esa aniq binomial ehtimolni ifodalaydi.

Mashqlar

4.17 Voyaga yetmaganlarning ichkilik iste’moli, 1-qism. AQSh Sog‘liqni saqlash va inson xizmatlari departamenti (HHS) tarkibidagi moddalarni suiiste’mol qilish va ruhiy salomatlik bo‘yicha xizmatlarni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi agentlik (SAMHSA) tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 18-20 yoshdagi shaxslarning 69,7% i olingan har qanday yilda alkogolli ichimliklarni iste’mol qilgan.[31]

(a) Tasodifiy ravishda o‘nta 18-20 yoshli shaxsdan iborat tanlanma olindi deb faraz qilaylik. Aynan oltita shaxs alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lish ehtimolini hisoblashda binomial taqsimotdan foydalanish mos keladimi? Izohlang.

(b) Tasodifiy tanlangan 10 ta 18-20 yoshli shaxsdan aynan 6 tasi alkogolli ichimliklarni iste’mol qilgan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(c) 18-20 yoshli shaxslardan o‘ndan to‘rttasi alkogolli ichimliklar iste’mol qilmagan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(d) Tasodifiy tanlangan 5 ta 18-20 yoshli shaxsdan eng ko‘pi bilan 2 tasi alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(e) Tasodifiy tanlangan 5 ta 18-20 yoshli shaxsdan kamida 1 tasi alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

4.18 Chechak, 1-qism. Boston bolalar shifoxonasi ma’lumotlariga ko‘ra, amerikaliklarning 90% i ulg‘ayganida chechak kasalligiga chalingan bo‘lishadi.[32]

(a) Tasodifiy tanlangan 100 nafar amerikalik katta yoshlilar tanlanmasidan aynan 97 tasi bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lish ehtimolini hisoblashda binomial taqsimotdan foydalanish mos keladimi? Izohlang.

(b) Tasodifiy tanlangan 100 nafar amerikalik katta yoshlilar orasidan aynan 97 tasi bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(c) 100 nafar amerikalik katta yoshlilar tanlanmasida aynan 3 tasi bolaligida chechak kasalligiga chalinmagan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(d) Tasodifiy tanlangan 10 nafar amerikalik kattalardan kamida 1 tasi bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(e) Tasodifiy tanlangan 10 nafar amerikalik kattalardan eng ko‘pi bilan 3 tasi bolaligida chechak kasalligiga chalinmagan bo‘lish ehtimolini hisoblang.

4.19 Voyaga yetmaganlarning ichkilik iste’moli, 2-qism. 17-mashqda, olingan har qanday yilda 18-20 yoshli shaxslarning 70% i alkogolli ichimliklar iste’mol qilganini ko‘rib chiqdik. Endi 50 nafar 18-20 yoshli shaxslardan iborat tasodifiy tanlanma olamiz.

(a) Siz qancha odam alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lishini kutasiz? Standart chetlanish qancha bo‘ladi?

(b) Agar 45 yoki undan ko‘p odam alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lsa, bu sizni hayron qoldiradimi?

[31] SAMHSA, Office of Applied Studies, National Survey on Drug Use and Health, 2007 and 2008.
[32] Boston Children’s Hospital, Chickenpox summary page, referenced April 29, 2021.

(c) Ushbu tanlanmadagi 45 yoki undan ko‘p odam alkogolli ichimliklar iste’mol qilgan bo‘lish ehtimolini hisoblang. Bu ehtimol (b) qism javobingiz bilan qanday bog‘liq?

4.20 Chechak, 2-qism. 18-mashqda amerikalik katta yoshlilarning taxminan 90% i ulg‘aygunicha chechak kasalligiga chalinganini ko‘rdik. Endi 120 amerikalik katta yoshlilar tanlanmasi ko‘rib chiqiladi.

(a) Ushbu tanlanma bo‘yicha qancha odam bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lishini kutasiz? Standart chetlanish qancha bo‘ladi?

(b) Agar 105 kishi bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lsa, bu sizni hayron qoldiradimi?

(c) Ushbu tanlanmada 105 yoki undan kam odam bolaligida chechak kasalligiga chalingan bo‘lish ehtimolini hisoblang. Bu ehtimol (b) qism javobingiz bilan qanday bog‘liq?

4.21 Dreydel o‘yini. Dreydel to‘rtta tomoni bo‘lgan aylanadigan o‘yinchoq bo‘lib, uning har bir tomonida ivrit harflari `nun`, `gimel`, `hey` va `shin` yozilgan. Dreydelni aylantirishda har bir tomoni bir xil ehtimollik bilan chiqadi. Tasavvur qiling, siz dreydelni uch marta aylantirdingiz. Quyidagilar ehtimolini hisoblang:

(a) Kamida bitta `nun` chiqishi ehtimoli qancha?

(b) Aynan 2 ta `nun` chiqishi ehtimoli qancha?

(c) Aynan 1 ta `hey` chiqishi ehtimoli qancha?

(d) Eng ko‘pi bilan 2 ta `gimel` chiqishi ehtimoli qancha?



Rasm: Staccabees tomonidan, o‘zgartirilgan (http://flic.kr/p/7gLZTf) CC BY 2.0 license

4.22 Araxnofobiya. Gallup so‘roviga ko‘ra, o‘smirlarning (13 yoshdan 17 yoshgacha) 7% i araxnofobiyadan aziyat chekadi va o‘rgimchaklardan haddan tashqari qo‘rqadi. Yozgi lagerda har bir chodirda 10 nafar o‘smir uxlaydi. Bu 10 nafar o‘smir bir-biridan mustaqil deb faraz qiling.[33]

(a) Kamida bittasi araxnofobiyadan aziyat chekishi ehtimolini hisoblang.

(b) Aynan 2 tasi araxnofobiyadan aziyat chekishi ehtimolini hisoblang.

(c) Eng ko‘pi bilan 1 tasi araxnofobiyadan aziyat chekishi ehtimolini hisoblang.

(d) Agar lager yetakchisi har bir chodirda 1 tadan ko‘p bo‘lmagan o‘smirning o‘rgimchaklardan qo‘rqmasligini ta’minlamoqchi bo‘lsa, u o‘smirlarni chodirlarga tasodifiy joylashtirishi mantiqiymi?

4.23 Ko‘z rangi, 2-qism. 4.13-mashqdagi er-xotin jigarrang ko‘zga ega bo‘lib, ularning farzandlari jigarrang ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,75, ko‘k ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,125 va yashil ko‘zli bo‘lish ehtimoli 0,125 ga teng.

(a) Ularning birinchi farzandi yashil ko‘zli, ikkinchisi esa yashil ko‘zli bo‘lmasligi ehtimoli qancha?

(b) Ikki farzandlaridan faqat bittasining yashil ko‘zli bo‘lish ehtimoli qancha?

(c) Agar ular oltita farzand ko‘rsalar, ulardan aynan ikkitasining yashil ko‘zli bo‘lish ehtimoli qancha?

(d) Agar ular oltita farzand ko‘rsalar, ulardan kamida bittasi yashil ko‘zli bo‘lish ehtimoli qancha?

(e) Yashil ko‘zli birinchi farzand 4−bola bo‘lish ehtimoli qancha?

(f) Agar ulardan faqat 2 tasi jigarrang ko‘zli bo‘lsa, bu odatiy hisoblanadimi?

4.24 O‘roqsimon hujayrali anemiya. O‘roqsimon hujayrali anemiya — bu genetik qon kasalligi bo‘lib, bunda qizil qon hujayralari elastikligini yo‘qotib, g‘ayritabiiy, “o‘roq” shaklini oladi, bu esa turli asoratlar xavfiga olib keladi. Agar ota-ona ushbu kasallik tashuvchisi bo‘lsa, farzandda kasallik rivojlanish ehtimoli 25%, tashuvchi bo‘lish ehtimoli 50% va na kasallik, na tashuvchi bo‘lish ehtimoli 25% ga teng. Agar ushbu kasallik tashuvchisi bo‘lgan ikki ota-ona 3 nafar farzand ko‘rishsa, qanday ehtimollar mavjud:

(a) ularning ikkitasi kasallikka chalinishi ehtimoli?

(b) ularning birortasi ham kasallikka chalinmasligi ehtimoli?

(c) kamida bittasi na kasallik, na tashuvchi bo‘lmasligi ehtimoli?

(d) kasallikka chalingan birinchi farzand 3−bola bo‘lish ehtimoli?

4.25 O‘rin almashtirishlarni o‘rganish. n ta obyektni joylashtirishning usullari sonini $n! = n \times (n-1) \times \cdots \times 2 \times 1$ ga teng. Ushbu mashq sizni formulani ba’zi maxsus holatlar uchun hosil qilish jarayoni bilan tanishtiradi.

Kichik bir kompaniyada beshta xodim bor. Ular Anna, Ben, Karl, Damian, va Eddi. Kompaniyada qator qilib joylashtirilgan beshta avtoturargoh joyi mavjud bo‘lib, ulardan hech biri ajratilmagan va har kuni xodimlar avtoturargoh joylariga tasodifiy tartibda kelib joylashadilar. Ya’ni, joylardagi mashinalarning barcha mumkin bo‘lgan tartiblari teng ehtimollik bilan yuzaga keladi.

(a) Berilgan kunda xodimlarning alifbo tartibida to‘xtash ehtimoli qanday?

[33] Gallup Poll, What Frightens America’s Youth?, March 29, 2005.

(b) Agar alifbo tartibi barcha boshqa tartiblarga nisbatan teng ehtimollikka ega bo‘lsa, beshta mashinani joylashtirishning nechta usuli bo‘lishi kerak?

(c) Endi 8 nafar xodimlar tanlanmasi ko‘rib chiqilsin. Ushbu 8 xodimning mashinalarini joylashtirishning nechta usuli mavjud?

4.26 O‘g‘il bolalar. Ko‘pincha o‘g‘il yoki qiz farzand ko‘rish ehtimoli bir xil deb hisoblanadi, ammo aslida o‘g‘il bolaga ega bo‘lish ehtimoli bir oz yuqoriroq bo‘lib, 0,51 ga teng. Bir juftlik 3 ta farzand ko‘rishni rejalashtirgan deb faraz qiling.

(a) Binomial modeldan foydalanib, ulardan ikkitasi o‘g‘il bola bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(b) Uchta farzandning ikkitasi o‘g‘il bola bo‘lgan barcha mumkin bo‘lgan tartiblarini yozib chiqing. Ushbu ssenariylardan foydalanib, (a) qismdagi ehtimolni hisoblash uchun birgalikda bo‘lmagan hodisalar qo‘shilishi qoidasidan foydalaning. (a) va (b) qismlaridagi javoblaringiz bir xil ekanligini tasdiqlang.

(c) Agar juftlik 8 ta farzand ko‘rishni rejalashtirgan va ulardan 3 tasi o‘g‘il bo‘lish ehtimolini hisoblash kerak bo‘lsa, qisqacha tushuntiring, nega (b) qismdagi yondashuv (a) qismdagi yondashuvga qaraganda ancha mashaqqatliroq bo‘lar edi.

4.4 Salbiy binomial taqsimot

Geometrik taqsimot n-tajribada birinchi muvaffaqiyatni kuzatish ehtimolini tasvirlaydi. **Salbiy binomial taqsimot** esa umumiyroq. U n-tajribada k-muvaffaqiyatni kuzatish ehtimolini tasvirlaydi.

(M) **4.42-MISOL**

Bir maktabning futbol murabbiyi o‘z yulduzli to‘purari, Brianga har kuni 35 yard (1 yard = 0.9144 metr) masofadan to‘rt marta muvaffaqiyatli tepishidan so‘ng uyga ketishi mumkinligini aytadi. Tasavvur qilaylik, har bir tepish muvaffaqiyatli bo‘lish ehtimoli p ga teng. Agar p kichik bo‘lib, 0,1 ga yaqin bo‘lsa, Brian to‘rtinchi muvaffaqiyatli tepishni amalga oshirishdan oldin ko‘p urinishlar qilishi kerakmi?

Biz to‘rtinchi muvaffaqiyatni ($k = 4$) kutayapmiz. Agar muvaffaqiyat ehtimoli p kichik bo‘lsa, urinishlar soni n katta bo‘lishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, Brian $k = 4$ muvaffaqiyatga erishguncha ko‘plab urinishlar qilishi kerak bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, n kichik bo‘lish ehtimoli past.

Salbiy binomial holatni aniqlash uchun to‘rtta shartni tekshiramiz. Birinchi uchta shart binomial taqsimotga xos.

BU SALBIY BINOMIALMI? TO‘RTTA SHARTNI TEKSHIRISH

(1) Tajribalar bog‘liqsizdir.
(2) Har bir tajriba natijasi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sifatida tasniflanadi.
(3) Har bir tajribada muvaffaqiyat ehtimoli p bir xil.
(4) Oxirgi tajriba muvaffaqiyat bo‘lishi kerak.

(Y) **4.43-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Tasavvur qiling, Brian o‘z urinishlarida juda mas’uliyatli va har bir 35 yard masofadan zarbani muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli $p = 0{,}8$. U to‘rtinchi muvaffaqiyatli zarbasini amalga oshirishdan oldin taxminan nechta urinish qilishi kerak deb o‘ylaysiz?[34]

(M) **4.44-MISOL**

O‘tgan mashg‘ulotda Brian to‘rtinchi zarbasini amalga oshirish uchun atigi 6 ta urinish qildi. Har bir zarba ketma-ketligini yozib chiqing.

Brian to‘rtinchi muvaffaqiyatni 6-urinishda amalga oshirgani sababli, oxirgi zarba muvaffaqiyatli bo‘lganini bilamiz. Birinchi beshta urinish uchta muvaffaqiyatli zarba (`M`) va ikkita xato zarbani (`X`) tashkil qiladi (ularni muvaffaqiyatsizliklar deb belgilaymiz). Ushbu birinchi beshta zarba uchun 10 ta mumkin bo‘lgan ketma-ketlik mavjud, ular 4.11-rasmda ko‘rsatilgan. Agar Brian to‘rtinchi muvaffaqiyatni ($k = 4$) oltinchi urinishda ($n = 6$) amalga oshirgan bo‘lsa, unda uning muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari tartibi ushbu 10 ta mumkin bo‘lgan ketma-ketlikdan biri bo‘lishi kerak.

[34] Mumkin bo‘lgan javoblardan biri: u har bir urinishni amalga oshirishi ehtimoli yuqori bo‘lgani uchun kamida 4 ta urinish kerak bo‘ladi, ammo ehtimol 6 yoki 7 tadan oshmasligi mumkin.

	Urinish					
	1	2	3	4	5	6
1	X	X	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
2	X	$\overset{1}{M}$	X	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
3	X	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	X	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
4	X	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	X	$\overset{4}{M}$
5	$\overset{1}{M}$	X	X	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
6	$\overset{1}{M}$	X	$\overset{2}{M}$	X	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
7	$\overset{1}{M}$	X	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	X	$\overset{4}{M}$
8	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	X	X	$\overset{3}{M}$	$\overset{4}{M}$
9	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	X	$\overset{3}{M}$	X	$\overset{4}{M}$
10	$\overset{1}{M}$	$\overset{2}{M}$	$\overset{3}{M}$	X	X	$\overset{4}{M}$

4.11-rasm. To‘rtinchi muvaffaqiyatli zarba oltinchi urinishda amalga oshirilganida 10 ta mumkin bo‘lgan ketma-ketlik.

4.45-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

4.11-rasmdagi har bir ketma-ketlik aniq ikkita muvaffaqiyatsizlik va to‘rtta muvaffaqiyatni o‘z ichiga oladi, bunda oxirgi urinish har doim muvaffaqiyatli bo‘ladi. Agar muvaffaqiyat ehtimoli $p = 0{,}8$ bo‘lsa, birinchi ketma-ketlik ehtimolini toping.[35]

Agar Brianning 35 yard masofadan zarbani muvaffaqiyatli amalga oshirish ehtimoli $p = 0{,}8$ bo‘lsa, to‘rtinchi muvaffaqiyatli zarbani amalga oshirish uchun Brianning aniq oltita urinish qilishi ehtimoli qanday? Buni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\begin{aligned}&P(\text{Brian to‘rt marta muvaffaqiyatli zarba berishi uchun oltita urinish qilishi kerak bo‘ladi}) =\\ &= P(\text{Brian dastlabki beshta urinishdan uchtasini muvaffaqiyatli amalga oshiradi va oltinchisini amalga oshiradi}) =\\ &= P(1\text{−ketma-ketlik YOKI } 2\text{−ketma-ketlik YOKI ... YOKI } 10\text{−ketma-ketlik}).\end{aligned}$$

Bu erda ketma-ketliklar 4.11-rasmdan olingan. Ushbu so‘nggi ehtimolni o‘nta o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan ehtimollar yig‘indisiga bo‘lishimiz mumkin:

$$\begin{aligned}&P(1\text{−ketma-ketlik YOKI } 2\text{−ketma-ketlik YOKI ... YOKI } 10\text{−ketma-ketlik}) =\\ &= P(1\text{− ketma-ketlik}) + P(2\text{−ketma-ketlik}) + \cdots + P(10\text{−ketma-ketlik}) \ .\end{aligned}$$

Birinchi ketma-ketlik ehtimoli 4.45-yo‘naltirilgan mahqda 0,0164 sifatida aniqlangan va boshqa ketma-ketliklar ham bir xil ehtimolga ega. Har bir o‘nta ketma-ketlikning ehtimoli bir xil bo‘lganligi sababli, umumiy ehtimol bitta ketma-ketlik ehtimoli o‘nga ko‘paytiriladi.

Ushbu salbiy binomial ehtimolni hisoblash usuli 4.3-bo‘limda da binomial masalalarni qanday hal qilganimizga o‘xshaydi. Ehtimol ikki qismga bo‘linadi:

$$\begin{aligned}&P(\text{Brian to‘rt marta muvaffaqiyatli zarba berishi uchun oltita urinish qilishi kerak bo‘ladi}) =\\ &= [\text{Mumkin bo‘lgan ketma-ketliklar soni}] \times P(\text{Bitta ketma-ketlik}) \ .\end{aligned}$$

Har bir qism alohida ko‘rib chiqiladi, so‘ngra yakuniy natijani olish uchun ko‘paytiriladi.

Avvalo, bitta ketma-ketlik ehtimolini aniqlaymiz. Aniq bir holatda barcha muvaffaqiyatsizliklarni $(n-k)$ kuzatib, ularni muvaffaqiyatlarga (k) birlashtiramiz

$$P(\text{Bitta ketma-ketlik}) = P(n-k \text{ ta muvaffaqiyatsizliklar va keyin } k \text{ ta muvaffaqiyat}) = (1-p)^{n-k}p^k \ .$$

Umumiy holat uchun ketma-ketliklar sonini aniqlashimiz kerak. Yuqorida, to‘rtinchi muvaffaqiyat oltinchi urinishda amalga oshirilgan o‘nta ketma-ketlik keltirilgan edi. Ushbu ketma-ketliklar oxirgi kuzatishni muvaffaqiyat sifatida belgilash va boshqa kuzatishlarni tartibga solishning barcha usullarini topish orqali aniqlangan edi. Boshqacha qilib aytganda, $k-1$ muvaffaqiyatni $n-1$ urinishda qanday tartibda joylashtirish mumkinligini hisoblash kerak. Bu n tadan k tani tanlash koeffitsiyenti formulasi orqali topiladi.

[35] Birinchi ketma-ketlik: $0{,}2 \times 0{,}2 \times 0{,}8 \times 0{,}8 \times 0{,}8 \times 0{,}8 = 0{,}0164$.

Lekin $n-1$ va $k-1$ uchun hisoblanadi:

$$\binom{n-1}{k-1} = \frac{(n-1)!}{(k-1)!\,((n-1)-(k-1))!} = \frac{(n-1)!}{(k-1)!\,(n-k)!}\ .$$

Bu $n-1$ ta urinishda $k-1$ ta muvaffaqiyat va $n-k$ ta muvaffaqiyatsizlikni tartibga solishning turli xil usullari sonidir. Agar faktorial belgisi (undov belgisi) bilan tanish bo‘lmasangiz, 143-betga qarang.

SALBIY BINOMIAL TAQSIMOT

Salbiy binomial taqsimot $k-$muvaffaqiyatni $n-$urinishda kuzatish ehtimolini tasvirlaydi, bunda barcha urinishlar bog‘liqsizdir:

$$P(k-\text{muvaffaqiyat } n-\text{urinishda}) = \binom{n-1}{k-1} p^k (1-p)^{n-k}\ .$$

Bu yerda p har bir alohida urinishlarning muvaffaqiyatli bo‘lish ehtimolini ifodalaydi.

4.46-MISOL

Salbiy binomial taqsimot formulasidan foydalanib, Brianning to‘rtinchi muvaffaqiyatli zarbasi oltinchi urinishda amalga oshishi ehtimoli 0,164 ekanligini ko‘rsating.

Muvaffaqiyat ehtimoli $p = 0{,}8$, muvaffaqiyatlar soni $k = 4$, va ushbu holatda zarur urinishlar soni $n = 6$.

$$\binom{n-1}{k-1} p^k (1-p)^{n-k} \;=\; \frac{5!}{3!2!}(0{,}8)^4(0{,}2)^2 \;=\; 10 \times 0{,}0164 \;=\; 0{,}164\ .$$

4.47-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Salbiy binomial taqsimot Brianning har bir zarba urinishini bog‘liqsiz deb hisoblashni talab qiladi. Sizningcha, Brianning har bir urinishini bog‘liqsiz deb hisoblash mantiqiymi?[36]

4.48-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Brianning urinishlari bog‘liqsiz deb faraz qilaylik. Brianning to‘rtinchi muvaffaqiyatli zarbasi beshta urinish ichida amalga oshishi ehtimoli qanday?[37]

BINOMIAL VA SALBIY BINOMIAL TAQSIMOT

Binomial holatda odatda tajribalar soni belgilangan bo‘ladi va biz muvaffaqiyatlar sonini ko‘rib chiqamiz. Salbiy binomial holatda esa, belgilangan muvaffaqiyatlar sonini kuzatish uchun nechta tajriba talab qilinishini o‘rganamiz va oxirgi kuzatish muvaffaqiyat bo‘lishini talab qilamiz.

4.49-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Kunlarning 70% ida shifoxonaga kamida bitta yurak xuruji bilan bemor yotqiziladi. Kunlarning 30% ida esa yurak xuruji bilan hech qanday bemor qabul qilinmaydi. Quyidagi har bir holatni binomial yoki salbiy binomial deb aniqlang va ehtimolni hisoblang:[38]

(a) Ushbu hafta shifoxonada aynan uch kun yurak xuruji bilan bemor qabul qilinishi ehtimoli qanday?

(b) Yurak xuruji bilan bemor qabul qilingan ikkinchi kun haftaning to‘rtinchi kuni bo‘lish ehtimoli qanday?

(c) Kelgusi oyda yurak xuruji bilan bemor qabul qilingan birinchi kun haftaning beshinchi kuni bo‘lish ehtimoli qanday?

[36] Javoblar har xil bo‘lishi mumkin. Biz ularning bog‘liq yoki bog‘liqsizligini aniq ayta olmaymiz. Biroq, sportchi ko‘rsatkichlari bo‘yicha ko‘plab statistik sharhlar bunday urinishlarning deyarli bog‘liqsiz ekanligini taklif qiladi.

[37] Agar to‘rtinchi zarba ($k = 4$) beshta urinish ichida amalga oshsa, u holda bu holat unga to‘rt yoki beshta urinishni talab qilgan ($n = 4$ yoki $n = 5$). Biz ilgari $p = 0{,}8$ ni hisobga olgan edik. Salbiy binomial taqsimotdan foydalanib, $n = 4$ va $n = 5$ uchun ehtimollarni hisoblang, keyin ularni qo‘shing:

$$P(n = 4 \text{ yoki } n = 5) = P(n = 4) + P(n = 5) =$$
$$= \binom{4-1}{4-1} 0{,}8^4 + \binom{5-1}{4-1}(0{,}8)^4(1-0{,}8) = 1 \times 0{,}41 + 4 \times 0{,}082 = 0{,}41 + 0{,}33 = 0{,}74\ .$$

Mashqlar

4.27 Kubning tashlanishi. Quyidagi ehtimollarni hisoblang va har bir holatda qaysi ehtimollik taqsimoti modeli mos kelishini aniqlang. Siz kubning simmetrikligini (adolatli) bilasiz va uni 5 marta tashlaysiz. Quyidagilar ehtimolini hisoblang:

(a) Birinchi 6 beshinchi tashlashda chiqishi ehtimoli qancha?

(b) Aynan uchta 6 chiqishi ehtimoli qancha?

(c) Uchinchi 6 beshinchi tashlashda chiqishi ehtimoli qancha?

4.28 Dart o'ynash. Quyidagi ehtimollarni hisoblang va har bir holatda qaysi ehtimollik taqsimoti modeli mos kelishini aniqlang. Juda yaxshi o'yinchi dart (nishonga kichik ignalar otib o'ynaladigan o'yin) doskasining markazidagi qizil doiraga (bullseye) 65% ehtimol bilan tegishi mumkin. Quyidagilar ehtimolini hisoblang:

(a) 15−otishda o'nta to'g'ri urishning 10−si sodir bo'lish ehtimoli qancha?

(b) 15 marta otishda 10 marta bullseye urish ehtimoli qancha?

(c) Birinchi marta bullseye urish uchinchi otishda sodir bo'lish ehtimoli qancha?

4.29 Maktabda tanlash. Sotsiologiya fanidan loyiha ishi uchun sizga maktabingizdagi 20 talabadan so'rovnoma o'tkazish topshirildi. Kechki ovqatdan keyin yotoqxonangiz oshxonasidan chiqib ketayotgan 20 nafar talabadan tasodifiy tanlanma olishga qaror qildingiz. Yotoqxonangiz aholisi 45% erkaklar va 55% ayollardan iborat.

(a) So'rovnomadagi 4−shaxs 2−ayol bo'lish ehtimolini hisoblash uchun qaysi ehtimollik modeli mos keladi? Tushuntiring.

(b) (a) qismdagi ehtimolni hisoblang.

(c) So'rovnomadagi 4−shaxs 2−ayol bo'lishiga olib keladigan uchta ssenariy quyidagilardir:

$$\{E, E, A, A\}, \{E, A, E, A\}, \{A, E, E, A\}.$$

Ushbu ssenariylardagi umumiy jihat shundaki, oxirgi urinish har doim ayol bo'ladi. Birinchi uchta urinishda 2 ta erkak va 1 ta ayol bor. 2 ta erkak va 1 ta ayolni joylashtirishning 3 ta usulini binomial koeffitsient yordamida tasdiqlang.

(d) (c) qismdagi topilganlardan foydalanib, nima uchun salbiy binomial koeffitsienti uchun formula $\binom{n-1}{k-1}$ binomial koeffitsienti uchun formula $\binom{n}{k}$ ekanligini tushuntiring.

4.30 Voleybolda zarba berish. Tajribasi kam bo'lgan voleybolchi to'pni to'rdan oshirib, raqib maydoniga tushirishi 15% ehtimolga ega. Faraz qilaylik, uning har bir urinishlari bir-biriga bog'liqsiz.

(a) 10−urinishda uning 3−muvaffaqiyatli zarba berish ehtimoli qanday?

(b) Agar u 9 ta urinishda 2 marta muvaffaqiyatli zarba bergan bo'lsa, 10−zarbasining muvaffaqiyatli bo'lish ehtimoli qanday?

(c) (a) va (b) qismlar bir xil senariylarni muhokama qilgan bo'lsa-da, hisoblangan ehtimollar har xil bo'lishi kerak. Ushbu tafovut sababini tushuntira olasizmi?

4.5 Puasson taqsimoti


Ⓜ **4.50-MISOL**

Nyu-York shahrida taxminan 8 million odam bor. Har kuni nechta odam o'tkir miokard infarkti (O'MI), ya'ni yurak xuruji bilan kasalxonaga yotqizilishi mumkin deb o'ylaysiz? Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, o'rtacha ko'rsatkich taxminan 4,4 kishidan iborat. Ammo, biz shuningdek, taxminiy taqsimot ko'rinishini ham bilishni xohlaymiz. Agar har kuni hisob-kitob qilib, bir yil davomida kunlik sonlarni qayd etsak,

[38] Har bir qismda $p = 0{,}7$. (a) Kunlar soni belgilangan, shuning uchun bu binomial taqsimot. Parametrlar $k = 3$ va $n = 7$: 0,097. (b) Oxirgi "muvaffaqiyat" (yurak xuruji bilan bemorni qabul qilish) oxirgi kunga bog'liq, shuning uchun salbiy binomial taqsimotni qo'llashimiz kerak. Parametrlar $k = 2$, $n = 4$: 0,132. (c) Bu muammo salbiy binomial taqsimot bo'lib, $k = 1$ va $n = 5$: 0,006. E'tibor bering, $k = 1$ bo'lgan salbiy binomial holat geometrik taqsimotdan foydalanishga teng.

O‘MI holatlarining histogrammasi qanday ko‘rinishda bo‘ladi?

NYC uchun 365 kun davomida O‘MI holatlarining soni histogrammasi 4.12-rasmda ko‘rsatilgan.[39] Tanlanmaning o‘rtacha qiymati (4,38) tarixiy o‘rtacha ko‘rsatkich (4,4) ga o‘xshash. Tanlanmaning standart chetlanishi taxminan 2 ga teng va histogram shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlarning taxminan 70% i 2,4 va 6,4 oralig‘ida joylashgan. Taqsimot shakli bir tepalik va o‘ngga qiyshaygan.



4.12-rasm. NYC da 365 alohida kun davomida O‘MI holatlarining soni histogrammasi.

Puasson taqsimot odatda katta bosh to‘plamda bir vaqt birligida sodir bo‘ladigan voqealar sonini baholashda foydali hisoblanadi. Masalan, quyidagi voqealarni ko‘rib chiqamiz:

- yurak xuruji sodir bo‘lishi,
- turmush qurish,
- chaqmoq urishi.

Agar bosh to‘plamdagi shaxslar bog‘liqsiz bo‘lsa, Puasson taqsimoti bunday voqealarning kun davomida sodir bo‘lish sonini tasvirlashga yordam beradi. Puasson taqsimotini vaqtning boshqa birligida, masalan, soat yoki hafta davomida qo‘llash mumkin.

4.12-rasmdagi histogramma 4,4 ga teng bo‘lgan tezlik bilan Puasson taqsimotini taxmin qiladi. Puasson taqsimoti uchun **tezlik** vaqt birligi uchun asosan belgilangan bosh to‘plamda voqealarning o‘rtacha sonini anglatadi. Masalan, 4.50-misoldagi vaqt birligi – kun, bosh to‘plam esa Nyu-York shahri aholisi va tarixiy tezlik 4,4 ga teng. Puasson taqsimotidagi parametr – bu tezlik, ya’ni biz kuzatadigan voqealar soni va u odatda λ (yunoncha harf *lambda*) yoki μ bilan belgilanadi. Tezlikdan foydalanib, bir vaqt birligi ichida aynan k ta voqeani kuzatish ehtimolini tasvirlashimiz mumkin.

PUASSON TAQSIMOTI

Aytaylik, biz voqealarni kuzatmoqdamiz va kuzatilgan voqealar soni λ tezlik bilan Puasson taqsimotiga amal qiladi. Unda

$$P(k \text{ ta voqeani kuzatish}) = \frac{\lambda^k e^{-\lambda}}{k!}$$

bu yerda k 0, 1, 2 va hokazo qiymatlarni olishi mumkin va $k!$ k-faktorialni anglatadi, 143-betda tasvirlanganidek. Harf $e \approx 2{,}718$ natural logarifm asosidir. Ushbu taqsimotning o‘rtacha qiymati va standart chetlanishi mos ravishda λ va $\sqrt{\lambda}$ ga teng.

Puasson taqsimoti uchun qat’iy shartlarni keyingi kursga qoldiramiz. Ammo, Puasson modelining mos kelishini dastlabki baholash uchun bir nechta oddiy ko‘rsatmalarni taklif qilamiz.

Agar biz voqealar sonini izlayotgan bo‘lsak, bunday voqealarni keltirib chiqaradigan bosh to‘plam katta bo‘lsa va voqealar bir-biridan bog‘liqsiz sodir bo‘lsa, tasodifiy o‘zgaruvchi Puasson taqsimotiga amal qilishi mumkin.

Hatto voqealar aslida bog‘liqsiz bo‘lmasa ham – masalan, shanba va yakshanba kunlari to‘ylar alohida mashhur bo‘lsa – ba’zida Puasson modeli hali ham mantiqiy bo‘lishi mumkin, agar turli vaqtlar uchun har xil tezlik foydalanishga ruxsat berilsa. To‘y misolida, hafta kunlariga qaraganda dam olish kunlari tezlik yuqoriroq bo‘lar edi. Puasson taqsimoti uchun tezliklarni hafta kuniga o‘xshash ikkinchi o‘zgaruvchiga qarab modellashtirish g‘oyasi **umumlashgan chiziqli modellar** sohasiga kiruvchi ba’zi ilg‘or usullar asosini tashkil etadi. 8- va 9-boblarda chiziqli modellar asosini muhokama qilamiz.

[39] Ushbu ma’lumotlar simulyatsiya qilingan. Amalda, ketma-ket kunlar orasida bog‘liqlikni tekshirish kerak bo‘ladi.

Mashqlar

4.31 Qahvaxonadagi mijozlar. Bir qahvaxona ertalabki ish vaqtida har soatda o‘rtacha 75 nafar mijozga xizmat qiladi.

(a) Ushbu vaqtda bir soat ichida qancha mijoz kelishini hisoblash uchun o‘rganilgan qaysi taqsimot eng mos keladi?

(b) Ushbu vaqt davomida qahvaxonada bir soatda xizmat qilinadigan mijozlar sonining o‘rtacha qiymati va standart chetlanishini toping.

(c) Agar ushbu qahvaxonaga ushbu vaqtda bir soat ichida faqat 60 nafar mijoz kelgan bo‘lsa, bu noodatiy kam natija deb hisoblanadimi?

(d) Ushbu vaqt davomida qahvaxona bir soatda 70 mijozga xizmat qilish ehtimolini hisoblang.

4.32 Stenograf xatolari. Yuqori malakali sud stenografi bir soatda o‘rtacha bitta yozuv xatosi (typo) qiladi.

(a) Ushbu stenografning bir soat ichida qilgan yozuv xatolari sonini hisoblash uchun qaysi ehtimollik taqsimoti eng mos keladi?

(b) Ushbu stenografning xatolari sonining o‘rtacha qiymati va standart chetlanishini toping.

(c) Agar ushbu stenograf bir soat ichida 4 ta yozuv xatosi qilgan bo‘lsa, bu noodatiy holat deb hisoblanadimi?

(d) Ushbu stenograf bir soat ichida 2 yoki undan kamroq yozuv xatosi qilish ehtimolini hisoblang.

4.33 Avtoturargohdagi mashinalar soni? Dushanbadan payshanbagacha bayram kunlari bo‘lmaganda, har kuni tushdan keyin soat 2 dan 3 gacha bir chakana sotuvchi avtoturargohiga o‘rtacha 6,5 ta mashina tashrif buyuradi. Har kuni keladigan mashinalar soni Puasson taqsimotiga amal qiladi.

(a) Keyingi dushanba kuni aynan 5 ta mashina kelish ehtimoli qanday?

(b) Keyingi dushanba kuni tushdan keyin 2 dan 3 gacha 0, 1 yoki 2 ta mashina kelish ehtimoli qanday?

(c) Shu vaqtda avtomobillardan keladigan tashrifchilar soni o‘rtacha 11,7 ni tashkil etadi. Ushbu vaqtda avtomobil tashrifchilari soni ham Puasson taqsimotiga amal qiladi, deb hisoblash mumkinmi? Tushuntiring.

4.34 Yo‘qolgan bagajlar. Ba’zida aviakompaniya yo‘lovchi bagajini yo‘qotishi mumkin. Faraz qilaylik, kichik bir aviakompaniya har ish kunida yo‘qotilgan bagajlar sonini Puasson modeli bilan o‘rtacha 2,2 ta bagaj bo‘yicha aniqlaydi.

(a) Keyingi dushanba kuni aviakompaniya birorta ham bagaj yo‘qotmaslik ehtimolini hisoblang.

(b) Keyingi dushanba kuni aviakompaniya 0, 1 yoki 2 ta bagaj yo‘qotish ehtimolini hisoblang.

(c) Faraz qilaylik, keyingi 3 yil davomida aviakompaniya o‘z faoliyatini kengaytirib, amalga oshiradigan parvozlar sonini ikki barobar oshiradi. Aviakompaniya rahbari sizdan 2,2 o‘rtacha qiymat bilan Puasson modelidan foydalanishni davom ettirish maqsadga muvofiqligini so‘radi. Qanday tavsiya berasiz? Tushuntiring.

Bob bo‘yicha mashqlar

4.35 Ruletka yutuqlari. Ruletka o‘yinida g‘ildirak aylantiriladi va siz u to‘xtaydigan joyga garov tikasiz. Mashhur garovlardan biri – u qizil uyaga to‘xtashiga garov tikishdir; bunday garovning yutish ehtimoli 18/38. Agar u qizil uyaga to‘xtasa, tikkan pulingizni ikki barobar yutib olasiz. Aks holda, tikkan pulingizni yo‘qotasiz. Faraz qilaylik, siz har biri \$1 miqdorida 3 marta o‘ynaysiz. Y o‘zgaruvchisi umumiy yutgan yoki yo‘qotgan summani ifodalaydi. Y uchun ehtimollik modelini yozing.

4.36 I-5 avtoyo‘lida tezlik, 1-qism. Kaliforniyadagi Interstate 5 (I-5) avtoyo‘lida yo‘lovchi transport vositalari tezliklari taqsimoti o‘rtacha 72,6 milya/soat va standart chetlanishi 4,78 milya/soat bo‘lgan deyarli normal taqsimotga amal qiladi.[40]

(a) Yo‘lovchi transport vositalarining qancha foizi 80 milya/soatdan sekinroq harakat qiladi?

(b) Yo‘lovchi transport vositalarining qancha foizi 60 va 80 milya/soat orasida harakat qiladi?

[40] S. Johnson and D. Murray. “Empirical Analysis of Truck and Automobile Speeds on Rural Interstates: Impact of Posted Speed Limits”. In: *Transportation Research Board 89th Annual Meeting*. 2010.

(c) Eng tez 5% yo‘lovchi transport vositalari qanday tezlikda harakat qiladi?

(d) I-5 yo‘lida tezlik chegarasi 70 milya/soat. Ushbu yo‘lda tezlik chegarasidan yuqori tezlikda harakat qiladigan transport vositalarining taxminiy foizini hisoblang.

4.37 Universitetga qabul qilish. Faraz qilaylik, bir universitet keyingi yilning birinchi kurs talabalari uchun 2,500 nafar talabani qabul qilganini e’lon qildi. Ammo universitetning faqat 1,786 nafar birinchi kurs talabalari uchun yotoqxona joylari bor. Agar qabul qilingan talabaning 70% universitet taklifini qabul qilishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, universitetda yotoqxona joylari yetishmasligi ehtimoli qancha?

4.38 I-5 avtoyo‘lida tezlik, 2-qism. 4.36-mashqda aytilganidek, Kaliforniyadagi Interstate 5 (I-5) avtoyo‘lida transport vositalari tezliklari taqsimoti o‘rtacha 72,6 milya/soat va standart chetlanishi 4,78 milya/soat bo‘lgan deyarli normal taqsimotga amal qiladi. Ushbu yo‘lning tezlik chegarasi 70 milya/soat.

(a) Avtoyo‘l patrul xodimi yo‘lning bir chetida yashiringan. 5 ta avtomobil o‘tib ketishi va ularning hech biri tezlikni oshirmasligi ehtimoli qanday? Avtomobillarning tezliklari bir-biriga bog‘liqsiz deb faraz qiling.

(b) Patrul xodimi o‘rtacha qancha avtomobilni kuzatishi kutiladi, toki birinchi tezlikni oshirgan avtomobilni ko‘rmaguncha? Birinchi tezlikni oshirgan avtomobilgacha kuzatiladigan avtomobillar sonining standart chetlanishi qancha?

4.39 Avtomobil sug‘urta mukofotlari. Bir gazeta maqolasida Kaliforniya aholisi uchun avtomobil sug‘urtasi mukofotlari taqsimoti o‘rtacha $1650 ga teng va taxminan normal taqsimotga amal qiladi, deb aytilgan. Bundan tashqari, Kaliforniya aholisi orasida 25% odam $1800 dan ko‘proq to‘laydi, deb qayd etilgan.

(a) Standart normal taqsimotning yuqori 25% (yoki 75^{chi} foizlik) ga mos keladigan Z-skori qanday?

(b) Sug‘urta narxining o‘rtacha qiymati qanday? 75^{chi} foizlik uchun chegarani aniqlang.

(c) Kaliforniyadagi sug‘urta mukofotlarining standart chetlanishini aniqlang.

4.40 SAT ballari. SAT ballari (1600 dan) o‘rtacha 1100 va standart chetlanishi 200 bo‘lgan normal taqsimotga ega. Faraz qilaylik, maktab kengashi SATda kamida 1350 ball to‘plagan barcha o‘quvchilarga mukofot sertifikati beradi va ushbu tan olingan o‘quvchilardan birini tasodifiy tanlaymiz. Ushbu o‘quvchining 1500 yoki undan yuqori ball olish ehtimoli qanday? (Bu savol uchun 3.2-bo‘limidagi shartli ehtimollik materialidan foydalanish foydali bo‘ladi.)

4.41 Turmush qurgan ayollar. Amerika Jamiyat Tadqiqotlari (ACS) ma’lumotlariga ko‘ra, 15 yoshdan katta bo‘lgan ayollarning 47,1% turmush qurgan.[41]

(a) 15 yoshdan katta uch ayolni tasodifiy tanlasak, uchinchi tanlangan ayolning yagona turmush qurgan bo‘lish ehtimoli qanday?

(b) Uchta tasodifiy tanlangan ayolning barchasi turmush qurgan bo‘lish ehtimoli qanday?

(c) Turmush qurgan ayolni tanlash uchun o‘rtacha qancha ayolni tanlash kerak bo‘ladi? Standart chetlanishi qancha?

(d) Agar turmush qurgan ayollarning ulushi aslida 30% bo‘lsa, turmush qurgan ayolni tanlash uchun o‘rtacha qancha ayolni tanlash kerak bo‘ladi? Standart chetlanishi qancha?

(e) (c) va (d) qismlardagi javoblaringizga asoslanib, voqea ehtimolini kamaytirish muvaffaqiyatgacha bo‘lgan kutish vaqtining o‘rtacha qiymati va standart chetlanishiga qanday ta’sir qiladi?

4.42 So‘rovnoma javoblari darajasi. Pew tadqiqotlariga ko‘ra, ularning so‘rovnomalariga odatiy javob darajasi atigi 9% ni tashkil etadi. Agar bir so‘rovnoma uchun 15000 xonadon bilan bog‘lanilsa, kamida 1500 tasi javob berishi ehtimoli qanday?[42]

4.43 Og‘ir yuk. Aviakompaniya yo‘lovchilari tomonidan tekshiriladigan yuklarning vazni o‘rtacha 45 funt va standart chetlanishi 3.2 funt bo‘lgan deyarli normal taqsimotga ega. Ko‘pgina aviakompaniyalar 50 funtdan ortiq vaznli yuklar uchun qo‘shimcha haq olishadi. Aviakompaniya yo‘lovchilarining necha foizi ushbu qo‘shimcha to‘lovni to‘lashadi?

4.44 10 yoshli bolalar bo‘ylari, 1-qism. 10 yoshli bolalarning bo‘ylari, jinsidan qat’i nazar, o‘rtacha 55 dyuym va standart chetlanishi 6 dyuym bo‘lgan normal taqsimotga amal qiladi.

(a) Tasodifiy tanlangan 10 yoshli bolaning bo‘yi 48 dyuymdan past bo‘lish ehtimoli qanday?

(b) Tasodifiy tanlangan 10 yoshli bolaning bo‘yi 60 va 65 dyuym orasida bo‘lish ehtimoli qanday?

[41] U.S. Census Bureau, 2010 American Community Survey, Marital Status.

[42] Pew Research Center, Assessing the Representativeness of Public Opinion Surveys, May 15, 2012.

(c) Agar sinfning eng uzun 10% “juda baland” deb hisoblansa, “juda baland” bo‘lish uchun bo‘y chegarasi qanday?

4.45 Ebayda kitob xarid qilish. Tasavvur qiling, siz qimmat kimyo darsligingizni Ebay orqali sotib olmoqchisiz. O‘tgan savdolarga qaraganda, ushbu darslik narxlari o‘rtacha $89 va standart chetlanishi $15 bo‘lgan deyarli normal taqsimotga ega.

(a) Tasodifiy tanlangan savdoning $100 dan yuqori narxda yakunlanish ehtimoli qanday?

(b) Ebay sizga maksimal taklif narxini belgilash imkonini beradi. Agar kimdir sizdan yuqori narx taklif qilsa, belgilangan maksimal narxingizga qadar avtomatik tarzda yangi taklif beriladi. Agar siz faqat bitta savdoda qatnashsangiz, taklif narxini juda yuqori yoki juda past belgilashning afzalliklari va kamchiliklari qanday? Agar bir nechta savdolarda qatnashsangiz-chi?

(c) Agar siz 10 ta savdoni kuzatib borsangiz, ushbu savdolardan birida yutish uchun maksimal taklifning qaysi taxminiy foizligini tanlash kerak bo‘ladi? Savdoda g‘olib bo‘lishni kafolatlaydigan chegara nuqtasini aniqlash mumkinmi?

(d) Agar siz 10 ta savdoni kuzatishga tayyor bo‘lsangiz, ushbu kitoblardan birini xarid qilish uchun maksimal taklif sifatida qanday narxni belgilash kerak bo‘ladi?

4.46 10 yoshli bolalarning bo‘ylari, 2-qism. 10 yoshli bolalarning bo‘ylari, jinsidan qat’iy nazar, o‘rtacha 55 dyuym va standart chetlanishi 6 dyuym bo‘lgan normal taqsimotga amal qiladi.

(a) “Six Flags Magic Mountain” parkidagi *Batman the Ride* attraksioniga chiqish uchun bo‘y talabi 54 dyuymni tashkil etadi. 10 yoshli bolalarning necha foizi ushbu attraksionga chiqa olmaydi?

(b) To‘rtta 10 yoshli bola bor deb faraz qilamiz. Ulardan kamida ikkitasining ushbu attraksionga chiqish ehtimoli qanday?

(c) Agar siz parka kirayotgan odamlarni sanayotgan bo‘lsangiz, uchinchi kirgan bola ushbu attraksionga chiqishga qodir birinchi bola bo‘lish ehtimoli qanday?

(d) Agar beshinchi 10 yoshli bola ushbu attraksionga chiqishga qodir bo‘lsa, u parkka kirgan 12-bola bo‘lish ehtimoli qanday?

4.47 10 yoshli bolalarning bo‘ylari, 3-qism. 10 yoshli bolalarning bo‘ylari, jinsidan qat’iy nazar, o‘rtacha 55 dyuym va standart chetlanishi 6 dyuym bo‘lgan normal taqsimotga amal qiladi.

(a) 10 yoshli bolalarning qanday qismi 76 dyuymdan baland bo‘ladi?

(b) Agar bir kunda “Six Flags Magic Mountain” parkiga 2000 ta 10 yoshli bola kirsa, ulardan nechtasi kamida 76 dyuym bo‘lishini kutish mumkin? (10 yoshli bolalarning bo‘ylari bog‘liqsiz deb hisoblanadi.)

(c) Binomial taqsimotdan foydalanib, 2000 ta bola orasida 76 dyuymdan baland bo‘lgan bolalarning 0 ta bo‘lish ehtimolini hisoblang.

(d) “Six Flags Magic Mountain” parkiga kirgan va bo‘yi 76 dyuym yoki undan baland bo‘lgan 10 yoshli bolalar soni, (b) bandidagi qiymat bilan o‘rtacha Puasson taqsimotiga amal qiladi. Puasson taqsimotidan foydalanib, 76 dyuym yoki undan baland bola kirish ehtimolini aniqlang.

4.48 Testdagi bir tanlovli savollar. Bir tanlovli testda 5 ta savol mavjud bo‘lib, har bir savolda 4 ta javob varianti (a, b, c, d) bor. Robin testga tayyorlanmagan va javoblarni tasodifiy taxmin qiladi. Quyidagilarni hisoblang:

(a) Robin birinchi to‘g‘ri javobni 3− savolda olish ehtimoli qanday?

(b) U aniq 3 yoki aniq 4 savolga to‘g‘ri javob berish ehtimoli qanday?

(c) U savollarning aksariyatiga to‘g‘ri javob beradimi?

5-BOB

Xulosa chiqarish asoslari

5.1 Nuqtaviy baholash va tanlanma o‘zgaruvchanligi

5.2 Nisbat uchun ishonch intervali

5.3 Nisbat uchun gipotezalar tekshiruvi

Statistik xulosa chiqarish asosan parametr baholarining noaniqligini tushunish va uni miqdoriy baholash bilan bog‘liq. Sharoitga qarab tenglamalar va tafsilotlar o‘zgarsa ham, statistikadagi barcha xulosa chiqarish asoslari bir xil bo‘lib qoladi.

Biz tanish bir mavzudan boshlaymiz. Tanlanma ulushi yordamida bosh to‘plam ulushini baholash g‘oyasi. Keyin, biz *ishonch intervali* deb ataladigan diapazonni yaratamiz haqiqiy bosh to’plami joylashishi mumkin bo’lgan, bu biz haqiqiy bosh to‘plam qiymatini topishimiz mumkin bo‘lgan ehtimolli qiymatlar oralig‘idir. Nihoyat, biz *gipotezani tekshirish tizimi*ni kiritamiz, bu bosh to‘plam haqida da’volarni rasmiy baholashga imkon beradi, masalan, bir so‘rov biror nomzodning saylovchilar ko‘pchiligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchli dalil bilan ko‘rsatadimi yoki yo‘qmi.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**

5.1 Nuqtaviy baholash va tanlanma o‘zgaruvchanligi

“Pew Research” (Pew Research Center — AQShda joylashgan, notijorat va siyosiy jihatdan betaraf tadqiqot markazi) kabi kompaniyalar ko‘pincha jamoatchilik fikri yoki ko‘plab mavzular, jumladan, siyosat, ilmiy tushuncha, brendni tanish va boshqa ko‘p narsalar bo‘yicha bilim darajasini tushunish uchun so‘rovlar o‘tkazadi. So‘rov o‘tkazishning asosiy maqsadi odatda javoblardan kengroq aholi fikri yoki bilim darajasini baholash uchun foydalanishdan iborat.

5.1.1 Nuqtaviy baholar va xatolar

Faraz qilaylik, bir so‘rov AQSh prezidentining ma’qullash reytingi 45% ekanligini taklif qildi. Biz 45% ni umumiy aholi fikrini baholash uchun **nuqtaviy baho** deb hisoblaymiz. Umumiy aholi fikridan olingan ushbu ulush odatda qiziqish **parametr**i deb ataladi. Parametr ulushni ifodalayotgan bo‘lsa, ko‘pincha p bilan belgilanadi va tanlanmadagi ulush esa $\hat{p}$ (p-*hat*, p-shlyapali deb o‘qiladi[1]). Agar biz aholi ichidagi har bir kishidan javob olmasak, p noma’lum bo‘lib qoladi va biz p ni baholash uchun $\hat{p}$ dan foydalanamiz. So‘rovdan olingan natijalar va parametr o‘rtasidagi farq **baholashdagi xatolik** deb ataladi. Odatda, xatolik ikkita tanlanma xatolik va tarafkashlik kabilardan iborat.

Tanlanma xatolik, ba’zan *tanlanmadagi noaniqlik* deb ham ataladi, bir tanlanmadan ikkinchisiga baho qancha o‘zgarishini tasvirlaydi. Masalan, bir tanlanmadan olingan baho 1% ga past bo‘lishi, boshqasida esa 3% ga yuqori bo‘lishi mumkin. Statistikaning katta qismi, shu jumladan ushbu kitobning katta qismi, tanlanma xatolikni tushunish va miqdor jihatidan baholashga qaratilgan, va biz ushbu xatoni miqdoriy baholashda tanlanma hajmini hisobga olishni foydali deb hisoblaymiz. **Tanlanma hajmi** ko‘pincha n harfi bilan ifodalanadi.

Og‘ish (inglizcha: bias) haqiqiy bosh to‘plam qiymatini tizimli ravishda ortiqcha yoki kam baholashga moyillikni ifodalaydi. Masalan, agar biz talabalardan yangi kollej stadioni qurilishini qo‘llab-quvvatlash darajasi haqida so‘rov o‘tkazayotgan bo‘lsak, savolni quyidagicha berishimiz ehtimol natijani og‘ishgan bo’ladi. *Yangi stadionni moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash orqali maktabingni qo‘llab-quvvatlaysanmi?* Biz og‘ishni imkon qadar kamaytirishga intilamiz. Buning uchun ma’lumot yig‘ish jarayonini puxta o‘ylangan tartib-taomillar asosida tashkil etamiz. Bu masalalar 1-bobda muhokama qilingan va ko‘plab boshqa kitoblarning ham asosiy mavzularidan biridir.

5.1.2 Nuqtaviy bahoning o‘zgaruvchanligini tushunish

Faraz qilaylik, AQShdagi katta yoshlilar orasida quyosh energiyasini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlovchi ulush $p = 0{,}88$ bo‘lib, bu bizni qiziqtirgan parametrdir. [2] Agar biz ushbu mavzu bo‘yicha 1000 nafar katta yoshdagi AQShliklardan so‘rov olsak, baho mukammal bo‘lmasligi mumkin. Lekin tanlanmadagi ulushni 88% ga qanchalik yaqin kutishimiz mumkin? Biz quyidagilarni tushunishni xohlaymiz: *haqiqiy bosh to‘plam ulushi* 0,88 *bo‘lganda tanlanmadagi ulush* $\hat{p}$ *qanday xatti-harakat qiladi.*[3] Keling, buni bilib olaylik! Biz 1000 AQSh katta yoshlilarining oddiy tasodifiy tanlanmasi orqali oladigan javoblarni modellashtirishimiz mumkin. Bu esa faqat biz quyosh energiyasini kengaytirishga bo‘lgan asl qo‘llab-quvvatlash 0,88 ekanligini bilganimiz uchungina mumkin. Bunday modellashtirishni qanday qurish mumkinligini quyida ko‘rsatamiz:

1. 2018-yilda AQSHda taxminan 250 million katta yoshlilari bo‘lgan. 250 million varaqqa 88% qismini “qo‘llab-quvvatlash” va qolgan 12% qismini “yo‘q” deb yozing.

[1] Bu ”phat” (yaxshi, ajoyib degan ma’nodagi jargon) bilan adashtirilmasin, masalan, ushbu kitob kabi.

[2] Biz ushbu qiymatni mukammal o‘lchash uchun aholini to‘liq ro‘yxatga olish o‘tkazmadik. Biroq, juda katta bir tanlanmada asl qo‘llab-quvvatlash darajasi taxminan 88% ekanligi ko‘rsatilgan.

[3] 88% ulush sifatida yozilsa, bu 0,88 bo‘ladi. Foiz va ulush o‘rtasida o‘tish odatiy holdir. Biroq, ushbu kitobda keltirilgan formulalar har doim ulushga tegishli, foizga emas.

2. Qog‘oz varaqlarini aralashtiring va 1000 ta qog‘oz varaqni oling, bu bizning 1000 nafar AQSh katta yoshlilaridan iborat tanlanma bo‘ladi.

3. “Qo‘llab-quvvatlash” deganlarni sanab chiqib, tanlanmadagi ulushni hisoblang.

Kimdir ushbu modellashtirishni amalga oshirishga ko‘ngilli bormi? Ehtimol, yo‘q. 250 million varaqqa ega bo‘lgan holda bu modellashtirishni amalga oshirish juda ko‘p vaqt talab qiladi va qimmat bo‘ladi. Lekin biz buni kompyuter kodi yordamida modellashtirishimiz mumkin. Qiziqish bo‘lsa, 5.1-rasmda keltirilgan qisqa dastur kodi orqali ko‘rishingiz mumkin. Ushbu modellashtirishda tanlanma $\hat{p}_1 = 0{,}894$ nuqtaviy bahosini berdi. Modellashtirish uchun bosh to‘plam ulushi $p = 0{,}88$ ekanligini bilamiz. Shuning uchun bahoda $0{,}894 - 0{,}88 = +0{,}014$ xato mavjud.

```
# 1. 250 million elementli to‘plam yarating, bu yerda 88% qismini
‘‘qo‘llab-quvvatlash’’ (support)
#    va 12% qismini ‘‘yo‘q’’ (not) qilib yozing.
pop_size <- 250000000
possible_entries <- c(rep("support", 0.88 * pop_size), rep("not", 0.12 * pop_size))

# 2. 1000 elementni almashtirmasdan tanlab oling.
sampled_entries <- sample(possible_entries, size = 1000)

# 3. p-shlyapalini hisoblang: "qo‘llab-quvvatlash" deganlarni sanab chiqing,
#    keyin tanlanmadagi ulushni aniqlang.
sum(sampled_entries == "support") / 1000
```

5.1-rasm. Qiziqish bo‘lsa, bu $\hat{p}$ (`p shlyapali, inglizcha: p-hat`) uchun yagona modellashtirish kodidir, u **R** deb ataluvchi statistik dastur yordamida yaratilgan. Har bir `#` bilan boshlangan qatorda dastur kodining nima qilayotganini oddiy til bilan tushuntiruvchi **kod izohi** berilgan. Batafsil bilmoqchi bo‘lganlar uchun openintro.org/book/os saytida **R** bo‘yicha dastur laboratoriyalari keltirilgan.

Bitta modellashtirishdan modellashtirish natijalari taqsimotini to‘liq tushunish qiyin, shuning uchun ko‘proq modellashtirishlar o‘tkazishimiz kerak. Ikkinchi modellashtirishda $\hat{p}_2 = 0{,}885$ natijasi olingan, bu esa $+0{,}005$ xatoga ega. Yana birida $\hat{p}_3 = 0{,}878$ va bu $-0{,}002$ xatoga ega. Va boshqasida esa $\hat{p}_4 = 0{,}859$, bu $-0{,}021$ xatoga ega. Kompyuter yordamida ushbu modellashtirishni 10000 marta o‘tkazdik va barcha 10000 modellashtirish natijalari taqsimotining gistogrammasini 5.2-rasmda ko‘rsatdik. Ushbu tanlanma ulushlarning taqsimoti **tanlanma taqsimot** deb ataladi. Ushbu tanlanma taqsimotni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

Markaz. Taqsimotning markazi $\bar{x}_{\hat{p}} = 0{,}880$ bo‘lib, bu parametrga teng. E’tibor bering, modellashtirishda bosh to‘plam ichidan oddiy tasodifiy tanlanmani olgan. Bu esa tanlanmada tarafkashlikni oldini olishga yordam beruvchi oddiy tanlanma olish strategiyasidir.

Tarqalish. Taqsimotning standart chetlanish darajasi $s_{\hat{p}} = 0{,}010$. Tanlanma taqsimot yoki nuqtaviy bahoning o‘zgaruvchanligi haqida gap ketganda, biz odatda **standart xatolik (SX)** atamasini ishlatamiz va tanlanma ulushi bilan bog‘liq standart xatolikni ifodalash uchun $SX_{\hat{p}}$ belgisi ishlatiladi.

Shakl. Taqsimot simmetrik va qo‘ng‘iroq shaklida, va u *normal taqsimotga o‘xshash.*


Bu xulosalar ijobiydir! Bosh to‘plam ulushi $p = 0{,}88$ bo‘lib, tanlanma hajmi $n = 1000$ bo‘lganda, tanlanma ulushi $\hat{p}$ bosh to‘plam ulushining juda yaxshi bahosini beradi. Bundan tashqari, gistogrammaning normal taqsimotga o‘xshashligi qiziqarli holatdir.

TANLANMA TAQSIMOTLAR KUZATILMAYDI, LEKIN ULARNI ESDA TUTISH FOYDALI

Haqiqiy hayotda, biz hech qachon tanlanma taqsimotni bevosita kuzatmaymiz, biroq har doim nuqtaviy bahoni bunday xayoliy taqsimotdan olingan deb hisoblash foydalidir. Tanlanma taqsimotni tushunish, kuzatilgan nuqtaviy baholarni tavsiflash va ularni anglashda yordam beradi.

5.1-MISOL

Agar biz juda kichik tanlanma hajmi, masalan, $n = 50$ dan foydalansak, $\hat{p}$ uchun standart xatolik



5.2-rasm. 10000 tanlanma ulushlarining gistogrammasi, bu yerda har bir tanlanma bosh to‘plamning ulushi 0,88 bo‘lgan va tanlanma hajmi $n = 1000$ bo‘lgan holda olingan.

$n = 1000$ bo‘lgandagidan kattaroq yoki kichikroq bo‘ladimi?

Intuitiv ravishda, ko‘proq ma’lumot kamroq ma’lumotdan yaxshiroqdek tuyuladi va odatda bu to‘g‘ri! $p = 0{,}88$ va $n = 50$ bo‘lganda odatiy xato $n = 1000$ bo‘lganidan kattaroq bo‘lishi kutiladi.

5.1-misol yana va yana muhim xususiyatni ta’kidlaydi. Ya’ni katta tanlanma kichik tanlanmaga qaraganda aniqroq nuqtaviy baho berishga moyil bo‘ladi.

5.1.3 Markaziy limit teorema

5.2-rasmdagi taqsimot normal taqsimotga juda o‘xshaydi. Bu tasodifiy hodisa emas. Bu **markaziy limit teorema** deb ataladigan umumiy tamoyil natijasidir.

MARKAZIY LIMIT TEOREMA VA MUVAFFAQIYAT-MUVAFFAQIYATSIZLIK SHARTI

Agar kuzatuvlar bog‘liqsiz bo‘lsa va tanlanma hajmi yetarlicha katta bo‘lsa, tanlanma ulushi $\hat{p}$ quyidagi o‘rtacha qiymat va standart xatolik bilan normal taqsimotga moyil bo‘ladi:

$$\mu_{\hat{p}} = p; \qquad SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}.$$

Markaziy limit teorema amal qilishi uchun, tanlanma hajmi odatda $np \geq 10$ va $n(1-p) \geq 10$ bo‘lgan holatda yetarlicha katta hisoblanadi. Bu holat **muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti** deb ataladi.

Markaziy limit teorema juda muhim va u statistikning ko‘plab qismlariga asos yaratadi. Markaziy limit teoremadan foydalanishda ikkita texnik shartga e’tibor bering. Kuzatuvlar bog‘liqsiz bo‘lishi kerak va tanlanma hajmi $np \geq 10$ va $n(1-p) \geq 10$ bo‘lishi kerak.

5.2-MISOL

Oldin biz $p = 0{,}88$ va $n = 1000$ bo‘lgan holda simulyatsiya ma’lumotlaridan $\hat{p}$ ning o‘rtacha qiymati va standart xatolikni baholadik. Markaziy limit teorema amal qilishini tasdiqlang va tanlanma taqsimot taxminan normal ekanligini tekshiring.

Bog‘liqsizlik. Har bir tanlanma ulushi $\hat{p}$ uchun $n = 1000$ kuzatuvlar mavjud va ularning har biri bog‘liqsiz tanlangan. *Kuzatuvlar bog‘liqsiz deb hisoblanishining eng keng tarqalgan usuli bu ular oddiy tasodifiy tanlanma ekanligidir.*

Muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti. Tanlanma hajmining yetarlicha katta ekanligini

muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini tekshirib va hisoblangan ikkita qiymat 10 dan katta ekanligini tasdiqlash orqali tekshirish mumkin:

$$np = 1000 \times 0{,}88 = 880 \geq 10; \qquad n(1-p) = 1000 \times (1-0{,}88) = 120 \geq 10.$$

Bog‘liqsizlik va muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti qoniqarli, shuning uchun markaziy limit teorema amal qiladi va $\hat{p}$ ni normal taqsimot sifatida modellashtirish maqbuldir.

TANLANMA KUZATUVLARINING BOG‘LIQSIZLIGINI QANDAY TEKSHIRISH MUMKIN

Tajribadagi subyektlar bog‘liqsiz deb hisoblanadi, agar ular davolash guruhlariga tasodifiy ravishda taqsimlansa.

Agar kuzatuvlar oddiy tasodifiy tanlanmadan olingan bo‘lsa, ular bog‘liqsiz hisoblanadi.

Agar tanlanma tasodifiy jarayondan, masalan, yig‘ish liniyasida vaqti-vaqti bilan yuz beradigan xatodan olingan bo‘lsa, bog‘liqsizlikni tekshirish qiyinroq bo‘ladi. Bunday holda, eng yaxshi mulohazangizdan foydalaning.

Ba’zan bosh to‘plamdan olingan tanlanmalar uchun qo‘shiladigan qo‘shimcha shart shundaki, ular bosh to‘plam sonining 10% idan oshmasligi kerak. Agar tanlanma bosh to‘plam hajmining 10% dan oshib ketsa, biz muhokama qilayotgan usullar tanlanma xatolikni biroz oshirib baholashga moyil bo‘ladi, bu esa yanada murakkab usullar yordamida olingan natijaga nisbatan farq hosil qiladi.[4] Bu juda kamdan-kam muammo tug‘diradi va bunday hollarda bizning usullarimiz odatda konservativ bo‘ladi, shuning uchun bu qo‘shimcha tekshirishni ixtiyoriy deb hisoblaymiz.

M **5.3-MISOL**

Markaziy limit teoremaga muvofiq, $p = 0{,}88$ va $n = 1000$ bo‘lganida $\hat{p}$ ning nazariy o‘rtacha qiymati va standart xatolikni hisoblang.

$\hat{p}$ ning o‘rtacha qiymati oddiygina bosh to‘plam ulushi $\mu_{\hat{p}} = 0{,}88$ ga teng.


$\hat{p}$ uchun standart xatolikni hisoblash quyidagi formuladan foydalanadi:

$$SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}} = \sqrt{\frac{0{,}88(1-0{,}88)}{1000}} = 0{,}010.$$

M **5.4-MISOL**

Bosh to‘plam qiymatidan $p = 0{,}88$ 0,02 (2%) dan oshmagan $\hat{p}$ tanlanma ulushlari qanchalik tez-tez uchrashini baholang. 5.2- va 5.3-misollarga asoslanib, biz bilamizki, taqsimot taxminan $N(\mu_{\hat{p}} = 0{,}88, SX_{\hat{p}} = 0{,}010)$ ga mos keladi.

4.1-bo‘limdagi mashqlardan so‘ng, ushbu normal taqsimot misoli tanish bo‘lib tuyulishi kerak! Biz $\hat{p}$ lar ulushi 0,86 va 0,90 oralig‘ida bo‘lishini tushunishni istaymiz:



$\mu_{\hat{p}} = 0{,}88$ va $SX_{\hat{p}} = 0{,}010$ bilan biz chap va o‘ng chegaralar uchun Z-ballarni hisoblashimiz mumkin:

$$Z_{0{,}86} = \frac{0{,}86 - 0{,}88}{0{,}010} = -2; \qquad Z_{0{,}90} = \frac{0{,}90 - 0{,}88}{0{,}010} = 2.$$

[4] Masalan, biz **cheklangan bosh to‘plam tuzatish koeffitsienti** dan foydalanishimiz mumkin. Agar tanlanma hajmi n, bosh to‘plam soni esa N bo‘lsa, odatdagi standart xatolik formulasini $\sqrt{\frac{N-n}{N-1}}$ ga ko‘paytirish orqali standart xatolikni aniqroq baholash mumkin. Agar $n < 0{,}1 \times N$ bo‘lsa, ushbu tuzatish koeffitsiyenti nisbatan kichik bo‘ladi.

Biz statistik dasturiy ta'minot, grafik kalkulyator yoki jadvaldan foydalanib, quyruq hududlarni topishimiz mumkin va har qanday holatda ular har biri 0,0228 ga teng bo'ladi. Umumiy quyruq maydoni $2 \times 0{,}0228 = 0{,}0456$ ni tashkil etadi, bu esa 0,9544 soyali maydonni qoldiradi. Ya'ni, 5.2-rasmdagi tanlanma taqsimotning taxminan 95,44% qismi bosh to'plamning ulushi $p = 0{,}88$ ning $\pm 0{,}02$ oralig'ida joylashgan.

Y **5.5-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

5.1-misolda biz kichikroq tanlanma kamroq ishonchli baho berishga moyil bo'lishini muhokama qildik. Ushbu intuitiv fikr qanday qilib $SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}$ formulasida aks etganligini tushuntiring.[5]

5.1.4 Markaziy limit teoremani haqiqiy hayotga qo'llash

Ma'lumki, agar butun aholi uchun qimmat so'rovnoma o'tkazmasak, bosh to'plamning ulushini bilmaymiz, Bizning oldingi $p = 0{,}88$ qiymatimiz "Pew Research" tomonidan o'tkazilgan 1000 AQSh katta yoshlilari so'roviga asoslangan bo'lib, ulardan $\hat{p} = 0{,}887$ qismi quyosh energiyasini kengaytirishni qo'llab-quvvatlagan. Tadqiqotchilar quyidagilarni bilishni istagan bo'lishlari mumkin: so'rovdagi tanlanma ulushi taxminan normal taqsimotni ko'rsatadimi? Biz markaziy limit teoremadagi shartlarni tekshirishimiz mumkin:

Bog'liqsizlik. So'rov AQSh katta yoshlilarining oddiy tasodifiy tanlanmasi bo'lib, bu kuzatuvlar bog'liqsiz ekanligini anglatadi.

Muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti. Ushbu shartni tekshirish uchun, p bosh to'plam ulushini bilishimiz zarur. Sababi, np va $n(1-p)$ ning ikkalasi ham 10 dan katta ekanligini tekshirishimiz kerak. Biroq, biz aslida p ni bilmaymiz, bu esa tadqiqotchilar nimani aniqlash uchun tanlanmani olishini tushuntiradi! Bunday holatlarda biz muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini tekshirish uchun $\hat{p}$ ni eng yaxshi taxmin sifatida ishlatamiz:

$$n\hat{p} = 1000 \times 0{,}887 = 887; \qquad n(1-\hat{p}) = 1000 \times (1 - 0{,}887) = 113.$$

Ushbu tekshiruvda $\hat{p}$ bosh to'plam ulushi p uchun maqbul o'rinbosar bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holatda har bir qiymat minimum 10 dan ancha yuqori.

Ushbu $\hat{p}$ ni p o'rnida ishlatish **almashtirib yaqinlashtirish** (substitution approximation) usuli tanlanma ulushining standart xatolikni hisoblashda ham foydali:

$$SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}} \approx \sqrt{\frac{\hat{p}(1-\hat{p})}{n}} = \sqrt{\frac{0{,}887(1-0{,}887)}{1000}} = 0{,}010\ .$$

Bu usul ba'zan "o'rniga qo'yish prinsipi" deb ataladi. Ushbu holatda, $SX_{\hat{p}}$ standart xatolikni hisoblash uchun ilgari 0,88 bilan amalga oshirilgan hisob-kitob bilan taqqoslaganda uch o'nlik kasr bilan sezilmaydigan darajada o'zgardi. Har xil tanlanmalar orasida ozgina farqli ulushlarni kuzatganimizda ham hisoblangan standart xatolik nisbatan barqaror bo'ladi.

5.1.5 Markaziy limit teoremaga oid qo'shimcha tafsilotlar

Biz ushbu bobda bir nechta misollarda markaziy limit teoremani qo'lladik:

Agar kuzatuvlar bog'liqsiz va tanlanma hajmi yetarlicha katta bo'lsa, $\hat{p}$ ning taqsimoti quyidagi o'rtacha qiymat va standart xatolik bilan normal taqsimotga o'xshaydi:

$$\mu_{\hat{p}} = p; \qquad SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}.$$

[5] Tanlanma hajmi n formuladagi kasrning maxraji (pastki qismi) bo'lgani uchun, kattaroq tanlanma hajmi butun ifodaning hisoblanganda kichikroq bo'lishiga olib keladi. Ya'ni, kattaroq tanlanma hajmi kichikroq standart xatolikka mos keladi.


Tanlanma hajmi $np \geq 10$ *va* $n(1-p) \geq 10$ *shartlari bajarilganda yetarlicha katta deb hisoblanadi.*

Ushbu bo‘limda biz muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini o‘rganamiz va markaziy limit teoremani yaxshiroq tushunishga harakat qilamiz.

Qiziqarli savol shuki, *agar* $np < 10$ *yoki* $n(1-p) < 10$ *bo‘lsa, nima sodir bo‘ladi?* Biz buni oldinroq 5.1.2-bo‘limda misol tariqasida ko‘rib chiqdik, turli hajmdagi tanlanmalarni chizish bo‘yicha simulyatsiyalarni amalga oshirdik, masalan, haqiqiy ulush $p = 0{,}25$ bo‘lganda. Keling, hajmi 10 ga teng bo‘lgan tanlanmani ko‘rib chiqamiz:

yo‘q, yo‘q, ha, ha, yo‘q, yo‘q, yo‘q, yo‘q, yo‘q, yo‘q

Ushbu tanlanmada “ha” uchun $\hat{p} = \frac{2}{10} = 0{,}2$ tanlanma ulushini kuzatamiz. $n = 10$ va $p = 0{,}25$ bo‘lganida $\hat{p}$ ning tanlanma taqsimotini tushunish uchun ko‘plab shunday ulushlarni simulyatsiya qilishimiz mumkin. 5.3-rasmda ushbu taqsimotni, xuddi shu o‘rtacha qiymat va o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lgan normal taqsimot bilan birga keltirdik. Ushbu taqsimotlar orasida bir nechta muhim farqlar mavjud.



5.3-rasm. Chapda: $\hat{p}$ ning simulyatsiyasi, tanlanma hajmi $n = 10$ va bosh to‘plamning ulushi $p = 0{,}25$. O‘ngda: o‘rtacha qiymat 0,25 va standart chetlanish 0,137 bo‘lgan normal taqsimot.

	Unimodalmi?	Silliqmi?	Simmetrikmi?
Normal: $N(0{,}25; 0{,}14)$	**Ha**	**Ha**	**Ha**
$n = 10$, $p = 0{,}25$	**Ha**	*Yo‘q*	*Yo‘q*

E’tibor bering, muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti $n = 10$ va $p = 0{,}25$ bo‘lganda bajarilmadi:


$$np = 10 \times 0{,}25 = 2{,}5; \qquad n(1-p) = 10 \times 0{,}75 = 7{,}5.$$

Ushbu yagona tanlanma taqsimot muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti mukammal qo‘llanma ekanligini ko‘rsatmaydi, lekin ushbu qo‘llanma normal taqsimot mos bo‘lmasligi mumkinligini to‘g‘ri aniqladi.


Biz qo‘shimcha simulyatsiyalarni yakunlab, 5.4- va 5.5-rasmlarda keltirilgan. Ba’zi tendensiyalarni ko‘ramiz:

1. Agar np yoki $n(1-p)$ kichik bo‘lsa, taqsimot ko‘proq **diskret** bo‘ladi, ya’ni *uzluksiz emas.*
2. Agar np yoki $n(1-p)$ ning qiymati 10 dan kichik bo‘lsa, taqsimotdagi notekislik (egilish) sezilarli darajada bo‘ladi.
3. Ikkala np *va* $n(1-p)$ qanchalik katta bo‘lsa, taqsimot shunchalik normal ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu grafiklarda katta tanlanma hajmi uchun sezish qiyinroq bo‘lishi mumkin, chunki o‘zgaruvchanlik ham sezilarli darajada kichrayadi.
4. np va $n(1-p)$ ikkisi ham juda katta bo‘lganda, taqsimotning diskretligi deyarli sezilmaydi, va taqsimot normal taqsimotga juda o‘xshaydi.

Hozircha biz faqat taqsimotlarning egilishiga va diskretligiga e’tibor qaratdik. Biz taqsimotlarning o‘rtacha qiymati va standart xatolikning qanday o‘zgarishini ko‘rib chiqmabmiz. Grafiklarga qaytib, uchta narsaga e’tibor bering:



5.4-rasm. Bir nechta p va n parametrlarining tanlanma taqsimotlari.
Qatorlar: $p = 0{,}10$, $p = 0{,}20$, $p = 0{,}50$, $p = 0{,}80$ va $p = 0{,}90$.
Ustunlar: $n = 10$ va $n = 25$.



5.5-rasm. Bir nechta p va n parametrlarining tanlanma taqsimotlari.
Qatorlar: $p = 0{,}10$, $p = 0{,}20$, $p = 0{,}50$, $p = 0{,}80$ va $p = 0{,}90$.
Ustunlar: $n = 50$, $n = 100$ va $n = 250$.

1. Taqsimotlarning markazlari har doim simulyatsiyani yaratish uchun ishlatilgan bosh to‘plamning ulushi p da joylashgan. $\hat{p}$ ning tanlanma taqsimoti har doim bosh to‘plam parametri p da markazlashgan. Bu shuni anglatadiki, $\hat{p}$ bog‘liqsiz ma’lumotlar sharoitida **tarafkash** bo‘lmaydi.

2. Muayyan bosh to‘plam ulushi p uchun, tanlanma taqsimotdagi o‘zgaruvchanlik tanlanma hajmi n kattalashgan sari kamayadi. Bu sizning intuitivingiz bilan mos keladi. Kattaroq tanlanma hajmiga asoslangan baho odatda aniqroq bo‘ladi.

3. Muayyan tanlanma hajmi uchun o‘zgaruvchanlik $p = 0{,}5$ bo‘lganda eng katta bo‘ladi. Farqlar ozgina nozik bo‘lishi mumkin, shuning uchun diqqat bilan qarang. Bu standart xatolik formulasida p ning rolini aks ettiradi. $SX = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}$. Standart xatolik $p = 0{,}5$ bo‘lganda eng katta qiymatga ega bo‘ladi.

Hech qachon $\hat{p}$ ning taqsimoti *mukammal* normal ko‘rinishga ega bo‘lmaydi, chunki $\hat{p}$ har doim diskret qiymatlarni (x/n) qabul qiladi. Bu har doim bir o‘lchov daraja masalasidir. Biz ushbu kitob doirasida 10 minimal qiymatga ega bo‘lgan np va $n(1-p)$ uchun muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini qo‘llanma sifatida ishlatamiz.

5.1.6 Statistikalar uchun doirani kengaytirish

Tanlanma statistikasi yordamida parametrni baholash strategiyasi juda keng tarqalgan bo‘lib, bu strategiyani ulushdan tashqari boshqa statistikalar uchun ham qo‘llashimiz mumkin. Masalan, agar biz ma’lum bir kollejni bitirganlarning o‘rtacha ish haqini baholamoqchi bo‘lsak, yaqinda bitirganlarning tasodifiy tanlanmasi ustida so‘rov o‘tkazishimiz mumkin. Bu misolda biz barcha bitiruvchilar uchun bosh to‘plamning o‘rtacha qiymati μ ni baholash uchun tanlanma o‘rtacha qiymati $\bar{x}$ dan foydalanardik. Yana bir misol: agar biz ikkita veb-sayt uchun mahsulot narxlari farqini baholamoqchi bo‘lsak, ikkala saytda mavjud mahsulotlarning tasodifiy tanlanmasi olinib, har birining narxlari tekshirilishi mumkin, so‘ngra o‘rtacha farq hisoblanadi. Bu strategiya, albatta, nuqtaviy baho orqali haqiqiy farq haqida biror tasavvur beradi.

Ushbu bobda asosan bitta ulush konteksti ta’kidlangan bo‘lsa-da, kitob davomida ushbu usullarni qo‘llaydigan ko‘plab turli kontekstlarga duch kelamiz. Prinsiplar va umumiy g‘oyalar bir xil, garchi tafsilotlar bir oz o‘zgarsa ham. Shuningdek, biz ba’zi boshqa kontekstlarni mashqlarga qo‘shib qo‘ydik, bu sizga g‘oyalarni umumlashtirish haqida o‘ylashni boshlashga yordam beradi.

Mashqlar

5.1 Parametrni aniqlash, 1-qism. Quyidagi holatlarning har biri uchun, qiziqish parametri o‘rtacha miqdor yoki ulush ekanligini aniqlang. Yakka javoblarning sonli yoki toifali ekanligini tahlil qilish foydali bo‘lishi mumkin.

(a) So‘rovda yuz nafar kollej talabasidan haftasiga internetda qancha soat vaqt o‘tkazishi so‘raladi.

(b) So‘rovda yuz nafar kollej talabasidan: “Internetda o‘tkazgan vaqtingizning qancha foizi o‘quv dasturingizga tegishli?” deb so‘raladi.

(c) So‘rovda yuz nafar kollej talabasidan o‘z maqolalarida “Wikipedia”dan ma’lumot olgan yoki olmaganligi so‘raladi.

(d) So‘rovda yuz nafar kollej talabasidan haftalik xarajatlarining umumiy foizidan qanchasi spirtli ichimliklarga sarflanganligi so‘raladi.

(e) Yaqinda o‘qishni tamomlagan yuz nafar kollej bitiruvchilaridan iborat namunada, ulardan 85 foizi bitiruv kunidan bir yil ichida ish topishni kutmoqda.

5.2 Parametrni aniqlash, 2-qism. Quyidagi holatlarning har biri uchun, qiziqish parametri o‘rtacha miqdor yoki ulush ekanligini aniqlang.

(a) So‘rovda amerikaliklarning 64% federal xarajatlar va budjet kamomadidan katta xavotirda ekanligini bildirgan.

(b) Hisobotda mahalliy TV yangiliklar daromadi ikki yil ichida 17% ga oshgani, gazetalar daromadi esa shu davrda 6,4% iga kamaygani ko‘rsatilgan.

(c) So‘rovda o‘rta maktab va kollej o‘quvchilaridan smartfonlarida geolokatsiya xizmatidan foydalanishlari yoki foydalanmasliklari so‘raladi.

(d) So‘rovda smartfon foydalanuvchilaridan veb-taksi xizmatidan foydalanishlari yoki foydalanmasliklari so‘raladi.

(e) So‘rovda smartfon foydalanuvchilaridan o‘tgan yil davomida veb-taksi xizmatidan necha marta foydalanganliklari so‘raladi.

5.3 Sifat nazorati. Kompyuter chiplarini sifat nazorati jarayonida, zavoddagi muhandis bir hafta davomida tasodifiy tanlangan 212 chipni sinovdan o‘tkazadi va og‘ir nuqsonlari bo‘lgan chiplarning hozirgi darajasini aniqlaydi. Muhandis 27 ta chipning nuqsonli ekanligini aniqlaydi.

(a) Ma’lumot to‘plamida ko‘rib chiqilayotgan bosh to‘plam nima?

(b) Qanday parametr baholanmoqda?

(c) Ushbu parametr uchun nuqtaviy bahosi nima?

(d) Nuqtaviy bahosining noaniqligini o‘lchash uchun ishlatiladigan statistik ko‘rsatkichning nomi nima?

(e) Ushbu vaziyat uchun (d) banddagi qiymatni hisoblang.

(f) Tarixiy nuqsonlar darajasi 10% edi. Muhandis ushbu hafta aniqlangan nuqsonlar darajasidan hayratlanishi kerakmi?

(g) Bosh to‘plamning haqiqiy ulushi 10% deb faraz qiling. Agar biz ushbu ulushdan $p = 0{,}1$ sifatida foydalanib (e) banddagi qiymatini qayta hisoblasak, natija sezilarli darajada o‘zgaradimi?

5.4 Kutilmagan xarajatlar. AQShda 765 nafar kattalardan iborat tasodifiy namuna olinganida, ulardan 322 nafari $400 miqdoridagi kutilmagan xarajatni qarz olish yoki qarzga botmasdan to‘lay olmasligini aytgan.

(a) Ma’lumot to‘plamida ko‘rib chiqilayotgan bosh to‘plam nima?

(b) Qanday parametr baholanmoqda?

(c) Ushbu parametr uchun nuqtaviy bahosi nima?

(d) Nuqtaviy baho noaniqligini o‘lchash uchun ishlatiladigan statistik ko‘rsatkichning nomi nima?

(e) Ushbu vaziyat uchun (d) banddagi qiymatni hisoblang.

(f) Bir kabel televideniyasi sharhlovchisi bu qiymat aslida 50% deb hisoblaydi. U ushbu ma’lumotlardan hayratlanishi kerakmi?

(g) Aholining haqiqiy ulushi 40% deb faraz qiling. Agar biz ushbu ulushdan $p = 0{,}4$ sifatida foydalanib (e) banddagi qiymatini qayta hisoblasak, natija sezilarli darajada o‘zgaradimi?

5.5 Takroriy suv namunalari. Bir notijorat tashkilot ichimlik suvida yuqori darajadagi qo‘rg‘oshin mavjud bo‘lgan uylarning ulushini tushunishni xohlaydi. Ular kamida 5% uyda qo‘rg‘oshin darajasi yuqori bo‘lishini, lekin bu ulush 30% dan oshmasligini taxmin qilishadi. Ular tasodifiy ravishda 800 ta uy namunasi olib, suv namunalarini to‘plash uchun ularning egalari bilan ishlashadi va ushbu uylarning qo‘rg‘oshin darajasi yuqori bo‘lganlarini aniqlashadi. Ular bu jarayonni 1000 marta takrorlashadi va namuna ulushlarining taqsimotini yaratishadi.

(a) Ushbu taqsimot qanday nomlanadi?

(b) Ushbu taqsimot shakli simmetrik, o‘ng tomonga qiyshaygan yoki chap tomonga qiyshaygan bo‘lishini kutasizmi? Sababini tushuntiring.

(c) Agar ulushlar 8% atrofida taqsimlangan bo‘lsa, taqsimotning o‘zgaruvchanligi qanday bo‘ladi?

(d) (c)-qismida hisoblangan qiymatning rasmiy nomi nima?

(e) Faraz qilaylik, tadqiqotchilar byudjeti qisqardi va ular har bir tanlanmada faqat 250 ta kuzatish to‘play oladi, lekin ular hali ham 1000 ta tanlanma to‘play oladi. Ular yangi tanlanma ulushlari taqsimotini quradi. Ushbu yangi taqsimotning o‘zgaruvchanligi, har bir tanlanmada 800 kuzatish bo‘lgan taqsimotning o‘zgaruvchanligi bilan qanday solishtiriladi?

5.6 Takroriy talabalar namunasi. Yirik kollejdagi barcha birinchi kurs talabalarining 16% joriy yilda dekanning ro‘yxatiga kirgan. Sinf loyihasi doirasida talabalar tasodifiy ravishda 40 nafar talabani tanlab, ushbu talabalar ro‘yxatga kirganmi yoki yo‘qligini tekshirishadi. Ular bu jarayonni 1000 marta takrorlashadi va namuna ulushlarining taqsimotini yaratishadi.

(a) Ushbu taqsimot qanday nomlanadi?

(b) Ushbu taqsimot shakli simmetrik, o‘ng tomonga qiyshaygan yoki chap tomonga qiyshaygan bo‘lishini kutasizmi? Sababini tushuntiring.

(c) Ushbu taqsimotning o‘zgaruvchanligini hisoblang.

(d) (c)-qismida hisoblangan qiymatning rasmiy nomi nima?

(e) Faraz qilaylik, talabalar yana namuna olishga qaror qilishdi, bu safar har bir namunada 90 talaba to’playdi va ular yana 1000 ta namuna to’pladilar. Ular yangi namuna ulushlari taqsimotini quradilar. Ushbu yangi taqsimotning o’zgaruvchanligi, har bir namunada 40 ta kuzatish bo’lgan taqsimotning o’zgaruvchanligi bilan qanday solishtiriladi?

5.2 Nisbat uchun ishonch intervali

Tanlanma ulushi $\hat{p}$ bosh to‘plamning ulushi p uchun bitta ishonarli qiymatni taqdim etadi. Biroq, tanlanma ulushi mukammal emas va unga bog‘liq bo‘lgan biror *standart xatolik* mavjud bo‘ladi. Bosh to‘plam ulushi uchun baho bildirayotganda, faqat nuqtaviy bahoni berish o‘rniga, ishonarli *qiymatlar diapazonini* taqdim etish yaxshiroq amaliyot hisoblanadi.

5.2.1 Bosh to‘plam parametlarini aniqlash

Faqatgina nuqtaviy bahodan foydalanish loyqa ko‘lda nayza bilan baliq ovlashga o‘xshaydi. Biz baliqni ko‘rgan joyga nayza uloqtira olamiz, lekin ehtimol uni qochirib qo‘yamiz. Boshqa tomondan, agar biz o‘sha joyga to‘r tashlasak, baliqni tutib olish imkoniyatimiz yuqori bo‘ladi. **Ishonch intervallari** to‘r bilan baliq ovlashga o‘xshaydi va bu biz bosh to‘plamning parametrini topishimiz mumkin bo‘lgan ishonarli qiymatlar diapazonini ifodalaydi.

Agar biz $\hat{p}$ nuqtaviy bahoni bersak, biz bosh to‘plamning aniq ulushini topa olmaymiz. Boshqa tomondan, agar biz ishonch intervallarini, ya’ni ishonarli qiymatlar diapazonini taqdim qilsak, parametrni aniqlash ehtimolimiz yuqori bo‘ladi.

Y **5.6-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Bosh to‘plamning ulushini oraliqda aniqroq bilishni istasak, kengroq oraliqni tanlashimiz kerakmi yoki kichikroq oraliqnimi?[6]

5.2.2 95% lik ishonch intervallarini qurish

Bizning $\hat{p}$ tanlanma ulushimiz bosh to‘plamning ulushi uchun eng ishonchli qiymatdir, shuning uchun ishonch intervallarini ushbu nuqtaviy baho atrofida qurish mantiqiydir. Standart xatolik ishonch intervallarini qanchalik keng qilishimiz kerakligi haqida ko‘rsatma beradi.

Standart xatolik nuqtaviy bahoning standart chetlanishini ifodalaydi va markaziy limit teorema shartlari bajarilganda, nuqtaviy baho normal taqsimotga yaqinlashadi. Normal taqsimotda ma’lumotlarning 95% qismi o‘rtacha qiymatdan 1,96 standart chetlanish ichida bo‘ladi. Ushbu tamoyildan foydalanib, biz tanlanma ulushidan 1,96 standart xatolik uzoqlikka cho‘zilgan ishonch intervallarini tuza olamiz va ular bosh to‘plamning ulushini 95% ishonch bilan **qoplaydi**:

$$\text{nuqtaviy baho} \pm 1{,}96 \times SX;$$

$$\hat{p} \pm 1{,}96 \times \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}}.$$


Lekin ”95% ishonch” nimani anglatadi? Tasavvur qiling, biz ko‘plab tanlanmalarni olishimiz va har biridan 95% lik ishonch intervallarini yaratishimiz mumkin. Shunda, ushbu oraliqlarning taxminan 95% qismi parametrni, ya’ni p ni o‘z ichiga oladi. 5.6-rasmda 5.1.2-bo‘limdagi simulyatsiyadan olingan 25 ta tanlanmadan 25 ta oraliq yaratish jarayoni ko‘rsatilgan bo‘lib, natijada hosil bo‘lgan ishonch intervallaridan 24 tasi bosh to‘plamning $p = 0{,}88$ ulushini o‘z ichiga oladi, biroq bitta oraliq ololmaydi.

M **5.7-MISOL**

5.6-rasmda bitta oraliq $p = 0{,}88$ ni o‘z ichiga olmaydi. Bu simulyatsiyada ishlatilgan bosh to‘plamning ulushi $p = 0{,}88$ bo‘lolmasligini anglatadimi?

Ba’zi kuzatuvlar tabiiy ravishda o‘rtacha qiymatdan 1,96 standart chetlanishdan ortiq uzoqlikda

[6] Agar baliqni aniqroq tutishni istasak, kengroq to‘r tashlashimiz mumkin. Xuddi shunday, parametrni aniqlashda ishonchimizni oshirish uchun kengroq ishonch intervallaridan foydalanamiz.



5.6-rasm. 5.1.2-bo‘limdagi simulyatsiyadan olingan 25 nuqtaviy baho va ishonch intervallari. Ushbu oraliqlar bosh to‘plamning ulushi $p = 0{,}88$ ga nisbatan ko‘rsatilgan. Faqatgina 1 ta oraliq bosh to‘plamning ulushini qoplamagan va bu oraliq ajratib ko‘rsatilgan.

sodir bo‘lgani kabi, ba’zi nuqtaviy baholar ham qiziqish parametridan 1,96 standart xatolikdan ortiq uzoqlikda bo‘ladi. Ishonch intervallari faqat ishonarli qiymatlar diapazonini beradi. Ma’lumotlarga asoslanib boshqa qiymatlar ishonarsiz deb aytishimiz mumkin, lekin bu ularning imkonsiz ekanligini anglatmaydi.

PARAMETR UCHUN 95% LIK ISHONCH INTERVALLARI

Agar nuqtaviy bahoning taqsimoti markaziy limit teorema shartlariga mos kelsa va shuning uchun normal taqsimotga yaqin bo‘lsa, biz 95% lik ishonch intervallarini quyidagicha qurishimiz mumkin:

$$\text{nuqtaviy baho} \pm 1{,}96 \times SX \ .$$

M **5.8-MISOL**

5.1-bo‘limda biz “Pew Research” tomonidan o‘tkazilgan so‘rovni o‘rgandik, unda 1000 nafar AQSh katta yoshlilarining tasodifiy tanlanmasi ichida 88,7% foizi quyosh energiyasining rolini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlagan. Bosh to‘plam ulushi uchun 95% lik ishonch intervallarini hisoblang va talqin qiling.

Biz avvalroq $\hat{p}$ ning normal taqsimotga mos kelishini va standart xatolik $SX_{\hat{p}} = 0{,}010$ ekanligini tasdiqladik. 95% lik ishonch intervallarini hisoblash uchun $\hat{p} = 0{,}887$ nuqtaviy bahosini va standart xatolikni 95% lik ishonch intervallari formulasiga qo‘shamiz:

$$\hat{p} \pm 1{,}96 \times SX_{\hat{p}} \quad \rightarrow \quad 0{,}887 \pm 1{,}96 \times 0{,}010 \quad \rightarrow \quad (0{,}8674; 0{,}9066)$$

Biz 95% ishonch bilan ta’kidlaymizki, AQSh katta yoshlilarining quyosh energiyasini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlaydiganlar haqiqiy ulushi 86,7% va 90,7% oralig‘ida. (Ishonch intervallarini taqdim etishda ko‘pincha eng yaqin foiz nuqtasi yoki foizning o‘nlik qismiga yaqinlashtirish amaliyoti qo‘llaniladi.)

5.2.3 Ishonch darajasini o‘zgartirish

Agar biz 95% dan yuqori ishonch darajasi, masalan, 99% ishonch darajasini ko‘rib chiqmoqchi bo‘lsak, baliqni tutish haqidagi analogiyani eslang: agar baliqni aniqroq tutishni istasak, kengroq to‘rdan foydalanishimiz kerak. 99% ishonch darajasini yaratish uchun biz 95% oraliqni ken-

gaytirishimiz kerak. Boshqa tomondan, agar biz pastroq, masalan, 90% ishonch darajasiga ega bo‘lgan oraliqni xohlasak, dastlabki 95% oraliqdan biroz torroq oraliqni ishlatishimiz mumkin.

95% lik ishonch intervallari tuzilishi turli ishonch darajalari uchun oraliqlarni qanday tuzish haqida yo‘l-yo‘riq beradi. Normal taqsimotga amal qiluvchi nuqtaviy baho uchun umumiy 95% lik ishonch intervallari formulasi quyidagicha:

$$\text{nuqtaviy baho } \pm\ 1{,}96 \times SX\ .$$


Ushbu oraliq uchta asosiy komponentdan iborat: nuqtaviy baho, “1,96” va standart xatolik. $1{,}96 \times SX$ tanlovi 95% ma’lumotni qamrab olishga asoslangan, chunki baho parametrdan 1,96 standart xatolik ichida taxminan 95% joylashgan. 1,96 tanlovi 95% ishonch darajasiga mos keladi.

Y **5.9-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Agar X normal taqsimotga ega tasodifiy miqdor bo‘lsa, X ning o‘rtacha qiymatdan 2,58 standart chetlanish ichida bo‘lish ehtimoli qanday?[7]

Yo‘naltiruvchi 5.9-yo‘naltirilgan mashqda ko‘rsatganidek, 99% holatlarda normal tasodifiy miqdor o‘rtacha qiymatdan 2,58 standart chetlanish ichida bo‘ladi. 99% lik ishonch intervallarini yaratish uchun, 95% lik ishonch intervallari formulasidagi 1,96 qiymatini 2,58 ga o‘zgartirish kerak. Shunday qilib, 99% lik ishonch intervallari formulasi quyidagicha bo‘ladi:

$$\text{nuqtaviy baho } \pm\ 2{,}58 \times SX.$$



5.7-rasm. $-z^\star$ va $z^\star$ orasidagi maydon $z^\star$ kattalashgani sari oshadi. Agar ishonch darajasi 99% bo‘lsa, $z^\star$ ni $-z^\star$ va $z^\star$ orasida normal taqsimotning 99% maydoniga mos ravishda tanlaymiz, bu pastki va yuqori qismda 0,5% maydonga to‘g‘ri keladi: $z^\star = 2{,}58$.

Ushbu yondashuv – normal modelda Z-ballardan foydalanib ishonch darajalarini hisoblash – $\hat{p}$ kabi nuqtaviy baho normal taqsimot bilan bog‘liq bo‘lganda mos keladi. Ba’zi boshqa nuqtaviy baholar uchun normal model yaxshi mos kelmasligi mumkin. Bunday holatlarda, tanlanma taqsimotni yaxshiroq ifodalovchi muqobil taqsimotlardan foydalanamiz.

[7]Bu Z-ballning $-2{,}58$ dan kattaroq va 2,58 dan kichik bo‘lish ehtimolini so‘rash bilan tengdir. 5.7-rasmni ko‘ring. Ushbu ehtimolni aniqlash uchun statistik dastur, kalkulyator yoki jadvaldan foydalanib, normal taqsimot uchun $-2{,}58$ va 2,58 qiymatlarini tekshiramiz: 0,0049 va 0,9951. Shunday qilib, X normal tasodifiy miqdorning 2,58 standart chetlanish ichida bo‘lish ehtimoli $0{,}9951 - 0{,}0049 \approx 0{,}99$ ga teng.

ISTALGAN ISHONCH DARAJASI UCHUN ISHONCH INTERVALLARI

Agar nuqtaviy baho standart xatolik SX bilan normal modelga yaqin bo‘lsa, unda bosh to‘plamning parametri uchun ishonch intervallari quyidagicha bo‘ladi:

$$\text{nuqtaviy baho } \pm \ z^\star \times SX$$

bu yerda $z^\star$ tanlangan ishonch darajasiga mos keladi.

5.7-rasm ishonch darajasiga asoslanib $z^\star$ ni qanday aniqlash mumkinligini tasvirlaydi. Biz $z^\star$ ni shunday tanlaymizki, standart normal taqsimot, $N(0;1)$, da $-z^\star$ va $z^\star$ orasidagi maydon ishonch darajasiga mos kelsin.

XATOLIK CHEGARASI

Ishonch intervallarida $z^\star \times SX$ **xatolik chegarasi** deb ataladi.

Ⓜ **5.10-MISOL**

5.8-misoldagi ma’lumotlardan foydalanib, AQSh katta yoshlilarining quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlash ulushi uchun 90% lik ishonch intervallarini yarating. Biz normal taqsimot shartlarini avvalroq o‘rganganmiz.

Avvalo, biz $z^\star$ ni topamiz, shunday qilib, taqsimotning 90% maydoni $-z^\star$ va $z^\star$ orasida bo‘ladi, bu standart normal taqsimot $N(\mu = 0; \sigma = 1)$ ga mos keladi. Grafik kalkulyator, statistik dastur yoki ehtimollik jadvali yordamida yuqori quyruq 5% (quyi quyruqda yana 5% bor) ekanligini topamiz: $z^\star = 1{,}65$. 90% lik ishonch intervallarini quyidagicha hisoblaymiz:

$$\hat{p} \ \pm \ 1{,}6449 \times SX_{\hat{p}} \quad \rightarrow \quad 0{,}887 \ \pm \ 1{,}65 \times 0{,}0100 \quad \rightarrow \quad (0{,}8705; 0{,}9034)$$

Ya’ni, biz 90% ishonch bilan 2018-yilda AQSh katta yoshlilarining 87,1% dan 90,3% gacha bo‘lgan qismi quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlagan deb ta’kidlaymiz.

BIR ULUSH UCHUN ISHONCH INTERVALLARI

Agar bir ulush uchun ishonch intervallari amaliyotda foydali bo‘lishini aniqlagan bo‘lsangiz, oraliqni qurish uchun to‘rt bosqich mavjud:

Tayyorlash. $\hat{p}$ va n ni aniqlang hamda foydalanmoqchi bo‘lgan ishonch darajasini tanlang.

Tekshirish. $\hat{p}$ ning deyarli normal ekanligini ta’minlash uchun shartlarni tekshiring. Bir ulush uchun ishonch intervallarida muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini tekshirishda p o‘rniga $\hat{p}$ ni ishlating.

Hisoblash. Agar shartlar bajarilgan bo‘lsa, $\hat{p}$ yordamida SX ni hisoblang, $z^\star$ ni toping va oraliqni yarating.

Xulosa. Ishonch intervallarini muammo kontekstida talqin qiling.

5.2.4 Qo‘shimcha holatlar tahlillari

Nyu-York shahrida 2014-yil 23-oktabr kuni yaqinda Gvineyada Ebola bemorlarini davolagan bir shifokor biroz isitma bilan shifoxonaga bordi va keyinchalik unda Ebola kasalligi aniqlanib tashxis qo‘yildi. Shundan ko‘p o‘tmay, NBC 4 New York / The Wall Street Journal / Marist Poll so‘rovi Nyu-yorkliklarning 82% i “Ebola bemori bilan aloqada bo‘lgan har qanday kishi uchun majburiy 21 kunlik karantin”ni qo‘llab-quvvatlashini aniqladi. Ushbu so‘rov 2014-yil 26–28-oktabr kunlari Nyu-Yorkdagi 1042 nafar voyaga yetgan (kattalar) aholi orasida o‘tkazilgan va ularning javoblarini o‘z ichiga olgan.

5.11-MISOL

Ushbu holatda nuqtaviy baho qanday, va bu nuqtaviy bahoni normal taqsimot orqali modellashtirish mantiqiymi?

Tanlanmasi $n = 1042$ ga teng bo‘lgan holda, nuqtaviy baho $\hat{p} = 0{,}82$ ga teng. $\hat{p}$ ni normal taqsimot orqali modellashtirish mumkinmi yoki yo‘qligini tekshirish uchun bog‘liqsizlikni (so‘rov oddiy tasodifiy tanlanmaga asoslangan) va muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik shartini tekshiramiz ($1042 \times \hat{p} \approx 854$ va $1042 \times (1-\hat{p}) \approx 188$, ikkalasi ham 10 dan katta). Ushbu shartlar bajarilganda, $\hat{p}$ ning tanlanma taqsimotini normal taqsimot yordamida modellashtirish mantiqan maqbul bo‘ladi.

5.12-MISOL

Ebola so‘rovidan $\hat{p} = 0{,}82$ ning standart xatolikni baholang.

Standart xatolikni hisoblash uchun $p \approx \hat{p} = 0{,}82$ almashtirib yaqinlashtirishdan foydalanamiz:

$$SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{p(1-p)}{n}} \approx \sqrt{\frac{0{,}82(1-0{,}82)}{1042}} = 0{,}012.$$

5.13-MISOL

Ebola bilan kasallangan bemor bilan muloqotda bo‘lgan har qanday kishiga karantin joriy etishni qo‘llab-quvvatlagan nyu-yorklik kattalarning ulushi p uchun 95% lik ishonch intervallarini yarating.

5.12-misoldagi $SX = 0{,}012$ standart xatolikni, 0,82 nuqtaviy bahosini va 95% ishonch darajasi uchun $z^\star = 1{,}96$ ni qo‘llab, ishonch intervallarini hisoblaymiz:

$$\text{nuqtaviy baho} \pm z^\star \times SX \quad \rightarrow \quad 0{,}82 \pm 1{,}96 \times 0{,}012 \quad \rightarrow \quad (0{,}796; 0{,}844)$$

Biz 95% ishonch bilan 2014-yil oktyabr oyida Ebola bilan kasallangan bemor bilan muloqotda bo‘lgan har qanday kishiga karantin joriy etishni qo‘llab-quvvatlagan nyu-yorklik kattalarning ulushi 0,796 va 0,844 orasida bo‘lgan deb ta’kidlaymiz.

5.14-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Quyidagi savollarga 5.13-misoldagi ishonch intervallari asosida javob bering:[8]

(a) Ushbu kontekstdagi “95% lik ishonch” nimani anglatadi?

(b) Sizningcha, ushbu ishonch intervallari bugungi kunda nyuyorkliklarning fikrlarini ifodalashda hamon to‘g‘rimi?

5.15-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

“Pew Research” shamol energiyasini kengaytirish haqida ham so‘rov o‘tkazdi va 84,8% respondentlar shamol turbinalaridan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlashlarini aytishdi.[9]

(a) Shamol turbinalaridan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlagan AQSh katta yoshlilarining ulushini normal taqsimot yordamida modellashtirish mantiqiymi?

(b) Shamol turbinalaridan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlovchilar ulushi uchun 99% lik ishonch intervallarini yarating.

Biz boshqa parametrlar, masalan, bosh to‘plam o‘rtacha qiymati uchun ham ishonch interval-

---

[8] (a) Agar biz ko‘plab shunday tanlanmalarni olsak va har biridan 95% lik ishonch intervallari yaratsak, ushbu oraliqlarning taxminan 95% qismi Ebola bilan muloqotda bo‘lgan har qanday kishiga karantin joriy etishni qo‘llab-quvvatlagan nyuyorklik kattalarning haqiqiy ulushini o‘z ichiga oladi.
(b) Shart emas. So‘rov jamoat xavfsizligiga katta xavf mavjud bo‘lgan bir paytda o‘tkazilgan. Endi odamlar vaqt o‘tishi bilan boshqacha fikrlashlari mumkin. Bugungi kunda nyuyorkliklarning ushbu masalaga oid fikrlarini baholamoqchi bo‘lsak, yangi so‘rov o‘tkazishimiz kerak bo‘ladi.

[9] (a) So‘rov tasodifiy tanlanmaga asoslangan va hisoblangan qiymatlar 10 dan kattadir ($1000 \times 0{,}848 = 848$ va $1000 \times 0{,}152 = 152$), shuning uchun bog‘liqsizlik va muvaffaqiyat-muvaffaqiyatsizlik sharti bajarilgan va $\hat{p} = 0{,}848$ ni normal taqsimot yordamida modellashtirish mumkin.
(b) 5.15-yo‘naltiruvchi mashq $\hat{p}$ ning normal taqsimotga mos kelishini tasdiqladi, shuning uchun biz ishonch intervallari formulasidan foydalanishimiz mumkin:

$$\text{nuqtaviy baho} \pm z^\star \times SX.$$

larini yaratishimiz mumkin. Bunday hollarda, ishonch intervallari bitta ulush kabi hisoblanadi. Nuqtaviy baho va xatolik chegarasining qo‘shilishi/ayirilishi kabi. Ushbu tafsilotlarni keyingi boblarda o‘rganamiz.

5.2.5 Ishonch intervallarini talqin qilish

Har bir misolda biz ishonch intervallarini ma’lumotlar kontekstida tavsifladik va biroz rasmiy tildan foydalanib ifodaladik:

Quyosh. Biz 2018-yilda AQSh katta yoshlilarining 87,1% dan 90,4% gacha bo‘lgan qismi quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlaganligiga 90% ishonchdamiz.

Ebola. Biz 2014-yil oktyabr oyida Ebola bilan muloqotda bo‘lgan har qanday kishiga karantin joriy etishni qo‘llab-quvvatlagan nyuyorklik kattalarning ulushi 0,796 va 0,844 orasida ekanligiga 95% ishonchdamiz.

Shamol turbinalari. Biz 2018-yilda shamol turbinalaridan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlagan AQSh katta yoshlilarining ulushi 81,9% va 87,7% orasida ekanligiga 99% ishonchdamiz.

Birinchidan, bu bayonotlar har doim bosh to‘plam parametri haqida ekanligiga e’tibor bering, ya’ni quyosh va shamol energiyasi so‘rovlari uchun *barcha* AQSh katta yoshlilari yoki Ebola karantini so‘rovi uchun *barcha* nyuyorklik kattalarni o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, biz yana bir keng tarqalgan xatodan qochdik: noto‘g‘ri til ishlatib, ishonch intervallarini bosh to‘plam parametrini ma’lum bir ehtimollik bilan o‘z ichiga oladi deb tavsiflash. Ehtimollik talqini qilish keng tarqalgan xato bo‘lib, garchi bu bosh to‘plam parametrining berilgan oraliqda ekanligini tasavvur qilish foydali bo‘lsa-da, ishonch darajasi faqat parametrning berilgan oraliqda ekanligining qanchalik ishonarli ekanligini miqdoriy baholaydi.

Ishonch intervallarining yana bir muhim jihati shundaki, ular faqat *bosh to‘plam parametri haqida* gapiradi. Ishonch intervallari alohida kuzatuvlar yoki nuqtaviy baholar haqida hech narsa demaydi. Ular faqat bosh to‘plam parametrlari uchun ishonarli qiymatlar diapazonini ta’minlaydi.

Nihoyat, biz muhokama qilgan usullar faqat tanlanma xatoliklarga taalluqli ekanligini yodda tuting, tarafkashlikka emas. Agar ma’lumotlar to‘plami bosh to‘plam parametrini tizimli ravishda kam baholashga (yoki ortiqcha baholashga) olib keladigan tarzda yig‘ilgan bo‘lsa, biz muhokama qilgan texnikalar bu muammoni hal qilmaydi. Buning o‘rniga, biz misollarda tarafkashlikka qarshi kurashish uchun ehtiyotkorlik bilan ma’lumot yig‘ish protseduralariga tayanamiz, bu esa ma’lumotlar olimlari tomonidan keng qo‘llaniladigan amaliyotdir.

Y

5.16-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Quyosh energiyasi so‘rovi uchun 87,1% dan 90,4% gacha bo‘lgan 90% lik ishonch intervallarini ko‘rib chiqing. Agar biz so‘rovni qayta o‘tkazsak, yangi so‘rov ulushi 87,1% va 90,4% orasida bo‘lishiga 90% ishonchdamiz deb ayta olamizmi?[10]

Mashqlar

5.7 Surunkali kasallik, 1-qism. 2013-yilda “Pew Research” shunday xabar bergan edi: “AQShdagi kattalarning 45%i bir yoki undan ko‘p surunkali kasallik bilan yashayotganliklarini ma’lum qilganlar”.[11] Biroq, bu qiymat namunaga asoslangan bo‘lib, bu o‘z-o‘zidan aholi parametri uchun mukammal baho bo‘lmasligi mumkin. Tadqiqot taxminan 1,2% standart xatolik haqida xabar bergan va bu sharoitda normal modelni

Ushbu holatda nuqtaviy baho $\hat{p} = 0{,}848$ ga teng. 99% lik ishonch intervallari uchun $z^\star = 2{,}58$. Standart xatolikni hisoblash: $SX_{\hat{p}} = \sqrt{\frac{0{,}848(1-0{,}848)}{1000}} = 0{,}0114$. Yakunda oraliqlarni hisoblaymiz: $0{,}848 \pm 2{,}58 \times 0{,}0114 \rightarrow (0{,}8186; 0{,}8774)$. Oraliqlarni talqin qilish muhim: biz 99% ishonch bilan 2018-yilda shamol turbinalaridan foydalanishni kengaytirishni qo‘llab-quvvatlagan AQSh katta yoshlilarining ulushi 81,9% va 87,7% orasida ekanligini ta’kidlaymiz.

[10] Yo‘q, ishonch intervallari faqat parametr uchun ishonarli qiymatlar diapazonini taqdim etadi, kelajakdagi nuqtaviy baholar uchun emas.

[11] Pew Research Center, Washington, D.C. The Diagnosis Difference, November 26, 2013.

oqilona qo‘llash mumkin. AQShdagi kattalarning bir yoki undan ko‘p surunkali kasallikka ega bo‘lish ehtimoli uchun 95% ishonch oralig‘ini hosil qiling. Shuningdek, ushbu ishonch oralig‘ini tadqiqot kontekstida izohlang.

5.8 “Twitter”foydalanuvchilari va yangiliklar, 1-qism. 2013-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijasida shunday ma’lumot berilgan: AQShdagi kattalar orasidagi “Twitter” foydalanuvchilarining 52%i “Twitter” orqali hech bo‘lmaganda bir qism yangiliklarni olishadi.[12]. Ushbu baho uchun standart xatolik 2,4% bo‘lib, namunaviy ulushni modellashtirish uchun normal taqsimotdan foydalanish mumkin. AQShdagi kattalar “Twitter” foydalanuvchilari orasida “Twitter” orqali yangilik oladiganlar ulushi uchun 99% ishonch oralig‘ini hosil qiling va uni kontekstda izohlang.

5.9 Surunkali kasallik, 2-qism. 2013-yilda Pew Research Foundation shunday xabar bergan edi: “AQShdagi kattalarning 45%i bir yoki undan ko‘p surunkali kasallik bilan yashashini ma’lum qilganlar”, va ushbu baho uchun standart xatolik 1,2% edi. Quyidagi bayonotlarning har birini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri sifatida baholang. Har bir javobingizga izoh bering.

(a) Biz aniq ayta olamizki, 5.7-mashqdagi ishonch oralig‘i AQSh kattalari orasida surunkali kasallikdan aziyat chekadiganlarning haqiqiy foizini o‘z ichiga oladi.

(b) Agar ushbu tadqiqotni 1000 marta takrorlagan holda, har bir tadqiqot uchun 95% ishonch oralig‘ini hosil qilsak, taxminan 950 ta ishonch oralig‘i AQSh kattalari orasida surunkali kasallikdan aziyat chekadiganlarning haqiqiy ulushini o‘z ichiga oladi.

(c) Ushbu so‘rov statistik jihatdan ishonarli dalillarni taqdim etadi ($\alpha = 0{,}05$ darajasida) va AQSh kattalari orasida surunkali kasallikdan aziyat chekadiganlarning foizi 50% dan kam ekanligini ko‘rsatadi.

(d) Standart xatolik 1,2% bo‘lganligi sababli, tadqiqotdagi odamlarning faqat 1,2%i o‘z javoblaridan noaniq ekanliklarini bildirgan.

5.10 “Twitter” foydalanuvchilari va yangiliklar, 2-qism. 2013-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijasida shunday ma’lumot berilgan: AQShdagi kattalar “Twitter” foydalanuvchilarining 52%i “Twitter” orqali hech bo‘lmaganda bir qism yangiliklarni olishadi, va ushbu baho uchun standart xatolik 2,4% edi. Quyidagi bayonotlarning har birini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri sifatida baholang. Har bir javobingizga izoh bering.

(a) Ushbu ma’lumot AQShdagi kattalar “Twitter”foydalanuvchilarining yarmidan ko‘pi “Twitter”orqali yangilik olishi haqida statistik jihatdan ishonarli dalillarni taqdim etadi. $\alpha = 0{,}01$ darajasidan foydalaning. (Ushbu qism 5.3 bo‘limidan olingan tushunchalardan foydalanadi va kelajakdagi nashrda aniqlanadi.)

(b) Standart xatolik 2,4% bo‘lganligi sababli, barcha AQSh kattalar “Twitter”foydalanuvchilarining 97,6%i tadqiqotga kiritilgan deb xulosa qilishimiz mumkin.

(c) Agar bahoning standart xatolikni kamaytirmoqchi bo‘lsak, kamroq ma’lumot yig‘ishimiz kerak.

(d) AQSh kattalar “Twitter”foydalanuvchilarining “Twitter”orqali yangilik olish foizi uchun 90% ishonch oralig‘i hosil qilsak, bu ishonch oralig‘i 99% ishonch oralig‘iga nisbatan kengroq bo‘ladi.

5.11 Registratsiya bo‘limida kutish, 1-qism. Kasalxona administratori kutish vaqtlarini yaxshilashni maqsad qilib, o‘rtacha favqulodda yordam xonasi kutish vaqtini baholashga qaror qiladi. U 64 bemorni tasodifiy oddiy namunani yig‘ib, ularning RBga ro‘yxatdan o‘tgan vaqtidan shifokor tomonidan birinchi marta ko‘rilgan vaqtgacha bo‘lgan vaqtni (daqiqalarda) aniqlaydi. Ushbu namuna asosida 95% ishonch oralig‘i (128 daqiqa, 147 daqiqa) bo‘lib, bu o‘rtacha qiymat uchun normal modelga asoslangan. Quyidagi bayonotlarning har birini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri sifatida baholang va o‘z fikringizni tushuntiring.

(a) Biz 64 nafar RB bemorining o‘rtacha kutish vaqti 128 va 147 daqiqalar orasida ekanligiga 95% ishonamiz.

(b) Biz ushbu kasalxonadagi barcha RB bemorlarining o‘rtacha kutish vaqti 128 va 147 daqiqalar orasida ekanligiga 95% ishonamiz.

(c) Tasodifiy namunalarining 95%i uchun namuna o‘rtacha qiymati 128 va 147 daqiqalar orasida bo‘ladi.

(d) 99% ishonch oralig‘i 95% ishonch oralig‘iga qaraganda torroq bo‘ladi, chunki biz bahomizga ko‘proq ishonch hosil qilishimiz kerak.

(e) Xatolik darajasi 9,5 va namuna o‘rtacha qiymati 137,5.

(f) Agar 95% ishonch oralig‘i xatolik darajasni hozirgi qiymatidan ikki barobar kamaytirishni istasak, namunani ikki barobar oshirishimiz kerak bo‘ladi. (Ishora: O‘rtacha qiymat uchun xatolik darajai namunadagi xatolik darajasi bilan bir xil tarzda o‘lchanadi.)

5.12 Ruhiy salomatlik. Umumiy ijtimoiy tadqiqot quyidagi savolni berdi: ”Oxirgi 30 kun davomida stress, depressiya va his-tuyg‘ular bilan bog‘liq muammolarni o‘z ichiga olgan holda, sizning ruhiy salomatligingiz

[12]Pew Research Center, Washington, D.C. Twitter News Consumers: Young, Mobile and Educated, November 4, 2013.

qanchadan-qancha kun yaxshi bo‘lmagan?” 1151 AQSh aholisi javoblariga asoslanib, tadqiqot 2010-yilda 3,40 kundan 4,24 kungacha bo‘lgan 95% ishonch oralig‘ini xabar qildi.

(a) Ushbu oralig‘ni ma’lumotlar kontekstida sharhlang.

(b) ”95% ishonch” nimani anglatadi? Ushbu so‘rovni ilova kontekstida tushuntiring.

(c) Tadqiqotchilar ushbu oralig‘ uchun 99% ishonch darajasi ko‘proq mos keladi deb o‘ylashsa, yangi oralig‘ 95% ishonch oralig‘idan torroqmi yoki kengroq bo‘ladimi?

(d) Agar yangi so‘rov 500 amerikalik bilan o‘tkazilsa, baho uchun standart xatolik kattaroqmi, kichikroqmi yoki taxminan bir xil bo‘ladimi?

5.13 Veb-saytga ro‘yxatdan o‘tish. Veb-sayt birinchi marta tashrif buyuruvchilar uchun ro‘yxatdan o‘tishni oshirishga harakat qilmoqda va ushbu tashrif buyuruvchilarning 1%iga yangi sayt dizaynini ko‘rsatmoqda. Bir oy davomida yangi dizaynni ko‘rgan 752 tasodifiy tanlangan tashrif buyuruvchilardan 64 tasi ro‘yxatdan o‘tgan.

(a) Ishonch oralig‘ini qurish uchun zarur bo‘lgan shartlarni tekshiring.

(b) Standart xatolikni hisoblang.

(c) Saytning yangi dizayni ostida birinchi marta tashrif buyuruvchilarning ro‘yxatdan o‘tish ulushi uchun 90% ishonch oralig‘ini tuzing va sharhlang (vaqt o‘tishi bilan yangi tashrif buyuruvchilarning xatti-harakatlari barqaror bo‘ladi deb faraz qiling).

5.14 Kuponlar tashriflarni oshirmoqda. Do‘kon yil davomida 603 nafar xaridorni tasodifiy tanlab, ularning 142 nafari pochta orqali olgan kupon tufayli tashrif buyurganligini aniqladi. Yil davomida kupon sabab tashrif buyurgan barcha xaridorlarning ulushi uchun 95% ishonch oralig‘ini tuzing.

5.3 Nisbat uchun gipotezalar tekshiruvi

Quyidagi savol Hans Rosling, Anna Rosling Rönnlund va Ola Rosling tomonidan yozilgan *Factfulness* kitobidan olingan:

> *Bugungi kunda dunyodagi 1 yoshli bolalarning qancha qismi biron-bir kasallikka qarshi emlangan:*
>
> *a. 20%*
> *b. 50%*
> *c. 80%*

O‘zingizning javobingizni (yoki taxminingizni) yozing va tayyor bo‘lganingizda, javobni izohda toping.[13]

Ushbu bo‘limda biz gipoteza testlari bilan tanishamiz, bu esa dunyo sog‘lig‘i haqidagi ushbu va boshqa savollarga 4 yillik kollej diplomiga ega odamlar qanday javob berganligini ko‘rib chiqish orqali amalga oshiriladi. Gipoteza testlari qarama-qarshi g‘oyalar va da’volarni sinchkovlik bilan baholash uchun ishlatiladigan asosiy metodologiyadir.

5.3.1 Gipoteza testlash asoslari

Biz dunyo sog‘lig‘i va rivojlanishi haqida odamlar qanchalik ma’lumotga ega ekanligini tushunishni istaymiz. Agar biz ko‘p variantli dunyo sog‘lig‘i savolini olsak, quyidagilarni tushunishni xohlaymiz:

H_0: Odamlar ushbu mavzularni hech qachon o‘rganmaydi va ularning javoblari tasodifiy taxminlarga tengdir.

H_A: Odamlarda bu savollarga tasodifiy taxminlardan yaxshiroq javob berishga yordam beradigan bilimlar mavjud, yoki ular noto‘g‘ri ma’lumotga ega bo‘lib, tasodifiy taxminlardan ham yomonroq javob berishadi.

[13] To‘g‘ri javob (c): bugungi kunda dunyodagi 1 yoshli bolalarning 80% qismi biron-bir kasallikka qarshi emlangan.

Ushbu qarama-qarshi g‘oyalar **gipotezalar** deb ataladi. Biz H_0 ni nol gipoteza deb, H_M ni esa muqobil gipoteza deb ataymiz. Agar H_0 kabi 0 indeksdan foydalansa, ma’lumotlar olimlari uni “noll” (masalan, H_0 “H-nol” deb o‘qiladi) deb talaffuz qilishadi.

NOL VA MUQOBIL GIPOTEZALAR

Nol gipoteza (H_0) ko‘pincha skeptik nuqtai nazar yoki sinovdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan da’voni ifodalaydi. **Muqobil gipoteza (H_M)** ko‘rib chiqilayotgan muqobil da’voni ifodalaydi va ko‘pincha mumkin bo‘lgan parametr qiymatlari diapazoni bilan ifodalanadi.

Ma’lumotlar olimlari sifatida biz skeptik rolini o‘ynaymiz: muqobil gipotezani qabul qilishdan oldin, biz kuchli qo‘llab-quvvatlovchi dalillarni ko‘rishimiz kerak.

Nol gipoteza ko‘pincha skeptik pozitsiyani yoki “farq yo‘q” nuqtai nazarini ifodalaydi. Bizning birinchi misolimizda, Roslinglarning bolalar emlanishi haqidagi savolida, odatiy odamning tasodifiy taxminlardan boshqacha javob berish-bermasligini ko‘rib chiqamiz.

Muqobil gipoteza, odatda, yangi yoki kuchliroq nuqtai nazarni ifodalaydi. Bolalar emlanishi haqidagi savol uchun, odamlarning tasodifiy taxminlardan yaxshiroq javob berishi juda qiziqarli bo‘ladi, chunki bu odatiy odamning dunyo sog‘lig‘i statistikasi haqida nimadir bilishini anglatadi. Shuningdek, odamlarning tasodifiy taxminlardan *yomonroq* javob berishini bilish ham juda qiziq bo‘ladi, bu esa odamlar dunyo sog‘lig‘i haqida noto‘g‘ri ma’lumotga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Gipoteza testlash asoslari juda umumiy vositadir va biz uni ko‘pincha sezmagan holda qo‘llaymiz. Agar biror kishi biroz ishonarsiz da’vo qilsa, biz dastlab skeptik bo‘lamiz. Biroq, agar ushbu da’voni qo‘llab-quvvatlovchi yetarlicha dalillar mavjud bo‘lsa, biz skeptitsizmni chetga suramiz va nol gipotezani muqobil gipoteza foydasiga rad etamiz. Gipoteza testlash tamoyillari AQSh sud tizimida ham mavjud.

Y **5.17-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

AQSh sudida ayblanuvchi haqida ikkita da’vo ko‘rib chiqiladi: u yoki aybsiz, yoki aybdor. Agar ushbu da’volarni gipoteza asosida tartibga solsangiz, qaysi biri nol gipoteza, qaysi biri muqobil gipoteza bo‘ladi?[14]

Hay’at a’zolari dalillarni tekshirib, ular ayblanuvchining aybdorligini ishonarli darajada ko‘rsatadimi yoki yo‘qmi, degan xulosaga keladilar. Agar hay’at a’zolari aybdorlik haqida asosli shubhasiz ishontirilmasa, bu ularning ayblanuvchini aybsiz deb hisoblashlarini anglatmaydi. Xuddi shunday, gipoteza testlashda ham: *hatto biz nol gipotezani rad etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrasak ham, odatda nol gipotezani haqiqat sifatida qabul qilmaymiz.* Muqobil gipoteza uchun kuchli dalillar topa olmaslik nol gipotezani qabul qilish bilan teng emas.

Roslinglarning bolalar emlanishi haqidagi savolini ko‘rib chiqsak, nol gipoteza kollej ma’lumotiga ega kattalar tasodifiy taxminlar kabi aniq javob berishlarini ifodalaydi. Ya’ni, 1 yoshli bolalarning 80% i biron-bir kasallikka qarshi emlanganligini to‘g‘ri tanlagan respondentlar ulushi p taxminan 33,3% (yoki aniqroq qilib aytganda, 1 dan 3) ga teng.

Muqobil gipoteza esa ushbu ulushning 33,3% dan boshqa qiymatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu gipotezalarni so‘zlar bilan yozish foydali bo‘lsa-da, ularni matematik belgilar yordamida ifodalash ham foydali bo‘lishi mumkin:

H_0**:** $p = 0{,}333$

H_M**:** $p \neq 0{,}333$

Ushbu gipoteza tuzilmasida biz p bosh to‘plam parametri haqida xulosa qilishni xohlaymiz. Biz parametrni solishtirayotgan qiymat **nol qiymat** deb ataladi, bu holda 0,333 ga teng. Nol qiymat odatda parametr bilan bir xil belgi bilan, lekin pastki indeks ‘0’ bilan belgilanadi. Ushbu holda nol qiymat $p_0 = 0{,}333$ (“p-noll teng 0,333” deb o‘qiladi).

M **5.18-MISOL**

Odamlarning to‘g‘ri javob bergan ulushi *aniq* 33,3% ekanligi mumkin emasdek tuyuladi. Agar biz nol gipotezaga ishonmasak, uni shunchaki rad etishimiz kerakmi?

[14] Hay’at dalillar shunchalik ishonarli (kuchli) ekanligini ko‘rib chiqadi, ular ayblanuvchining aybdorligi haqida hech qanday asosli shubha qoldirmaydi; bunday holda, hay’at aybsizlikni (nol gipotezani) rad etadi va ayblanuvchining aybdorligini (muqobil gipotezani) tan oladi.

Yo‘q. Biz ulushning aniq 33,3% ekanligiga ishonmasak-da, gipoteza testlash asoslari nol gipotezani rad etishdan oldin kuchli dalillar bo‘lishini talab qiladi va bu orqali qiziqroq xulosaga kelish mumkin.

Axir, agar biz ulushning *aniq* 33,3% ekanligiga ishonmasak ham, bu bizga foydali ma’lumot bermaydi! Biz hali ham dastlabki savol bilan qolamiz: odamlar Roslinglarning savoliga tasodifiy taxminlardan yaxshiroq yoki yomonroq javob berishadimi? Ma’lumotlar bir yo‘nalishda kuchli ko‘rsatma bermasa, H_0 ni rad etish na qiziqarli, na foydali bo‘ladi.

Y **5.19-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Yana bir real hayotiy gipoteza testlash misoli bu yangi dori ma’lum bir kasallikni davolashda mavjud doridan yaxshiroq yoki yomonroq ekanligini baholashdir. Ushbu holatda nol va muqobil gipotezalar uchun nimadan foydalanishimiz kerak?[15]

5.3.2 Ishonch intervallaridan foydalanib gipotezalarni testlash

Bu har bir kitob uchun amalga oshiriladi. Muhimi shundaki, har doim bir xil tartibda ayirishimiz kerak; bu yerda Amazon narxlari har doim UCLA narxlaridan ayiriladi. 7.8-rasmda ko'rsatilgan birinchi farq $47{,}97 - 47{,}45 = 0{,}52$ ko'rinishida hisoblangan. Shuningdek, ikkinchi farq $14{,}26 - 13{,}55 = 0{,}71$ va uchinchi farq $13{,}50 - 12{,}53 = 0{,}97$ deb hisoblangan. Farqlarning gistogrammasi 7.9-rasmda ko'rsatilgan. Juft kuzatuvlar o'rtasidagi farqlardan foydalanish juft ma'lumotlarni tahlil qilishning keng tarqalgan va foydali usulidir.



7.9-rasm. Har bir kitob uchun tanlangan narx farqlarining gistogrammasi.

7.2.2 Juft ma'lumotlar uchun xulosalar chiqarish

Juft ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish uchun, biz faqat farqlarni (ayirmalar) tahlil qilamiz. Biz 7.1-bo'limida qo'llagan t-taqsimot usullaridan foydalanishimiz mumkin.

n_{farq}	$\bar{x}_{farq}$	s_{farq}
68	3,58	13,42

7.10-rasm. 68 ta narx farqlari uchun umumiy statistikalar.

7.17-MISOL

Gipoteza testini tuzing va o'rtacha qiymatda Amazon va UCLA kitob do'koni narxlari o'rtasida farq bor yoki yo'qligini aniqlang. Shuningdek, t-taqsimotdan foydalanib testni davom ettirish mumkinligi shartlarini tekshiring.

Biz ikkita holatni ko'rib chiqamiz: o'rtacha narxlarda farq yo'q yoki o'rtacha narxlarda qandaydir farq mavjud.

H_0: $\mu_{farq} = 0$. O'rtacha o'quv materiallari narxida farq yo'q.

H_A: $\mu_{farq} \neq 0$. O'rtacha narxlarda farq bor.

Keyingi qadamda bog'liqsizlik va normal taqsimot shartlarini tekshiramiz. Kuzatuvlar oddiy tasodifiy tanlovga asoslangan, shuning uchun bog'liqsizlik bajarilgan. Ba'zi chetlangan qiymatlar mavjud, $n = 68$, lekin hech biri juda ekstremal emas. Shuning uchun $\bar{x}$ ning normal taqsimot ekanligi bajrilgan deyish mumkin. Ushbu shartlar bajarilganda, biz t-taqsimotdan foydalanishni davom etishimiz mumkin.

M **7.18-MISOL**

7.17-misolda boshlangan gipoteza testini yakunlang.


Testni hisoblash uchun $\bar{x}_{farq}$ bilan bog'liq standart xatolikni farqlar standart chetlanishidan ($s_{farq} = 13{,}42$) va farqlar sonidan ($n_{farq} = 68$) foydalanib hisoblang:

$$SX_{\bar{x}_{farq}} = \frac{s_{farq}}{\sqrt{n_{farq}}} = \frac{13{,}42}{\sqrt{68}} = 1{,}63 \ .$$

Test statistikasi $\bar{x}_{farq}$ uchun H_0 o'rinliligida haqiqiy o'rtacha farq 0 bo'lsa, T-ball quyidagicha hisoblanadi:

$$T = \frac{\bar{x}_{farq} - 0}{SX_{\bar{x}_{farq}}} = \frac{3{,}58 - 0}{1{,}63} = 2{,}20.$$

p-qiymatni tasavvur qilish uchun, $\bar{x}_{farq}$ ning tanlama taqsimoti H_0 o'rinlili bo'lsa, $\mu = 0$ o'rtacha qiymat bilan chiziladi, va p-qiymat ikkita soyali quyruq bilan ifodalanadi.



Erkinlik darajasi quyidagicha $ed = 68 - 1 = 67$ ga teng. Statistik dasturiy ta'minot yordamida bitta quyruq maydoni 0,0156 ga tengligini topamiz. Ushbu maydonni ikki baravar oshirish p-qiymatni 0,0312 ekanligini beradi.

p-qiymat 0,05 dan kichik bo'lgani uchun, nol gipotezani rad qilamiz. UCLA kurslari uchun o'rtacha Amazon narxlari UCLA kitob do'koni narxlaridan pastroq.

Y **7.19-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

UCLA kitob do'koni va Amazondagi kitoblar o'rtasidagi o'rtacha narx farqi uchun 95% lik ishonch intervalini yarating.[10]

Y **7.20-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Bizda Amazonning o'rtacha narxi pastroq ekanligi haqida kuchli dalillar bor. Ushbu xulosa UCLA talabalarining xarid qilish odatlariga qanday ta'sir qilishi kerak? UCLA talabalari har doim kitoblarini Amazondan sotib olishlari kerakmi?[11]

[10] Shartlar allaqachon tekshirilgan va standart xatolik 7.17-misolda hisoblangan. Intervalni topish uchun statistik dasturiy ta'minot yoki t-jadvaldan ($t^\star_{67} = 2{,}00$) foydalangan holda $t^\star_{67}$ qiymatini aniqlang, keyin uni nuqtaviy bahosini va standart xatolikni ishonch intervallari formulasiga joylang:

$$\text{nuqta bahosi} \ \pm \ z^\star \times SX \quad \rightarrow \quad 3{,}58 \ \pm \ 2{,}00 \times 1{,}63 \quad \rightarrow \quad (0{,}32; 6{,}84)$$

Biz 95% lik ishonch bilan ayta olamizki, UCLA kurslari uchun kitoblar bo'yicha Amazondagi kitoblarning narxi UCLA kitob do'koniga qaraganda \$0,32 dan \$6,84 gacha arzonroq.

Mashqlar

7.15 Havo sifati. 2013-yilda 25 ta mamlakat poytaxtlarida tasodifiy tanlangan havo sifati o'lchovlari to'plandi, so'ngra shu shaharlarda 2014-yilda yana o'lchovlar o'tkazildi. Ushbu ma'lumotlardan ikki yil orasidagi o'rtacha havo sifatini taqqoslash uchun foydalanmoqchimiz. Juftlangan yoki juftlanmagan testdan foydalanish kerakmi? Sababini tushuntiring.

7.16 To'g'ri / Noto'g'ri: juftlangan. Quyidagi bayonotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang. Agar noto'g'ri bo'lsa, tushuntiring.

(a) Juftlangan tahlilda dastlab har bir juft kuzatuvlarning farqi olinadi, so'ngra ushbu farqlarga statistik xulosalar qo'llanadi.

(b) Turli o'lchamdagi ikkita ma'lumotlar to'plami juftlangan ma'lumotlar sifatida tahlil qilinishi mumkin emas.

(c) Bir-biri bilan juftlangan ikkita ma'lumotlar to'plamini ko'rib chiqing. Bir ma'lumotlar to'plamidagi har bir kuzatuv boshqa ma'lumotlar to'plamidan faqat bitta kuzatuv bilan tabiiy moslikka ega.

(d) Bir-biri bilan juftlangan ikkita ma'lumotlar to'plamini ko'rib chiqing. Bir ma'lumotlar to'plamidagi har bir kuzatuv boshqa ma'lumotlar to'plamining kuzatuvlarining o'rtacha qiymatidan ayiriladi.

7.17 Juftlangan yoki yo'q. 1-qism. Quyidagi holatlarning har birida ma'lumotlar juftlanganmi yoki yo'q ekanligini aniqlang.

(a) Talabalarning semestr boshidagi va oxiridagi test natijalarini taqqoslash.

(b) Tasodifiy tanlangan erkaklar va ayollarning maoshlarini solishtirish orqali jins bo'yicha maosh tafovutini baholash.

(c) Xuddi shu guruhdagi bemorlar uchun tadqiqot boshida va 2 yil davomida Vitamin E iste'mol qilgandan so'ng arteriya qalinligini taqqoslash.

(d) Tadqiqot rejasining samaradorligini subyektlarning oldingi va keyingi vaznlarini taqqoslash orqali baholash.

7.18 Juftlangan yoki yo'q? 2-qism. Quyidagi holatlarning har birida ma'lumotlar juftlanganmi yoki yo'q ekanligini aniqlang.

(a) "Intel" va "Southwest Airlines" aksiyalarining o'zgarish darajasi o'xshashligini aniqlashni xohlaymiz. Buni aniqlash uchun 50 kunlik tasodifiy tanlanma olamiz va aynan o'sha kunlarda Intel va Southwest aksiyalarining qiymatlarini qayd etamiz.

(b) Target do'konlaridan 50 ta mahsulotni tasodifiy tanlab, ularning narxlarini qayd etamiz. Keyin "Walmart"ga tashrif buyurib, aynan o'sha 50 ta mahsulot uchun narxlarni to'playmiz.

(c) Maktab kengashi tuman ichidagi ikkita o'rta maktab o'quvchilari uchun SAT ballarining o'rtacha qiymati orasidagi farqni aniqlamoqchi. Tekshirish uchun har bir maktabdan 100 ta o'quvchini oddiy tasodifiy tanlashadi.

7.19 Global isish, 1-qism. Cheklangan iqlim ma'lumotlarini ko'rib chiqamiz, 1948 va 2018-yillardagi harorat farqlarini tahlil qilamiz. Milliy Okeanik va Atmosferik Administratsiyaning tarixiy ma'lumotlar bazasidan 197 ta joydan ma'lumotlar olingan bo'lib, ushbu joylar uchun har ikki yilda ham ma'lumotlar mavjud. Savol quyidagicha: 2018-yilda 1948-yilga qaraganda 90°F dan yuqori haroratli kunlar ko'proq bo'lganmi?[12] Har bir joy uchun 90°F dan yuqori bo'lgan kunlar sonining farqi (2018-yildagi kunlar – 1948-yildagi kunlar) hisoblangan. Ushbu farqlar o'rtacha 2,9 kun va standart chetlanish 17,2 kunni tashkil qiladi. Ushbu ma'lumotlar ob-havo stansiyalarida 2018-yilda 90°F dan yuqori haroratli kunlar ko'proq bo'lganligini ko'rsatadigan kuchli dalillar beradimi?

[11] O'rtacha narx farqi ushbu savol uchun biroz foydali. 7.9-rasmda ko'rsatilgan taqsimotni tekshiring. Ba'zi holatlarda Amazon narxlari UCLA kitob do'koniga nisbatan ancha pastroq. Bu esa Amazon (va ehtimol boshqa onlayn saytlarni) tekshirib ko'rishga arziydi degan xulosaga olib keladi. Ammo ko'p hollarda Amazon narxlari UCLA kitob do'koni narxidan yuqori va ko'pincha narxlar o'rtasidagi farq katta emas. Oxir-oqibat, agar kitobni darhol kitob do'konidan olish qulayroq bo'lsa, masalan, o'qish yoki uy vazifasini boshlash uchun, UCLA kitob do'konidan xarid qilish yaxshi fikr bo'lishi mumkin. Agar aynan bir kitob bo'yicha narx farqi juda katta bo'lmasa.

Ma'lumot uchun, bu 2010-yildagi shunga o'xshash ma'lumotlar to'plamidan olingan natijadan butunlay boshqacha natija. O'sha paytda Amazon narxlari deyarli har doim UCLA kitob do'koni narxlaridan katta farq bilan pastroq bo'lgan. Bu esa Amazondan foydalanishni UCLA kitob do'koniga qaraganda jozibaliroq qilgan. Hozir esa biz ko'pincha eng yaxshi narxni topish uchun bir nechta veb-saytlarni tekshiramiz.

[12] NOAA, www.ncdc.noaa.gov/cdo-web/datasets, April 24, 2019.

(a) 1948- va 2018-yillarda olingan kuzatuvlar orasida bog'liqlik bormi? Yoki ikkala guruhdagi kuzatuvlar mustaqilmi? Tushuntiring.

(b) Ushbu tadqiqot uchun gipotezalarni belgilar va so'zlarda yozing.


(c) Ushbu testni bajarish uchun zarur bo'lgan shartlarni tekshiring. Farqlarning gistogrammasi o'ngda keltirilgan.

(d) Test statistikasi va p-qiymatini hisoblang.


(e) $\alpha = 0.05$ yordamida testni baholang va natijalarni masla mazmunidan kelib chiqib izohlang.

(f) Qanday xato turi sodir bo'lgan bo'lishi mumkin? Ushbu xato nimani anglatishini tushuntiring.

(g) Ushbu gipoteza testi natijalariga asoslanib, 1948- va 2018-yillardagi 90°F dan yuqori haroratli kunlar o'rtasidagi o'rtacha farq uchun ishonch intervali 0 ni o'z ichiga olishini kutasizmi? Tushuntiring.



7.20 O'rta maktab va undan keyingi ta'lim, 1-qism. Ta'lim Statistikasi Milliy Markazi o'rta maktab bitiruvchilari bo'yicha so'rov o'tkazib, o'qish, yozish va boshqa fanlar bo'yicha test ma'lumotlarini to'pladi. Quyida ushbu so'rovdan tasodifiy tanlangan 200 nafar talabaning o'qish va yozish bo'yicha natijalarining yonma-yon quti diagrammasi hamda ballar farqining gistogrammasi keltirilgan.



(a) O'qish va yozish bo'yicha o'rtacha ballar orasida aniq farq bormi?

(b) Har bir talabaning o'qish va yozish bo'yicha ballari bir-biridan mustaqilmi?

(c) Quyidagi tadqiqot savoliga mos gipotezalarni yarating: talabalarning o'qish va yozish bo'yicha imtihonlarda o'rtacha natijalarida aniq farq bormi?

(d) Ushbu testni bajarish uchun zarur bo'lgan shartlarni tekshiring.

(e) Ballar farqi uchun kuzatilgan o'rtacha qiymat $\bar{x}_{o'qish-yozish} = -0{,}545$, va farqlarning standart chetlanishi 8,887 ballga teng. Ushbu ma'lumotlar ikki imtihon bo'yicha o'rtacha ballar orasida farq borligini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etadimi?

(f) Qanday xato turi sodir bo'lishi mumkin? Ushbu xato ushbu masala mazmunida nimani anglatishini tushuntiring.

(g) Ushbu gipoteza testi natijalariga asoslanib, o'qish va yozish bo'yicha ballar o'rtasidagi o'rtacha farq uchun ishonch oralig'i 0 ni o'z ichiga olishini kutasizmi? Tushuntiring.

7.21 Global isish, 2-qism. NOAA bazasidan tasodifiy tanlangan 197 joy uchun 1948- va 2018-yillardagi 90°F dan yuqori bo'lgan kunlar sonining o'zgarishini 7.19-mashqda ko'rib chiqdik. Farqlarning o'rtacha qiymati 2,9 kun va standart chetlanishi 17,2 kunni tashkil etadi.

(a) 1948- va 2018-yillardagi 90°F dan yuqori bo'lgan kunlar soni o'rtasidagi o'rtacha farq uchun 90% lik ishonch intervalini hisoblang. Biz siz uchun shartlarni tekshirib chiqdik.

(b) Ushbu ishonch intervalini masala mazmunidan kelib chiqib izohlang.

(c) Ushbu ishonch oralig'i NOAA stansiyalarida 2018-yilda 1948-yilga nisbatan ko'proq 90°F dan yuqori haroratli kunlar bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etadimi? Tushuntiring.

7.22 O'rta maktab va undan keyingi ta'lim, 2-qism. 7.20-mashqda "High School and Beyond Survey" dan tasodifiy tanlangan 200 nafar talabaga tegishli o'qish va yozish bo'yicha ballar farqini ko'rib chiqdik. Farqlar uchun o'rtacha qiymat va standart chetlanish $\bar{x}_{o'qish-yozish} = -0{,}545$ va 8,887 ballni tashkil qiladi.

(a) O'qish va yozish bo'yicha barcha talabalarning o'rtacha ballar farqi uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang.

(b) Ushbu ishonch intervalini masala mazmunida izohlang.
(c) Ushbu ishonch intervali o'rtacha ballar orasida haqiqiy farq mavjudligini ko'rsatuvchi dalillarni taqdim etadimi? Tushuntiring.

7.3 Ikkita o'rtacha qiymatlarning farqi

Ushbu bo'limda biz juft bo'lmagan holatlarda ikki bosh to'plam o'rtacha qiymatlarining farqini $\mu_1 - \mu_2$, ko'rib chiqamiz. Bir tanlanmadagi kabi, biz t-taqsimotdan foydalanish uchun shartlarni aniqlaymiz, farqning nuqtaviy bahosi $\bar{x}_1 - \bar{x}_2$ va yangi standart xatolik formulasini hisoblaymiz. Bu ikki farqdan tashqari, tafsilotlar bitta o'rtacha qiymat uchun usullarga deyarli o'xshaydi.

Ushbu usullarni uchta holatdagi savollarga qo'llaymiz: ildiz hujayralari yurak funksiyasini yaxshilashi mumkinmi, homilador ayollarning chekish odatlari va yangi tug'ilgan chaqaloqlar vazni o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish va imtihonning bir varianti boshqasiga nisbatan statistik jihatidan qiyinroq ekanligini aniqlash. Ushbu bo'lim "Chekuvchi onalardan tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha vazni chekmaydigan onalardan tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha vaznidan farq qilishiga ishonchli dalillar bormi?" kabi savollar bilan motivatsiyalanadi

7.3.1 O'rtacha qiymatlar farqi uchun ishonch intervallari

Embryonal ildiz hujayralaridan (EIH) foydalanish infarktdan so'ng yurak funksiyasini yaxshilashga yordam beradimi? 7.11-rasmda EIH ni infarktga uchragan qo'ylarda sinash uchun o'tkazilgan tajriba bo'yicha umumiy statistikalar keltirilgan. Ushbu qo'ylar tasodifiy ravishda EIH yoki nazorat guruhiga ajratilgan va ularning yurak pompalanish quvvatidagi o'zgarishi o'lchangan. 7.12-rasmda ikkita ma'lumotlar to'plamining gistogrammalari ko'rsatilgan. Musbat qiymatlar pompalanish quvvatining oshishini anglatadi, bu esa odatda kuchliroq tiklanishni bildiradi. Bizning maqsadimiz EIH ning nazorat guruhiga nisbatan yurak pompalanish quvvatiga ta'sirini baholash uchun 95% lik ishonch intervalini aniqlashdir.

	n	$\bar{x}$	s
EIH	9	3,50	5,17
nazorat	9	−4,33	2,76

7.11-rasm. Embryonal ildiz hujayralari bo'yicha tadqiqotning umumiy statistikasi.

Yurak pompalanish o'zgarishi o'zgaruvchisining nuqtaviy bahosini topish oson. Bu tanlanma o'rtacha qiymatlar farqi:

$$\bar{x}_{EIH} - \bar{x}_{nazorat} = 3{,}50 - (-4{,}33) = 7{,}83.$$

Farqni t-taqsimot yordamida modellashtirish mumkinligini aniqlash uchun yangi shartlarini tekshirish kerak bo'ladi. Ikki nisbatdagi holatlarda bo'lgani kabi, biz bog'liqsizlikning yanada barqaror versiyasini talab qilamiz. Shunda ikkala guruh ham bog'liqsiz ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Shuningdek, har bir guruhda alohida normal taqsimotni tekshiramiz. Bu amalda chetlangan qiymatlarni tekshirishni anglatadi.

O‘RTACHA QIYMATLAR FARQI UCHUN t-TAQSIMOTDAN FOYDALANISH

Agar ikkita o‘rtacha qiymatlar farqining standartlashtirilgan qiymati bilan ishlayotganda, quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsa, t-taqsimotdan xulosa chiqarish uchun foydalanish mumkin:

- *Bog‘liqsizlik, kengaytirilgan.* Ma’lumotlar ikkala guruh ichida va guruhlar orasida bog‘liqsiz bo‘lishi kerak. Masalan, ma’lumotlar bog‘liqsiz tasodifiy tanlovlardan yoki tasodifiy tajribadan olingan bo‘lishi kerak.
- *Normal taqsimot.* Har bir guruh uchun alohida chetlangan qiymatlarni aniqlash qoidalarini tekshirish lozim.

Standart xatolik quyidagicha hisoblanadi:

$$SX = \sqrt{\frac{\sigma_1^2}{n_1} + \frac{\sigma_2^2}{n_2}}$$

Erkinlik darajasi uchun rasmiy formula juda murakkab va odatda dasturiy ta’minot yordamida hisoblanadi, shuning uchun dastur mavjud bo‘lmagan hollarda $n_1 - 1$ va $n_2 - 1$ larning kichigidan foydalanishingiz mumkin.

M


7.21-MISOL

t-taqsimotdan $\bar{x}_{EIT} - \bar{x}_{nazorat} = 7{,}83$ nuqtaviy bahosidan foydalanib xulosa qilishda foydalanish mumkinmi?

Avval bog‘liqsizlikni tekshiramiz. Qo‘ylar guruhlarga tasodifiy ajratilganligi sababli, guruh ichida va guruhlar orasidagi bog‘liqsizlik qoniqarli.

7.12-rasmda har bir guruhda hech qanday aniq chetlangan qiymat mavjud emasligi ko‘rsatilgan. (EIH guruhi biroz ko‘proq o‘zgaruvchanlikka ega ko‘rinadi. Ammo bu aniq chetlangan qiymatlarga ega bo‘lish bilan bir xil emas.)

Ikkala shart bajarilganda, biz tanlanma o‘rtacha qiymatlarining farqini modellashtirish uchun t-taqsimotdan foydalanishimiz mumkin.



7.12-rasm. Embryonal ildiz hujayralari va nazorat guruhlari uchun gistogrammalar.

Yagona tanlanma holatidagi kabi, biz doimo standart xatolikni bosh to‘plam standart chet-

lanishi o'rniga tanlanma standart chetlanish yordamida hisoblaymiz:

$$SX = \sqrt{\frac{s_{eih}^2}{n_{eih}} + \frac{s_{nazorat}^2}{n_{nazorat}}} = \sqrt{\frac{5{,}17^2}{9} + \frac{2{,}76^2}{9}} = 1{,}95.$$

Umuman olganda, biz statistik dasturlardan foydalanib, mos erkinlik darajalarini (ed) aniqlaymiz. Agar dastur mavjud bo'lmasa, biz n_1-1 va n_2-1 larning kichikroq qiymatini erkinlik darajasi sifatida ishlatishimiz mumkin. Masalan, agar t-jadval yordamida quyruq sohalarini aniqlash kerak bo'lsa. Misollar va yo'naltirilgan mashqlarda shaffoflik uchun, biz ed ni aniqlashda ushbu yondashuvni qo'llaymiz. EIH misolida erkinlik darajasi sifatida $ed = 8$ dan foydalanilish mumkin.

7.22-MISOL

EIHlarning yurak infarktidan so'ng qo'ylarning yurak nasos hajmini o'zgartirishiga ta'sirini o'lchash uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang.

Biz avvalgi hisob-kitoblardan tanlanma farqi va standart xatolik qiymatlarini ishlatamiz:

$$\bar{x}_{eih} - \bar{x}_{nazorat} = 7{,}83 \qquad SX = \sqrt{\frac{5{,}17^2}{9} + \frac{2{,}76^2}{9}} = 1{,}95\ .$$

$ed = 8$ ni ishlatgan holda, biz 95% lik ishonch intervali uchun taqribiy $t_8^\star = 2{,}31$ qiymatini aniqlaymiz. Nihoyat, ishonch intervali formulasiga qiymatlarni joylashtiramiz:

$$\text{baholash nuqtasi } \pm\ t^\star \times SX \quad \rightarrow \quad 7{,}83 \ \pm\ 2{,}31 \times 1{,}95 \quad \rightarrow \quad (3{,}32; 12{,}34)$$

Biz 95% lik ishonch bilan aytishimiz mumkinki, embrion ildiz hujayralari yurak infarktidan zarar ko'rgan qo'ylarning yurak nasos funksiyasini 3,32% dan 12,34% gacha yaxshilaydi.

Oldingi statistik xulosalar singari, bu yerda ham belgilangan jarayonlar ketma-ketligi mavjud.

Tayyorlanish. Masala mazmuni uchun muhim ma'lumotlarni yig'ib oling va agar kerak bo'lsa, gipotezalarni aniqlang.

Tekshirish. Kerakli shartlarning yetarlicha bajarilganiga ishonch hosil qiling.

Hisoblash. Standart xatolikni toping, keyin ishonch intervalini tuzing yoki gipoteza sinovini o'tkazishda test statistikasi va p-qiymatini hisoblang.

Xulosa. Natijalarni qo'llanish mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

Batafsil ma'lumotlar bir sharoitdan boshqasiga o'zgaradi, lekin umumiy yondashuv bir xil bo'lib qoladi.

7.3.2 Ikki o'rtacha qiymat farqi uchun gipoteza testlari

`ncbirths` nomli ma'lumotlar to'plami Shimoliy Karolinada bir yil davomida onalar va ularning yangi tug'ilgan chaqaloqlaridan olingan 150 ta tasodifiy holatni ifodalaydi. Ushbu ma'lumotlar to'plamidan to'rtta holat 7.13-rasmda ko'rsatilgan. Biz asosan ikkita `vazn` (weight) va `chekish` (smoke) o'zgaruvchilariga qiziqamiz. `vazn` o'zgaruvchisi chaqaloqlarning vaznlarini, `chekish` esa homiladorlik davrida onaning chekish-chekmasligini ifodalaydi. Bizni qiziqtirgan savol: homiladorlikda chekuvchi onalarning chaqaloqlari o'rtacha tug'ilish vazniga ko'ra chekmaydigan onalarnikidan farq qiladimi? Ushbu savolga javob berish uchun Shimoliy Karolina tanlanmasi ishlatiladi. Chekuvchi onalar guruhi 50 ta holatni, chekmaydiganlar guruhi esa 100 ta holatni o'z ichiga oladi.

7.23-MISOL

Onaning chekish odati va o'rtacha tug'ilish vazni o'rtasida bog'liqlik borligini baholash uchun tegishli gipotezalarni tuzing.

Nolinchi gipoteza guruhlar o'rtasida hech qanday farq yo'qligini ifodalaydi.

H_0: Chekuvchi va chekmaydigan onalarning chaqaloqlari o'rtacha tug'ilish vazni o'rtasida hech qanday farq yo'q. Statistik yozuvda: $\mu_{chm} - \mu_{ch} = 0$, bu yerda μ_{chm} chekmaydigan onalarni, μ_ch esa chekuvchi onalarni ifodalaydi.

	onaning_yoshi	otaning_yoshi	haftalar	vazn	jinsi	chekish
1	ME	13	37	5,00	ayol	chekmaydigan
2	ME	14	36	5,88	ayol	chekmaydigan
3	19	15	41	8,13	erkak	chekuvchi
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	
150	45	50	36	9,25	ayol	chekmaydigan


7.13-rasm. `ncbirths` ma’lumotlar to‘plamidan to‘rtta holat. Birinchi o‘zgaruvchining dastlabki ikkita qiymati uchun “ME” ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ma’lumotlarning mavjud emasligini bildiradi.

H_A: Chekuvchi va chekmaydigan onalarning chaqaloqlari o‘rtasida o‘rtacha tug‘ilish vazni bo‘yicha ba’zi farqlar mavjud ($\mu_{chm} - \mu_{ch} \neq 0$).

Biz tanlanmalar o‘rtasidagi o‘rtacha qiymatlar farqini t-taqsimotdan foydalanib modellashtirish uchun zarur bo‘lgan ikki shartni tekshiramiz.

- Ma’lumotlar oddiy tasodifiy tanlanma sifatida olinganligi sababli, kuzatuvlar bog‘liqsiz, ham tanlanmalar ichida, ham ularning orasida.
- Har ikkala ma’lumotlar to‘plamida 30 dan ortiq kuzatuv bo‘lgani uchun biz 7.14-rasmda berilgan ma’lumotlarni tekshirib, hech qanday ekstremal qiymatlarni topmadik.

Ikkala shart bajarilganligi sababli, tanlanmalar o‘rtasidagi o‘rtacha qiymatlar farqi t-taqsimot yordamida modellashtirilishi mumkin.



7.14-rasm. Chap panel chekuvchi onalar chaqaloqlarining tug‘ilish vaznlarini ifodalaydi. O‘ng panel esa chekmaydigan onalar chaqaloqlarining tug‘ilish vaznlarini ifodalaydi.

7.24-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

7.15-rasmdagi jamlanma statistika ushbu yo‘natirilgan mashq uchun foydali bo‘lishi mumkin.[13]

(a) Bosh to‘plam farqi uchun nuqta bahosini toping, $\mu_{chm} - \mu_{ch}$.

(b) (a)-qismdan olingan nuqta bahosining standart xatoligini hisoblang.

	`chekuvchi`	`chekmaydigan`
o‘rtacha	6,78	7,18
stand. chetlanish	1,43	1,60
tanlanma hajmi	50	100

7.15-rasm. `ncbirths` ma’lumotlar to‘plamining jamlanma statistikasi.

[13](a) Tanlanma o‘rtacha qiymatlarining farqi nuqtaviy bahosi uchun mos keladi: $\bar{x}_{chm} - \bar{x}_{ch} = 0{,}40$. (b) Bahoning standart xatoligi quyidagi standart xatolik formulasidan foydalanib hisoblanishi mumkin:

$$SX = \sqrt{\frac{\sigma_n^2}{n_n} + \frac{\sigma_s^2}{n_s}} \approx \sqrt{\frac{s_n^2}{n_n} + \frac{s_s^2}{n_s}} = \sqrt{\frac{1{,}60^2}{100} + \frac{1{,}43^2}{50}} = 0{,}26 \ .$$


Ⓜ **7.25-MISOL**

7.23-misolda va 7.24-yo'natirilgan mashqda boshlangan gipoteza sinovini yakunlang. $\alpha = 0{,}05$ ahamiyatlilik darajasidan foydalaning. Ma'lumot uchun: $\bar{x}_{chm} - \bar{x}_{ch} = 0{,}40$, $SX = 0{,}26$ va tanlanma hajmlari $n_{chm} = 100$ va $n_{ch} = 50$.

Ushbu sinov uchun statistik qiymatni 7.24-yo'natirilgan mashqdagi qiymatlardan foydalanib hisoblashimiz mumkin:

$$T = \frac{0{,}40 - 0}{0{,}26} = 1{,}54 \ .$$

p-qiymat quyidagi chizmada ko'rsatilgan ikkita soyali quyruqlar bilan ifodalanadi:



Biz dasturdan (yoki Appendix C.2 dagi t-jadvaldan) foydalanib, bitta quyruq sohasini topamiz. Biz $n_{chm} - 1 = 99$ va $n_{ch} - 1 = 49$ kichikroq qiymatidan erkinlik darajasi sifatida foydalanamiz: $ed = 49$. Bir quyruq maydoni 0,065; ushbu qiymatni ikki barobar oshirsak, ikkita quyruq maydoni va p-qiymatni olamiz, 0,135. P-qiymat ahamiyatlilik darajasidan ($\alpha = 0{,}05$) kattaroq, shuning uchun biz nolinchi gipotezani rad eta olmaymiz. Homiladorlik davrida chekuvchi Shimoliy Karolina onalari chaqaloqlarining o'rtacha tug'ilish vazni bilan homiladorlik davrida chekmaydigan onalar chaqaloqlarining o'rtacha tug'ilish vazni o'rtasida farq mavjudligini aytish uchun yetarlicha dalil yo'q.

Ⓨ **7.26-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Ko'p tadqiqotlar homiladorlik davrida chekish zararli ekanligini ko'rsatgan, shunday bo'lsa-da, nima uchun biz 7.25-misolda nolinchi gipotezani rad eta olmadik?[14]

Ⓨ **7.27-YO'NALTIRILGAN MASHQ**

Agar biz II turdagi xatoga yo'l qo'ygan bo'lsak va farq mavjud bo'lsa, farqni aniqlash ehtimolini oshirish uchun ma'lumotlarni yig'ishda boshqacha qanday yondashuvni qo'llashimiz mumkin edi?[15]

Jamoat xizmatiga oid e'lon: biz bu kichik ma'lumotlar to'plamini misol sifatida ishlatgan bo'lsak-da, kattaroq ma'lumotlar to'plami homiladorlik davrida chekuvchi onalarning chaqaloqlari kichikroq vaznga ega ekanligini ko'rsatadi. Haqiqatda, tamaki sanoati vakillari bu faktni hattoki *foyda* sifatida targ'ib qilishgan:

> *Bu rost. Chekuvchi ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar kichikroq, lekin ular chekmaydigan ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar kabi sog'lom. Ba'zi ayollar kichikroq chaqaloqlarga ega bo'lishni afzal ko'rishi mumkin.*
>
> - Jozef Kallman, Philip Morris kompaniyasi direktorlar kengashi raisi,
> CBS telekanalining "Face the Nation" dasturida, 1971-yil 3-yanvar.

Faktlarni tekshirish: chekuvchi ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar, aslida, chekmaydigan ayollardan tug'ilgan chaqaloqlar kabi sog'lom emas.[16]

---

[14] Farq mavjud bo'lishi mumkin, lekin biz uni aniqlay olmadik. Agar farq mavjud bo'lsa, biz II turdagi xatoga yo'l qo'yganmiz.

[15] Biz ko'proq ma'lumot to'plashimiz mumkin edi. Tanlanma hajmi kattaroq bo'lsa, farq mavjud bo'lsa uni aniqlash imkoniyati oshadi. Aslida, katta ma'lumotlar to'plamida aynan shunday natijani kuzatamiz!

[16] Tamaki sanoatining bugungi kundagi qonunbuzarliklari bilan tanishish uchun John Oliverning *Last Week Tonight* ko'rsatuvidan bir epizodni tomosha qilishingiz mumkin. Iltimos, e'tibor bering. Unda kattalar uchun mo'ljallangan ayrim so'zlar (nojo'ya iboralar) mavjud: youtu.be/6UsHHOCH4q8.

7.3.3 Amaliy misol: kurs imtihonining ikki xil varianti

O‘qituvchi bir xil imtihonning biroz farq qiladigan ikki variantini o‘tkazishga qaror qildi. Imtihonlarni tarqatishdan oldin ularni aralashtirib, har bir talaba imtihonning tasodifiy variantini olishini ta’minladi. Talabalarning ushbu ikki imtihondagi natijalari bo‘yicha jamlanma statistik ko‘rsatkichlar 7.16-rasmda keltirilgan. B variantni topshirgan talabalardan e’tirozlar bo‘lishini kutgan holda, u kuzatilgan guruhlar orasidagi farq shunchalik katta-yo‘qligini, ya’ni o‘rtacha hisobda B varianti A variantiga qaraganda murakkabroq bo‘lganini ishonchli tarzda ko‘rsatadimi-yo‘qligini baholamoqchi.

Variant	n	$\bar{x}$	s	min	maks
A	30	79,4	14	45	100
B	27	74,1	20	32	100

7.16-rasm. Har bir imtihon varianti uchun jamlanma statistikalar.

7.28-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Tanlanma o‘rtacha qiymatlari farqi $\bar{x}_A - \bar{x}_B = 5{,}3$ tasodif tufayli yuzaga kelganmi yoki yo‘qligini baholash uchun gipotezalarni tuzing. Biz ushbu gipotezalarni $\alpha = 0{,}01$ darajasida baholaymiz.[17]

7.29-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

7.28-yo‘natirilgan mashqda gipotezalarni t-taqsimot yordamida baholash uchun shartlarni tasdiqlang.[18]

(a) Natijalar bog‘liqsiz bo‘lishi mantiqiymi?

(b) Chetlangan qiymatlar bo‘yicha biror tashvish bormi?


Har bir tanlanmaga oid shartlarni tasdiqlagandan so‘ng va tanlanmalarning bir-biriga bog‘liqsiz ekanligini tasdiqlagach, biz t-taqsimotdan foydalanib test o‘tkazishga tayyormiz. Ushbu holatda, biz tanlanma ma’lumotlaridan foydalanib haqiqiy o‘rtacha natijalar farqini baholayapmiz, shuning uchun nuqtaviy baho $\bar{x}_A - \bar{x}_B = 5{,}3$. Bahoning standart xatoligi quyidagicha hisoblanadi:

$$SX = \sqrt{\frac{s_A^2}{n_A} + \frac{s_B^2}{n_B}} = \sqrt{\frac{14^2}{30} + \frac{20^2}{27}} = 4{,}62 \ .$$

Nihoyat, test statistikasi quyidagicha tuziladi:

$$T = \frac{\text{nuqtaviy baho} - \text{nolinchi qiymat}}{SX} = \frac{(79{,}4 - 74{,}1) - 0}{4{,}62} = 1{,}15.$$

Agar kompyuter mavjud bo‘lsa, biz erkinlik darajasi 45,97 ekanligini aniqlaymiz. Aks holda, biz $n_1 - 1$ va $n_2 - 1$ larning kichikroq qiymatidan foydalanamiz: $ed = 26$.



7.17-rasm. 26 erkinlik darajasiga ega t-taqsimot va imtihon misolidagi p-qiymat soyali maydon sifatida ifodalangan.

[17] H_0: imtihonlar o‘rtacha teng qiyinlikda. $\mu_A - \mu_B = 0$. H_A: imtihonlardan biri boshqasiga nisbatan o‘rtacha hisobda qiyinroq. $\mu_A - \mu_B \neq 0$.

[18] (a) Imtihonlar aralashtirilganligi sababli, ushbu holatda ”davolash” tasodifiy tayinlangan, shuning uchun guruhlar ichida va o‘rtasida bog‘liqsizlik ta’minlanadi. (b) Statistik xulosa ma’lumotlarning o‘rtacha qiymatga nisbatan simmetrik ekanini ko‘rsatadi va minimal/maksimal qiymatlar tashvishli chetlanishlarni bildirmaydi.

7.30-MISOL

7.17-rasmda ko'rsatilgan p-qiymatni $ed = 26$ yordamida aniqlang va tadqiqot misoli mazmunidan kelib chiqib xulosa bering.

Dasturiy ta'minot yordamida biz bitta quyruq maydonini (0,13) ekanligini topishimiz va ushbu qiymatni ikki barobar oshirishimiz mumkin. Bu p-qiymat 0,26 ga teng. (Yoki biz Appendix C.2 dagi t-jadvaldan foydalanishimiz mumkin.) 7.28-yo'natirilgan mashqda biz $\alpha = 0{,}01$ darajasidan foydalanishni belgiladik. p-qiymat α dan kattaroq bo'lganligi sababli, biz nolinchi gipotezani rad eta olmaymiz. Ya'ni, ma'lumotlar imtihon variantlaridan birining boshqasiga nisbatan murakkabroq ekanini ishonchli tarzda ko'rsatmaydi. Shuning uchun o'qituvchi B varianti bo'yicha imtihon natijalariga qo'shimcha ball berish zarurligiga davat qilinmasligi kerak.

7.3.4 Qo'shma standart chetlanish bahosi (maxsus mavzu)

Ba'zan, ikki bosh to'plam standart chetlanishlari shunchalik o'xshash bo'ladiki, ularni bir xil deb hisoblash mumkin. Masalan, tarixiy ma'lumotlar yoki yaxshi tushunilgan biologik mexanizm ushbu kuchli farazni asoslaydi. Bunday holatlarda, biz t-taqsimot yondashuvini biroz aniqroq qilishimiz mumkin, buning uchun qo'shma standart og'ishdan foydalanamiz.

Ikki guruh uchun **qo'shma standart chetlanish** bu har ikkala tanlanma ma'lumotlaridan foydalanib standart chetlanish va standart xatolikni yaxshiroq baholash usulidir. Agar s_1 va s_2 1- va 2-guruhlar uchun standart chetlanishlari bo'lsa va bosh to'plam standart chetlanishlari teng ekaniga ishonish uchun juda yaxshi sabablar mavjud bo'lsa, u holda ularning dispersiyalarini quyidagicha umumlashtirish orqali yaxshiroq baholash mumkin:

$$s^2_{qo'shma} = \frac{s_1^2 \times (n_1 - 1) + s_2^2 \times (n_2 - 1)}{n_1 + n_2 - 2}$$

bu yerda n_1 va n_2 tanlanma hajmlari avvalgidek. Ushbu yangi statistikadan foydalanish uchun, biz standart xatolik formulasida s_1^2 va s_2^2 o'rniga $s^2_{qo'shma}$ ni qo'llaymiz va erkinlik darajalari uchun yangilangan formuladan foydalanamiz:

$$ed = n_1 + n_2 - 2 \ .$$

Qo'shma standart chetlanishdan foydalanishning afzalliklari shundaki, har bir guruh uchun standart chetlanishni yaxshiroq baholashga va t-taqsimot uchun kattaroq erkinlik darajasiga ega bo'lishga imkon beradi. Agar ikki guruh standart chetlanishlari haqiqatda teng bo'lsa, ushbu o'zgarishlar $\bar{x}_1 - \bar{x}_2$ ning tanlanma taqsimotini aniqroq modellashtirish imkonini beradi.


QO'SHMA STANDART CHETLANISHDAN FAQAT EHTIYOTKORLIK BILAN FOYDALANING

Qo'shma standart og'ishdan faqatgina tadqiqotlari osti tajribalari bosh to'plamlarning standart og'ishlari deyarli teng ekanini ko'rsatgandagina foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tanlanma hajmi katta bo'lib, bu shartni ma'lumotlar asosida yetarli darajada tekshirish mumkin bo'lgan hollarda, standart og'ishlarni qo'shib hisoblashning afzalliklari sezilarli darajada kamayadi.

Mashqlar

7.23 13-juma, 1-qism. 1990-yillarning boshida Buyuk Britaniyada tadqiqotchilar 13-jumada va undan oldingi 6-jumada avtomobil oqimi, xaridorlar soni va yo'l-transport hodisalari tufayli shoshilinch yordamga murojaat qilish holatlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plashdi. Quyidagi gistogrammalarda 6- va 13-jumada ma'lum bir chorrahadan o'tgan avtomobillar sonining taqsimoti ko'rsatilgan. Shuningdek, tanlanma statistikalar berilgan bo'lib, bu yerda farq 6-sana va 13-sana kunlarida o'tgan avtomobillar soni orasidagi farqni bildiradi.[19]

[19] T.J. Scanlon et al. "Is Friday the 13th Bad For Your Health?" In: *BMJ* 307 (1993), pp. 1584–1586.



	6-sana	13-sana	Farq
$\bar{x}$	128385	126550	1835
s	7259	7664	1176
n	10	10	10

(a) Ushbu ma’lumotlarni tahlil qilishda hisobga olinishi kerak bo‘lgan ichki tuzilmalar bormi? Tushuntiring.

(b) 6-jumada ko‘chada bo‘lgan odamlar soni 13-jumadagidan farqli ekanligini baholash uchun qanday gipotezalar kiritiladi?

(c) (b) qismdagi gipoteza testini o‘tkazish uchun shartlarni tekshiring.

(d) Test statistikasi va p-qiymatini hisoblang.

(e) Gipoteza testi natijasi qanday?


(f) Ushbu masala mazmunidan kelib chiqib p-qiymatni izohlang.

(g) Test natijasida qanday xato turi qilingan bo‘lishi mumkin? Tushuntiring.

7.24 Olmoslar, 1-qism. Olmos narxlari “4C” deb nomlangan omillar bilan belgilanadi: kesim, tiniqlik, rang va karat vazni. Olmos narxlari karat vazni oshgani sayin ortadi, ammo bu o‘sish doimiy emas. Masalan, 0,99 karatlik olmos va 1 karatlik olmos o‘lchamlari oddiy inson ko‘zi bilan farqlanmaydi, lekin 1 karatlik olmos narxi odatda 0,99 karatlik olmos narxidan ancha yuqori bo‘ladi. Ushbu savolda biz 0,99 va 1 karatlik olmoslarning ikkita tasodifiy tanlanmalarini ko‘rib chiqamiz, har bir tanlanmada 23 ta olmos bor va olmoslarning o‘rtacha narxlarini solishtiramiz. Teng birliklarda solishtirish uchun dastlab har bir olmos narxini uning karatdagi og‘irligini 100 ga ko‘paytirilganiga bo‘lamiz. Masalan, 0,99 karatlik olmos uchun narxini 99 ga bo‘lamiz, 1 karatlik olmos uchun esa narxni 100 ga bo‘lamiz. Quyida taqsimotlar va ba’zi tanlanma statistikalar keltirilgan.[20]


0,99 va 1 karatlik olmoslarning o‘rtacha standartlashtirilgan narxlari orasida farq bor-yo‘qligini baholash uchun gipoteza testini o‘tkazing. Gipotezalarni aniq bayon qiling, tegishli shartlarni tekshiring va natijalarni ma’lumot mazmunidan kelib chiqib izohlang.

	0,99 karat	1 karat
O‘rtacha	$44,51	$56,81
SCh	$13,32	$16,13
n	23	23



7.25 13-juma, 2-qism. 7.23-mashqda ko‘rsatilgan 13-jumaga oid tadqiqotda, shuningdek, yo‘l-transport hodisalari tufayli shoshilinch yordamga murojaat qilish holatlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan. Quyida 6- va 13-jumalardagi bu sonlarning taqsimotlari va statistik xulosalari keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar uchun xulosa shartlari bajarilgan deb hisoblash mumkin.

[20] H. Wickham. *ggplot2: elegant graphics for data analysis*. Springer New York, 2009.



	6-juma	13-juma	Farq
O‘rtacha	7,5	10,83	−3,33
SCh	3,33	3,6	3,01
n	6	6	6

(a) 6- va 13-jumalardagi yo‘l-transport hodisalari tufayli shoshilinch yordamga murojaat qilishning o‘rtacha sonlari orasida farq bor-yo‘qligini baholash uchun gipoteza testini o‘tkazing.


(b) 6- va 13-jumalarda shoshilinch yordamga murojaat qilish o‘rtacha sonlari orasidagi farq uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang.

(c) Asl tadqiqotda quyidagicha xulosa chiqarilgan: “13-juma ayrimlar uchun omadli emas. Transport hodisasi natijasida shifoxonaga yotqizilish xavfi 52% ga oshishi mumkin. Uyda qolish tavsiya etiladi.” Ushbu bayonotga qo‘shilasizmi? Izohlang.

7.26 Olmoslar, 2-qism. 7.24-mashqda 0,99 va 1 karatlik olmoslarning (vazn bilan standartlashtirilgan) narxlari muhokama qilindi. Quyidagi jadvalda statistik xulosalar keltirilgan va sizdan 0,99 va 1 karatlik olmoslarning standartlashtirilgan o‘rtacha narxlari orasidagi farq uchun 95% lik ishonch intervalini tuzishingiz so‘raladi. Ushbu ma'lumotlar uchun xulosa chiqarish shartlari bajarilgan deb hisoblash mumkin.

	0,99 karat	1 karat
O‘rtacha	$44,51	$56,81
SCh	$13,32	$16,13
n	23	23

7.27 Jo‘ja yemi va vazni, 1-qism. Jo‘ja boqish milliard dollarlik sanoat bo‘lib, yosh jo‘jalar o‘sish sur'atini oshirishga qaratilgan har qanday usullar iste'mol xarajatlarini kamaytirib, kompaniya foydasini millionlab dollar oshirishi mumkin. Jo‘jalar o‘sish sur'atiga turli yem qo‘shimchalarining samaradorligini o‘lchash va taqqoslash uchun eksperiment o‘tkazildi. Yangi tuxumdan chiqqan jo‘jalar tasodifiy tarzda olti guruhga bo‘linib, har bir guruhga turli yem qo‘shimchalari berildi. Quyida ushbu ma'lumotlar to‘plamidan ba'zi statistik xulosalar va yem turi bo‘yicha jo‘jalar vazni taqsimotini ko‘rsatuvchi qutili diagrammalari keltirilgan.[21]



	O‘rtacha	SCh	n
kazein	323,58	64,43	12
ot loviyasi	160,20	38,63	10
zig‘ir urug‘i	218,75	52,24	12
go‘sht uni	276,91	64,90	11
soya	246,43	54,13	14
kungaboqar	328,92	48,84	12

(a) Zig‘ir urug‘i va ot loviyasi bilan boqilgan jo‘jalarning vazn taqsimotlarini tasvirlab bering.

(b) Ushbu ma'lumotlar zig‘ir urug‘i va ot loviyasi bilan boqilgan jo‘jalarning o‘rtacha vaznlari har xil ekanligi haqida kuchli dalillar beradimi? 5% ahamiyat darajasidan foydalaning.

(c) Qanday xato turi qilingan bo‘lishi mumkin? Izohlang.


(d) Agar $\alpha = 0{,}01$ dan foydalansak, sizning xulosangiz o‘zgaradimi?

7.28 Mexanik va avtomatik uzatmali qutilarga ega avtomobillarning yonilg‘i samaradorligi, 1-qism. AQShning Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA) har yili ushbu yilda ishlab chiqarilgan avtomobillarning yonilg‘i samaradorligi bo‘yicha ma'lumotlarni e'lon qiladi. Quyida mexanik va avtomatik uzatmalar

[21] Chicken Weights by Feed Type, from the `datasets` package in R..

qutisiga ega avtomobillarning shahar sharoitida yonilg‘i samaradorligi (mil/gallon) bo‘yicha tasodifiy tanlangan tanlanmalarning statistik xulosalari keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar mexanik va avtomatik uzatmalar qutilariga ega avtomobillarning o‘rtacha yonilg‘i samaradorligi orasidagi farq haqida kuchli dalillar beradimi? Xulosa chiqarish uchun zarur bo‘lgan shartlar bajarilgan deb hisoblang.[22]


	Shahar sharoitida yoqilg‘i sarfi	
	Avtomatik	Mexanik
O‘rtacha	16,12	19,85
SCh	3,58	4,51
n	26	26



7.29 Jo‘ja yemi va vazni, 2-qism. Kazein odamlarda vaznni oshirish uchun keng tarqalgan qo‘shimcha hisoblanadi. Bu jo‘jalarga ham ta’sir qiladimi? 7.27-mashqda berilgan ma’lumotlardan foydalanib, kazein bilan boqilgan jo‘jalarning o‘rtacha vazni soya bilan boqilgan jo‘jalarning o‘rtacha vaznidan farq qilishi haqidagi gipotezani tekshiring. Agar gipoteza testi statistik jihatdan ahamiyatli natija bersa, jo‘jalarning yuqori o‘rtacha vazni kazein dietasi bilan bog‘liqmi yoki yo‘qligini muhokama qiling. Xulosa chiqarish uchun shartlar bajarilgan deb hisoblang.

7.30 Mexanik va avtomatik uzatmalar qutilariga ega avtomobillarning yonilg‘i samaradorligi, 2-qism. Quyidagi jadval 7.28-mashqdagi 52 avtomobilning avtomagistral yonilg‘i samaradorligi bo‘yicha statistik xulosalarini beradi. Ushbu statistikadan foydalanib, mexanik va avtomatik uzatmalar qutilariga ega avtomobillarning avtomagistral yonilg‘i samaradorligidagi o‘rtacha farq uchun 98% lik ishonch intervalini hisoblang va ushbu intervalni ma’lumot mazmunidan kelib chiqib izohlang.[23]

	Magistral sharoitida yoqilg‘i sarfi	
	Avtomatik	Mexanik
O‘rtacha	22,92	27,88
SCh	5,29	5,01
n	26	26



7.31 Qamoqdagi izolyatsiya eksperimenti, 1-qism.

Shimoliy Karolina shtatining Raleigh shahridagi markaziy qamoqxona mahbuslari “izolyatsiya” tajribasida ishtirok etish uchun ko‘ngilli bo‘lishdi. Eksperimentning maqsadi ishtirokchilarning psixopatik buzilgan shaxs T-ballini kamaytiruvchi muolajani aniqlash edi. Ushbu ko‘rsatkich insonning nazoratga ehtiyoji yoki nazoratga qarshi isyonini o‘lchaydi va Minnesota Ko‘p yo‘nalishli shaxsiyat inventarizatsiyasi testi deb nomlanuvchi keng qo‘llaniladigan ruhiy salomatlik testining bir qismidir. Eksperimentda uchta muolaja/tarjiba guruhi mavjud edi:

(1) To‘rt soatlik hissiy cheklov “kasbiy yordam mavjud” degan terapevtik tavsiyalarni o‘z ichiga olgan 15 daqiqalik tasma.


(2) To‘rt soatlik hissiy cheklov va ov itlarini o‘rgatish haqidagi “emotsional jihatdan neytral” tasma.

(3) To‘rt soatlik hissiy cheklov va hech qanday tasma yo‘q.

Qirq ikki ishtirokchi tasodifiy tarzda ushbu muolaja/tarjiba guruhlariga taqsimlandi va davolanishdan oldin va keyin test o‘tkazildi. Davolanishdan oldingi va keyingi natijalar o‘rtasidagi farqning taqsimoti quyida

[22] U.S. Department of Energy, Fuel Economy Data, 2012 Datafile.
[23] U.S. Department of Energy, Fuel Economy Data, 2012 Datafile.

ko'rsatilgan, shuningdek, tanlanma statistikalar keltirilgan. Har bir muolajani alohida samaradorligini mustaqil sinab ko'ring. Gipotezalarni aniq bayon qiling, shartlarni tekshiring va natijalarni ma'lumotlar mazmunidan kelib chiqib izohlang.[24]



	Tarjiba 1	Tarjiba 2	Tarjiba 3
O'rtacha	6,21	2,86	−3,21
SD	12,3	7,94	8,57
n	14	14	14

7.32 To'g'ri / noto'g'ri: o'rtachalarni taqqoslash. Quyidagi bayonotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang va noto'g'ri deb belgilangan bayonotlar uchun izoh bering.

(a) Agar ikkita tanlanmani taqqoslashda $n_1 = 20$ va $n_2 = 40$ bo'lsa, biz o'rtachalar farqi uchun normal modeldan foydalanishimiz mumkin, chunki $n_2 \geq 30$.

(b) Erkinlik darajasi oshgani sayin, t-taqsimot normal taqsimotga yaqinlashadi.

(c) Guruhlarning tanlanma o'lchamlari bir xil bo'lganda, o'rtachalar farqi uchun standart xatolikni hisoblashda qo'shma standart xatolikdan foydalanamiz.

7.4 O'rtacha qiymatlar farqi uchun quvvatni hisoblash

Ko'pincha tajriba rejalashtirishda ikki qarama-qarshi omil bo'ladi:

- Muhim ta'sirlarni aniqlay olishimiz uchun yetarlicha ma'lumot yig'ishni istaymiz.
- Ma'lumot yig'ish qimmatga tushishi mumkin va odamlarga oid tajribalar bo'lsa, bemorlar uchun xavf tug'ilishi mumkin.

Ushbu bo'limda biz klinik sinovlar bilan ishlashga e'tibor qaratamiz. Klinik sinov bu odamlar ishtirok etadigan sog'liq bilan bog'liq tajriba bo'lib, unda biz amaliy jihatdan muhim ta'sirlarni 80% lik ishonch bilan aniqlay olishimiz uchun mos tanlanma hajmini belgilaymiz.[25]

7.4.1 Sinov jarayonlarini tushunish

Gipotezalarni sinovdan o'tkazish jarayonlarini ko'rib chiqamiz. Bu bizga tadqiqot uchun mos tanlanma hajmini belgilash uchun hisob-kitoblar doirasini aniqlashda yordam beradi.

M **7.31-MISOL**

Faraz qilaylik, farmatsevtika kompaniyasi qon bosimini pasaytiruvchi yangi dori ishlab chiqdi va dorining samaradorligini sinovdan o'tkazish uchun klinik sinovga tayyorgarlik ko'rmoqda. Ular ma'lum standart qon bosimi dorisini qabul qilayotgan bemorlarni jalb qilishadi. Nazorat guruhi bemorlari o'zlarining joriy dorilarini ko'rinishi o'xshash bo'lgan kapsulalar shaklida davom ettiradilar, bu esa tajribani ko'r shaklida bo'lishni ta'minlaydi. Ushbu mazmundan kelib chiqib ikki tomonlama gipoteza testi uchun gipotezalarni yozing.

Odatda klinik sinovlar ikki tomonlama muqobil gipotezadan foydalanadi, shuning uchun bu mazmun uchun mos gipotezalar quyida keltirilgan:

[24] Prison isolation experiment, stat.duke.edu/resources/datasets/prison-isolation.

[25] Garchi bu yerda aniq ko'rib chiqilmasa ham, o'xshash tanlanma hajmini rejalashtirish kuzatuv tadqiqotlari uchun ham foydalidir.

H_0: Yangi dori standart dori bilan aynan bir xil ta’sirga ega.
$\mu_{davolash} - \mu_{nazorat} = 0$.

H_A: Yangi dori standart doridan farqli natijaga ega.
$\mu_{davolash} - \mu_{nazorat} \neq 0$.

7.32-MISOL

Tadqiqotchilar sistolik qon bosimi 140 mmHg va 180 mmHg intervalidagi bemorlar ustida klinik sinov o‘tkazmoqchi. Oldingi nashr qilingan tadqiqotlar bemorlarning qon bosimi standart chetlanishi taxminan 12 mmHg bo‘lishini va bemorlar qon bosimi taqsimoti taxminan simmetrik bo‘lishini ko‘rsatgan deb faraz qilamiz.[26] Agar har bir guruhda 100 ta bemor bo‘lsa, $\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat}$ uchun taxminiy standart xatolik qanday bo‘ladi?

Standart xatolik quyidagicha hisoblanadi:


$$SX_{\bar{x}_{davolash}-\bar{x}_{nazorat}} = \sqrt{\frac{s^2_{davolash}}{n_{davolash}} + \frac{s^2_{nazorat}}{n_{nazorat}}} = \sqrt{\frac{12^2}{100} + \frac{12^2}{100}} = 1{,}70 \ .$$

Bu $SX_{\bar{x}_{davolash}-\bar{x}_{nazorat}}$ ning mukammal bo‘lmagan bahosi bo‘lishi mumkin, chunki biz ishlatgan standart chetlanish bahosi ushbu bemorlar guruhi uchun mukammal mos kelmasligi mumkin. Ammo bu bizning maqsadlarimiz uchun yetarli.

7.33-MISOL

$\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat}$ ning nolinchi taqsimoti qanday ko‘rinishga ega?

Erkinlik darajasi 30 dan kattaroq bo‘lgani uchun, $\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat}$ taqsimoti taxminan normal bo‘ladi. Ushbu taqsimotning standart chetlanishi (standart xatolik) taxminan 1,70 bo‘ladi va nolinchi gipoteza ostida uning o‘rtacha qiymati 0 ga teng bo‘ladi.



7.34-MISOL

$\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat}$ ning qanday qiymatlari uchun biz nolinchi gipotezani rad etamiz?


$\alpha = 0{,}05$ uchun biz H_0 ni rad etamiz, agar farq quyi 2,5% yoki yuqori 2,5% quyruqda bo‘lsa:

Quyi 2,5%: Normal model uchun bu 1,96 standart xatolik noldan past bo‘lgan qiymatdir, shuning uchun har qanday farq $-1{,}96 \times 1{,}70 = -3{,}332$ mmHg dan kichikroq bo‘lsa.

Yuqori 2,5%: Normal model uchun bu 1,96 standart xatolik noldan yuqori bo‘lgan qiymatdir, shuning uchun har qanday farq $1{,}96 \times 1{,}70 = 3{,}332$ mmHg dan kattaroq bo‘lsa.

Ushbu **rad etish sohalari**ning chegaralari quyida ko‘rsatilgan:

[26] Ushbu tadqiqotda, odatda, biz har bir bemorning qon bosimini tadqiqot boshida va oxirida o‘lchaymiz, so‘ngra tadqiqot uchun natija o‘lchovi sifatida qon bosimidagi o‘rtacha o‘zgarishni ishlatamiz. Ya’ni, $\mu_{davolash}$ va $\mu_{nazorat}$ ikkisi ham o‘rtacha o‘zgarishlarni ifodalaydi. Bu ikki tanlanma juft sinov tuzilmasiga o‘xshaydi va biz uni aynan o‘rtacha o‘zgarishlar farqi uchun gipoteza testi kabi tahlil qilamiz. Bu yerda o‘tkazayotgan hisob-kitoblarimizda biz bemorning qon bosimi o‘zgarishining 12 mmHg ekanligini faraz qilamiz.



Keyingi qadamda, muqobil gipoteza haqiqatda to'g'ri bo'lsa, nolinchi gipoteza rad etilishi ehtimolini topishning ba'zi faraziy hisob-kitoblarini amalga oshiramiz.

7.4.2 Ikki tanlanma testi uchun quvvatni hisoblash

Tadqiqotni rejalashtirayotganda bizga muhim bo'lgan ta'sirni qanchalik ehtimol bilan aniqlashimiz mumkinligini bilishni xohlaymiz. Boshqacha qilib aytganda, agar haqiqiy ta'sir mavjud bo'lsa va bu ta'sir amaliy qiymatga ega bo'lsa, biz ushbu ta'sirni aniqlashimiz ehtimoli qanday? Ushbu ehtimol **quvvat** deb ataladi. Biz uni turli tanlanma hajmlari yoki turli *ta'sir o'lchamlari* uchun hisoblashimiz mumkin.

Avval amaliy jihatdan ahamiyatli natija nima ekanligini aniqlaymiz. Faraz qilaylik, kompaniya tadqiqotchilari standart doriga nisbatan qon bosimida 3 mmHg yoki undan katta har qanday ta'sirni aniqlashni xohlashadi. Bu yerda 3 mmHg qiziqish uchun minimal **ta'sir o'lchami**, va biz ushbu o'lchamdagi ta'sirni tadqiqotda aniqlash ehtimolini bilishni xohlaymiz.

M


7.35-MISOL

Faraz qilaylik, biz har bir davolash guruhi uchun 100 ta bemor bilan davom etishga qaror qildik va yangi dori qon bosimini standart doriga nisbatan qo'shimcha 3 mmHg ga pasaytiradi. Biz pasayishni aniqlash ehtimolini qanday hisoblaymiz?

Hisob-kitoblarni boshlashdan oldin, agar $\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat} = -3$ mmHg bo'lsa, H_0 ni rad etish uchun yetarli dalil bo'lmasligini sezish kerak. Bu yaxshi belgi emas.


H_0 ni rad etish ehtimolini hisoblash uchun quyidagilarni aniqlashimiz kerak:

- Haqiqiy farq -3 mmHg bo'lganda $\bar{x}_{davolash} - \bar{x}_{nazorat}$ uchun tanlanma taqsimoti. Bu nolinchi taqsimotga o'xshaydi, lekin u chapga 3 ga siljigan:



- Yuqoridagi nuqtali chiziqlar tashqarisidagi rad etish sohalari.
- Taqsimotning rad etish sohasiga tushadigan qismi.

Qisqacha aytganda, biz -3 ga markazlangan normal taqsimot uchun $x < -3{,}332$ ehtimolini hisoblashimiz kerak, bu taqsimotning standart chetlanishi 1,7. Buning uchun biz hisoblashni istagan sohani soyali qilib belgilaymiz:



Biz normal yaqinlashuvdan foydalanamiz, bu erkinlik darajalari 30 yoki undan ko‘proq bo‘lganda yaxshi yaqinlashuv hisoblanadi. Hisob-kitobni Z-balni aniqlashdan boshlaymiz va statistik dastur yoki ehtimollar jadvali yordamida quyruq sohasini topamiz:

$$Z = \frac{-3{,}332 - (-3)}{1{,}7} = -0{,}20 \qquad \rightarrow \qquad 0{,}42 \ .$$

Sinovning quvvati $\mu_{davolash} - \mu_{nazorat} = -3$ bo‘lganda va har bir guruhda 100 ta tanlanma mavjud bo‘lganda taxminan 42% ga teng.

7.35-misolda biz hisob-kitobda yuqori rad etish sohasini e’tibordan chetda qoldirdik, chunki bu gipotetik haqiqat (ya’ni, -3)ga qarama-qarshi yo‘nalishda edi. Buning sababi nima? Agar aslida pasayish mavjud bo‘lsa, nolinchi gipotezani rad etib, o‘sish mavjud deb xulosa qilishning foydasi bo‘lmaydi.

Shuningdek, biz t-taqsimot o‘rniga normal taqsimotdan foydalandik. Bu qulaylik uchun qilingan va agar tanlanma hajmi juda kichik bo‘lsa, biz yana t-taqsimotdan foydalanishga qaytishimiz kerak bo‘ladi. Bu haqda ushbu bo‘lim oxirida biroz batafsil muhokama qilamiz.

7.4.3 Mos tanlanma hajmini aniqlash

Oxirgi misolda, har bir guruhda tanlanma hajmi 100 bo‘lsa, 3 mmHg o‘lchamdagi ta’sirni atigi 0,42 ehtimol bilan aniqlash mumkinligini bildik. Faraz qilaylik, tadqiqotchilar davom etishga qaror qilishdi va har bir guruh uchun faqat 100 ta bemordan foydalandilar, va ma’lumotlar muqobil gipotezani qo‘llab-quvvatlamadi, ya’ni tadqiqotchilar H_0 ni rad eta olmadilar. Bu bir necha sababga ko‘ra juda yomon holat:

- Tadqiqotchilarning fikrida, ular shunday savol berishadi: *Ehtimol, haqiqiy va mazmunli farq mavjuddir, lekin biz buni kichik tanlanma bilan aniqlay olmadik.*
- Kompaniya yangi dori ishlab chiqishga yuzlab million dollar sarmoya kiritgan bo‘lishi mumkin, lekin endi ular dorining samaradorligi haqida katta noaniqlikda qoldilar, chunki tajriba hali ham muhim bo‘lishi mumkin bo‘lgan ta’sirlarni aniqlash imkoniyatiga ega emas edi.
- Bemorlar dori ta’siriga duchor bo‘lishdi va biz dorining bemorlarga yordam bermasligi (yoki zarar qilmasligi) haqida katta ishonch bilan ayta olmaymiz.
- Dorining haqiqatan amaliy qiymatga ega ekanligini aniqlash uchun yana bir klinik sinov o‘tkazish kerak bo‘lishi mumkin va ikkinchi klinik sinovni o‘tkazish yillar davom etishi va yana millionlab dollar talab qilishi mumkin.

Biz bunday holatdan qochmoqchimiz, shuning uchun muhim ta’sirlarni aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishimiz uchun mos tanlanma hajmini aniqlashimiz kerak. Avval aytib o‘tganimizdek, 3 mmHg o‘zgarish amaliy jihatdan muvofiq bo‘lgan minimal farq deb topilgan. Birinchi qadam sifatida, biz turli tanlanma hajmlari uchun quvvatni hisoblashimiz mumkin. Masalan, har bir guruhda 500 ta bemordan foydalanishni sinab ko‘raylik.

Y **7.36-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Tanlanma hajmi har bir guruhda 500 bo‘lganda, -3 mmHg o‘zgarishni aniqlash quvvatini hisoblang.[27]

(a) Standart xatolikni aniqlang (bemorlar uchun standart chetlanish taxminan 12 mmHg bo‘lishi kutilganini eslang).

(b) Nolinchi taqsimot va rad etish sohalarini aniqlang.

(c) $\mu_{davolash} - \mu_{nazorat} = -3$ bo'lganda muqobil taqsimotni aniqlang.

(d) Nolinchi gipotezani rad etish ehtimolini hisoblang.

7.53 Eksperimentni kattalashtirish. Bir ob-havo ilovasini ishga tushirayotgan startap kompaniyasining muhandislar jamoasi har bir yangi xususiyatni sinovdan o'tkazish uchun odatda ilova foydalanuvchilarining 1% nazorat guruhida va boshqa 1% davolash guruhida tasodifiy tanlash orqali tajribalar o'tkazadi. Jamoaning asosiy maqsadi "kunlik tashrif buyuruvchilar" deb nomlangan ko'rsatkichni oshirish bo'lib, bu ilovaga har kuni tashrif buyuruvchilar sonini anglatadi. Ular ushbu ko'rsatkichni har bir tajriba guruhida kuzatadilar va uni asosiy tajriba ko'rsatkichi sifatida ishlatadilar. So'nggi tajribalarida jamoa ilovani ishga tushirganda yangi animatsiyani kiritishni sinovdan o'tkazdi va bu tajribadagi kunlik tashrif buyuruvchilar soni +1,2% da barqaror bo'ldi, 95% ishonch oralig'i (-0,2%;+2,6%) bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, agar ushbu yangi animatsiya ishga tushirilsa, jamoa kunlik tashrif buyuruvchilarning 0,2% ini yo'qotishi yoki 2,6% ga oshishi mumkin deb o'ylaydi. Faraz qilaylik, siz jamoa uchun ma'lumotlar olimi sifatida konsultant bo'lib ishlaysiz va ular bilan muhokamadan so'ng, siz va ular yangi, kattaroq eksperiment o'tkazishga kelishdingiz. Shuningdek, bu yangi tajriba kunlik tashrif buyuruvchilar ko'rsatkichining 1,0% yoki undan yuqori o'sishini 80% quvvat bilan aniqlashga qodir bo'lishi kerak, deb kelishdingiz. Endi ular sizga murojaat qilib, "Ushbu ta'sirni aniqlash uchun qanday katta eksperiment o'tkazishimiz kerak?" deb so'rashadi.


(a) Agar jamoa 1,0% ta'sirni $\alpha = 0{,}05$ darajasidagi ahamiyatlilik bilan va 80% quvvat bilan aniqlashni istasa, standart xato qanchalik kichik bo'lishi kerak? Kunlik tashrif buyuruvchilar ko'rsatkichidagi foiz o'zgarishi normal taqsimotga amal qiladi, deb hisoblasangiz bo'ladi.

(b) Birinchi tajribani ko'rib chiqing, unda nuqta bahosi +1,2% va 95% ishonch oralig'i (−0,2%;+2,6%) edi. Agar bu nuqta bahosi normal taqsimotga amal qilgan bo'lsa, baholashning standart xatosi qancha edi?

(c) (a)- va (b)-bo'limdagi standart xatolar nisbatini 1,97 bo'lishini kutasiz. Standart xatoni 1,97 marta kichraytirish uchun qanday katta tajriba kerak?

(d) (c)-bo'limdagi javobingizni va birinchi tajriba 1% ga qarshi 1% tajriba bo'lganligini hisobga olib, jamoaga tajriba hajmini tavsiya qiling.

7.54 Rustli boltga burama moment. Project Farm – bu turli mahsulotlarni muntazam taqqoslaydigan YouTube kanali. Bir epizodda kanal rustli boltlarni bo'shatish uchun turli xil usullarni baholadi.[40] Sakkizta variant sinovdan o'tkazildi, jumladan, hech qanday ishlov berilmagan nazorat guruhi (grafikdagi "none"). Barcha ishlov berish usullari uchun to'rtta bolt sinovdan o'tkazildi, bundan faqat issiqlik (blow torch) bilan ishlov berish istisno, bu yerda faqat ikki ma'lumot nuqtasi yig'ildi. Natijalar quyida ko'rsatilgan:



(a) Sizningcha, bu holda ANOVA qo'llash o'rinlimi?

(b) (a)-bo'limdagi javobingizdan qat'i nazar, ANOVA uchun ushbu kontekstdagi gipotezalarni tasvirlang va quyidagi jadvaldan foydalangan holda testni amalga oshiring. Ma'lumotlar kontekstida xulosangizni taqdim eting.

	Erkinlik darajasi	Kvadratlar yig'indisi	O'rtacha kvadrat	F qiymati	Pr(>F)
Ishlov berish	7	3603,43	514,78	4,03	0,0056
Qoldiqlar	22	2812,80	127,85		


(c) Quyidagi jadvalda har bir guruhni boshqalar bilan taqqoslash uchun juftlik t-testlari uchun p-qiymatlar berilgan. Ushbu p-qiymatlar ko'p martalik taqqoslash uchun tuzatishlardan o'tmagan. Qaysi guruhlar jufti eng ehtimoliy farqni ifodalaydi?

[40] Project Farm on YouTube, youtu.be/xUEob2oAKVs, April 16, 2018.

	AeroKroil	Issiqlik	Liquid Wrench	Yo‘q	PB Blaster	Royal Purple	WD-40
Atseton/ATF	0,2026	0,0308	0,0476	0,1542	0,3294	0,5222	0,3744
AeroKroil		0,0027	0,0025	0,8723	0,7551	0,5143	0,6883
Issiqlik (Heat)			0,5580	0,0020	0,0050	0,0096	0,0059
Liquid Wrench				0,0017	0,0053	0,0117	0,0065
Yo‘q (none)					0,6371	0,4180	0,5751
PB Blaster						0,7318	0,9286
Royal Purple							0,8000


(d) (c)-bo‘lim jadvalida 28 ta p-qiymat mavjud. Ko‘p martalik taqqoslashni tuzatishdan keyin ularning birortasi statistik jihatdan ahamiyatlimi? Agar shunday bo‘lsa, qaysi biri (birilari)? Javobingizni tushuntiring.

7.55 Eksklyuziv munosabatlar. 203 nafar bakalavriat talabalaridan iborat tasodifiy tanlangan guruh o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilib, boshqa ko‘p savollar bilan bir qatorda ushbu talabalar qanchalik ko‘p eksklyuziv munosabatlarda bo‘lganligi so‘raldi. Quyidagi gistogrammada ushbu tanlanmadan olingan ma’lumotlarning taqsimoti ko‘rsatilgan. Tanlanmaviy o‘rtacha qiymat 3,2, standart chetlanish esa 1,97 ga teng.



Duke universiteti talabalarining o‘rtacha eksklyuziv munosabatlar sonini 90% ishonch oralig‘idan foydalanib baholang va ushbu oralig‘ni kontekstda izohlang. Inference uchun talab qilinadigan barcha shartlarni tekshiring va hisob-kitoblar hamda xulosalaringiz davomida qilinadigan farazlarni qayd eting.

7.56 Birinchi nikohdagi yosh, 1-qism. Milliy Oila O‘sishi Tadqiqoti (National Survey of Family Growth) Kasalliklarni Nazorat qilish Markazi tomonidan oilaviy hayot, nikoh va ajrashish, homiladorlik, bepushtlik, kontratseptiv vositalardan foydalanish hamda erkaklar va ayollarning sog‘lig‘i haqida ma’lumot to‘playdi. Ushbu so‘rovnoma bo‘yicha toplangan o‘zgaruvchilardan biri birinchi nikohdagi yosh hisoblanadi. Quyidagi gistogrammada 2006-2010-yillarda tasodifiy tanlangan 5534 nafar ayolning birinchi nikohdagi yosh taqsimoti ko‘rsatilgan. Ushbu ayollarning birinchi nikohdagi o‘rtacha yoshi 23,44, standart chetlanishi esa 4,72 ga teng.[41]



Ayollarning birinchi nikohdagi o‘rtacha yoshini 95% ishonch oralig‘idan foydalanib baholang va ushbu oralig‘ni kontekstda izohlang. Tegishli barcha farazlarni muhokama qiling.

7.57 Onlayn muloqot. Bir tadqiqot kollej talabasi haftasiga o‘rtacha 10 soatni boshqalar bilan onlayn muloqot qilishga sarflayotganini ko‘rsatadi. Siz bu baho past ekanligini o‘ylaysiz va gipoteza testini o‘tkazish uchun o‘z tanlanmangizni yig‘ishga qaror qilasiz. Yotoqxonangizdan 60 nafar talabani tasodifiy tanlab, ularning haftasiga boshqalar bilan onlayn muloqot qilishga o‘rtacha 13,5 soat sarflaganini aniqlaysiz. Gipoteza testida yordam berishni taklif qilgan do‘stingiz quyidagi gipotezalarni tuzadi. Har qanday xatolarni ko‘rsating.

$$H_0 : \bar{x} < 10 \; soat$$
$$H_A : \bar{x} > 13{,}5 \; soat$$

[41] Centers for Disease Control and Prevention, National Survey of Family Growth, 2010.

7.58 Birinchi nikohdagi yosh, 2-qism. 7.56-mashqda 2006-2010-yillar davomida o'tkazilgan so'rov natijalari ko'rsatilgan bo'lib, ularda ayollarning birinchi nikohdagi o'rtacha yoshi 23,44 ekanligi aytilgan. Faraz qilaylik, bir ijtimoiy olim ushbu qiymat so'rovnoma olinganidan beri o'zgargan deb hisoblaydi. Quyida uning gipotezalarini qanday tuzgani ko'rsatilgan. Har qanday xatolarni ko'rsating.

$$H_0 : \bar{x} \neq 23{,}44 \; yosh$$
$$H_A : \bar{x} = 23{,}44 \; yosh$$

8-BOB

Chiziqli regressiyaga kirish

8.1 Chiziqli moslashtirish, qoldiqlar va korrelyatsiya

8.2 Eng kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya

8.3 Chiziqli regressiyadagi chetlashgan nuqtalarning turlari

8.4 Chiziqli regressiya uchun xulosalar

Chiziqli regressiya juda kuchli statistik usuldir. Koʻpchilik regressiya bilan tanish, chunki ular yangiliklarda sochiluvchanlik diagrammasilarda toʻgʻri chiziqlar qoʻshilganligini koʻrgan. Chiziqli modellar bashorat qilish yoki ikkita sonli oʻzgaruvchilar oʻrtasida chiziqli bogʻliqlik mavjudligini baholash uchun ishlatilishi mumkin.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**

8.1 Chiziqli moslashtirish, qoldiqlar va korrelyatsiya


Chiziqni moslashtirish jarayonini chuqur o‘ylab ko‘rish foydalidir. Ushbu bo‘limda biz chiziqli model shaklini aniqlaymiz, yaxshi moslik uchun mezonlarni o‘rganamiz va *korrelyatsiya* deb atalgan yangi statistikani taqdim etamiz.

8.1.1 Ma’lumotlarga chiziqni moslashtirish

8.1-rasm to‘g‘ri chiziq bilan mukammal model qilinishi mumkin bo‘lgan ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Chiziq tenglamasi:

$$y = 5 + 64{,}96x.$$

Mukammal chiziqli bog‘liqlik nimani anglatishini o‘ylab ko‘ring: x ning qiymatini bilish orqali biz y ning aniq qiymatini bilamiz. Bu deyarli har qanday tabiiy jarayonda haqiqatga yaqin emas. Masalan, agar biz oila daromadini (x) olsak, bu qiymat kollej tomonidan potensial talaba uchun qancha moliyaviy yordam berilishi haqida foydali ma’lumot beradi (y). Ammo, bashorat mukammal bo‘lmaydi, chunki moliyaviy yordamga oilaning moliyaviy holatidan tashqari boshqa omillar ham ta’sir qiladi.




8.1-rasm. 2018-yil 28-dekabr kuni “Target Corporation” aksiyalarini sotib olish uchun o‘n ikki alohida xaridor tomonidan bir vaqtning o‘zida savdo kompaniyasiga so‘rovlar berildi va aksiyalarning umumiy qiymati hisoblab chiqildi. Xarajatlar chiziqli formula asosida hisoblanganligi sababli, chiziqli moslik mukammal ko‘rinishda bo‘ldi.


Chiziqli regressiya - bu ikkita o‘zgaruvchi (x va y) o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir oz xatolik bilan to‘g‘ri chiziq orqali model qilish uchun chiziqni moslashtirishning statistik usuli:

$$y = \beta_0 + \beta_1 x + \varepsilon.$$

Bu yerda β_0 va β_1 model parametrlarini ifodalaydi (β - bu yunon harfi *beta*), xatolik esa ε bilan ifodalanadi (yunon harfi *epsilon*). Parametrlar ma’lumotlar asosida baholanadi va ularning nuqtaviy baholari b_0 va b_1 kabi yoziladi. x yordamida y ni bashorat qilishda odatda x ni tushuntiruvchi yoki **bashoratlovchi** o‘zgaruvchi va y ni javob o‘zgaruvchisi deb ataymiz. Shuningdek, biz ko‘pincha ε terminini modelni yozishda tashlab qo‘yamiz. Chunki asosiy e’tiborimiz ko‘pincha o‘rtacha natijani bashorat qilishda bo‘ladi.



8.2-rasm. Chiziqli model foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan uchta ma’lumotlar to‘plami, garchi ma’lumotlar nuqtalari chiziq ustiga to‘liq tushmasa ham.



8.3-rasm. Ushbu chiziqli bo‘lmagan holatda chiziqli model foydali emas. Ushbu ma’lumotlar boshlang‘ich fizika tajribasidan olingan.

Ma’lumotlarning barchasini to‘g‘ri chiziqqa mukammal moslash kamdan-kam hollarda uchraydi. Buning o‘rniga, ma’lumotlar odatda *“nuqtalar buluti”* (inglizcha: cloud of points) kabi ko‘rinishda bo‘ladi. Bu 8.2-rasmda turli misollarda ko‘rsatilgan. Har bir holatda, ma’lumotlar to‘g‘ri chiziq atrofida joylashgan, hatto kuzatuvlarning hech biri to‘g‘ri chiziqda aniq joylashmasa ham. Birinchi grafikda kuchli pastga yo‘nalgan chiziqli tendensiya kuzatiladi, bunda chiziq atrofidagi qolgan tarqoqlik x va y o‘rtasidagi bog‘lanish kuchiga nisbatan juda kichikdir. Ikkinchi grafik kuchli emas, lekin sezilarli o‘suvchi tendentsiyani ko‘rsatadi. Oxirgi grafik ma’lumotlardagi juda kuchsiz pasayish tendentsiyasini ko‘rsatadi, shunchalik kuchsizki, biz uni deyarli sezmaymiz. Ushbu misollarning har birida, model parametrlarining β_0 va β_1 baholari bo‘yicha ma’lum bir noaniqlik bo‘ladi. Masalan, chiziqni yuqoriga yoki pastga biroz siljitish kerakmi yoki uni biroz ko‘proq yoki kamroq burish kerakmi deb o‘ylashimiz mumkin. Bu bo‘lim davomida biz chiziqni moslashtirish mezonlari haqida bilib olamiz. Shuningdek, model parametrlarining baholari bilan bog‘liq noaniqlikni o‘rganamiz.

Shuningdek, ba’zi holatlar mavjud bo‘lib, ularda chiziqli modelni ma’lumotlarga moslashtirish foydali bo‘lmasligi mumkin. Hatto o‘zgaruvchilar o‘rtasida aniq bog‘liqlik mavjud bo‘lsa ham. Bunday holatlardan biri 8.3-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, bu yerda o‘zgaruvchilar o‘rtasida juda aniq bog‘liqlik mavjud, lekin tendentsiya chiziqli emas. Ushbu bo‘limda va keyingisida biz chiziqli bo‘lmagan tendentsiyalarni muhokama qilamiz. Lekin chiziqli bo‘lmagan modellarni moslashtirish tafsilotlari keyingi kurslarga qoldiriladi.

8.1.2 Chiziqli regressiyadan foydalanib possum bosh uzunligini bashorat qilish

Keng quyruqli possumlar Avstraliyada yashovchi xaltachali hayvonlardir. 8.4-rasmda ulardan biri tasvirlangan. Tadqiqotchilar ushbu hayvonlarning 104 tasini ushlab, ularni yovvoyi tabiatga


qaytarishdan avval tanalarini o‘lchashdi. Biz ushbu o‘lchovlardan ikkitasini ko‘rib chiqamiz. Har bir possumning boshidan dumi oxirigacha bo‘lgan umumiy uzunligi va boshining uzunligi.



8.4-rasm. Avstraliyada yashovchi oddiy keng quyruqli possum.

Greg Shekter (Greg Schechter) tomonidan suratga olingan (https://flic.kr/p/9BAFbR). CC BY 2.0 licenziya.

8.5–rasm possumlarning bosh uzunligi va umumiy uzunligi uchun sochiluvchanlik diagrammasini ko‘rsatadi. Har bir nuqta bitta possumni ifodalaydi. Bosh uzunligi va umumiy uzunlik o‘zgaruvchilari o‘zaro bog‘liq: umumiy uzunligi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan possumlar, odatda, bosh uzunligi ham o‘rtachadan yuqori bo‘lishi tendentsiyasiga ega. Garchi bog‘liqlik mukammal darajada chiziqli bo‘lmasa ham, ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri chiziq yordamida qisman tushuntirish foydali bo‘lishi mumkin.




8.5-rasm. Possumlarning bosh uzunligi va umumiy uzunligi uchun sochiluvchanlik diagrammasi. Bosh uzunligi 94,1 mm va umumiy uzunligi 89 sm bo‘lgan possumni ifodalaydigan nuqta ajratib ko‘rsatilgan.

Possum ma’lumotlar to‘plamidagi bosh uzunligi va umumiy uzunlik o‘zgaruvchilari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chiziq yordamida tasvirlamoqchimiz. Ushbu misolda, biz umumiy uzunlikni bashoratlovchi o‘zgaruvchi (x) sifatida ishlatib, possumning bosh uzunligini (y) bashorat qilamiz. Chiziqli bog‘liqlikni ko‘z bilan moslashtirishimiz mumkin, bu 8.6–rasmda ko‘rsatilgan. Ushbu chiziqning tenglamasi quyidagicha:

$$\hat{y} = 41 + 0{,}59x.$$

y ustidagi ”shlyapa” bu baho ekanligini bildiradi. Ushbu chiziqni possumlar xususiyatlarini muhokama



8.6-rasm. Bosh uzunligi va umumiy uzunlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalash uchun mos chiziqli model tuzilgan.

qilish uchun ishlatishimiz mumkin. Masalan, tenglama 80 sm umumiy uzunlikka ega possum bosh uzunligini quyidagicha bashorat qiladi:

$$\hat{y} = 41 + 0{,}59 \times 80 = 88{,}2\ mm.$$

Bahoni o‘rtacha qiymat deb qarash mumkin. Tenglama 80 sm umumiy uzunlikka ega possumlar bosh uzunligining o‘rtacha qiymati 88,2 mm ekanligini bashorat qiladi. 80 sm uzunlikdagi possum haqida qo‘shimcha ma’lumot yo‘qligida, bosh uzunligini o‘rtacha qiymatdan foydalangan holda bashorat qilish foydali bo‘ladi.

M **8.1-MISOL**

Bosh uzunligini bashorat qilishda possumning umumiy uzunligidan tashqari yana qanday o‘zgaruvchilar yordam berishi mumkin?

Balki erkak possumlar va urg‘ochi possumlar o‘rtasida bog‘liqlik biroz boshqacha bo‘lishi mumkin yoki ehtimol Avstraliyaning bir hududidan boshqa hududiga o‘tganda possumlar orasida farq bo‘lishi mumkin. 9-bobda biz bir nechta bashoratlovchilarni qanday qo‘shishni o‘rganamiz. Ammo bunga o‘tishdan oldin, bir bashoratlovchi bilan oddiy chiziqli modelni qanday qurish qiziqroq ekanligini yaxshiroq tushunishimiz kerak.

8.1.3 Qoldiqlar

Qoldiqlar – bu model moslashuvi hisobga olingandan so‘ng ma’lumotlardagi qolgan o‘zgarishlar:

$$\text{Ma'lumotlar} = \text{Moslashuv} + \text{Qoldiq}.$$

Har bir kuzatuv uchun bitta qoldiq mavjud bo‘ladi va `possum` ma’lumotlari uchun moslashtirilgan chiziqli modelning uchta qoldig‘i 8.6–rasmda ko‘rsatilgan. Agar kuzatuv regressiya chizig‘idan yuqorida bo‘lsa, uning qoldig‘i ya’ni kuzatuvdan chiziqqa bo‘lgan vertikal masofa musbat bo‘ladi. Chiziqdan pastda joylashgan kuzatuvlarning qoldiqlari manfiy bo‘ladi. To‘g‘ri chiziqli modelni tanlashdagi maqsadlardan biri – ushbu qoldiqlarni iloji boricha kichik qilishdir.

Keling, 8.6-rasmda ko‘rsatilgan uchta qoldiqlarga jiddiyroq qaraylik. “×” bilan belgilangan kuzatuv kichik manfiy qoldiqqa ega bo‘lib, u taxminan -1 ga teng; “+” bilan belgilangan kuzatuv katta qoldiqqa ega bo‘lib, taxminan $+7$ ga teng; “△” bilan belgilangan kuzatuv esa o‘rtacha qoldiqqa ega bo‘lib, taxminan -4 ga teng. Qoldiq hajmi odatda uning mutlaq qiymati bilan baholanadi. Masalan, “△” uchun qoldiq “×” uchun qoldiqdan kattaroq, chunki $|-4|$ qiymat $|-1|$ dan kattaroq.

QOLDIQ – BU KUZATILGAN VA KUTILGAN QIYMATLAR O‘RTASIDAGI FARQ

i-kuzatuvning qoldig‘i $(x_i; y_i)$ - bu kuzatilgan javob qiymati (y_i) va model moslashuvi asosida kutilgan javob qiymati $(\hat{y}_i)$ o‘rtasidagi farqdir:

$$e_i = y_i - \hat{y}_i.$$

Biz odatda $\hat{y}_i$ ni modelga x_i ni qo‘shish orqali aniqlaymiz.

(M) **8.2-MISOL**

8.6-rasmda ko‘rsatilgan chiziqli moslashuv tenglamasi $\hat{y} = 41 + 0{,}59x$. Ushbu chiziq asosida $(77{,}0; 85{,}3)$ kuzatuvining qoldig‘ini hisoblang. Ushbu kuzatuv 8.6-rasmda “$\times$” bilan belgilangan. Avvalgi taxminiy baho -1 ni tekshiring.

Birinchidan, “$\times$” nuqtaning model asosidagi kutilgan qiymatini hisoblaymiz:

$$\hat{y}_\times = 41 + 0{,}59x_\times = 41 + 0{,}59 \times 77{,}0 = 86{,}4.$$

Keyin haqiqiy bosh uzunligi va kutilgan bosh uzunligi o‘rtasidagi farqni hisoblaymiz:

$$e_\times = y_\times - \hat{y}_\times = 85{,}3 - 86{,}4 = -1{,}1.$$

Modelning xatosi $e_\times = -1{,}1$ mm. Bu avvalgi taxminiy baho -1 mm ga juda yaqin. Manfiy qoldiq ushbu possum uchun chiziqli model bosh uzunligini ortiqcha baholaganligini bildiradi.

(Y) **8.3-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Agar model kuzatuvni past baholasa, qoldiq musbat bo‘ladimi yoki manfiy? Agar ortiqcha baholasa, qanday bo‘ladi?[1]

(Y) **8.4-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

8.6-rasmda “+” kuzatuv $(85{,}0; 98{,}6)$ va “$\triangle$” kuzatuv $(95{,}5; 94{,}0)$ uchun qoldiqlarni $\hat{y} = 41 + 0{,}59x$ chiziqli tenglama asosida hisoblang.[2]

Qoldiqlar chiziqli modelning ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini baholashda foydalidir. Biz ko‘pincha qoldiqlarni **qoldiq grafigi** yordamida ko‘rsatamiz. Bunday grafik 8.7-rasmda, 8.6-rasmdagi regressiya chizig‘i uchun ko‘rsatilgan. Qoldiqlar o‘zlarining dastlabki gorizontal joylashuvlarida, lekin vertikal koordinat sifatida qoldiq qiymatlari bilan chiziladi. Masalan, $(85{,}0; 98{,}6)_+$ nuqtasi qoldiq qiymati 7,45 ga teng edi, shuning uchun qoldiq grafigida u $(85{,}0; 7{,}45)$ nuqtasida joylashadi. Qoldiq grafigini yaratish sochiluvchanlik diagrammasini ”burib”, regressiya chizig‘ini gorizontal qilib ko‘rsatishga o‘xshaydi.

(M) **8.5-MISOL**

Qoldiq grafigining maqsadlaridan biri, model moslashganidan so‘ng ham ma’lumotlarda mavjud bo‘lgan xususiyatlar yoki naqshlarni aniqlashdir. 8.8-rasmda birinchi qatorda chiziqli modellarga ega uchta sochiluvchanlik diagrammasi va ikkinchi qatorda ularning qoldiq grafiklari ko‘rsatilgan. Qoldiqlarda qolgan naqshlarni aniqlay olasizmi?

Birinchi ma’lumot to‘plamida (birinchi ustun) qoldiqlarda aniq naqshlar yo‘q. Qoldiqlar 0 ni ifodalaydigan kesikli chiziq atrofida tasodifiy tarqalgan ko‘rinadi.

Ikkinchi ma’lumot to‘plamida qoldiqlarda naqsh mavjud. sochiluvchanlik diagrammasida bir oz egri chiziqli tendentsiya bor, bu qoldiq grafigida yanada ravshan. Ushbu ma’lumotlar uchun to‘g‘ri chiziqdan foydalanmaslik kerak. Buning o‘rniga, murakkabroq usuldan foydalanish kerak.

[1] Agar model kuzatuvni past baholasa, unda model bahosi haqiqiy qiymatdan past bo‘ladi. Qoldiq, ya’ni haqiqiy kuzatuv qiymati minus model bahosi musbat bo‘ladi. Agar model kuzatuvni ortiqcha baholasa, qoldiq manfiy bo‘ladi.


[2] (+) Avval model asosida kutilgan qiymatni hisoblang:

$$\hat{y}_+ = 41 + 0{,}59x_+ = 41 + 0{,}59 \times 85{,}0 = 91{,}15.$$


Keyin qoldiqni hisoblang:

$$e_+ = y_+ - \hat{y}_+ = 98{,}6 - 91{,}15 = 7{,}45.$$

Bu avvalgi taxminiy baho 7 ga juda yaqin. ($\triangle$) $\hat{y}_\triangle = 41 + 0{,}59x_\triangle = 97{,}3$. $e_\triangle = y_\triangle - \hat{y}_\triangle = -3{,}3$, bu avvalgi taxminiy baho -4 ga yaqin.



8.7-rasm. 8.6-rasmdagi model uchun qoldiq grafigi.



8.8-rasm. Misol sifatida olingan ma'lumotlar va ularga mos kelgan eng yaxshi chiziqli modellar (yuqori qator) hamda ularning mos qoldiq grafiklari (quyi qator).

Oxirgi grafikda juda kam yuqoriga qarab tendentsiya mavjud va qoldiqlarda ham aniq naqshlar yo'q. Ushbu ma'lumotlarga chiziqli modelni moslashtirish mantiqiy. Biroq, burchak koeffitsiyenti parametri nolga teng emasligi haqida statistik jihatdan ahamiyatli dalillar bor-yo'qligi aniq emas. Burchak koeffitsiyenti parametri b_1 ning nuqtaviy bahosi nolga teng emas, lekin bu shunchaki tasodif natijasi bo'lishi mumkin. Ushbu holatni biz 8.4-bo'limida muhokama qilamiz.

8.1.4 Chiziqli bog'liqlikni korrelyatsiya bilan tavsiflash


Biz kuchli chiziqli bog'liqlikka ega grafiklarni ham juda zaif chiziqli bog'liqlikka ega grafiklarni ham ko'rdik. Ushbu chiziqli bog'liqlikning kuchini statistika yordamida miqdoriy baholash foydali bo'ladi.

KORRELYATSIYA – BU CHIZIQLI BOG'LIQLIK KUCHI

Korrelyatsiya har doim -1 dan 1 gacha oraliqdagi qiymatlarni oladi va kki o'zgaruvchi orasidagi chiziqli bog'liqlik kuchini tavsiflaydi. Korrelyatsiya R harfi bilan belgilanadi.

Korrelyatsiyani xuddi tanlanma o'rtacha yoki standart chetlanishlarni hisoblaganimiz kabi formula yordamida hisoblashimiz mumkin. Ushbu formula juda murakkab,[3] va boshqa statistikalar kabi, hisob-kitoblar odatda kompyuter yoki kalkulyatorda bajariladi. 8.9-rasm sakkizta


[3]Formal ravishda, $(x_1; y_1)$, $(x_2; y_2)$, ..., $(x_n; y_n)$ kuzatuvlari uchun korrelyatsiyani quyidagi formula yordamida



8.9-rasm. Misol sifatida olingan sochma diagrammalar va ularning korrelyatsiyalari. Yuqori qator ijobiy bog‘liqlikka ega o‘zgaruvchilarni ko‘rsatadi. Ularning tendentsiyasi yuqoriga va o‘ngga yo‘naltirilgan. Quyi qator neytral tendentsiyaga ega bitta grafikni va uchta manfiy tendentsiyaga ega grafiklarni ko‘rsatadi.

grafik va ularning mos korrelyatsiyalarini ko‘rsatadi. Faqat bog‘liqlik mukammal darajada chiziqli bo‘lgandagina korrelyatsiya -1 yoki 1 bo‘ladi. Agar bog‘liqlik kuchli va musbat bo‘lsa, korrelyatsiya +1 ga yaqin bo‘ladi. Agar u kuchli va manfiy bo‘lsa, korrelyatsiya -1 ga yaqin bo‘ladi. Agar o‘zgaruvchilar orasida chiziqli bog‘liqlik sezilmasa, korrelyatsiya 0 ga yaqin bo‘ladi.

Korrelyatsiya chiziqli tendentsiyaning kuchini miqdoriy baholash uchun mo‘ljallangan. Ba’zan chiziqli bo‘lmagan tendentsiyalarda bog‘lanish kuchli bo‘lsa ham uni korrelyatsiya yordamida to‘liq aks ettirib bo‘lmaydi. Bunday holatlarga 8.10-rasmda uchta misol ko‘rsatilgan.



8.10-rasm. Misol sifatida olingan sochiluvchanlik diagrammasilar va ularning korrelyatsiyalari. Har bir holatda, o‘zgaruvchilar orasida kuchli bog‘liqlik mavjud. Biroq, bog‘liqlik chiziqli bo‘lmaganligi sababli, korrelyatsiya nisbatan zaif.

8.6-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

8.10-rasmda ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘plamlari uchun hech qanday to‘g‘ri chiziq yaxshi mos kelmaydi. Har bir grafik uchun chiziqli bo‘lmagan egri chiziqlarni chizib ko‘ring. Har bir grafik uchun chiziqni yaratganingizdan so‘ng, ushbu moslashuvda nimalar muhim ekanligini tasvirlang.[4]


hisoblashimiz mumkin:

$$R = \frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}\frac{x_i - \bar{x}}{s_x}\frac{y_i - \bar{y}}{s_y}$$


bu yerda $\bar{x}$, $\bar{y}$, s_x va s_y har bir o‘zgaruvchi uchun tanlanma o‘rtacha va standart chetlanishlarni ifodalaydi.

Mashqlar


8.1 Qoldiqlarni vizuallashtirish. Quyidagi nuqtali diagrammalar ustida regressiya chizig‘i keltirilgan. Agar har biri uchun qoldiqlar grafigi (x ga nisbatan qoldiqlar) tuzilsa, ushbu grafik qanday ko‘rinishga ega bo‘ladi, tasvirlab bering.



8.2 Qoldiqlardagi tendensiyalar. Quyida ikki xil ma’lumotlar to‘plamiga chiziqli model moslashtirilgandan keyin qolgan qoldiqlar grafigi keltirilgan. Muhim xususiyatlarni tasvirlab bering va ushbu ma’lumotlar uchun chiziqli model mos keladimi yoki yo‘qmi aniqlang. Fikringizni tushuntiring.




8.3 Bog‘liqlikni aniqlash, 1-qism. Quyidagi oltita nuqtali diagramma uchun ma’lumotlardagi bog‘liqlikning kuchini (zaif, o‘rta yoki kuchli) aniqlang va chiziqli modelni moslash maqsadga muvofiq bo‘ladimi yoki yo‘qligini baholang.



8.4 Bog‘liqlikni aniqlash, 2-qism. Quyidagi oltita nuqtali diagramma uchun ma’lumotlardagi bog‘liqlikning kuchini (zaif, o‘rta yoki kuchli) aniqlang va chiziqli modelni moslash maqsadga muvofiq bo‘ladimi yoki yo‘qligini baholang.


[4]Chiziqlarni chizishni sizga qoldiramiz. Umuman olganda, chizgan chiziqlaringiz ko‘plab nuqtalarga yaqin bo‘lishi va ma’lumotlardagi umumiy tendentsiyalarni o‘zida aks ettirishi kerak.




8.5 Imtihonlar va baholar. Quyidagi ikkita nuqtali diagramma universitetda o‘tilgan statistika kursining bir necha yillar davomida yozilgan yakuniy va oraliq semestr imtihon baholari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

(a) Ushbu grafikalar asosida, yakuniy imtihon bahosi bilan qaysi imtihonning korrelatsiyasi kuchliroq? Izohlang.

(b) (a)-qismda tanlangan imtihon bilan yakuniy imtihon o‘rtasidagi korrelatsiya yuqoriroq bo‘lishi mumkin bo‘lgan sabablar haqida fikr yuriting.



8.6 Er va xotinlar, 1-qism. Buyuk Britaniya aholini ro‘yxatga olish va tadqiqotlar idorasi bir vaqtlar Britaniyadagi 170 ta tasodifiy tanlangan turmush qurgan juftlikning yoshi (yillarda) va bo‘yi (bu yerda dyuymlarga o‘zgartirilgan) haqidagi ma’lumotlarni to‘plagan.[5] Chapdagi nuqtali diagramma xotin yoshini eri yoshi bilan, o‘ngdagi esa xotin bo‘yini eri bo‘yi bilan solishtiradi.




[5]D.J. Hand. *A handbook of small data sets.* Chapman & Hall/CRC, 1994.

(a) Er va xotin yoshlaridagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.
(b) Er va xotin bo‘ylaridagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.
(c) Qaysi nuqtali diagramma kuchliroq korrelatsiyani ko‘rsatadi? Fikringizni tushuntiring.
(d) Bo‘ylar haqidagi ma’lumotlar dastlab santimetrlarda yig‘ilgan va keyin dyuymlarga o‘zgartirilgan. Ushbu o‘zgartirish er va xotin bo‘ylari o‘rtasidagi korrelatsiyaga ta’sir qiladimi?


8.7 Korrelatsiyani moslang, 1-qism. Har bir korrelatsiyani mos nuqtali diagramma bilan moslang.

(a) $R = -0{,}7$
(b) $R = 0{,}45$
(c) $R = 0{,}06$
(d) $R = 0{,}92$




8.8 Korrelatsiyani moslang, 2-qism. Har bir korrelatsiyani mos nuqtali diagramma bilan moslang.

(a) $R = 0{,}49$
(b) $R = -0{,}48$
(c) $R = -0{,}03$
(d) $R = -0{,}85$



8.9 Tezlik va bo‘y. 1302 ta UCLA talabasidan so‘rov o‘tkazilib, ulardan bo‘ylari, haydagan maksimal tezligi va jinsi haqida ma’lumotlar yig‘ildi. Chapdagi nuqtali diagramma bo‘y va maksimal tezlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni, o‘ngdagi esa ushbu bog‘liqlikda jinsning rolini ko‘rsatadi.



(a) Bo‘y va maksimal tezlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.
(b) Ushbu o‘zgaruvchilar nima uchun ijobiy bog‘liq deb o‘ylaysiz?
(c) Bo‘y va maksimal tezlik o‘rtasidagi bog‘liqlikda jins qanday rol o‘ynaydi?


8.10 Korrelatsiyani taxmin qiling. Eduardo va Rosie bir yil davomida yomg‘irli kunlar soni va yil davomida yog‘gan jami yomg‘ir miqdorini o‘rganmoqda. Eduardo yomg‘ir miqdorini dyuymda, Rosie esa santimetrda qayd qiladi. Ularning korrelatsiya koeffitsientlari qanday taqqoslanadi?

8.11 Coast Starlight, 1-qism. Coast Starlight Amtrak poezdi Seattledan Los Angelesga harakatlanadi. Quyidagi nuqtali diagramma har bir bekat orasidagi masofani (mil bilan) va bir bekatdan boshqasiga o‘tish uchun sarflangan vaqtni (daqiqalarda) ko‘rsatadi.

(a) Masofa va sayohat vaqti o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Agar sayohat vaqti soatlar bilan, masofa esa kilometrlar bilan o‘lchansa, bog‘liqlik qanday o‘zgaradi?

(c) Sayohat vaqti (daqiqalarda) va masofa (mil bilan) o‘rtasidagi korrelatsiya $r = 0{,}636$. Agar sayohat vaqti soatlar bilan va masofa kilometrlar bilan o‘lchansa, korrelatsiya qanday bo‘ladi?




8.12 Bolalarning emaklash yoshi, 1-qism. Denver Universitetida o‘tkazilgan tadqiqotda sovuq oylarda chaqaloqlar issiq kiyimda bo‘lishi va harakati cheklanganligi sababli emaklashni o‘rganishi uchun ko‘proq vaqt talab etilishi mumkinmi degan savol o‘rganildi.[6] Tadqiqot o‘tkazilayotgan yil davomida tug‘ilgan chaqaloqlar har bir tug‘ilish oyi uchun o‘n ikki guruhga bo‘lindi. Har bir guruhdagi chaqaloqlarning o‘rtacha emaklash yoshi ularning olti oylik bo‘lgan vaqtidagi o‘rtacha haroratga qarshi qo‘yildi. Harorat Farengeyt (°F) bilan, yosh esa haftalarda o‘lchandi.

(a) Harorat va emaklash yoshi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Agar harorat Selsiy (°C) bilan va yosh oylar bilan o‘lchansa, bog‘liqlik qanday o‘zgaradi?


(c) Harorat (°F) va yosh (haftalarda) o‘rtasidagi korrelatsiya $r = -0{,}70$. Agar harorat Selsiy (°C) va yosh oylar bilan o‘lchansa, korrelatsiya qanday bo‘ladi?



8.13 Tana o‘lchovlari, 1-qism. Antropometriyani o‘rganayotgan tadqiqotchilar 507 nafar jismoniy faol shaxsning tana o‘lchovlari va suyak diametrlari, shuningdek yoshi, vazni, bo‘yi va jinsi haqida ma’lumot yig‘ishdi.[7] Quyidagi nuqtali diagramma bo‘y va yelka o‘lchami (deltoid mushaklari ustidan) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi, ikkalasi ham santimetrlarda o‘lchangan.

(a) Yelka o‘lchami va bo‘y o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Agar yelka o‘lchami dyuymda, bo‘y esa santimetrlarda o‘lchansa, bog‘liqlik qanday o‘zgaradi?




8.14 Tana o‘lchovlari, 2-qism. Quyidagi nuqtali diagramma vazn (kilogrammda) va son qismi o‘lchami (santimetrlarda) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Ushbu ma’lumotlar 8.13-mashqda tasvirlangan ma’lumotlar asosida keltirilgan.

[6] J.B. Benson. “Season of birth and onset of locomotion: Theoretical and methodological implications”. In: *Infant behavior and development* 16.1 (1993), pp. 69–81. ISSN: 0163-6383.

[7] G. Heinz et al. “Exploring relationships in body dimensions”. In: *Journal of Statistics Education* 11.2 (2003).

(a) Son o‘lchami va vazn o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.
(b) Agar vazn funtda, sonning o‘lchami esa santimetrlarda o‘lchansa, bog‘liqlik qanday o‘zgaradi?



8.15 Korrelatsiya, 1-qism. Erlar va ayollar yoshi o‘rtasidagi korrelatsiya qanday bo‘ladi, agar erkaklar doim:
(a) o‘zlaridan 3 yosh kichik ayollar bilan turmush qurishsa?
(b) o‘zlaridan 2 yosh katta ayollar bilan turmush qurishsa?
(c) o‘zlaridan ikki baravar kichik ayollar bilan turmush qurishsa?

8.16 Korrelatsiya, 2-qism. Kompaniyada erkaklar va ayollarning yillik maoshlari o‘rtasidagi korrelatsiya qanday bo‘ladi? Agar bir turdagi lavozim uchun erkaklar doim:
(a) ayollarga qaraganda $5000 ko‘proq maosh olishsa?
(b) ayollarga qaraganda 25% ko‘proq maosh olishsa?
(c) ayollarga qaraganda 15% kamroq maosh olishsa?

8.2 Eng kichik kvadratlar usuli yordamida regressiya

Ko‘z bilan chiziqli modellarni moslashtirish tanqid qilishga arzigulik holat. Chunki bu shaxsiy qarashlarga asoslangan bo‘ladi. Ushbu bo‘limda biz *eng kichik kvadratlar usuli*ni yanada qat’iy yondashuv sifatida ishlatamiz.

8.2.1 Elmhurst kollejining birinchi kurs talabalari uchun yordam

Ushbu bo‘limda Illinoys shtatidagi “Elmhurst” kollejining birinchi kurs talabalari orasidan tasodifiy tanlangan ellik nafar talabadan olingan oila daromadi va yordam ma’lumotlari ko‘rib chiqiladi. yordam — bu qarzdan farqli o‘laroq, qaytarilishi kerak bo‘lmagan moliyaviy yordamdir. Ma’lumotlarning tarqoqlik diagrammalari 8.11-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, ikkita chiziqli moslashuv keltirilgan. Chiziqlar ma’lumotlardagi salbiy tendentsiyani ifodalaydi. Ya’ni yuqori oila daromadiga ega talabalarda universitetdan kamroq yordam olishgan.

Y **8.7-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**


8.11-rasmdagi korrelyatsiya musbatmi yoki manfiy?[8]

8.2.2 Eng mos to‘g‘ri chiziqni topishning obyektiv mezoni

Dastlab, “eng yaxshi” deganda nimani nazarda tutganimizni o‘ylab ko‘ramiz. Matematik jihatdan, biz qoldiqlari kichik bo‘lgan chiziqni xohlaymiz. Birinchi fikr qoldiq kattaliklarining yig‘indisini minimallashtirish bo‘lishi mumkin:

$$|e_1| + |e_2| + \cdots + |e_n|.$$

[8]Oilaviy daromadning yuqoriligi yordam miqdorining kamligi bilan bog‘liq, shuning uchun korrelyatsiya manfiy bo‘ladi. Kompyuter yordamida korrelyatsiya hisoblanganda u -0.499 ga teng bo‘ldi.



8.11-rasm. Elmhurst kollejining 50 nafar birinchi kurs talabasi uchun yordam va oila daromadi. Ma'lumotlarga ikkita chiziq moslashtirilgan. Ulardan biri *eng kichik kvadratlar chizig'i*.

Buni kompyuter dasturi yordamida amalga oshirish mumkin. 8.11-rasmda ko'rsatilgan uzuq-uzuq chiziq ushbu moslik ancha asosli bo'lishi mumkinligini namoyish etadi. Biroq, qoldiqlar kvadratlarining yig'indisini minimallashtiradigan to'g'ri chiziqni tanlash odatiyroq amaliyot hisoblanadi:

$$e_1^2 + e_2^2 + \cdots + e_n^2.$$

Ushbu **eng kichik kvadratlar mezoni**ni minimallashtiruvchi chiziq 8.11-rasmdagi uzluksiz chiziq bilan tasvirlangan. Bu odatda **eng kichik kvadratlar chizig'i** deb ataladi. Qoldiqlarni kvadratga oshirmasdan, ularning mutloq qiymatlari (modullari) yig'indisini minimallashtirish o'rniga, aynan ushbu variantni tanlashning uchta ehtimoliy sababi quyidagilardir:

1. Bu eng keng tarqalgan usul hisoblanadi.
2. Statistik dasturlarda eng kichik kvadratlar chizig'ini hisoblash keng qo'llab-quvvatlanadi.
3. Ko'plab amaliyotlarda, boshqa qoldiqdan ikki baravar katta bo'lgan qoldiq ikki baravardan ko'proq "yomon" hisoblanadi. Masalan, 4 ga farq qilish odatda 2 ga farq qilishdan ikki baravar ko'proq zararli hisoblanadi. Qoldiqlarning kvadratlarini olish ushbu tafovutni hisobga oladi.

Birinchi ikki sabab asosan an'ana va qulaylik uchun; oxirgi sabab esa eng kichik kvadratlar mezoni odatda nima uchun foydali ekanligini tushuntiradi.[9]

8.2.3 Eng kichik kvadratlar chizig'i uchun shartlar

Eng kichik kvadratlar chizig'ini moslashtirganda, odatda quyidagi shartlar talab qilinadi:

Chiziqlilik. Ma'lumotlar chiziqli tendentsiyani ko'rsatishi kerak. Agar chiziqli bo'lmagan tendentsiya mavjud bo'lsa (masalan, 8.12-rasmning chap panelida), ushbu kitobning boshqa qismida yoki keyingi kursda ko'rib chiqiladigan murakkab regressiya usulidan foydalanish lozim.


Qoldiqlarning deyarli normal taqsimlanishi. Umuman olganda, qoldiqlar deyarli normal taqsimlangan bo'lishi kerak. Ushbu shartning bajarilmasligi odatda chetlashgan nuqtalar yoki ta'sirchan nuqtalar bilan bog'liq bo'ladi; bular haqida 8.3-bo'limda batafsilroq to'xtalamiz. Xavotirga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan qoldiqqa misol 8.12-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, unda bir kuzatuv boshqalariga qaraganda regressiya chizig'idan sezilarli darajada uzoqroqda joylashgan.

Doimiy o'zgaruvchanlik. Eng kichik kvadratlar chizig'i atrofidagi nuqtalar o'zgaruvchanligi taxminan doimiy bo'lishi kerak. O'zgaruvchanlikning doimiy emasligiga misol 8.12-rasmning uch-

[9]Ba'zi holatlarda qoldiq kattaliklari yig'indisi yanada foydaliroq bo'lishi mumkin va biz boshqa mezonlarni ham qo'llashimiz mumkin. Biroq, ushbu kitob faqat eng kichik kvadratlar mezoniga asoslanadi.

inchi panelida ko‘rsatilgan. Bu shart bajarilmaganida eng keng tarqalgan naqshni ifodalaydi. Ya’ni x kattaroq bo‘lganda, y ning o‘zgaruvchanligi ham kattalashadi.

Mustaqil kuzatuvlar. **Vaqtli qatorlar** ma’lumotlariga regressiya qo‘llashda ehtiyot bo‘lish lozim. Bunday ma’lumotlar vaqt bo‘yicha ketma-ket kuzatuvlarni, masalan, har kungi aksiyalar narxini ifodalashi mumkin. Bunday ma’lumotlarda model va tahlilda hisobga olinishi kerak bo‘lgan ichki tuzilmalar bo‘lishi mumkin. Masalan, 8.12-rasmning to‘rtinchi panelida ketma-ket kuzatuvlar mustaqil bo‘lmagan ma’lumotlar to‘plami tasvirlangan. Bundan tashqari, ma’lumotlar ichidagi korrelyatsiyalar muhim bo‘lgan boshqa holatlar mavjud bo‘lib, ular haqida 9-bobda batafsil ma’lumot beriladi.



8.12-rasm. To‘rtta misol ushbu bobdagi usullar ma’lumotlarga qo‘llash uchun yetarli bo‘lmagan holatlarni ko‘rsatadi. Birinchi panel: chiziqlilik sharti bajarilmagan. Ikkinchi panel: chetlangan nuqtalar mavjud, ayniqsa, bitta nuqta chiziqdan juda uzoqda joylashgan. Uchinchi panel: xatoliklarning o‘zgaruvchanligi x qiymatiga bog‘liq. To‘rtinchi panel: vaqtli qatorlar ma’lumotlari, bunda ketma-ket kuzatuvlar bir-biri bilan kuchli korrelyatsiyaga ega.

Y

8.8-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

8.11-rasmdagi Elmhurst ma’lumotlariga eng kichik kvadratlar regressiyasini qo‘llash haqida xavotir bo‘lishi kerakmi?[10]

8.2.4 Eng kichik kvadratlar chizig‘ini topish

Elmhurst ma’lumotlari uchun eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘ining tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\widehat{yordam} = \beta_0 + \beta_1 \times oila_daromadi\ .$$

Bu yerda tenglama talabalar uchun yordamni talabaning oila daromadiga asoslangan holda bashorat qilish uchun tuzilgan. Bu Elmhurstni ko‘rib chiqayotgan talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu ikkita β_0 va β_1 qiymatlar regressiya chizig‘ining parametrlaridir.

Xuddi 5-, 6-, va 7-boblarda bo‘lgani kabi, parametrlar kuzatilgan ma’lumotlardan foydalanib baholanadi. Amaliyotda, ushbu baholash kompyuter yordamida amalga oshiriladi, xuddi boshqa baholar, masalan, tanlanma o‘rtacha qiymat, kompyuter yoki kalkulyator yordamida hisoblanishi mumkin bo‘lgani kabi. Biroq, parametrlarning baholarini eng kichik kvadratlar chizig‘ining ikki xossasini qo‘llash orqali ham topishimiz mumkin:

- Eng kichik kvadratlar chizig‘ining burchak koeffitsiyenti quyidagicha baholanishi mumkin:

$$b_1 = \frac{s_y}{s_x} R$$

bu yerda R ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi korrelyatsiyani ifodalaydi, s_x va s_y esa mos ravishda tushuntiruvchi va javob o‘zgaruvchilarining tanlanma standart chetlanishlari.

[10] Tendentsiya chiziqli ko‘rinadi, ma’lumotlar chiziq atrofida joylashgan va sezilarli anomaliyalar yo‘q. o‘zgaruvchanlik taxminan doimiy va bu vaqt seriyasi kuzatuvlari emas. Ushbu ma’lumotlarga eng kichik kvadratlar regressiyasini qo‘llash mumkin.

- Agar $\bar{x}$ tushuntiruvchi o‘zgaruvchining tanlanma o‘rtacha qiymati va $\bar{y}$ vertikal o‘zgaruvchining tanlanma o‘rtacha qiymati bo‘lsa, unda $(\bar{x}; \bar{y})$ nuqta eng kichik kvadratlar chizig‘ida joylashgan bo‘ladi. 8.13-rasmda oila daromadi va yordamning tanlanma o‘rtacha qiymatlari mos ravishda \$101780 va \$19940 sifatida ko‘rsatilgan. Biz (101,8; 19,94) nuqtani 295-betdagi 8.11-rasmga joylashtirib, u uzluksiz chiziqda joylashganligini tasdiqlashimiz mumkin.

Keyingi qadamda, β_0 va β_1 parametrlarining b_0 va b_1 nuqtaviy baholarini topamiz.

	Oila daromadi (x)	yordam (y)
O‘rtacha	$\bar{x} = \$101780$	$\bar{y} = \$19940$
Standart chetlanish	$s_x = \$63200$	$s_y = \$5460$
		$R = -0{,}499$

8.13-rasm. Oila daromadi va yordam uchun umumlashtiruvchi statistika.

Y **8.9-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

8.13-rasmdagi umumlashtiruvchi statistikadan foydalangan holda oila daromadiga nisbatan yordam regressiya chizig‘ining burchak koeffitsientini hisoblang.[11]

Siz matematika darsidan **nuqta-burchak koeffitsiyenti** shaklidagi formulani eslashingiz mumkin, bu bizga model moslashuvini, shu jumladan b_0 bahosini topishga imkon beradi. Chiziq burchak koeffitsiyenti koeffitsienti va chiziqdagi biror nuqta, (x_0, y_0), berilgan bo‘lsa, chiziq tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$y - y_0 = burchak\ koeffitsiyenti \times (x - x_0).$$

ENG KICHIK KVADRATLAR CHIZIG‘INI UMUMLASHTIRUVCHI STATISTIKADAN ANIQLASH

Eng kichik kvadratlar chizig‘ini umumlashtiruvchi statistikadan aniqlash uchun:

- Burchak koeffitsiyenti parametrini baholang, $b_1 = (s_y/s_x)R$.
- $(\bar{x}; \bar{y})$ nuqtasi eng kichik kvadratlar chizig‘ida joylashganligini hisobga olib, nuqta-burchak koeffitsiyenti tenglamasidan foydalaning: $y - \bar{y} = b_1(x - \bar{x})$, bu yerda $x_0 = \bar{x}$ va $y_0 = \bar{y}$.
- Tenglamani soddalashtiring, natijada $b_0 = \bar{y} - b_1\bar{x}$ hosil bo‘ladi.

M **8.10-MISOL**

Tanlanma o‘rtacha qiymatlar (101780; 19940) va 8.9-yo‘naltirilgan mashqdagi $b_1 = -0{,}0431$ burchak koeffitsiyenti bahosidan foydalanib, oila daromadiga asoslangan yordamni bashorat qilish uchun eng kichik kvadratlar chizig‘ini toping.

Nuqta-burchak koeffitsiyenti tenglamasini (101,78; 19,94) va $b_1 = -0{,}0431$ burchak koeffitsiyenti qiymati bilan qo‘llang:

$$y - y_0 = b_1(x - x_0)$$
$$y - 19940 = -0{,}0431(x - 101780).$$

O‘ng tomonni kengaytirib va har ikki tomonga 19940 ni qo‘shib, tenglama soddalashtiriladi:

$$\widehat{yordam} = 24327 - 0{,}0431 \times oila_daromadi\ .$$

Bu yerda biz tenglamani masala mazmunidan kelib chiqib ifodalash uchun y ni $\widehat{yordam}$ va x ni *oila_daromadi* bilan almashtirdik. Yakuniy tenglama har doim bashorat qilinayotgan o‘zgaruvchi ustida “shlyapa” belgisini o‘z ichiga olishi kerak, bu umumiy “y” yoki nomlangan “*yordam*” o‘zgaruvchi bo‘lishi mumkin.

[11] 8.13-rasmdagi umumlashtiruvchi statistikadan foydalangan holda burchak koeffitsiyentini hisoblang:

$$b_1 = \frac{s_y}{s_x}R = \frac{5460}{63200}(-0{,}499) = -0{,}0431.$$

Odatda eng kichik kvadratlar chizig‘ini hisoblash uchun kompyuter ishlatiladi va Elmhurst regressiya chizig‘i uchun dasturiy ta’minot yordamida yaratilgan umumiy jadval 8.14-rasmda ko‘rsatilgan. Birinchi ustundagi sonlar mos ravishda b_0 va b_1 baholarni beradi. Ushbu natijalar 8.10-misoldagi natijalar bilan mos keladi (ba’zi kichik xatoliklar bilan).

	Baholash	Standart xatolik	t qiymati	Pr(>|t|)
Ozod had	24319,3	1291,5	18,83	<0,0001
oila_daromadi	-0,0431	0,0108	-3,98	0,0002

8.14-rasm. Elmhurst ma’lumotlari uchun eng kichik kvadratlar regressiya natijalarining xulosasi. Parametrlarning birinchi ustundagi baholarini 8.10-misoldagi natijalar bilan solishtiring.

8.11-MISOL

8.14-rasmdagi ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi ustunlarni o‘rganing. Ular nimani anglatishini taxmin qilishingiz mumkinmi? (Agar siz hali inference bo‘yicha biror bobni o‘rganmagan bo‘lsangiz, ushbu misoldan o‘ting.)

Biz ustunlarning ma’nosini β_1 ga tegishli bo‘lgan ikkinchi qatordan foydalanib tushuntiramiz. Birinchi ustun β_1 uchun nuqta bahosini beradi, bu biz avvalgi misolda hisoblaganimiz: $b_1 = -0{,}0431$. Ikkinchi ustun ushbu nuqta bahosi uchun standart xatoni ko‘rsatadi: $SX_{b_1} = 0{,}0108$. Uchinchi ustun $\beta_1 = 0$ null gipotezasi uchun t-test statistikasi: $T = -3{,}98$. So‘nggi ustun $\beta_1 = 0$ null gipotezasi va ikki tomonlama muqobil gipoteza uchun t-test statistikasi uchun p qiymatini ko‘rsatadi: 0,0002. Ushbu tafsilotlar haqida ko‘proq 8.4-bo‘limida o‘rganamiz.

8.12-MISOL

Bir o‘rta maktab bitiruvchisi Elmhurst kollejini ko‘rib chiqayotgan bo‘lsa, universitetdan moliyaviy yordamni hisoblash uchun biz hisoblagan chiziqli tenglamadan foydalanishi mumkinmi?

U ushbu tenglamadan taxmin sifatida foydalanishi mumkin, lekin bu yondashuvning ba’zi cheklovlarini tushunish muhim. Birinchidan, ma’lumotlar faqat bitta birinchi kurs talabalari guruhidan olingan, va universitetning yordamni aniqlash usuli yil sayin o‘zgarishi mumkin. Ikkinchidan, tenglama mukammal taxmin bermaydi. Chiziqli tenglama ma’lumotlardagi tendentsiyani yaxshi aks ettirsa-da, hech bir talabaning yordami mukammal tarzda bashorat qilinmaydi.

8.2.5 Regressiya modelidagi parametrlarni baholashni talqin qilish

Regressiya modelidagi parametrlarni talqin qilish (interpretatsiya qilish) ko‘pincha tahlilning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

8.13-MISOL

Elmhurst ma’lumotlari uchun ozod had va burchak koeffitsiyenti baholari mos ravishda $b_0 = 24319$ va $b_1 = -0{,}0431$ ga teng. Ushbu raqamlar aslida nimani anglatadi?

Burchak koeffitsiyenti parametrini talqin qilish deyarli har qanday amaliy qo‘llanishda foydalidir. Har bir qo‘shimcha \$1000 oila daromadi uchun talabaning yordamida $\$1000 \times (-0{,}0431) = -\$43{,}10$ farq bo‘lishini kutishimiz mumkin, ya’ni o‘rtacha \$43,10 kamroq. Diqqat qiling, yuqori oila daromadi kamroq yordam bilan bog‘liq, chunki modelda oila daromadi koeffitsienti manfiy. Ushbu talqinda ehtiyot bo‘lish kerak. Haqiqiy bog‘lanish bo‘lsa-da, ushbu ma’lumotlar kuzatuv xarakteriga ega bo‘lgani uchun o‘zgaruvchilar o‘rtasida sababiy bog‘lanishni talqin qila olmaymiz. Ya’ni, talabaning oila daromadini oshirish uning yordamini kamaytirishga olib kelmasligi mumkin (Bu bog‘lanish sababiy ekanligini aniqlash uchun Elmhurst kollejiga murojaat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi, ya’ni Elmhurst kollejining yordam qarorlari qisman talabalarning oila daromadlariga asoslangan ekanligini so‘rash zarur.)

Baholangan ozod had $b_0 = 24319$ talabaning oila daromadi yo‘q bo‘lsa, o‘rtacha yordamni tasvirlaydi. Ozod hadning ma’nosi ushbu qo‘llashda ahamiyatlidir, chunki Elmhurstdagi ba’zi tala-

balarning oila daromadi \$0 bo‘lishi mumkin. Boshqa amaliy qo‘llashlarda, agar x ning qiymati nolga yaqin bo‘lmagan kuzatuvlar bo‘lsa, ozod hadning amaliy ahamiyati kam yoki umuman bo‘lmasligi mumkin.

ENG KICHIK KVADRATLAR BILAN BAHOLANGAN PARAMETRLARNI TALQIN QILISH

Burchak koeffitsiyenti x tushuntiruvchi o‘zgaruvchi bir birlikka kattaroq bo‘lsa, y o‘zgaruvchidagi taxminiy farqni tasvirlaydi. Agar chiziqli model $x = 0$ gacha amal qilsa, $x = 0$ da y ning o‘rtacha natijasini tasvirlaydi. Odatda ko‘pgina amaliy masalalarda bunday holat bo‘lmaydi.

8.2.6 Ekstrapolyatsiya xavflidir

Qish faslida Sharqiy Sohilda qor bo‘ronlari bo‘lganligi global isishning aldov ekanligini menga yetarli darajada isbotladi. O‘sha qorlar muzday edi. Ammo xavotirli tendentsiya shundaki, bu bahorda haroratlar ko‘tarildi. Mana buni o‘ylab ko‘ring: 6-fevralda harorat 10 daraja edi. Bugun esa deyarli 80 ga yetdi. Bu tezlikda davom etsa, avgust oyiga kelib harorat 220 darajaga yetadi. Shunday qilib, azizlar, iqlim bo‘yicha munozaralar davom etmoqda.

Stiven Kolbert
2010-yil 6-aprel[12]

Chiziqli modellar ikki o‘zgaruvchi orasidagi bog‘lanishni taxmin qilish uchun ishlatilishi mumkin. Biroq, ushbu modellar cheklovlarga ega. Chiziqli regressiya oddiygina modellashtirish usuli hisoblanadi. Haqiqiy bog‘lanish odatda bizning oddiy chiziqdan ancha murakkabroq, masalan, biz ma’lumotlar bilan cheklangan diapazonimizdan tashqarida qanday harakatlanishini bilmaymiz.

(M) **8.14-MISOL**

$\widehat{yordam} = 24319 - 0{,}0431 \times oila_daromadi$ modeldan foydalanib, oila daromadi \$1 million bo‘lgan boshqa birinchi kurs talabasi uchun yordamni taxmin qiling.

Biz quyidagilarni hisoblaymiz: $oila_daromadi = 1000000$:

$$24319 - 0{,}0431 \times oila_daromadi = 24319 - 0{,}0431 \times 1000000 = -18781.$$

Modelga ko‘ra, ushbu talaba -\$18781 yordam oladi (!). Ammo Elmhurst kolleji *manfiy yordam* ko‘rsatmaydi, ya’ni ba’zi talabalardan o‘qish to‘lovidan tashqari qo‘shimcha pul to‘lashni talab qilmaydi.


Model bahosini dastlabki ma’lumotlar doirasidan tashqaridagi qiymatlarga qo‘llash **ekstrapolyatsiya** deb ataladi. Umuman olganda, chiziqli model ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi haqiqiy bog‘lanishning faqat taxminiy tasviridir. Agar biz ekstrapolyatsiya qilsak, bu chiziqli bog‘lanish analiz qilinmagan joylarda ham amal qiladi degani emas.

8.2.7 R^2 yordamida moslashuv kuchini tavsiflash

Biz avval ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi chiziqli bog‘lanish kuchini korrelyatsiya R yordamida baholadik. Biroq, chiziqli moslashuv kuchini R^2, **R-kvadrat** deb ataluvchi ko‘rsatkich yordamida izohlash keng tarqalgan. Agar chiziqli model berilgan bo‘lsa, ma’lumotlarning chiziqli moslashuv atrofida qanchalik zich joylashganligini tasvirlashimiz mumkin.

R^2 chiziqli modelning javobdagi o‘zgaruvchanlikning qanchasini eng kichik kvadratlar chizig‘i tushuntirishi mumkinligini tasvirlaydi. Masalan, 8.15-rasmda ko‘rsatilgan Elmhurst ma’lumotlarini ko‘rib chiqaylik. Javob o‘zgaruvchisining, ya’ni olingan yordamning dispersiyasi taxminan $s^2_{yordam} \approx$ 29,8 million. Biroq, agar biz eng kichik kvadratlar chizig‘ini qo‘llasak, ushbu model talabaning yordamni oila daromadiga qarab bashorat qilishdagi noaniqlikni kamaytiradi. Qoldiqlar dis-

[12] www.cc.com/video-clips/l4nkoq



8.15-rasm. Elmhurst kollejidan 50 nafar birinchi kurs talabalari uchun yordam va oila daromadi ma'lumotlari, eng kichik kvadratlar regressiya chizig'i bilan ko'rsatilgan.

persiyasi modeldan foydalanganimizdan so'ng qanchalik o'zgaruvchanlik qolganligini tavsiflaydi: $s^2_{javob} \approx 22{,}4$ million. Qisqasi, modelni qo'llash natijasida oila daromadiga asoslangan bashoratda o'zgaruvchanlikni quyidagicha kamaytirish mumkin:

$$\frac{s^2_{yordam} - s^2_{qoldiq}}{s^2_{yordam}} = \frac{29800000 - 22400000}{29800000} = \frac{7500000}{29800000} = 0{,}25$$

yoki taxminan 25% ga teng. Bu R^2 qiymatiga aynan mos keladi:

$$R = -0{,}499; \qquad R^2 = 0{,}25\ .$$

8.15-YO'NALTIRILGAN MASHQ

Agar chiziqli modelning korrelyatsiyasi -0,97 bo'lib, juda kuchli manfiy bog'lanish bo'lsa, javobdagi o'zgarishlarning qancha qismi tushuntiruvchi o'zgaruvchi tomonidan tushuntiriladi?[13]

8.2.8 Ikki darajali toifali bashoratlovchi o'zgaruvchilar

Toifali o'zgaruvchilar natijalarni bashorat qilishda foydali bo'lishi mumkin. Bu bo'limda biz ikki darajali toifali bashoratlovchini ko'rib chiqamiz (bu yerda daraja toifa bilan bir xil ekanligini eslang). Biz Nintendo Wii uchun mo'ljallangan Mario Kart video o'yinining Ebay auksionlaridagi savdosini ko'rib chiqamiz; bunda auksionning yakuniy narxi hamda o'yinning holati `ishlatilgan` va `yangi` qayd etilgan. Bu yerda biz o'yinning holatiga asoslanib, uning umumiy narxini bashorat qilmoqchimiz. Auksion ma'lumotlarining grafigi 8.16-rasmda ko'rsatilgan.

O'yin holati o'zgaruvchisini regressiya tenglamasiga kiritish uchun toifalarni sonli shaklga o'tkazishimiz kerak. Buning uchun biz **indikator o'zgaruvchi** deb ataladigan `holat` dan foydalanamiz, u yangi o'yin uchun 1 va ishlatilgan o'yin uchun 0 qiymatini oladi. Ushbu indikator o'zgaruvchi yordamida chiziqli model quyidagicha yoziladi:


$$\widehat{narx} = \beta_0 + \beta_1 \times \texttt{holat}.$$

Parametrlarning baholari 8.17-rasmda keltirilgan va model tenglamasi quyidagicha umumlashtiriladi:

$$\widehat{narx} = 42{,}87 + 10{,}90 \times \texttt{holat}\ .$$

Faqat ikki darajali toifali bashoratlovchilar uchun chiziqlilik farazlari har doim bajariladi. Biroq, har

[13] Taxminan $R^2 = (-0{,}97)^2 = 0{,}94$ yoki 94% o'zgarish chiziqli model tomonidan tushuntiriladi.



8.16-rasm. *Mario Kart* video o‘yinining auksion narxlari, holatga qarab ishlatilgan ($x = 0$) va yangi ($x = 1$) o‘yinlarga bo‘lingan. Chiziqli regressiya chizig‘i ham grafikka qo‘shilgan.

	Baho	Std. Xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	42,87	0,81	52,67	<0,0001
holati	10,90	1,26	8,66	<0,0001

8.17-rasm. O‘yin holatiga qarab yakuniy auksion narxi uchun eng kichik kvadratlar regressiya xulosasi.

bir guruhdagi qoldiqlar taxminan normal va taxminan teng dispersiyaga ega ekanligini baholashimiz kerak. 8.16-rasmda ko‘rsatilganidek, auksion ma’lumotlari ushbu shartlarni qanoatlantiradi.

M **8.16-MISOL**

eBay auksionlarida *Mario Kart* narxi uchun modelda baholangan ikkita parametrni izohlang.

Ozod had `holat` 0 qiymatini olganda, ya’ni o‘yin ishlatilgan holatda bo‘lgandagi narxni baholaydi. Bu o‘yinning ishlatilgan versiyasining o‘rtacha sotuv narxi $42,87 ekanligini anglatadi.

Burchak koeffitsiyenti parametri shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha yangi o‘yinlar ishlatilgan o‘yinlarga qaraganda $10,90 qimmatroq sotiladi.

TOIFALI BASHORATLOVCHILAR UCHUN MODEL BAHOLARINI IZOHLASH

Baholangan ozod had javob o‘zgaruvchisining indikator qiymati 0 ga teng bo‘lgan holatni ko‘rsatadi. Baholangan burchak koeffitsiyenti javob o‘zgaruvchisining o‘rtacha o‘zgarishini bildiradi.

Bu mavzuni biz 9-bobda batafsilroq ko‘rib chiqamiz, unda ko‘p omilli regressiya yordamida bir vaqtning o‘zida bir nechta bashoratlovchi o‘zgaruvchilarning ta’sirini tahlil qilamiz.

Mashqlar

8.17 Regressiya birliklari. Voyaga yetgan erkaklar tanlanmasida bo‘y uzunligi (cm) bo‘yicha og‘irlikni (kg) bashorat qilish uchun regressiya o‘tkazilishi haqida o‘ylang. Korrelatsiya koeffitsienti, ozod had va burchak koeffitsiyentining birliklari qanday?

8.18 Qaysi biri yuqori? Quyidagilar orasida I yoki II yuqori ekanini aniqlang yoki ular tengmi. Fikringizni izohlang. Regressiya chizig‘i uchun burchak koeffitsiyenti b_1 ning bahosi bilan bog‘liq noaniqlik yuqoriroq bo‘ladi, qachonki:


I. regressiya chizig‘i atrofida ko‘p sochilib ketgan nuqtalar mavjud bo‘lsa yoki

II. regressiya chizig‘i atrofida juda kam sochilib ketgan nuqtalar mavjud bo‘lsa.

8.19 Ortiqcha–kam baholash, 1-qism. Olmaning vazniga asoslanib, uning saqlanish muddatini bashorat qilish uchun regressiya chizig‘i o‘tkazdik deylik. Ma’lum bir olma uchun saqlanish muddati 4,6 kun deb bashorat qilindi. Bu olma uchun qoldiq -0,6 kun. Olmaning saqlanish muddati yuqori baholanganmi yoki pastmi? Fikringizni izohlang.

8.20 Ortiqcha–kam baholash, 2-qism. Yiliga quyoshli kunlar sonidan kelib chiqib, har 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan teri saratoni holatlarini bashorat qilish uchun regressiya chizig‘i o‘tkazdik deylik. Ma’lum bir yil uchun teri saratoni holati 1000 kishiga 1,5 deb bashorat qilindi va shu yil uchun qoldiq 0,5. Teri saratoni holati yuqori baholanganmi yoki pastmi? Fikringizni izohlang.

8.21 Turizm xarajatlari. Turkiya sayohat agentliklari assotsiatsiyasi har yili Turkiyaga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni va turistlarning xarajatlari haqida ma’lumot beradi.[14] Uchta grafika taqdim etilgan. Ushbu ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni va eng kichik kvadratlar usulini ko‘rsatadigan tarqoqlik diagrammasi, qoldiqlar grafigi va qoldiqlar gistogrammasi.




(a) Turistlar soni va xarajatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) tushuntiruvchi va javob o‘zgaruvchilar qaysilar?

(c) Nega bu ma’lumotlarga regressiya chizig‘ini moslashtirishni xohlashimiz mumkin?

(d) Ushbu ma’lumotlar eng kichik kvadratlar chizig‘ini tuzish uchun talab qilinadigan shartlarga javob beradimi?Tarqoqlik diagrammasi, qoldiqlar grafigi va gistogrammadan foydalanib, ushbu savolga javob bering.

8.22 Starbucksda ozuqa, 1-qism. Quyidagi tarqoqlik diagrammasida “Starbucks” oziq-ovqat menyusi elementlarida kaloriya soni va uglevodlar miqdori (grammda) o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan.[15] Starbucks faqat kaloriya sonini namoyish qiladi, shuning uchun biz menyu elementining kaloriya tarkibiga asoslanib, uning uglevodlar miqdorini bashorat qilishga qiziqamiz.



(a) Starbucks oziq-ovqat menyusi elementlarida kaloriya soni va uglevodlar miqdori (grammda) o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Ushbu holatda tushuntiruvchi va javob o‘zgaruvchilar qaysilar?

(c) Nima uchun ushbu ma’lumotlarga regressiya chizig‘ini moslashni xohlashimiz mumkin?

(d) Ushbu ma’lumotlar eng kichik kvadratlar chizig‘ini tuzish uchun talab qilinadigan shartlarga javob beradimi?

8.23 The Coast Starlight, 2-qism. 8.11-mashqda Sietl va Los-Anjeles o’rtasida qatnovchi poyezd haqida ma’lumotlar keltirilgan. Coast Starlight poezdida bir bekatdan keyingi bekatga o‘rtacha safar vaqti 129

[14] Association of Turkish Travel Agencies, Foreign Visitors Figure & Tourist Spendings By Years.

[15] Source: Starbucks.com, collected on March 10, 2011, www.starbucks.com/menu/nutrition.

minut, standart og‘ishi esa 113 minut. Bir bekatdan keyingi bekatga bo‘lgan o‘rtacha masofa 108 milya, standart chetlanish esa 99 milya. Sayohat vaqti va masofa o‘rtasidagi korrelatsiya 0,636 ga teng.

(a) Sayohat vaqtini bashorat qilish uchun regressiya chizig‘i tenglamasini yozing.
(b) Ushbu masala mazmunidan kelib chiqib burchak koeffitsiyenti va ozod hadni sharhlang.
(c) Coast Starlight uchun masofadan sayohat vaqtini bashorat qilish uchun regressiya chizig‘ining R^2 qiymatini hisoblang va R^2 ni ushbu masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.
(d) Santa Barbara va Los-Anjeles orasidagi masofa 103 milya. Ushbu modeldan foydalanib, Starlight bu ikki shahar orasida qancha vaqt yurishini baholang.
(e) Aslida Coast Starlight Santa Barbaradan Los-Anjelesga 168 minutda yetib boradi. Qoldiqni hisoblang va ushbu qoldiq qiymatining ma’nosini tushuntiring.
(f) Amtrak Coast Starlight’ga Los-Anjelesdan 500 milya uzoqlikda joylashgan yangi bekat qo‘shishni ko‘rib chiqmoqda. Ushbu chiziqli modeldan Los-Anjelesdan ushbu nuqtaga yetib borish vaqtini bashorat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladimi?


8.24 Tana o‘lchovlari, 3-qism. 8.13-mashqda bir guruh odamlarning yelka va bo‘y ma’lumotlari keltirilgan. Yelka aylanasining o‘rtacha uzunligi 107,20 cm, standart chetlanishi esa 10,37 cm. Bo‘yning o‘rtacha uzunligi 171,14 cm, standart chetlanish esa 9,41 sm. Bo‘y va yelka aylanasi o‘rtasidagi korrelatsiya 0,67 ga teng.

(a) Bo‘yni bashorat qilish uchun regressiya chizig‘ining tenglamasini yozing.
(b) Ushbu masala mazmunidan kelib chiqib burchak koeffitsiyenti va ozod hadni sharhlang.
(c) Yelka aylanasidan bo‘yni bashorat qilish regressiya chizig‘ining R^2 qiymatini hisoblang va uni masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.
(d) Sizning sinfingizdan tasodifan tanlangan bir talabaning yelka aylanasining uzunligi 100 cm. Ushbu modeldan foydalanib, ushbu talabani bo‘yini bashorat qiling.
(e) (d)-qismdagi talabaning bo‘yi 160 cm. Qoldiqni hisoblang va ushbu qoldiq nimani anglatishini tushuntiring.
(f) Bir yoshli bolaning yelka aylanasining uzunligi 56 cm. Ushbu chiziqli modeldan ushbu bolaning bo‘yini bashorat qilish maqsadga muvofiq bo‘ladimi?

8.25 Qotilliklar va qashshoqlik, 1-qism. Quyidagi regressiya natijalari yillik qotilliklar sonini (har millionga) qashshoqlikda yashayotganlar foizidan bashorat qilish uchun keltirilgan. Tanlanma tasodifiy tanlangan 20 ta metropoliten hududdan olingan.

	Baholash	Std. Xato	t qiymati	Pr(> | t |)
(ozod had)	-29,901	7,789	-3,839	0,001
poverty%	2,559	0,390	6,562	0,000

$s = 5{,}512$ $R^2 = 70{,}52\%$ $R^2_{adj} = 68{,}89\%$




(a) Chiziqli model tenglamasini yozing.
(b) Ozod hadni sharhlang.
(c) Burchak koeffitsiyentini sharhlang.
(d) R^2 ni sharhlang.
(e) Korrelatsiya koeffitsientini hisoblang.

8.26 Mushuklar, 1-qism. Quyidagi regressiya natijalari mushuklarning tana og‘irligi (kg) asosida yurak og‘irligini (grammda) bashorat qilish uchun keltirilgan. Koeffitsientlar 144 ta mahalliy mushuklar ma’lumotlar to‘plamidan baholangan.

	Baholash	Std. Xatolik	t qiymat	Pr(> | t |)
(ozod had)	-0,357	0,692	-0,515	0,607
tana vazni	4,034	0,250	16,119	0,000

$s = 1{,}452$ $R^2 = 64{,}66\%$ $R^2_{adj} = 64{,}41\%$



(a) Chiziqli model tenglamasini yozing.
(b) Ozod hadni sharhlang.
(c) Burchak koeffitsiyentini sharhlang.
(d) R^2 ni sharhlang.
(e) Korrelatsiya koeffitsientini hisoblang.

8.3 Chiziqli regressiyadagi chetlashgan nuqtalarning turlari

Ushbu bo‘limda, qaysi chetlashgan nuqtalar muhim va ta’sirchan ekanligini aniqlash mezonlarini ko‘rib chiqamiz. Regressiyadagi chetlashgan nuqtalar – bu nuqtalar bulutidan ancha uzoq joylashgan kuzatuvlardir. Bu nuqtalar juda muhim, chunki ular eng kichik kvadratlar chizig‘iga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ⓜ **8.17-MISOL**

8.18-rasmda oltita grafik chizilgan bo‘lib, ular eng kichik kvadratlar chizig‘i va qoldiq grafigi bilan birgalikda ko‘rsatilgan. Har bir tarqoqlik diagrammasi va qoldiq grafigi jufti uchun chetlashgan nuqtalarni aniqlang va ularning eng kichik kvadratlar chizig‘iga qanday ta’sir ko‘rsatishini qayd eting. Eslab qoling, chetlashgan nuqta boshqa nuqtalarning katta qismi bilan mos kelmaydigan nuqta hisoblanadi.

---

(1) Asosiy nuqtalar bulutidan ancha uzoqda joylashgan bitta chetlashgan nuqta bor, ammo bu chiziqqa faqat ozgina ta’sir qilgandek ko‘rinadi.

(2) O‘ngda bitta chetlashgan nuqta bor, ammo u eng kichik kvadratlar chizig‘iga yaqin joylashgan, bu uning juda ta’sirchan emasligini ko‘rsatadi.

(3) Bulutdan ancha uzoqda bitta nuqta bor va ushbu chetlashgan nuqta eng kichik kvadratlar chizig‘ini o‘ng tomondan yuqoriga tortayotgandek ko‘rinadi. Asosiy bulut atrofidagi chiziqning unchalik yaxshi mos kelmayotganini tekshiring.

(4) Asosiy bulut va undan keyin to‘rtta chetlashgan nuqtalardan iborat kichik ikkilamchi bulut mavjud. Ikkilamchi bulut eng kichik kvadratlar chizig‘iga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda, bu esa chiziqning deyarli hamma joyda noto‘g‘ri mos kelishiga olib kelmoqda. Bulutlarning ikkilik holati uchun qiziqarli izoh bo‘lishi mumkin, bu esa o‘rganilishi kerak bo‘lgan masala.

(5) Asosiy nuqtalar bulutida aniq trend yo‘q va o‘ng tomondagi chetlashgan nuqta eng kichik kvadratlar chizig‘ining qiyaligini asosan nazorat qilayotgandek ko‘rinadi.

(6) Bulutdan ancha uzoqda bitta chetlashgan nuqta bor. Ammo, u eng kichik kvadratlar chizig‘iga yaqin joylashgan va juda ta’sirchan emasdek ko‘rinadi.


8.18-rasmdagi qoldiq grafiklarini tekshiring. Siz ehtimol asosiy bulutlarda ba’zi tendentsiyalarni toparsiz, xususan (3) va (4)-dagi holatlarda. Ushbu hollarda chetlashgan nuqtalar eng kichik kvadratlar chizig‘ining qiyaligiga ta’sir ko‘rsatgan. (5)-da esa aniq tendentsiyasiz ma’lumotlarga bitta chetlashgan nuqta sababli katta tendentsiyali chiziq belgilangan(!).

TA’SIR KUCHI

Gorizontal o‘qda bulut markazidan uzoqda joylashgan nuqtalar chiziqni ko‘proq tortadi, shuning uchun ularga **yuqori ta’sirga ega nuqtalar** deyiladi.

Gorizontal o‘qda chiziqdan uzoqda joylashgan nuqtalar yuqori ta’sir kuchiga ega nuqtalardir; bu nuqtalar eng kichik kvadratlar chizig‘ining qiyaligiga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agar ushbu yuqori ta’sir kuchiga ega nuqtalardan biri chiziqning qiyaligiga ta’sir ko‘rsatsa – masalan, 8.17-misoldagi (3)-, (4)- va (5)-holatlarda bo‘lgani kabi – unga **ta’sirchan nuqta** deyiladi. Odatda, agar chiziqni ushbu nuqta bo‘lmaganda moslashtirganimizda, ta’sirchan nuqta eng kichik kvadratlar chizig‘idan odatdagidan uzoqda bo‘lsa, biz uni ta’sirchan deb ayta olamiz.


Chetlashgan nuqtalarni olib tashlash istagi paydo bo‘ladi. Buni juda yaxshi sabab bo‘lmaguncha qilmang. Favqulodda holatlarni e’tibordan chetda qoldiradigan modellar ko‘pincha yomon ishlaydi. Masalan, agar bir moliyaviy firma eng katta bozor tebranishlarini – “chetlashgan nuqtalar”ni – e’tibordan chetda qoldirsa, ular noto‘g‘ri o‘ylangan sarmoyalashlar tufayli tez orada bankrot bo‘lardi.




8.18-rasm. Oltita grafik, har biri eng kichik kvadratlar chizig‘i va qoldiq grafiklari bilan berilgan. Barcha ma’lumotlar to‘plamlarida kamida bitta chetlashgan nuqta mavjud.

Mashqlar

8.27 Chetlangan qiymatlar, 1-qism. Quyidagi sochma diagrammada chetlangan qiymatlarni aniqlang va ular qanday turdagi chetlangan qiymatlar ekanligini aniqlang. Sababini tushuntiring.




8.28 Chetlangan qiymatlar, 2-qism. Quyidagi sochma diagrammalarda chetlangan qiymatlarni aniqlang va ular qanday turdagi chetlangan qiymatlar ekanligini toping. Sababini tushuntiring.



8.29 Shahar aholisi, 1-qism. Quyidagi tarqoqlik diagrammasi uyga egalik qiladigan oilalar foizi va shaharda joylashgan aholining foizi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.[16] 52 ta kuzatuv mavjud bo‘lib, ularning har biri AQSh shtatiga mos keladi. Puerto-Riko va Kolumbiya okrugi ham kiritilgan.

(a) Uyga egalik qiladigan oilalar foizi va shahar aholisi foizi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Pastki o‘ng burchakdagi chetlangan qiymat Kolumbiya okrugi bo‘lib, 100% aholi shahar deb hisoblanadi. Ushbu kuzatuv qanday turdagi chetlangan qiymat?



8.30 Emaklash yoshidagi chaqaloqlar, 2-qism. 8.12-mashq chaqaloqlar tug‘ilgan oydan keyingi 6 oy davomida (ular birinchi marta emaklashni boshlaydigan oy) o‘rtacha harorat va chaqaloqlarning o‘rtacha emaklash yoshi haqidagi ma’lumotlarni keltiradi. Ushbu ikki o‘zgaruvchi uchun tarqoqlik diagrammasi o‘rtacha harorat 53°F va o‘rtacha emaklash yoshi 28,5 hafta bo‘lgan potentsial chetlangan oyni aniqlaydi. Ushbu nuqta yuqori ta’sirga egami? U ta’sirli nuqtami?

8.4 Chiziqli regressiya uchun xulosalar

[16] United States Census Bureau, 2010 Census Urban and Rural Classification and Urban Area Criteria and Housing Characteristics: 2010.

Ushbu bo‘limda regressiya chizig‘i uchun burchak koeffitsiyenti va ozod had parametrlarining baholaridagi noaniqlikni muhokama qilamiz. Avvalgi bo‘limlarda nuqtaviy baholari uchun standart xatolarni aniqlaganimiz kabi, bu yangi baholar uchun standart xatolarni ham birinchi bo‘lib muhokama qilamiz.

8.4.1 O‘rta muddatli saylovlar va ishsizlik darajasi


AQShda Vakillar palatasi a’zolari uchun saylovlar har ikki yilda o‘tkaziladi, har to‘rt yilda esa AQSh Prezident saylovlari bilan birga o‘tkaziladi. Prezidentlik muddati o‘rtasida o‘tkaziladigan Vakillar palatasi saylovlariga o‘rta muddatli saylovlar deyiladi. Amerika ikki partiyaviy tizimida bir siyosiy nazariya shuni taklif qiladiki, ishsizlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, Prezident partiyasi o‘rta muddatli saylovlarda shuncha yomon natija ko‘rsatadi.

Ushbu da’voning to‘g‘riligini tekshirish uchun biz tarixiy ma’lumotlarni yig‘ishimiz va aloqa izlashimiz mumkin. Biz 1898 yildan 2018 yilgacha bo‘lgan barcha o‘rta muddatli saylovlarni ko‘rib chiqamiz, Buyuk depressiya davridagi saylovlardan tashqari. 8.19-rasm ushbu ma’lumotlarni va eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘ini ko‘rsatadi:

$$\text{Prezident partiyasi o‘rinlaridagi o‘zgarish foizi} = -7{,}36 - 0{,}89 \times (\text{ishsizlik darajasi}).$$

Biz Prezident partiyasi o‘rinlaridagi o‘zgarish foizini (2018 yilda respublikachilar o‘rinlarining o‘zgarish foizi) ishsizlik darajasi bilan solishtiramiz.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda chiziqli trenddan, o‘zgarmas dispersiya shartidan yoki sezilarli chetlashgan nuqtalardan biror-bir aniq chetga chiqishlar ko‘zga tashlanmaydi. Ma’lumotlar ketma-ket to‘plangan bo‘lsa-da, alohida tahlil ketma-ket kuzatuvlar orasidagi har qanday aloqani aniqlash uchun ishlatildi; bunday aloqa topilmadi.



8.19-rasm. Prezident partiyasining har bir o‘rta muddatli saylovda Vakillar palatasidagi o‘rinlari foizidagi o‘zgarish va ishsizlik darajasi. Buyuk depressiya davridagi ikkita nuqta olib tashlangan va ma’lumotlarga eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘i joylashtirilgan.

Y

8.18-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Buyuk Depressiya davri uchun ma’lumotlar (1934 va 1938 yillar) ishsizlik darajasi mos ravishda 21% va 18% bo‘lgani uchun olib tashlangan. Ularni ushbu tadqiqotdan olib tashlashga rozimisiz? Nega rozisiz yoki nega rozi emassiz?[17]

8.19-rasmda ko‘rsatilgan chiziqda salbiy burchak koeffitsiyenti mavjud. Ammo, ushbu burchak koeffitsiyenti va ozod had parametr qiymatlarining faqat baholari hisoblanadi. Biz shunday savolni o‘ylashimiz mumkin: “haqiqiy” chiziqli modelda salbiy burchak koeffitsiyenti bormi? Ya’ni, ma’lumotlar siyosiy nazariyaning ishonchli ekanligini ko‘rsatadimi, ya’ni ishsizlik darajasi o‘rta muddatli saylovlar uchun foydali bashoratlovchimi? Biz ushbu tadqiqotni statistik gipoteza testiga aylantirishimiz mumkin:

H_0: $\beta_1 = 0$. Haqiqiy chiziqli modelning qiyaligi nolga teng.

H_A: $\beta_1 \neq 0$. Haqiqiy chiziqli modelning qiyaligi nolga teng emas. Ishsizlik darajasi Prezident partiyasining Vakillar Palatasida o‘rin yutishi yoki yo‘qotishini bashorat qiluvchi omildir.

Agar ma’lumotlar haqiqiy burchak koeffitsiyenti parametri nolga teng emasligini ko‘rsatuvchi kuchli dalillarni taqdim etsa, biz H_0 ni rad etamiz va H_A ni qabul qilamiz. Gipotezalarni baholash uchun biz baholashning standart xatoligini aniqlaymiz, tegishli test statistikani hisoblaymiz va p-qiymatini aniqlaymiz.

8.4.2 Dasturiy ta’minotdan regressiya natijalarini tushunish

Oldin ko‘rgan boshqa nuqtaviy baholarga o‘xshab, biz b_1 uchun standart xatolik va test statistikani hisoblashimiz mumkin. Odatda, test statistikani T bilan belgilaymiz, chunki u t-taqsimotga bo‘ysunadi.

Biz standart xatolikni hisoblash uchun statistik dasturdan foydalanamiz va ushbu standart xatolik qanday aniqlanishini tushuntirishni ikkinchi yoki uchinchi statistik kursga qoldiramiz. 8.20-rasmda 8.19-rasmda ko‘rsatilgan eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘i uchun dasturiy ta’minot natijalari ko‘rsatilgan. *unemp* qatori burchak koeffitsiyenti uchun nuqta bahosini va boshqa gipoteza testi ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi, bu ishsizlik o‘zgaruvchisining koeffitsienti hisoblanadi.

	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	-7,3644	5,1553	-1,43	0,1646
ishsizlik	-0,8897	0,8350	-1,07	0,2961
				$ed = 27$

8.20-rasm. Ishsizlikka javoban Prezident partiyasi uchun o‘rta muddatli saylovdagi o‘rin yo‘qotishlarini modellashtiruvchi regressiya chizig‘i uchun dasturiy ta’minot natijalari.

8.19-MISOL

8.20-rasmning birinchi va ikkinchi ustunlari nimani anglatadi?

Birinchi ustundagi qiymatlar eng kichik kvadratlar baholarini, ya’ni b_0 va b_1 ni ifodalaydi, ikkinchi ustundagi qiymatlar esa har bir bahoning standart xatoliklariga mos keladi. Ushbu baholar yordamida regressiya chizig‘ining tenglamasini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\hat{y} = -7{,}3644 - 0{,}8897x$$

bu yerda $\hat{y}$ Prezident partiyasining o‘rinlaridagi o‘zgarishni, x esa ishsizlik darajasini anglatadi.

Avvalroq sonli ma’lumotlarda gipotezalarni sinash uchun t-test statistikasi ishlatilgan edi. Regressiyada bu juda o‘xshash. Ko‘rib chiqilayotgan gipotezalarda burchak koeffitsiyenti uchun nol qiymat 0 bo‘lganligi sababli, test statistikani T (yoki Z) ball formulasi yordamida hisoblashimiz mumkin:

$$T = \frac{\text{baholash} - \text{nol qiymat}}{\text{SX}} = \frac{-0{,}8897 - 0}{0{,}8350} = -1{,}07.$$

[17] Biz ikkita jihatni taqdim etamiz. Ushbu nuqtalarning har biri har qanday eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘ida juda yuqori ta’sir kuchi qiymatiga ega bo‘ladi va ishsizlik darajasi juda yuqori bo‘lgan yillar boshqa yillarda, ya’ni ishsizlik darajasi faqat o‘rtacha yuqori bo‘lgan hollarda nima bo‘lishini tushunishga yordam bermasligi mumkin. Boshqa tomondan, bular istisno hollardir va agar ularni yakuniy tahlildan chiqarib tashlasak, biz muhim ma’lumotlarni yo‘qotishimiz mumkin.

Bu 8.20-rasmning uchinchi ustuniga mos keladi.

8.20-MISOL

Gipotezani sinash uchun 8.20-rasmdan p-qiymatini aniqlang.

Jadvalning oxirgi ustuni ishsizlik darajasining koeffitsienti uchun ikki tomonlama gipoteza sinovi uchun p-qiymatini beradi: 0,2961. Ya'ni, ma'lumotlar ishsizlik darajasining Prezident partiyasining Vakillar palatasidagi o'rinlar yo'qotishi yoki ortishi bilan bog'liqligi haqida ishonarli dalil bermaydi.

REGRESSIYADA STATISTIK XULOSA CHIQARISH

Amaliyotda, odatda, nuqtaviy baholarini, standart xatoliklarni, test statistikasini va p-qiymatlarini aniqlash uchun statistik dasturiy ta'minotdan foydalanamiz. Ammo dasturiy ta'minot usulning mosligini tekshirmaydi, shuning uchun shartlar bajarilganligini o'zimiz tekshirishimiz kerak.

8.21-MISOL

300-betdagi 8.15-rasmni ko'rib chiqing, u Elmhurst kolleji yordami va talaba oilasining daromadlari orasidagi munosabatni ko'rsatadi. Siz burchak koeffitsiyentining statistik jihatdan nolga teng bo'lmaganligiga qay darajada ishonasiz? Ya'ni, formal gipoteza testi chiziqning haqiqiy burchak koeffitsiyenti parametri nolga teng bo'lishi haqidagi da'voni rad etadi deb o'ylaysizmi?

---

o'zgaruvchilar orasidagi munosabat mukammal bo'lmasa-da, ma'lumotlarda aniq pasayuvchi tendentsiya kuzatilmoqda. Bu gipoteza testi burchak koeffitsiyentining nolga tengligi haqidagi nol gipotezasini rad etishini ko'rsatadi.

8.22-YO'NALTIRILGAN MASHQ

8.21-rasm Elmhurst kolleji ma'lumotlari uchun eng kichik kvadratlar regressiya chizig'ini moslashtirishdagi statistik dasturiy ta'minot natijalarini ko'rsatadi. Ushbu gipotezalarni formal ravishda baholash uchun ushbu natijalarni ishlating.[18]

H_0: Oilaviy daromad uchun haqiqiy koeffitsient nolga teng.

H_A: Oilaviy daromad uchun haqiqiy koeffitsient nolga teng emas.

	Baho	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	24319,3	1291,5	18,83	<0,0001
oila_daromadi	-0,0431	0,0108	-3,98	0,0002
				$ed = 48$

8.21-rasm. Elmhurst kolleji ma'lumotlari uchun eng kichik kvadratlar regressiya xulosasi, bu yerda universitet tomonidan moliyaviy yordamni talaba oilasining daromadlariga qarab bashorat qilamiz.

8.4.3 Regressiya koeffitsiyenti uchun ishonch intervali

Regressiya natijalaridan foydalanib, model koeffitsienti uchun gipoteza sinovini o'tkazish bilan bir qatorda, ushbu koeffitsient uchun intervalini ham qurishimiz mumkin.

8.23-MISOL

8.21-rasmdagi regressiya natijalaridan foydalanib, `oila_daromadi` koeffitsienti uchun 95% lik is-

[18] Oilaviy daromad o'zgaruvchisi bilan mos keladigan ikkinchi qatorga qaraymiz. Chiziqning burchak koeffitsiyenti bahosi -0,0431 ekanligi ko'rinadi. Ushbu bahoning standart xatoligi 0,0108 va t-test statistikasi $T = -3{,}98$. Biz qiziqqan ikki tomonlama test uchun p-qiymat 0,0002 ga teng. p-qiymat juda kichik bo'lgani uchun, biz nol gipotezani rad qilamiz va Elmhurst kolleji 2011-yilda qabul qilingan talabalar uchun oilaviy daromad va moliyaviy yordam orasida salbiy bog'liqlik bor degan xulosaga kelamiz. Bundan tashqari, haqiqiy burchak koeffitsiyenti parametri haqiqatan ham nolga teng emasligini ishonch bilan ayta olamiz.

honch intervalini hisoblang.

Nuqtaviy baho -0,0431, standart xatolik esa $SX = 0{,}0108$ ga teng. Model koeffitsienti uchun intervalni qurishda odatda t-taqsimotdan foydalanamiz. Taqsimotning erkinlik darajasi regressiya natijalarida berilgan, $ed = 48$, bu bizga $t^\star_{48} = 2{,}01$ ni intervalda ishlatish uchun aniqlash imkonini beradi.

Endi intervalni odatiy usulda qurishimiz mumkin:

$$\text{nuqtaviy baho} \pm t^\star_{48} \times SX \quad \rightarrow \quad -0{,}0431 \pm 2{,}01 \times 0{,}0108 \quad \rightarrow \quad (-0{,}0648; -0{,}0214)$$

Biz 95% lik ishonch bilan ayta olamizki, `oila_daromadi` o‘zgaruvchisining har bir dollarga ortishi universitetning yordami o‘rtacha \$0,0214 dan \$0,0648 gacha kamayishini bashorat qiladi.

REGRESSIYA KOEFFITSIYENTI UCHUN ISHONCH INTERVALI

Model koeffitsientlari uchun ishonch intervalini t-taqsimot yordamida hisoblash mumkin:

$$b_i \ \pm \ t^\star_{ed} \times SX_{b_i}$$

bu yerda $t^\star_{ed}$ bu ishonch va erkinlik darajasiga mos keladigan t-qiymat bildiradi.


Ushbu kitobda intervallar mavzusida biz faqat model parametrlari uchun ishonch intervallariga e’tibor qaratdik. Biroq, qiziqarli bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa interval turlari ham mavjud, masalan, javob qiymati uchun bashoratlovchi interval va regressiya mazmunida o‘rtacha javob qiymati uchun interval . Ushbu ikkita interval turi bilan siz quyida tanishishingiz mumkin:

www.openintro.org/d?file=stat_extra_linear_regression_supp

Mashqlar

Quyidagi mashqlarda eng kichik kvadratlar regressiya chizig‘ini moslash uchun shartlarni vizual ravishda tekshiring. Biroq, ushbu shartlarni yechimlaringizda keltirishingiz shart emas.

8.31 Tana o‘lchovlari, 4-qism. Quyidagi tarqoqlik diagrammasi va eng kichik kvadratlar regressiyasi ma’lumotlari 507 nafar jismoniy faol shaxsning vazni (kilogrammlarda) va bo‘yi (santimetrlarda) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.



	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	-105,0113	7,5394	-13,93	0,0000
bo‘y	1,0176	0,0440	23,13	0,0000


(a) Bo‘y va vazn o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Regressiya chizig‘ining tenglamasini yozing. burchak koeffitsiyenti va ozod had parametrlarini masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

(c) Ma’lumotlar bo‘yning ortishi vaznning ortishi bilan bog‘liq ekanini kuchli dalil bilan tasdiqlaydimi? Nolinchi va muqobil gipotezalarni yozing. p-qiymatni keltiring va xulosangizni bildiring.

(d) Bo‘y va vazn o‘rtasidagi korrelatsiya koeffitsienti 0,72. R^2 ni hisoblang va uni masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

8.32 Pivo va qon tarkibidagi spirt miqdori. Ko‘pchilik spirtli ichimliklar miqdorini bashorat qilishda jins, vazn, ichish odatlari va boshqa ko‘plab omillarni, shunchaki qancha pivo ichilganini hisoblashdan ko‘ra muhimroq deb hisoblaydi. Bu yerda “Ohio State” Universitetidan o‘n olti nafar talabaning ma’lumotlarini ko‘rib chiqamiz. Ushbu talabalar tasodifiy miqdorda pivo ichishgan. Talabalar erkak va ayollar bo‘lib, vaznlari va ichish odatlari bilan farq qilishgan. 30 daqiqadan so‘ng politsiya xodimi ularning qondagi alkogol miqdori har bir desilitr qon uchun grammda o‘lchadi.[19] Quyidagi tarqoqlik diagrammasi va regressiya jadvali natijalarni umumlashtiradi.



	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	-0,0127	0,0126	-1,00	0,3320
Pivo	0,0180	0,0024	7,48	0,0000

(a) Pivo bankalari soni va qondagi alkogol miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.


(b) Regressiya chizig‘ining tenglamasini yozing. burchak koeffitsiyenti va ozod had parametrlarini masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

(c) Ma’lumotlar ko‘proq pivo ichish qondagi alkogol miqdorining ortishi bilan bog‘liq ekanini kuchli dalil bilan ta’minlaydimi? Nolinchi va muqobil gipotezalarni yozing. p-qiymatini keltiring va xulosangizni bildiring.

(d) Pivo bankalari soni va qondagi alkogol miqdori o‘rtasidagi korrelatsiya koeffitsienti 0,89. R^2 ni hisoblang va uni masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

(e) Agar biz barga tashrif buyursak, odamlar qancha pivo ichganini so‘rasak va ularning qondagi alkogol miqdorini o‘lchasak, pivo soni va qondagi alkogol miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlik Ohio State tadqiqotidagi bog‘liqlik kabi kuchli bo‘ladimi?

8.33 Er va xotinlar, 2-qism. Quyidagi tarqoqlik diagrammasi Britaniyadan tasodifiy tanlangan 170 ta turmush qurgan juftliklarning er va xotin bo‘ylarini umumlashtiradi. Bunda ikkala sherikning yoshi 65 yoshdan kichik. Xotinning bo‘yini er bo‘yidan bashorat qilish uchun eng kichik kvadratlar moslashuvi natijalari jadvalda keltirilgan.



	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	43,5755	4,6842	9,30	0,0000
erning bo‘yi	0,2863	0,0686	4,17	0,0000

(a) Uzunroq bo‘yli erkaklar uzunroq bo‘yli ayollar bilan turmush quradi degan kuchli dalillar bormi? Gipotezalarni yozing va testni o‘tkazish uchun ishlatilgan barcha ma’lumotlarni keltiring.

(b) Xotinning bo‘yini erning bo‘yidan bashorat qilish uchun regressiya chizig‘ining tenglamasini yozing.

(c) burchak koeffitsiyenti va ozod had paramaetrlarini masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

(d) Agar $R^2 = 0{,}09$ bo‘lsa ushbu ma’lumotlar to‘plamida bo‘ylarning korrelatsiyasini hisoblang.

(e) Britaniyada 5’9” (69 dyuym) bo‘lgan bir turmush qurgan erkakni uchratdingiz. Uning xotinining bo‘yini bashorat qiling. Ushbu bashorat qanchalik ishonchli?

(f) Britaniyada 6’7” (79 dyuym) bo‘lgan yana bir turmush qurgan erkakni uchratdingiz. Ushbu er xotinining bo‘yini bashorat qilish uchun bir xil chiziqli modelni ishlatish to‘g‘rimi? Nima uchun?


8.34 Shaharlarda uy egalari, 2-qism. 8.29-mashq oilalar o‘z uylariga egalik foizi bilan shahar hududida yashaydigan aholining foizi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan tarqoqlik diagrammasini beradi. Quyida

[19] J. Malkevitch and L.M. Lesser. *For All Practical Purposes: Mathematical Literacy in Today’s World.* WH Freeman & Co, 2008.

Kolumbiya okrugi chiqarib tashlangan o‘xshash tarqoqlik diagrammasi hamda qoldiqlar grafigi keltirilgan 51 holat mavjud.

(a) Ushbu ma’lumotlar uchun $R^2 = 0{,}28$. Korrelatsiya qanday? Uning ijobiy yoki salbiy ekanligini qanday aniqlash mumkin?

(b) Qoldiqlar grafigini tekshiring. Nima kuzatdingiz? Ushbu ma’lumotlar uchun oddiy eng kichik kvadratlar moslashuvi mos keladimi?



8.35 Qotilliklar va qashshoqlik, 2-qism. 8.25-mashq yillik qotilliklar sonini (har millionga) qashshoqlik foizidan bashorat qilish modeli natijalarini keltiradi. Bu tasodifiy tanlangan 20 ta metropoliten hududining tanlanmasi asosida olingan. Model natijalari quyida keltirilgan.

	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	-29,901	7,789	-3,839	0,001
Qashshoqlik%	2,559	0,390	6,562	0,000

$$s = 5{,}512 \qquad R^2 = 70{,}52\% \qquad R^2_{adj} = 68{,}89\%$$

(a) Qashshoqlik foizi qotillik darajasining ahamiyatli bashoratlovchisi ekanligini baholash uchun gipotezalar qanday?

(b) (a)-qismdagi gipoteza testining xulosasini ushbu ma’lumotlar mazmunida yozing.

(c) Qashshoqlik foizining burchak koeffitsiyenti uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang va uni ma’lumotlar mazmunida sharhlang.

(d) Gipoteza testi natijalari va ishonch intervali bir-biriga mos keladimi? Izohlang.

8.36 Chaqaloqlar. Kam vaznli chaqaloqlarda homiladorlik davomiyligi (tug‘ilish vaqti bilan urug‘lanish oralig‘i) tug‘ilishdagi bosh aylanasini bashorat qilish uchun foydali bo‘ladimi? Harvardning o‘quv kasalxonasida 25 ta kam vaznli chaqaloq ustida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotchilar bosh aylanasini (santimetrlarda) homiladorlik davomiyligiga (haftalarda) nisbatan regressiya chizig‘ini hisobladilar. Hisoblangan regressiya chizig‘i quyidagicha:

$$\widehat{bosh\ aylana}\ uzunligi = 3{,}91 + 0{,}78 \times homiladorlik\ davomiyligi\ .$$

(a) Homiladorlik davomiyligi 28 hafta bo‘lgan chaqaloqning bosh aylanasini bashorat qiling.

(b) Homiladorlik davomiyligi koeffitsienti uchun standart xatolik 0,35 bo‘lib, bu $ed = 23$ ga mos keladi. Ushbu model homiladorlik davomiyligi bosh aylanasiga ahamiyatli bog‘liq ekanligini ko‘rsatadimi?

Bob bo‘yicha mashqlar


8.37 To‘g‘ri / Noto‘g‘ri. Quyidagi bayonotlar to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang. Agar noto‘g‘ri bo‘lsa, sababini tushuntiring.

(a) -0,90 korrelatsiya koeffitsienti 0,5 korrelatsiyaga qaraganda kuchliroq chiziqli bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

(b) Korrelatsiya har qanday ikkita o‘zgaruvchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchaydi.

8.38 Daraxtlar. Quyidagi tarqoqlik diagrammasi qora gilos daraxtlarining bo‘yi, diametri va yog‘och hajmi

o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Daraxt diametri yer sathidan 4,5 fut balandlikda o‘lchangan.[20]




(a) Ushbu daraxtlarning hajmi va bo‘yi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(b) Ushbu daraxtlarning hajmi va diametri o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasvirlab bering.

(c) Yana bir qora gilos daraxtining bo‘yi va diametri ma’lumotlari mavjud deb faraz qiling. Ushbu daraxtning yog‘och hajmini oddiy chiziqli regressiya modeli yordamida bashorat qilish uchun qaysi o‘zgaruvchidan foydalanish kerak? Sababini tushuntiring.

8.39 Er va xotinlar, 3-qism. 8.33-mashqda Britaniyada 170 ta turmush qurgan juftlikning er va xotin yoshlarini aks ettiruvchi tarqoqlik diagrammasini keltiradi. Quyida xotin yoshini er yoshidan bashorat qilish uchun eng kichik kvadratlar moslashuvi natijalari keltirilgan.



	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	1,5740	1,1501	1,37	0,1730
erning yoshi	0,9112	0,0259	35,25	0,0000
				$df = 168$

(a) Er va xotin yoshlaridagi farq har xil yoshlar uchun izchilmi? Agar shunday bo‘lsa, burchak koeffitsiyenti parametri $\beta_1 = 1$ bo‘ladi. Yuqoridagi ma’lumotlardan foydalanib, er va xotin yoshlaridagi farq har xil yoshlar uchun farq qiladimi, shunga kuchli dalillar bor-yo‘qligini baholang.

(b) Xotin yoshini er yoshidan bashorat qilish uchun regressiya chizig‘ining tenglamasini yozing.

(c) Burchak koeffitsiyenti va ozod had parametrlarini masala mazmunidan kelib chiqib sharhlang.

(d) Agar $R^2 = 0{,}88$ bo‘lsa, ushbu ma’lumotlar to‘plamidagi yoshlarning korrelatsiyasi qanday?

(e) Britaniyalik 55 yoshli turmush qurgan erkakni uchratdingiz. Uning xotini yoshini bashorat qiling. Ushbu bashorat qanchalik ishonchli?

(f) Britaniyalik 85 yoshli turmush qurgan boshqa bir erkakni uchratdingiz. Uning xotini yoshini bashorat qilish uchun bir xil chiziqli modeldan foydalanish to‘g‘ri bo‘ladimi? Tushuntiring.

8.40 Mushuklar, 2-qism. 8.26-mashq mushuklarning tana vazni (kg) orqali ularning yurak vazni (gramm) ni bashorat qilish uchun regressiya natijalarini taqdim etadi. Koeffitsientlar 144 uy mushuklari to‘plamidan foydalangan holda baholangan. Model natijalari quyida keltirilgan.

	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	-0,357	0,692	-0,515	0,607
tana vazni	4,034	0,250	16,119	0,000


$$s = 1{,}452 \qquad R^2 = 64{,}66\% \qquad R^2_{adj} = 64{,}41\%$$

(a) Burchak koeffitsiyentining nuqtaviy bahosi ijobiy ekanligi ko‘rinadi. Tana vazni mushuklarda yurak vazni bilan ijobiy bog‘liqmi yoki yo‘qligini baholash uchun qanday gipotezalar mavjud?

[20] Source: R Dataset, stat.ethz.ch/R-manual/R-patched/library/datasets/html/trees.html.


(b) (a) qismdagi gipoteza testining xulosasini ushbu ma'lumotlar mazmunidan kelib chiqib izohlang.
(c) Tana vazni uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang va uni ushbu ma'lumotlar mazmunida izohlang.
(d) Gipoteza testi va ishonch intervali natijalari bir-biriga mos keladimi? Tushuntiring.

8.41 Starbucksdagi oziq-ovqat, 2-qism. 8.22-mashq "Starbucks" oziq-ovqat menyusidagi oziqlanish ma'lumotlari to'plamini taqdim etdi. Quyida taqdim etilgan tarqoqlik diagrammasi va qoldiqlar grafigiga asoslanib, ushbu menyu elementlarining oqsillar tarkibi va kaloriyalari o'rtasidagi bog'liqlikni tasvirlab bering va oddiy chiziqli modeldan oqsillar miqdorini kaloriyalar sonidan bashorat qilishda foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki yo'qligini aniqlang.




8.42 Shlem va tushliklar. Tarqoqlik diagrammasi maktabda kamaytirilgan narxdagi tushliklar oladigan mahalladagi bolalar foizi va shlem kiyadigan velosipedchilar foizi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Kamaytirilgan narxdagi tushlik oladigan bolalar foizining o'rtacha qiymati 30,8%, standart chetlanishi 26,7%, shlem kiyadigan velosipedchilar foizining o'rtacha qiymati 38,8%, standart chetlanishi 16,9%.

(a) Ushbu ma'lumotlar uchun eng kichik kvadratlar regressiya chizig'i uchun R^2 72% bo'lsa ular o'rtasidagi korrelatsiyani aniqlang.
(b) Ushbu ma'lumotlar uchun eng kichik kvadratlar regressiya chizig'ining burchak koeffitsiyenti va ozod had parametrlarini hisoblang.
(c) Eng kichik kvadratlar regressiya chizig'ining ozod hadini ushbu masala mazmunida izohlang.
(d) Eng kichik kvadratlar regressiya chizig'ining burchak koeffitsiyenti parametrini ushbu masala mazmunida izohlang.
(e) Agar mahallada 40% bolalar kamaytirilgan narxdagi tushlikni olsa va 40% velosipedchilar shlem kiygan bo'lsa, bu holda qoldiqning qiymati qanday bo'ladi? Ushbu qoldiqning ma'nosini masala mazmunida izohlang.



8.43 Korrelatsiyani moslang, 3-qism. Har bir korrelatsiyani mos tarqoqlik diagrammasi bilan moslang.

(a) $r = -0{,}72$
(b) $r = 0{,}07$
(c) $r = 0{,}86$
(d) $r = 0{,}99$



8.44 Professorlarni baholang. Ko'plab kollejlar talabalariga kurs va o'qituvchini anonim baholash imkoniyatini beradi. Biroq, ushbu talabalar baholashlari kurs sifati va o'qitish samaradorligini o'lchashda indikator sifatida ishlatilishi tez-tez tanqid qilinadi. Chunki bu o'lchovlar o'qitishga bog'liq bo'lmagan xususiyatlarning, masalan, o'qituvchining tashqi ko'rinishining ta'sirini aks ettirishi mumkin. Texas Universiteti


tadqiqotchilari 463 nafar professor uchun o‘qitishni baholash ballari va standartlashtirilgan jozibadorlik ballari (0 o‘rtacha, manfiy ball o‘rtachadan past, ijobiy ball esa o‘rtachadan yuqori ekanligini anglatadi) bo‘yicha ma’lumotlarni to‘pladilar.[21] Quyidagi tarqoqlik diagrammasi ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi va regressiya modeli natijasi o‘qitishni baholash ballarini jozibadorlik ballaridan bashorat qilish uchun keltirilgan.


	Baholash	Std. xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
Ozod had	4,010	0,0255	157,21	0,0000
jozibadorlik		0,0322	4,13	0,0000

(a) Agar standartlashtirilgan jozibadorlik ballarining o‘rtacha qiymati -0,0883 va o‘qitishni baholash ballarining o‘rtacha qiymati 3,9983 bo‘lsa, burchak koeffitsiyentini hisoblang. Muqobil ravishda, burchak koeffitsiyentini model xulosasi jadvalidagi ma’lumotlardan foydalanib hisoblash mumkin.

(b) Ushbu ma’lumotlar o‘qitishni baholash va jozibadorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikning qiyaligi ijobiy ekanligini ko‘rsatadigan ishonchli dalillarni taqdim etadimi? Sababini tushuntiring.

(c) Chiziqli regressiya uchun zarur bo‘lgan shartlarni sanab o‘ting va quyidagi diagnostik grafiklar asosida ushbu model uchun har biri qanoatlanadimi yoki yo‘qligini tekshiring.





[21] Daniel S Hamermesh and Amy Parker. “Beauty in the classroom: Instructors’ pulchritude and putative pedagogical productivity”. In: *Economics of Education Review* 24.4 (2005), pp. 369–376.

9-BOB

Ko‘p o‘lchovli va logistik regressiya

9.1 Ko‘p o‘lchovli regressiyaga kirish

9.2 Modelni tanlash

9.3 Grafiklar yordamida model shartlarini tekshirish

9.4 Ko‘p o‘lchovli regressiya bo‘yicha ish: Mario Kart

9.5 Logistik regressiyaga kirish

Oddiy chiziqli regressiya tamoyillari keng ko‘lamli murakkab sharoitlarda qo‘llaniladigan yanada mukammal regressiya modellari uchun poydevor yaratadi. 9-bobda biz chiziqli modelda birdan ortiq bashoratlovchidan foydalanish imkoniyatini taqdim etuvchi ko‘p o‘lchovli regressiyani hamda ikkita darajaga ega toifali o‘zgaruvchilarni bashorat qilish usuli bo‘lgan logistik regressiyani ko‘rib chiqamiz.



Ingliz tilidagi videolar, slaydlar va boshqa resurslar uchun quyidagi manzilga tashrif buyuring: **www.openintro.org/os**

9.1 Ko‘p o‘lchovli regressiyaga kirish

Ko‘p o‘lchovli regressiya oddiy ikki o‘zgaruvchili regressiyani kengaytirib, bitta javob o‘zgaruvchisi va bir nechta bashoratlovchilar (x_1, x_2, x_3, ...) bo‘lgan holatlarni o‘rganadi. Ushbu usul bir nechta o‘zgaruvchilar bir vaqtning o‘zida natijaga ta’sir o‘tkazishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llaniladi.

Biz “Lending Club”dan olingan qarzlar haqidagi ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. Ushbu ma’lumotlar to‘plamini biz avval 1- va 2-boblarda ko‘rgan edik. Qarz ma’lumotlari o‘z ichiga qarz shartlari hamda qarz oluvchining ma’lumotlarini oladi. Biz yaxshiroq tushunishni istagan natija o‘zgaruvchisi bu qarzga belgilangan foiz stavkasi hisoblanadi. Masalan, boshqa barcha xususiyatlar bir xil bo‘lsa, kimdir qancha qarzga ega ekanligi muhimmi? Ularning daromadi tasdiqlanganmi yoki yo‘qmi, bu muhimmi? Ko‘p o‘lchovli regressiya bizga ushbu va boshqa savollarga javob berishda yordam beradi.

`loans` ma’lumotlar to‘plamida 10000 ta qarz ma’lumotlari mavjud va biz mavjud o‘zgaruvchilarning faqat kichik bir qismini, avvalgi boblarda ko‘rganlarimizdan ba’zilarini hamda yangi bo‘lgan o‘zgaruvchilarni ko‘rib chiqamiz. Ma’lumotlar to‘plamidagi dastlabki oltita kuzatuv 9.1-rasmda ko‘rsatilgan va har bir o‘zgaruvchining tavsiflari 9.2-rasmda berilgan. E’tibor bering, o‘tmishdagi bankrotlik o‘zgaruvchisi (`bankruptcy`) indikator o‘zgaruvchi . Unda agar qarz oluvchi o‘tmishda bankrotlikka duch kelgan bo‘lsa, qiymati 1, aks holda esa 0 ga teng bo‘ladi. Toifa nomi o‘rniga indikator o‘zgaruvchidan foydalanish ushbu o‘zgaruvchilarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri regressiyada ishlatishga imkon beradi. Boshqa ikkita (`income_ver` va `issued`) o‘zgaruvchilar esa toifali o‘zgaruvchilar bo‘lib, har biri bir nechta nominal qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Ularni modelda qanday ishlatishimizni 9.1.1-bo‘limda muhokama qilamiz.

	interest_rate	income_ver	debt_to_income	credit_util	bankruptcy	term	issued	credit_checks
1	14,07	verified	18,01	0,55	0	60	Mar2018	6
2	12,61	not	5,04	0,15	1	36	Feb2018	1
3	17,09	source_only	21,15	0,66	0	36	Feb2018	4
4	6,72	not	10,16	0,20	0	36	Jan2018	0
5	14,07	verified	57,96	0,75	0	36	Mar2018	7
6	6,72	not	6,46	0,09	0	36	Jan2018	6
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮

9.1-rasm. `loans` ma’lumotlar to‘plamidan dastlabki oltita qator.

o‘zgaruvchi	**tavsif**
`interest_rate`	Qarz uchun foiz stavkasi (`foiz stavkasi`).
`income_ver`	Qarz oluvchining daromad manbai va miqdori tasdiqlanganligini tavsiflovchi toifali o‘zgaruvchi (`daromad tasdig‘i`). Ushbu o‘zgaruvchi `tasdiqlangan` (`verified`), `faqat manba` (`source_only`), va `yo‘q` (`not`) darajalarini qabul qiladi.
`debt_to_income`	Qarzdorlik darajasi, ya’ni qarz oluvchining umumiy qarzlarining umumiy daromadiga nisbatan foizi (`qarzdorlik darajasi`).
`credit_util`	Qarz oluvchi foydalanayotgan barcha kredit imkoniyatlarining ulushi. Masalan, kredit kartasining kreditdan foydalanish ko‘rsatkichi kartaning balansini kartaning kredit limitiga bo‘lish orqali hisoblanadi (`kredit ulushi`).
`bankruptcy`	Qarz oluvchining o‘tmishda bankrotlik holati mavjudligini ko‘rsatuvchi indikator o‘zgaruvchi (`bankrotlik`). Ushbu o‘zgaruvchi agar javob “ha” bo‘lsa, `1` qiymatni va agar javob “yo‘q” bo‘lsa, `0` qiymatni qabul qiladi.
`term`	Qarzning muddati, oylar bilan (`muddati`).
`issued`	Qarz berilgan yil va oy, bu qarzlar har doim 2018 yilning birinchi choragida berilgan (`berilgan vaqti`).
`credit_checks`	So‘nggi 12 oyda kredit tekshiruvlari soni. Masalan, kredit kartasi uchun ariza topshirganda, odatda ariza oluvchi kompaniya kreditni tekshiradi (`kredit tekshiruvi`).

9.2-rasm. `loans` ma’lumotlar to‘plamidagi o‘zgaruvchilar va ularning tavsiflari.

9.1.1 Indikator va toifali o‘zgaruvchilar bashoratlovchi sifatida

Keling, biror kishining o‘tmishda bankrotlik holati mavjudligini ko‘rsatuvchi yagona bashoratlovchi bilan foiz stavkasiga chiziqli regressiya modelini moslashtirishdan boshlaymiz:

$$\widehat{foiz\ stavkasi} = 12.33 + 0{,}74 \times bankrotlik.$$

Ushbu model natijalari 9.3-rasmda keltirilgan.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	12,3380	0,0533	231,49	<0,0001
bankrotlik	0,7368	0,1529	4,82	<0,0001
				$ed = 9998$

9.3-rasm. Qarz oluvchining o‘tmishda bankrotlik holati mavjudligiga asoslangan foiz stavkasini bashorat qilish uchun chiziqli modelning umumlashmasi.

9.1-MISOL

Modeldagi o‘tmishdagi bankrotlik o‘zgaruvchisi uchun koeffitsiyentni talqin qiling. Ushbu koeffitsiyent 0 dan sezilarli darajada farq qiladimi?

`bankrotlik` (`bankruptcy`) o‘zgaruvchisi ikkita qiymatdan birini oladi: qarz oluvchi tarixida bankrotlik mavjud bo‘lsa 1 va aks holda 0. Burchak koeffisiyent 0,74 modelning o‘tmishda bankrotlik holati bo‘lgan qarz oluvchilar uchun foiz stavkasi 0,74% ga yuqori bo‘lishini bashorat qilishini anglatadi. (Ikki darajali toifali bashoratlovchi o‘zgaruvchilarni talqin qilish uchun 8.2.8-bobga qarang.) 9.3-rasmdagi regressiya natijalarini tekshirib, `bankrotlik` uchun p-qiymat nolga juda yaqinligini ko‘rishimiz mumkin. Bu shuni ko‘rsatadiki, ushbu oddiy bitta bashoratlovchili modeldan foydalangan holda koeffitsiyentning 0 dan farq qilishi uchun kuchli dalillari mavjud.

Faraz qilaylik, biz uchta darajaga ega toifali o‘zgaruvchi, masalan, `daromad tasdig‘i` (`income_ver`) yordamida modelni moslashtirdik. Dasturiy ta’minot natijalari 9.4-rasmda keltirilgan. Ushbu regressiya natijalari `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi uchun bir nechta qatorlarni taqdim etadi. Har bir qator `daromad tasdig‘i` ning har bir darajasi uchun nisbiy farqni anglatadi. Ammo, biz darajalardan biri `yo‘q` (`not`) ni (tasdiqlanmagani uchun) ko‘rsatmayapmiz. Ushbu `yo‘q` daraja **etalon daraja** deb ataladi va bu boshqa darajalar qiyoslanadigan standart darajani ifodalaydi.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	11,0995	0,0809	137,18	<0,0001
daromad tasdig‘i: *faqat manba*	1,4160	0,1107	12,79	<0,0001
daromad tasdig‘i: *tasdiqlangan*	3,2543	0,1297	25,09	<0,0001
				$ed = 9998$

9.4-rasm. Qarz oluvchining daromad manbai va miqdori tasdiqlangani asosida foiz stavkasini bashorat qilish uchun chiziqli modelning umumlashmasi. Ushbu bashoratlovchi uchta darajaga ega, bu esa regressiya natijalarida 2 qatorni hosil qiladi.

9.2-MISOL

Ushbu regressiya modeli uchun tenglamani qanday yozamiz?

Regressiya modelining tenglamasi ikkita bashoratlovchi model sifatida quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\widehat{foiz\ stavkasi} = 11{,}10 + 1{,}42 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} + 3{,}25 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}}.$$

Biz $\texttt{o‘zgaruvchi}_{\texttt{daraja}}$ belgilaridan foydalanib, toifali o‘zgaruvchi ma’lum bir qiymatni olganini ifodalash uchun ishlatiladigan indikator o‘zgaruvchilarni tasvirlaymiz.

Masalan, $\texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}}$ agar qarz oluvchi uchun `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi

`faqat manba` qiymatini olgan bo‘lsa, 1 qiymatga ega bo‘ladi, aks holda esa 0 qiymatni oladi. Xuddi shunday, `daromad tasdig‘i`$_{\texttt{tasdiqlangan}}$ agar `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi `tasdiqlangan` qiymatini olgan bo‘lsa 1 va boshqa har qanday qiymatni olganda 0 qiymatga ega bo‘ladi.

Tushunarli bo‘lishi uchun 9.2-misoldagi holatni batafsil ko‘rib chiqamiz. Keling, `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi uchun har bir darajadan tenglamada qanday foydalanishni aniqlaymiz.

9.3-MISOL

9.2-misoldagi modeldan foydalanib, daromad manbai va miqdori tasdiqlanmagan qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasini hisoblang.

Agar `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi `not` qiymatini olgan bo‘lsa, unda 9.2-misoldan tenglamadagi ikkala indikator funksiyalari nolga teng bo‘ladi:

$$\widehat{foiz\ stavkasi} = 11{,}10 + 1{,}42 \times 0 + 3{,}25 \times 0 = 11{,}10.$$

Ushbu qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasi 11,1% ni tashkil etadi. Chunki `not` darajasi o‘z koeffitsiyentiga ega emas va bu etalon qiymat bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu o‘zgaruvchining boshqa darajalari uchun indikatorlar tenglamadan tushib qoladi.

9.4-MISOL

9.2-misoldagi modeldan foydalanib, daromad manbai tasdiqlangan, lekin miqdori tasdiqlanmagan qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasini hisoblang.

Agar `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi `faqat manba` qiymatini olgan bo‘lsa, unga mos keluvchi o‘zgaruvchi 1 qiymatni oladi, boshqa o‘zgaruvchi (`daromad tasdig‘i`$_{\texttt{tasdiqlangan}}$) esa 0 bo‘ladi:

$$\widehat{foiz\ stavkasi} = 11{,}10 + 1{,}42 \times 1 + 3{,}25 \times 0 = 12{,}52.$$

Ushbu qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasi 12,52% ni tashkil etadi.

9.5-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Daromad manbai va miqdori tasdiqlangan qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasini hisoblang.[1]

BIR NECHTA TOIFAGA EGA BASHORATLOVCHILAR

Agar $k > 2$ bo‘lgan k darajali toifali o‘zgaruvchiga ega bo‘lgan regressiya modeli moslashtirilsa, dasturiy ta’minot ushbu darajalarning $k - 1$ tasi uchun koeffitsiyentni beradi. Ko‘rsatkichga ega bo‘lmagan so‘nggi daraja **etalon daraja** deb ataladi va boshqa darajalar uchun keltirilgan koeffitsiyentlar ushbu etalon darajaga nisbatan baholanadi.

9.6-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

`daromad tasdig‘i` modelidagi koeffitsiyentlarni talqin qiling.[2]

Daromad manbai yoki miqdori tasdiqlangan qarz oluvchilar uchun foiz stavkasining yuqoriroq bo‘lishi ajablanarli. Mantiqan, qarz oluvchining daromadi tasdiqlangan bo‘lsa, qarz xavfi kamroq ko‘rinishi kerak edi. Ammo vaziyat murakkabroq bo‘lishi mumkin, va biz hisobga olmagan boshqa o‘zgaruvchi omillar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, kredit beruvchilar yomon kreditga ega qarz oluvchilardan daromadni tasdiqlashni talab qilishlari mumkin. Ya’ni, bizning ma’lumotlar to‘plamimizda daromadni tasdiqlash qarz oluvchi haqida xavotir belgisi bo‘lishi mumkin, qarzni qaytarish qobiliyati haqida ishonch emas. Shuning uchun, qarz oluvchi yuqori xavfli deb baholanadi

[1] Agar `daromad tasdig‘i` o‘zgaruvchisi `tasdiqlangan` qiymatini olgan bo‘lsa, unga mos keluvchi o‘zgaruvchi 1 qiymatni oladi, boshqa o‘zgaruvchi (`daromad tasdig‘i`$_{\texttt{faqat manba}}$) esa 0 bo‘ladi:

$$\widehat{foiz\ stavkasi} = 11{,}10 + 1{,}42 \times 0 + 3{,}25 \times 1 = 14{,}35.$$

Ushbu qarz oluvchilar uchun o‘rtacha foiz stavkasi 14,35% ni tashkil etadi.

[2] Har bir koeffitsiyent ushbu darajaning `not` darajasiga nisbatan foiz stavkasidagi o‘sishini bildiradi, bu etalon daraja hisoblanadi. Masalan, daromad manbai va miqdori tasdiqlangan qarz oluvchilar uchun model ularning foiz stavkasi daromad manbai va miqdori tasdiqlanmagan qarz oluvchilarga nisbatan 3.25% yuqori bo‘lishini bashorat qiladi.

va natijada yuqori foiz stavkasi belgilanishi mumkin. (Bu model tomonidan taklif etilgan mantiqiy bo‘lmagan munosabatni tushuntirish uchun yana qanday omillar bo‘lishi mumkin?)

Y **9.7-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Daromad manbai va miqdori tasdiqlangan qarz oluvchi uchun faqat daromad manbai tasdiqlangan qarz oluvchiga nisbatan foiz stavkasi qancha yuqori bo‘lishini kutamiz?[3]

9.1.2 Modelga ko‘plab o‘zgaruvchilarni kiritish va baholash

Dunyo murakkab va statistik modellashtirishda bir vaqtning o‘zida ko‘plab omillarni hisobga olish foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, qarz oluvchining olingan foiz stavkasini bashorat qilish uchun yagona o‘zgaruvchi o‘rniga qarz oluvchining to‘liq kontekstini ishlatishni xohlashimiz mumkin. Bu strategiya **ko‘p o‘lchovli regressiya** deb ataladi. Biz kuzatilgan ma’lumotlarga asoslangan ko‘p o‘lchovli regressiyadan foydalanishda har qanday sababiy talqinlarni amalga oshirishda ehtiyot bo‘lsak ham, bunday modellar ko‘pincha tushuncha olish yoki sababiy bog‘lanish haqida ba’zi dalillarni taqdim etish uchun birinchi qadam bo‘lib xizmat qiladi.

Biz nafaqat o‘tmishdagi bankrotlik yoki qarz oluvchining daromad manbai yoki miqdori tasdiqlanganligini hisobga oladigan, balki bir vaqtning o‘zida ma’lumotlar to‘plamidagi barcha o‘zgaruvchilarni hisobga oladigan modelni qurmoqchimiz: `daromad tasdig‘i`, `qarzdorlik darajasi`, `kredit ulushi`, `bankrotlik`, `muddati`, `berilgan vaqti`, va `kredit tekshiruvi`.

$$\begin{aligned}\texttt{foiz stavkasi} = \beta_0 &+ \beta_1 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} + \beta_2 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}} + \\ &+ \beta_3 \times \texttt{qarzdorlik darajasi} + \beta_4 \times \texttt{kredit ulushi} + \beta_5 \times \texttt{bankrotlik} + \\ &+ \beta_6 \times \texttt{muddati} \beta_7 \times \texttt{berilgan sana}_{\texttt{Yan2018}} + \beta_8 \times \texttt{berilgan sana}_{\texttt{Mar2018}} + \\ &+ \beta_9 \times \texttt{kredit tekshiruvi}.\end{aligned}$$

Ushbu tenglama barcha o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida modellashtirish yondashuvini ifodalaydi. E’tibor bering, `daromad tasdig‘i` va `berilgan sana` uchun ikkita koeffitsiyent mavjud, chunki ikkalasi ham 3-darajali toifali o‘zgaruvchilardir.

β_0, β_1, β_2, ..., β_9 parametrlarni yagona bashoratlovchi holatida bo‘lgani kabi baholaymiz. b_0, b_1, b_2, ..., b_9 ni shunday tanlaymizki, qoldiqlarning kvadratlari yig‘indisi minimal bo‘lsin:

$$KSX = e_1^2 + e_2^2 + \cdots + e_{10000}^2 = \sum_{i=1}^{10000} e_i^2 = \sum_{i=1}^{10000} (y_i - \hat{y}_i)^2 . \tag{9.8}$$

bu yerda y_i va $\hat{y}_i$ mos ravishda kuzatilgan foiz stavkalari va model bo‘yicha baholangan qiymatlarni anglatadi. 10000 ta qoldiq har bir kuzatuv uchun hisoblanadi. Kvadratlar yig‘indisini minimallashtirish va nuqtaviy baholarini hisoblash uchun odatda kompyuterdan foydalanamiz. Buni 9.5-rasmdagi namunaviy natijada ko‘rishimiz mumkin. Ushbu natijadan foydalanib, har bir β_i uchun b_i nuqtaviy baholarni, xuddi bitta bashoratlovchi holatida bo‘lgani kabi aniqlaymiz.

KO‘P O‘LCHOVLI REGRESSIYA MODELI

Ko‘p o‘lchovli regressiya modeli ko‘plab bashoratlovchilarga ega chiziqli modeldir. Umuman olganda, model quyidagicha yoziladi:

$$\hat{y} = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \cdots + \beta_k x_k$$

bu yerda k ta bashoratlovchi o‘zgaruvchilar mavjud. β_i parametrlari har doim statistik dasturiy ta’minot yordamida baholanadi.

M **9.9-MISOL**

9.5-rasmdagi nuqtaviy baholaridan foydalangan holda regressiya modelini yozing. Ushbu modelda

[3] `not` kategoriyasiga nisbatan `tasdiqlangan` kategoriyasining foiz stavkasi 3.25% yuqoridir, `faqat manba` kategoriyasi esa faqat 1.42% yuqoridir. Shunday qilib, `tasdiqlangan` qarz oluvchilar odatda `faqat manba` qarz oluvchilarga qaraganda $3.25\% - 1.42\% = 1.83\%$ yuqori foiz stavkasi oladi.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	1,9251	0,2102	9,16	<0,0001
daromad tasdig‘i: *faqat manba*	0,9750	0,0991	9,83	<0,0001
daromad tasdig‘i: *tasdiqlangan*	2,5374	0,1172	21,65	<0,0001
qarzdorlik darajasi	0,0211	0,0029	7,18	<0,0001
kredit ulushi	4,8959	0,1619	30,24	<0,0001
bankrotlik	0,3864	0,1324	2,92	0,0035
muddati	0,1537	0,0039	38,96	<0,0001
berilgan sana: *Yan2018*	0,0276	0,1081	0,26	0,7981
berilgan sana: *Mar2018*	-0,0397	0,1065	-0,37	0,7093
kredit tekshiruvi	0,2282	0,0182	12,51	<0,0001

$ed = 9990$

9.5-rasm. Regressiya modeli natijalari, bu yerda `foiz stavkasi` (`interest_rate`) natija o‘zgaruvchisi bo‘lib, ro‘yxatdagi o‘zgaruvchilar bashoratlovchi hisoblanadi.

nechta bashoratlovchi mavjud?

---

foiz stavkasi uchun moslashtirilgan model quyidagicha berilgan:

$$\begin{aligned}\widehat{\texttt{foiz stavkasi}} = {} & 1{,}925 + 0{,}975 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} + 2{,}537 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}} + \\ & + 0{,}021 \times \texttt{qarzdorlik darajasi} + 4{,}896 \times \texttt{kredit ulushi} + 0{,}386 \times \texttt{bankrotlik} + \\ & + 0{,}154 \times \texttt{muddati} + 0{,}028 \times \texttt{berilgan vaqti}_{\texttt{Yan2018}} - 0{,}040 \times \texttt{berilgan vaqti}_{\texttt{Mar2018}} + \\ & + 0{,}228 \times \texttt{credit_checks} \ .\end{aligned}$$

Agar biz bashoratlovchi koeffitsiyentlarni sanasak $k = 9$, modeldagi *samara ko‘rsatkichlari* sonini olamiz. E’tibor bering, `berilgan vaqti` toifali bashoratlovchi ikkita daraja sifatida hisobga olinadi, chunki modelda ikkita daraja ko‘rsatilgan. Umuman olganda, p xil darajaga ega toifali bashoratlovchi ko‘p o‘lchovli regressiya modelida $p - 1$ atama bilan ifodalanadi.

Y **9.10-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

`kredit ulushi` o‘zgaruvchisi uchun β_4 koeffitsiyenti nimani anglatadi? β_4 uchun nuqtaviy baho qanday?[4]

M **9.11-MISOL**

9.1-rasmdagi birinchi kuzatuvning qoldig‘ini hisoblang (318-betga qarang.) va buni hisoblash uchun 9.9-yo‘natirilgan mashqda berilgan tenglamadan foydalaning.

Qoldiqni hisoblash uchun, avvalo bashorat qilingan qiymatni topish kerak. Bu esa 9.9-misoldagi tenglamaga qiymatlarni kiritish orqali hisoblanadi. Masalan $\texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}}$ qiymati 0 ga teng bo‘ladi, $\texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}}$ qiymati 1 ga teng bo‘ladi (chunki qarz oluvchining daromad manbai va miqdori tasdiqlangan). `qarzdorlik darajasi` esa 18,01 va hokazo. Bu $\widehat{foiz\ stavkasi}_1 = 18{,}09$ ga teng bashoratni beradi. Kuzatilgan foiz stavkasi 14.07% bo‘lib, bu $e_1 = 14{,}07 - 18{,}09 = -4{,}02$ qoldiqni beradi.

M **9.12-MISOL**

9.1.1-bo‘limda oddiy chiziqli regressiyadan foydalanib `bankrotlik` uchun $b_4 = 0{,}74$ va Standart xatolik $SX_{b_1} = 0{,}15$ bahosi hisoblangan edi. Ko‘p o‘lchovli regressiya kontekstida 0,39 koeffitsiyentining bahosi nega farq qiladi?

Agar ma’lumotlarni diqqat bilan ko‘rib chiqsak, ba’zi bashoratlovchilar o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘ramiz. Masalan, oddiy chiziqli regressiyadan foydalanib `foiz stavkasi` natijasi va `bankrotlik` bashoratlovchi o‘rtasidagi bog‘lanishni baholaganimizda, boshqa o‘zgaruvchilarni, masalan, qarz oluvchining daromadi tasdiqlanganligi, qarzdorlik darajasi va boshqa o‘zgaruvchilarni nazorat qila olmadik. Dastlabki model izolyatsiyada tuzilgan edi va to‘liq holat hisobga olinmagan. Barcha o‘zgaruvchilarni kiritganimizda, ushbu boshqa o‘zgaruvchilar

[4] β_4 biror kishining kreditdan foydalanish darajasi 0 dan 1 gacha o‘zgarsa, barcha boshqa omillar bir xil bo‘lganda foiz stavkasidagi o‘zgarishni anglatadi. Nuqtaviy bahosi $b_4 = 4{,}90\%$ ni tashkil qiladi.

tomonidan kiritilgan yashirin va noxush tarafkashlik kamayadi yoki bartaraf etiladi. Albatta, boshqa konfonding o‘zgaruvchilardan kelib chiqadigan tarafkashlik hali ham mavjud bo‘lishi mumkin.

9.12-misol ko‘p o‘lchovli regressiyada uchraydigan keng tarqalgan muammoni, ya’ni bashoratlovchi o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni tasvirlaydi. Agar ikkita bashoratlovchi o‘zgaruvchi o‘zaro korrelyatsiyaga ega bo‘lsa, biz ularni kollinear deb ataymiz va bu kollinearlik modelni baholashni qiyinlashtiradi. Kuzatuv ma’lumotlarida kollinearlik yuzaga kelishining oldini olish imkonsiz bo‘lsa-da, tajribalar (eksperimentlar), odatda, bashoratlovchilarning kollinear bo‘lib qolmasligini ta’minlaydigan tarzda loyihalashtiriladi.

Y **9.13-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Ozod hadning baholangan qiymati 1,925 bo‘lib, bu koeffitsiyentni talqin qilish zarurati tug‘ilishi mumkin. Masalan, bu har bir o‘zgaruvchi nol qiymatini olganda daromad manbai tasdiqlanmagan, qarz oluvchi qarzga ega emas va hokazo holatdir. Bu mantiqiymi? Ushbu talqinni amalga oshirish orqali biron-bir foyda olinadimi?[5]

9.1.3 Tuzatilgan R^2 — ko‘p o‘lchovli regressiya uchun yaxshiroq baholash vositasi

Biz birinchi marta R^2 ni 8.2-bo‘limda javobdagi o‘zgaruvchanlikning model tomonidan tushuntirilgan qismini aniqlash uchun ishlatgan edik:

$$R^2 = 1 - \frac{\text{qoldiqlardagi o‘zgaruvchanlik}}{\text{natijadagi o‘zgaruvchanlik}} = 1 - \frac{Var(e_i)}{Var(y_i)}$$

bu yerda e_i modelning qoldiqlarini, y_i esa natijalarni ifodalaydi. Ushbu tenglama ko‘p o‘lchovli regressiya mazmunida ham amal qiladi. Lekin modellarning solishtirilishi va uni yanada foydali qilish uchun kichik o‘zgartirish kiritilishi mumkin.

Y **9.14-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

9.9-yo‘natirilgan mashqda berilgan model uchun qoldiqlarning dispersiyasi 18,53, barcha auksionlardagi umumiy narxning dispersiyasi esa 25,01. Ushbu model uchun R^2 ni hisoblang.[6]

Bu R^2 ni baholash strategiyasi faqat bitta o‘zgaruvchi bo‘lganda qabul qilinadi. Ammo, ko‘p o‘zgaruvchilar mavjud bo‘lganda u unchalik foydali bo‘lmaydi. Oddiy R^2 yangi ma’lumotlar to‘plamiga nisbatan model tomonidan tushuntirilgan o‘zgaruvchanlikning tarafkash bahosi hisoblanadi. Yaxshiroq baholash uchun biz R^2_{tuz} dan foydalanamiz.

MODELNI BAHOLASH UCHUN R^2_{tuz} VOSITASI

Tuzatilgan R^2 quyidagicha hisoblanadi:

$$R^2_{tuz} = 1 - \frac{s^2_{\text{qoldiqlar}}/(n-k-1)}{s^2_{\text{natija}}/(n-1)} = 1 - \frac{s^2_{\text{qoldiqlar}}}{s^2_{\text{natija}}} \times \frac{n-1}{n-k-1}$$

bu yerda n modelni moslashtirishda ishlatilgan holatlar soni, k esa modeldagi bashoratlovchi o‘zgaruvchilar soni. Yodda tutingki, p darajaga ega bo‘lgan toifali bashoratlovchi modeldagi o‘zgaruvchilar soniga $p-1$ miqdorda hissa qo‘shadi.

k hech qachon manfiy bo‘lmaganligi sababli, tuzatilgan R^2_{tuz} oddiy R^2 ga qaraganda kichikroq bo‘ladi, ko‘pincha juda ozgina kichikroq. Tuzatilgan R^2 ni asoslaydigan mantiq **erkinlik darajalari** bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘p o‘lchovli regressiya kontekstida $n-k-1$ ga teng. Agar hozirgi modelimizdan foydalanib *yangi ma’lumotlar* bashorat qilsak, oddiy R^2 haddan tashqari optimistik bo‘lib

[5] Ko‘p o‘zgaruvchilar kamida bir ma’lumot nuqtasi uchun nol qiymatini oladi va bunday o‘zgaruvchilar uchun bu mantiqiy. Ammo bitta o‘zgaruvchi `muddati` nol qiymatini hech qachon olmaydi. Bu qarzni qaytarilish muddatini oylar bilan ifodalaydi. Agar `muddati` nolga o‘rnatilgan bo‘lsa, qarz darhol qaytarilishi kerak. Qarz oluvchi mablag‘ni olishi bilan qaytarishi kerak. Ya’ni, bu haqiqiy qarz emas. Natijada, ushbu holatda ozod hadning talqini unchalik foydali emas.

[6] $R^2 = 1 - \frac{18{,}53}{25{,}01} = 0{,}2591$.

chiqadi, holbuki tuzatilgan R^2 bu tarafkashlikni tuzatishda yordam beradi.

Y **9.15-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

`loans` ma’lumotlar to‘plamida $n = 10000$ ta auksion va modelda $k = 9$ bashoratlovchi o‘zgaruvchilar mavjud edi. n, k va 9.14-yo‘natirilgan mashqda keltirilgan dispersiyalardan foydalanib, foiz stavkasi modeli uchun R^2_{tuz} ni hisoblang.[7]

Y **9.16-YO‘NALTIRILGAN MASHQ**

Modelga yana bir bashoratlovchi qo‘shganingizni tasavvur qiling, lekin xatoliklar dispersiyasi $Var(e_i)$ kamaymadi. R^2 ga nima bo‘ladi? Tuzatilgan R^2 ga nima bo‘ladi? [8]

Tuzatilgan R^2 8-bobda qo‘llanilgan bo‘lishi mumkin edi. Ammo, agar faqat $k = 1$ bashoratlovchi mavjud bo‘lsa, tuzatilgan R^2 oddiy R^2 ga juda yaqin bo‘ladi. Shuning uchun model faqat bitta bashoratlovchiga ega bo‘lganda bu noziklik odatda muhim emas.

Mashqlar

9.1 Chaqaloq vazni, 1-qism. Bolalar salomatligi va rivojlanishi tadqiqotlari turli mavzularni o‘rganadi. Bir tadqiqot 1960- va 1967-yillar orasida San-Fransisko Sharqiy Bay hududidagi “Kaiser Foundation” sog‘liqni saqlash rejasi doirasida ayollar o‘rtasidagi barcha homiladorliklarni ko‘rib chiqdi. Bu yerda biz chekish va chaqaloqning vazni o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganamiz. `chekish` (`smoke`) o‘zgaruvchisi agar ona chekuvchi bo‘lsa 1 va aks holda 0 deb kodlangan. Quyidagi umumlashma jadvali onaning chekish holati asosida chaqaloqning o‘rtacha tug‘ilgan vaznini (unsa bilan o‘lchanadi) bashorat qilish uchun chiziqli regressiya modelining natijalarini ko‘rsatadi.[9]

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	123,05	0,65	189,60	0,0000
chekish	-8,94	1,03	-8,65	0,0000

Chekuvchi va chekmaydiganlar o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlik taxminan teng va taqsimotlar simmetrik. Ushbu shartlar bajarilganligi sababli, modelni qo‘llash mantiqan to‘g‘ri (Qayd etish joizki, biz chiziqlilikni tekshirishga ehtiyoj sezmaymiz, chunki bashoratlovchi faqat ikki darajaga ega).

(a) Regressiya modelining tenglamasini yozing.

(b) Ushbu masala mazmunidan kelib chiqib burchak koeffitsiyentni talqin qiling va chekuvchi va chekmaydigan onalardan tug‘ilgan chaqaloqlarning bashorat qilingan vaznini hisoblang.

(c) O‘rtacha tug‘ilgan vazn va chekish o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik bormi?

9.2 Chaqaloq vazni, 2-qism. 9.1-mashq chaqaloqlarning tug‘ilish vaznlariga oid ma’lumotlarni taqdim etadi. Biz ko‘rib chiqadigan boshqa o‘zgaruvchi `tug‘ilish tartibi` (`parity`) agar bola birinchi bo‘lib tug‘ilgan bo‘lsa 1 va aks holda 0 deb kodlanadi. Quyidagi umumlashgan jadval chaqaloqlarning tug‘ilgan o‘rtacha vaznini (unsa bilan o‘lchanadi) `tug‘ilish tartibi` o‘zgaruvchisi asosida bashorat qilish uchun chiziqli regressiya modelining natijalarini ko‘rsatadi.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	120,07	0,60	199,94	0,0000
tug‘ilish tartibi	-1,93	1,19	-1,62	0,1052

(a) Regressiya modelining tenglamasini yozing.

(b) Ushbu mazmunidan kelib chiqib burchak koeffitsiyentni talqin qiling va birinchi tug‘ilganlar va boshqalar uchun bashorat qilingan tug‘ilish vaznini hisoblang.

(c) O‘rtacha tug‘ilgan vazn va `tug‘ilish tartibi` o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik bormi?

9.3 Chaqaloq vazni, 3-qism. 9.1- va 9.2mashqlarda biz chaqaloqlarning tug‘ilgan vaznlarini alohida-alohida `chekish` va `tug‘ilish tartibi` o‘zgaruvchilaridan foydalangan holda modellashni ko‘rib chiqdik. Chaqaloqning vaznini modellashning yanada realistik yondashuvi, barcha mumkin bo‘lgan bog‘liq o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqishdir. Qiziqish uyg‘otadigan boshqa o‘zgaruvchilar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: homiladorlik davomiyligi (`gestation`, kunlarda), onaning yoshi (`age`, yillarda), onaning bo‘yi (`height`, dyuymlarda) va onaning homiladorlikdagi vazni (`weight`, funtlarda). Quyida ushbu ma’lumotlar to‘plamidan uchta kuzatuv ko‘rsatilgan.

[7] $R^2_{tuz} = 1 - \frac{18,53}{25,01} \times \frac{10000-1}{10000-9-1} = 0,2584$. Farq juda kichik bo‘lsa-da, bu keyingi bo‘limda modelni nozik sozlashda muhim bo‘ladi.

[8] Oddiy R^2 o‘zgarishsiz qoladi, tuzatilgan R^2 esa pasayadi.

[9] Child Health and Development Studies, Baby weights data set.

	bwt	gestation	parity	age	height	weight	smoke
1	120	284	0	27	62	100	0
2	113	282	0	33	64	135	0
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮
1236	117	297	0	38	65	129	0

Quyidagi umumlashma jadvali ma’lumotlar to‘plamidagi barcha o‘zgaruvchilarga asoslanib chaqaloqlarning o‘rtacha tug‘ilish vaznini bashorat qilish uchun regressiya modelining natijalarini ko‘rsatadi.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	-80,41	14,35	-5,60	0,0000
gestation	0,44	0,03	15,26	0,0000
parity	-3,33	1,13	-2,95	0,0033
age	-0,01	0,09	-0,10	0,9170
height	1,15	0,21	5,63	0,0000
weight	0,05	0,03	1,99	0,0471
smoke	-8,40	0,95	-8,81	0,0000

(a) Barcha o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan regressiya modelining tenglamasini yozing.

(b) Ushbu mazmunda `gestation` va `age` o‘zgaruvchilarining burchak koeffitsiyentlarini talqin qiling.

(c) `parity` uchun koeffitsient 9.2-mashqda ko‘rsatilgan chiziqli modeldan farqli ekanligi sababini tushuntiring.

(d) Ma’lumotlar to‘plamidagi birinchi kuzatuv uchun qoldiqni hisoblang.

(e) Qoldiqlar dispersiyasi 249,28 va ma’lumotlar to‘plamidagi barcha chaqaloqlarning tug‘ilish vaznlarining dispersiyasi 332,57. R^2 va tuzatilgan R^2 ni hisoblang. Ma’lumotlar to‘plamida 1236 ta kuzatuv borligini hisobga oling.

9.4 Maktabdan qolish, 1-qism. Maktabdan qolish va bolalarning ma’lum demografik xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganayotgan tadqiqotchilar Avstraliyaning Yangi Janubiy Uels qishloq hududlaridan tasodifiy tanlangan 146 nafar talabadan o‘quv yilida ma’lumot to‘plashdi. Quyida ushbu ma’lumotlar to‘plamidan uchta kuzatuv ko‘rsatilgan.

	etnik	jinsi	o‘qishi	kunlar
1	0	1	1	2
2	0	1	1	11
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮
146	1	0	0	37

Quyidagi umumlashma jadvali etnik kelib chiqish (0 - aborigen, 1 - aborigen emas), jinsi (0 - ayol, 1 - erkak) va o‘qish holati (0 - o‘rtacha o‘quvchi, 1 - sekin o‘quvchi) asosida o‘quv kunlarini o‘tkazib yuborishning o‘rtacha sonini bashorat qilish uchun chiziqli regressiya modelining natijalarini ko‘rsatadi.[10]

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	18,93	2,57	7,37	0,0000
etnik	-9,11	2,60	-3,51	0,0000
jinsi	3,10	2,64	1,18	0,2411
o‘qishi	2,15	2,65	0,81	0,4177

(a) Regressiya modelining tenglamasini yozing.

(b) Ushbu mazala mazmunidan kelib chiqib har bir burchak koeffitsiyentini talqin qiling.

(c) Ma’lumotlar to‘plamidagi birinchi kuzatuv uchun qoldiqni hisoblang. Bu aborigen, erkak, sekin o‘quvchi bo‘lgan va maktabga 2 kun qatnashmagan o‘quvchi.

(d) Qoldiqlarning dispersiyasi 240,57 va ma’lumotlar to‘plamidagi barcha talabalar uchun o‘quv kunlarini o‘tkazib yuborish sonining dispersiyasi 264,17. R^2 va tuzatilgan R^2 ni hisoblang. Ma’lumotlar to‘plamida 146 ta kuzatuv borligini hisobga oling.

9.5 GPA. Duke Universitetining 55 nafar talabasi o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ularning GPA, tunda necha soat o‘qishlari, necha marta kechga tashqariga chiqishlari va jinslari so‘ralgan. Quyidagi jadval regressiya modelining umumlashgan natijalarini ko‘rsatadi. E’tibor bering, erkak 1 deb kodlangan.

[10] W. N. Venables and B. D. Ripley. *Modern Applied Statistics with S*. Fourth Edition. Data can also be found in the R MASS package. New York: Springer, 2002.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	3,45	0,35	9,85	0,00
o‘quv soati	0,00	0,00	0,27	0,79
tungi uyqu	0,01	0,05	0,11	0,91
kechasi ko‘chaga	0,05	0,05	1,01	0,32
jinsi	-0,08	0,12	-0,68	0,50

(a) Modeldagi jins o‘zgaruvchisi uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang va uni ma’lumotlar mazmunida talqin qiling.

(b) Qolgan o‘zgaruvchilarning burchak koeffitsiyentlari uchun 95% lik ishonch intervali 0 ni o‘z ichiga olishini kutasizmi? Izohlang.

9.6 Gilos daraxtlari. Yog‘och hosili daraxt hajmiga taxminan teng bo‘lsa-da, bu qiymatni daraxtni kesmasdan o‘lchash qiyin. Buning o‘rniga, balandlik va diametr kabi boshqa o‘zgaruvchilar daraxt hajmi va hosilini bashorat qilish uchun ishlatilishi mumkin. Qora gilos daraxtlarida ushbu o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishni xohlagan tadqiqotchilar Pensilvaniya shtatidagi Allegheny milliy o‘rmonidan 31 ta daraxt haqida ma’lumot yig‘ishdi. Balandlik futda, diametr dyuymda (yerdan 54 dyuym balandlikda), va hajm kub futda o‘lchangan.[11]

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	-57,99	8,64	-6,71	0,00
balandlik	0,34	0,13	2,61	0,01
diametr	4,71	0,26	17,82	0,00

(a) Balandlik koeffitsienti uchun 95% lik ishonch intervalini hisoblang va uni ma’lumotlar mazmunidan kelib chiqib talqin qiling.

(b) Ushbu tanlanmadagigi bir daraxt 79 fut balandlikka ega, diametri 11,3 dyuym, va hajmi 24,2 kub fut. Model ushbu daraxt hajmini oshirib yuboradimi yoki kamaytiradimi va qanchaga?

9.2 Modelni tanlash

Eng yaxshi model har doim eng murakkab model emas. Ba’zida ahamiyatli bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni kiritish bashoratlarning aniqligini pasaytirishi mumkin. Ushbu bo‘limda biz modelni tanlash strategiyalarini muhokama qilamiz. Bu bizga modeldan unchalik ahamiyatli bo‘lmagan o‘zgaruvchilarni chiqarib tashlashga yordam beradi. Amalda, bunday qisqartirishga uchragan o‘zgaruvchilarni modellarga **tejamkor** (inglizcha: parsimonious) model deb ataladi.

Amalda, barcha mavjud tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan model ko‘pincha **to‘liq model** deb ataladi. To‘liq model har doim eng yaxshi model bo‘lmasligi mumkin. Agar unday bo‘lmasa, biz kichikroq, lekin afzal modelni aniqlashni istaymiz.

9.2.1 Modelda foydali bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchilarni aniqlash

Tuzatilgan R^2 model moslashuvining kuchini tavsiflaydi va bu bashoratlovchilarning modelga qiymat qo‘shayotganini baholash uchun foydali vositadir. Bu erda *qiymat qo‘shish* degani kelajakdagi natijalarni bashorat qilish aniqligini yaxshilashni anglatadi.

Keling, ikkita modelni ko‘rib chiqaylik, ular 9.6- va 9.7-jadvallarda keltirilgan. Birinchi jadval to‘liq modelni, ya’ni barcha bashoratlovchilarni o‘z ichiga olgan modelni tasvirlaydi, ikkinchisi esa `berilgan vaqti` o‘zgaruvchisini o‘z ichiga olmaydi.

9.17-MISOL

Ikki modeldan qaysi biri yaxshiroq?

Har bir model uchun tuzatilgan R^2 ni taqqoslab, qaysi birini tanlashimizni aniqlaymiz. Birinchi

[11] D.J. Hand. *A handbook of small data sets.* Chapman & Hall/CRC, 1994.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	1,9251	0,2102	9,16	< 0,0001
daromad tasdig‘i: *faqat manba*	0,9750	0,0991	9,83	< 0,0001
daromad tasdig‘i: *tasdiqlangan*	2,5374	0,1172	21,65	< 0,0001
qarzdorlik darajasi	0,0211	0,0029	7,18	< 0,0001
kredit ulushi	4,8959	0,1619	30,24	< 0,0001
bankrotlik	0,3864	0,1324	2,92	0,0035
muddati	0,1537	0,0039	38,96	< 0,0001
berilgan vaqti: *Yan2018*	0,0276	0,1081	0,26	0,7981
berilgan vaqti: *Mar2018*	−0,0397	0,1065	−0,37	0,7093
kredit tekshiruvi	0,2282	0,0182	12,51	< 0,0001
$R^2_{tuz} = 0{,}25843$				$ed = 9990$

9.6-rasm. To‘liq regressiya modeli uchun moslik natijalari, tuzatilgan R^2 ni ham o‘z ichiga oladi.

	Bahosi	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	1,9213	0,1982	9,69	< 0,0001
daromad tasdig‘i: *faqat manba*	0,9740	0,0991	9,83	< 0,0001
daromad tasdig‘i: *tasdiqlangan*	2,5355	0,1172	21,64	< 0,0001
qarzdorlik darajasi	0,0211	0,0029	7,19	< 0,0001
kredit ulushi	4,8958	0,1619	30,25	< 0,0001
bankrotlik	0,3869	0,1324	2,92	0,0035
muddati	0,1537	0,0039	38,97	< 0,0001
kredit tekshiruvi	0,2283	0,0182	12,51	< 0,0001
$R^2_{tuz} = 0{,}25854$				$ed = 9992$

9.7-rasm. `berilgan vaqti` o‘zgaruvchisi chiqarib tashlangandan keyingi regressiya modeli moslik natijalari.

modelning R^2_{tuz} ikkinchi modelning R^2_{tuz} dan kichikroq bo‘lgani uchun, biz ikkinchi modelni afzal ko‘ramiz.

`berilgan vaqti` bo‘lmagan model `berilgan vaqti` bo‘lgan modeldan yaxshiroq bo‘ladimi? Buni aniq bilolmaymiz, lekin tuzatilgan R^2 asosida bu bizning eng yaxshi baholashimiz.

9.2.2 Modelni tanlashning ikkita strategiyasi

Ko‘p o‘lchovli regressiya modelida o‘zgaruvchilarni qo‘shish yoki chiqarish uchun ishlatiladigan ikki keng tarqalgan strategiya *orqa tomondan yo‘qotish* (inglizcha: backward elimination) va *oldinga tanlash* (inglizcha: forward selection) deb ataladi. Bu texnikalar ko‘pincha **bosqichli** (inglizcha: stepwise) model tanlash strategiyalari deb ataladi, chunki ular nomzod bashoratlovchilarni “bir qadamda” qo‘shadi yoki o‘chiradi.

Orqa tomondan yo‘qotish barcha potentsial bashoratlovchi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan modeldan boshlanadi. Modeldagi o‘zgaruvchilar tuzatilgan R^2 ni yaxshilash imkoniyati qolmaguncha birma-bir chiqarib tashlanadi. Strategiya har bir bosqichda tuzatilgan R^2 ni eng katta yaxshilashga olib keladigan o‘zgaruvchini olib tashlashdir.

Ⓜ **9.18-MISOL**

`loans` ma’lumotlar to‘plami uchun *to‘liq model* ga mos keluvchi natijalar 9.6-rasmda ko‘rsatilgan. Orqa tomondan yo‘qotish strategiyasi ostida qanday davom etishimiz kerak?

To‘liq modeldan olingan boshlang‘ich tuzatilgan R^2 qiymati $R^2_{tuz} = 0{,}258\,43$ va biz bashoratlovchilarni chiqarib tashlash tuzatilgan R^2 ni yaxshilaydimi yoki yo‘qligini aniqlashimiz kerak. Buni tekshirish uchun biz har bir bashoratlovchini olib tashlagan holda moslashtirilgan modellarning tuzatilgan R^2 ni qayd qilamiz:

Qoldirilsin ...

`daromad tasdig‘i`	`qarzdorlik darajasi`	`kredit ulushi`	`bankrotlik`
$R^2_{tuz} = 0{,}22380$	$R^2_{tuz} = 0{,}25468$	$R^2_{tuz} = 0{,}19063$	$R^2_{tuz} = 0{,}25787$
`muddati`	`berilgan vaqti`	`kredit tekshiruvi`	
$R^2_{tuz} = 0{,}14581$	$R^2_{tuz} = 0{,}25854$	$R^2_{tuz} = 0{,}24689$	

`berilgan vaqti` bo‘lmagan model tuzatilgan R^2 ni eng yuqori, 0,25854 ga ega, bu esa to‘liq modeldan yuqoriroq. `berilgan vaqti` ni chiqarib tashlash tuzatilgan R^2 ni yaxshiroq modelga olib kelgani uchun, biz `berilgan vaqti` ni modeldan chiqaramiz.

Birinchi bosqichda bashoratlovchini chiqarib tashlaganimiz uchun, boshqa bashoratlovchilarni ham chiqarish kerakligini ko‘rib chiqamiz. Bizning boshlang‘ich tuzatilgan R^2 endi $R^2_{tuz} = 0{,}25854$. Endi biz yangi modellarga moslashamiz, bunda qolgan bashoratlovchilardan har birini `berilgan vaqti` ga qo‘shib chiqarib tashlashni ko‘rib chiqamiz:

`berilgan vaqti` va shu tariqa ham chiqarib tashlang

`daromad tasdig‘i`	`qarzdorlik darajasi`	`kredit ulushi`
$R^2_{tuz} = 0{,}22395$	$R^2_{tuz} = 0{,}25479$	$R^2_{tuz} = 0{,}19074$
`bankrotlik`	`muddati`	`credit_checks`
$R^2_{tuz} = 0{,}25798$	$R^2_{tuz} = 0{,}14592$	$R^2_{tuz} = 0{,}24701$

Ushbu modellarning hech biri tuzatilgan R^2 ni yaxshilamaydi, shuning uchun qolgan bashoratlovchilarning birortasini o‘chirmaymiz. Ya’ni, orqa tomondan yo‘qotishdan so‘ng, bizda faqat `berilgan vaqti` chiqarilgan, qolgan barcha bashoratlovchilarni saqlagan model qoladi. Uni 9.7-rasmdan olingan koeffitsiyentlardan foydalanib quyidagicha jamlaymiz:

$$\begin{aligned}\widehat{foiz\ stavkasi} = {} & 1{,}921 + 0{,}974 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} \\ & + 2{,}535 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}} + 0{,}021 \times \texttt{qarzdorlik darajasi} \\ & + 4{,}896 \times \texttt{kredit ulushi} + 0{,}387 \times \texttt{bankrotlik} + 0{,}154 \times \texttt{muddati} \\ & + 0{,}228 \times \texttt{kredit tekshiruvi}\end{aligned}$$

Oldinga tanlash strategiyasi orqaga tomon yo‘qotish texnikasining teskari shaklidir. Bunda o‘zgaruvchilar birma-bir qo‘shilib boriladi, toki tuzatilgan R^2 ni yaxshilaydigan o‘zgaruvchini topa olmagunimizcha.

Ⓜ **9.19-MISOL**

`loans` ma’lumotlar to‘plami uchun oldinga tanlash strategiyasidan foydalanib modelni yarating.

Biz hech qanday o‘zgaruvchi kiritilmagan modeldan boshlaymiz. So‘ng, faqat bitta o‘zgaruvchi kiritilgan har bir mumkin bo‘lgan modelni moslaymiz. Ya’ni, faqat `daromad tasdig‘i` ni o‘z ichiga olgan modelni, so‘ng faqat `qarzdorlik darajasi` ni o‘z ichiga olgan modelni, keyin faqat `kredit ulushi` ni o‘z ichiga olgan modelni va hokazolarni. So‘ngra har bir modelning tuzatilgan R^2 ni tekshiramiz:

Qo‘shing ...

`daromad tasdig‘i`	`qarzdorlik darajasi`	`kredit ulushi`	`bankrotlik`
$R^2_{tuz} = 0{,}05926$	$R^2_{tuz} = 0{,}01946$	$R^2_{tuz} = 0{,}06452$	$R^2_{tuz} = 0{,}00222$
`muddati`	`berilgan vaqti`	`kredit tekshiruvi`	
$R^2_{tuz} = 0{,}12855$	$R^2_{tuz} = 0{,}000\,18$	$R^2_{tuz} = 0{,}01711$	

Ushbu birinchi bosqichda, biz tuzatilgan R^2 ni hech qanday bashoratlovchi bo‘lmagan model bilan solishtiramiz. Bashoratlovchisiz model har doim $R^2_{tuz} = 0$ ga ega. Tuzatilgan R^2 eng yuqori

bo‘lgan model `muddati` bashoratlovchini o‘z ichiga oladi va bu tuzatilgan R^2 bashoratlovchisiz modeldan ($R^2_{tuz} = 0$) kattaroq bo‘lganligi sababli, biz ushbu o‘zgaruvchini modelga qo‘shamiz.

Jarayonni takrorlaymiz, bu safar `muddati` bashoratlovchisini o‘z ichiga olgan 2-bashoratlovchili modellarni ko‘rib chiqamiz va yangi boshlang‘ich qiymat $R^2_{tuz} = 0{,}128\,55$ ni belgilaymiz:

Qo‘shing `muddati` va ...

`daromad tasdig‘i`	`qarzdorlik darajasi`	`kredit ulushi`
$R^2_{tuz} = 0{,}16851$	$R^2_{tuz} = 0{,}14368$	$R^2_{tuz} = 0{,}20046$
`bankrotlik`	`berilgan vaqti`	`kredit tekshiruvi`
$R^2_{tuz} = 0{,}13070$	$R^2_{tuz} = 0{,}12840$	$R^2_{tuz} = 0{,}14294$

Eng yaxshi ikkinchi bashoratlovchi `kredit ulushi` bo‘lib, uning tuzatilgan R^2 qiymati 0,20046 boshlang‘ich qiymat 0,12855 dan yuqori. Shuning uchun biz `kredit ulushi` ni ham modelga qo‘shamiz.

O‘zgaruvchi qo‘shganimiz uchun, uchinchi o‘zgaruvchini qo‘shish foydali bo‘ladimi-yo‘qligini ko‘rib chiqamiz:

Qo‘shing `muddati`, `kredit ulushi` va ...

`daromad tasdig‘i`	`qarzdorlik darajasi`	
$R^2_{tuz} = 0{,}24183$	$R^2_{tuz} = 0{,}20810$	
`bankrotlik`	`berilgan vaqti`	`kredit tekshiruvi`
$R^2_{tuz} = 0{,}20169$	$R^2_{tuz} = 0{,}20031$	$R^2_{tuz} = 0{,}21629$

`daromad tasdig‘i` ni qo‘shgan model tuzatilgan R^2 ni 0,20046 dan 0,24183 gacha yaxshilagan. Shuning uchun biz `daromad tasdig‘i` ni modelga qo‘shamiz.

Shu tarzda davom etamiz, keyingi bosqichda `qarzdorlik darajasi` qo‘shiladi. So‘ng `kredit tekshiruvi`, va `bankrotlik`. Ushbu bosqichda biz yana `berilgan vaqti` o‘zgaruvchisiga duch kelamiz: ushbu o‘zgaruvchini qo‘shish $R^2_{tuz} = 0{,}258\,43$ ga olib keladi. Lekin barcha boshqa o‘zgaruvchilarni saqlab `berilgan vaqti` ni chiqarib tashlash $R^2_{tuz} = 0{,}258\,54$ ga olib keladi. Bu degani, biz `berilgan vaqti` ni qo‘shmaymiz. Ushbu misolda, biz orqaga tomon yo‘qotish strategiyasidan aniqlangan model bilan bir xil modelga keldik.

MODEL TANLASH STRATEGIYALARI

Orqaga tomon yo‘qotish eng ko‘p sonli bashoratlovchilarni o‘z ichiga olgan modeldan boshlanadi va har bir bosqichda bir o‘zgaruvchi chiqarib tashlanadi. Bunda barcha qolgan o‘zgaruvchilar model uchun muhim ekanligi tasdiqlanadi. Oldinga tanlash hech qanday bashoratlovchi kiritilmagan modeldan boshlanadi va muhimlik darajasiga qarab o‘zgaruvchilar qo‘shiladi. Shunda boshqa muhim o‘zgaruvchilar topilmaguncha jarayon davom etadi.

Orqaga tomon yo‘qotish va oldinga tanlash ba’zida turli yakuniy modellarni beradi. Agar ikkala texnika ham qo‘llanib, turli modellar hosil qilinsa, R^2_{tuz} ning qiymati yuqori bo‘lgan model tanlanadi.

9.2.3 p-qiymat yondashuvi, R^2_{tuz} ga muqobil alternativ

p-qiymatdan model tanlashda R^2_{tuz} o‘rniga foydalanish mumkin:

Orqaga tomon yo‘qotish va p-qiymat yondashuvi. Orqaga tomon yo‘qotishda biz eng katta p-qiymatga ega bo‘lgan bashoratlovchini aniqlaymiz. Agar p-qiymat ahamiyatlilik darajasidan yuqori bo‘lsa (odatda $\alpha = 0{,}05$), biz ushbu o‘zgaruvchini modeldan chiqarib tashlaymiz, modelni qayta moslaymiz va jarayonni takrorlaymiz. Agar eng katta p-qiymat $\alpha = 0{,}05$ dan

kichik bo‘lsa, boshqa bashoratlovchilarni chiqarib tashlamaymiz va qolgan model bizning eng mos modelimiz deb hisoblanadi.

Oldinga tanlash va p-qiymat yondashuvi. Oldinga tanlashda biz hech qanday bashoratlovchi bo‘lmagan modeldan boshlaymiz, keyin har bir mumkin bo‘lgan bashoratlovchini o‘z ichiga olgan modelni moslaymiz va eng kichik p-qiymatga ega bo‘lgan modelni aniqlaymiz. Agar ushbu p-qiymat $\alpha = 0{,}05$ dan kichik bo‘lsa, ushbu bashoratlovchini modelga qo‘shamiz va jarayonni takrorlaymiz, har safar bitta o‘zgaruvchini qo‘shib chiqamiz. Agar qolgan bashoratlovchilarning hech biri modelga qo‘shilganda p-qiymati 0.05 dan kichik bo‘lmasa, jarayonni to‘xtatamiz va hozirgi model eng mos model hisoblanadi.

Y

9.20-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

327-sahifadagi 9.7-rasmga e’tibor bering, undagi model kredit berilgan oy haqidagi o‘zgaruvchidan tashqari barcha o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga oladi. Agar biz p-qiymat yondashuvini orqaga tomon yo‘qotish bilan foydalangan holda qo‘llayotgan bo‘lsak, ushbu modeldagi qaysi o‘zgaruvchilarni chiqarib tashlash kerak? Bu o‘zgaruvchini modeldan chiqaramizmi yoki uni saqlab qolamizmi?[12]

R^2_{tuz} va p-qiymat yondashuvlari o‘xshash bo‘lsa ham, ular ba’zan turli modellarni olib keladi, bunda R^2_{tuz} yondashuvi yakuniy modelga ko‘proq bashoratlovchilarni qo‘shish tendensiyasiga ega.

TUZATILGAN R^2 VA P-QIYMAT YONDASHUVI

Agar asosiy maqsad bashorat aniqligini yaxshilash bo‘lsa, R^2_{tuz} dan foydalaning. Bu odatda mashinani o‘rganish (machine learning) dasturlarida qo‘llaniladi.

Agar qaysi o‘zgaruvchilar javobning statistik jihatdan muhim bashoratlovchilari ekanligini tushunish yoki oddiyroq model yaratish muhim bo‘lsa (bunda bashorat aniqligi biroz pasayishi mumkin), unda p-qiymat yondashuvi afzalroq bo‘ladi.

R^2_{tuz}, p-qiymat yondashuvi, orqaga tomon yo‘qotish yoki oldinga tanlashdan foydalanishingizdan qat’i nazar, model tanlashdan so‘ng biz hali ham modelning shartlari mantiqiy ekanligini tasdiqlashimiz kerak.

Mashqlar

9.7 Chaqaloq vazni, 4-qism. 9.3-mashq yangi tug‘ilgan chaqaloqning vaznini bir qancha bashoratlovchilar (homiladorlik davomiyligi, tug‘ilish tartibi, onaning yoshi, onaning bo‘yi, onaning vazni, onaning chekish holati) yordamida bashorat qiluvchi modelni ko‘rib chiqadi. Quyidagi jadval to‘liq model uchun tuzatilgan R^2 qiymatini shuningdek, orqaga tomon yo‘qotish jarayonining birinchi bosqichida baholangan barcha modellar uchun tuzatilgan R^2 qiymatlarini ko‘rsatadi.

	Model	Tuzatilgan R^2
1	To‘liq model	0,2541
2	Homiladorlik yo‘q	0,1031
3	Tartibi yo‘q	0,2492
4	Yosh yo‘q	0,2547
5	Bo‘y yo‘q	0,2311
6	Vazn yo‘q	0,2536
7	Chekish holati yo‘q	0,2072

Qaysi o‘zgaruvchi birinchi bo‘lib modeldan chiqarilishi kerak?

9.8 Maktabdan qolish, 2-qism. 9.4-mashq maktabdan qolgan kunlarni uchta bashoratlovchilar: etnik kelib chiqish, jins va o‘quv holati asosida bashorat qiluvchi modelni ko‘rib chiqadi. Quyidagi jadval model uchun tuzatilgan R^2 qiymatini va orqaga tomon yo‘qotish jarayonining birinchi bosqichida baholangan barcha modellar uchun tuzatilgan R^2 qiymatlarini ko‘rsatadi.

[12] `bankrotlik` bashoratlovchisi chiqarib tashlash uchun nomzod bo‘ladi, chunki uning p-qiymati eng katta. Ammo ushbu p-qiymat 0.05 dan kichik bo‘lganligi sababli, biz uni modelda saqlab qolamiz.

	Model	Tuzatilgan R^2
1	To‘liq model	0,0701
2	Etnik kelib chiqish yo‘q	-0,0033
3	Jins yo‘q	0,0676
4	O‘quv holati yo‘q	0,0723

Qaysi o‘zgaruvchi birinchi bo‘lib modeldan chiqarilishi kerak?

9.9 Chaqaloq vazni, 5-qism. 9.3-mashq chaqaloqning tug‘ilgan vaznini bashorat qilish uchun barcha tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan to‘liq model uchun regressiya natijalarini beradi. Ushbu mashqda oldinga tanlash algoritmini ko‘rib chiqamiz va o‘zgaruvchilarni birin-ketin modelga qo‘shamiz. Quyidagi jadval faqat mos o‘zgaruvchini o‘z ichiga olgan har bir model uchun p-qiymat va tuzatilgan R^2 qiymatlarini ko‘rsatadi. Ushbu jadvalga asoslanib, qaysi o‘zgaruvchi birinchi bo‘lib modelga qo‘shilishi kerak?

o‘zgaruvchi	homiladorlik vaqti	tug‘ilish tartibi	yosh	bo‘y	vazn	chekish
p-qiymat	$2{,}2 \times 10^{-16}$	0,1052	0,2375	$2{,}97 \times 10^{-12}$	$8{,}2 \times 10^{-8}$	$2{,}2 \times 10^{-16}$
R^2_{tuz}	0,1657	0,0013	0,0003	0,0386	0,0229	0,0569

9.10 Maktabdan qolish, 3-qism. 9.4-mashq maktabdan qolgan kunlarni bashorat qilish uchun barcha tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarni o‘z ichiga olgan to‘liq model uchun regressiya natijalarini beradi. Ushbu mashqda oldinga tanlash algoritmini ko‘rib chiqamiz va o‘zgaruvchilarni birin-ketin modelga qo‘shamiz. Quyidagi jadval faqat mos o‘zgaruvchini o‘z ichiga olgan har bir model uchun p-qiymat va tuzatilgan R^2 qiymatlarini ko‘rsatadi. Ushbu jadvalga asoslanib, qaysi o‘zgaruvchi birinchi bo‘lib modelga qo‘shilishi kerak?

o‘zgaruvchi	etnik kelib chiqish	jins	o‘quv holati
p-qiymat	0,0007	0,3142	0,5870
R^2_{tuz}	0,0714	0,0001	0

9.11 Kinofilmlar, 1-qism. Tasavvur qiling, bir ijtimoiy olim tomoshabinlar kinofilmlarni sevishlari yoki yoqtirmasliklarini nima belgilashini o‘rganishni xohlaydi. U tasodifiy tanlangan kinofilmlar (janr, davomiyligi, aktyorlar tarkibi, rejissyor, byudjet va hokazolar) va kinofilmlar muvaffaqiyatini o‘lchovchi indikator (kinofilmlar sharhlarini yig‘adigan veb-saytidagi ballar) bo‘yicha ma’lumot yig‘adi. Agar uning tadqiqoti kinofilmlar muvaffaqiyatining asosiy bashoratlovchilarini topishga qaratilgan bo‘lsa, qanday modelni tanlash usulidan foydalanishi kerak?

9.12 Kinofilmlar, 2-qism. Tasavvur qiling, bir onlayn media oqim kompaniyasi kinofilmlarni tavsiya qilish tizimini yaratishni istaydi. Veb-sayt o‘z ma’lumotlar bazasidagi kinofilmlar bo‘yicha ma’lumotlarni (janr, davomiyligi, aktyorlar tarkibi, rejissyor, byudjet va hokazo) saqlaydi va qo‘shimcha ravishda o‘z obunachilaridan (demografik ma’lumotlar, avval tomosha qilingan kinofilmlar, ular tomosha qilgan kinofilmlarni baholashlari va hokazo) ma’lumot yig‘adi. Tavsiya tizimi obunachilar tavsiya qilingan kinofilmlarni haqiqatda tomosha qilishlari va yuqori baholashlari bilan muvaffaqiyatli deb baholanadi. Kompaniya o‘z tavsiya tizimida o‘zgaruvchilarni tanlash uchun tuzatilgan R^2 yoki p-qiymat yondashuvini ishlatishi kerakmi?

9.3 Grafiklar yordamida model shartlarini tekshirish

Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya usullari quyidagi modeldan foydalanadi:

$$\hat{y} = \beta_0 + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \cdots + \beta_k x_k$$

umuman olganda, quyidagi to‘rtta shartlarga asoslanadi:

1. modelning qoldiqlari deyarli normal bo‘ladi (kattaroq ma’lumot to‘plamlari uchun bu kamroq ahamiyatga ega),
2. qoldiqlarning o‘zgaruvchanligi deyarli barqaror,
3. qoldiqlar bog‘liqsiz va
4. har bir o‘zgaruvchi natija bilan chiziqli bog‘liq bo‘ladi.

9.3.1 Diagnostik grafiklar


Diagnostik grafiklar yordamida yuqoridagi shartlarning har birini tekshirish mumkin. Biz “Lending Club” qarzlari ma’lumotlari modelini ko‘rib chiqamiz va qandaydir muhim xavotirlar mavjudligini aniqlaymiz:

$$\begin{aligned}\widehat{foiz\ stavkasi} = \ & 1{,}921 + 0{,}974 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} \\ & + 2{,}535 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}} + 0{,}021 \times \texttt{qarzdorlik darajasi} \\ & + 4{,}896 \times \texttt{kredit ulushi} + 0{,}387 \times \texttt{bankrotlik} + 0{,}154 \times \texttt{muddati} \\ & + 0{,}228 \times \texttt{kredit tekshiruvi}.\end{aligned}$$

Chetlashgan nuqtalarni tekshirish. Nazariy jihatdan, qoldiqlarning taqsimoti deyarli normal bo‘lishi kerak. Amaliyotda esa normalik ko‘pgina ilovalar uchun yumshatilishi mumkin. Buning o‘rniga, qoldiqlarning gistogrammasini tekshiramiz va chetlashgan nuqtalar mavjudligini aniqlaymiz. 9.8-rasm ushbu chetlashgan nuqtalarning gistogrammasidir. Bu juda katta ma’lumotlar to‘plami bo‘lganligi sababli, faqat juda ekstremal kuzatuvlar ushbu holda xavotirga sabab bo‘lishi mumkin. Bizning holatda hech qanday ekstremal kuzatuvlar xavotirga sabab bo‘lmaydi.

Agar biz kelajakdagi kuzatuvlar uchun **bashorat intervallarini** qurishni mo‘ljallagan bo‘lsak, qoldiqlarning deyarli normal bo‘lishini talab qilamiz. Bashorat intervallari haqida qo‘shimcha ma’lumot OpenIntro veb-saytida onlayn qo‘shimcha sifatida muhokama qilingan:

www.openintro.org/d?id=stat_extra_linear_regression_supp




9.8-rasm. Qoldiqlarning gistogrammasi.

Qoldiqlarning absolyut qiymatlari va mos qiymatlari. Qoldiqlarning absolyut qiymatlari va ularga mos qiymatlar ($\hat{y}_i$) o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadigan grafik 9.9-rasmda keltirilgan. Ushbu grafik qoldiqlarning dispersiyasi taxminan doimiy bo‘lishi kerakligini tekshirishda yordam beradi. Ushbu grafikga silliqlashtirilgan chiziq qo‘shilgan bo‘lib, bu grafikning taxminiy tendensiyani ifodalaydi. Kattaroq mos qiymatlar uchun dispersiyada sezilarli farq mavjud bo‘lib, biz bu mavzuni keyinroq muhokama qilamiz.

Qoldiqlarning ma’lumot yig‘ilishiga ko‘ra tartibi. Ushbu turdagi grafik kuzatuvlar ketma-ketlikda yig‘ilgan hollarda foydali bo‘lishi mumkin. Bunday grafik yaqin joylashgan holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda yordam beradi. Ushbu ma’lumotlar to‘plamidagi qarzlar 3 oylik davrda chiqarilgan va qarz chiqarilgan oy muhim emasligi aniqlangan. Bu ushbu ma’lumotlar to‘plami uchun xavotirga sabab emasligini ko‘rsatadi. Agar ma’lumotlar to‘plamida bu shart uchun biron bir tendensiya ko‘rsatilsa, bu holatda **vaqtli qatorlar** usullari foydali bo‘lishi mumkin.

Qoldiqlarni har bir bashoratlovchi o‘zgaruvchi bo‘yicha taqsimoti. 9.10-rasmda qoldiqlarning har bir bashoratlovchi o‘zgaruvchisi bo‘yicha taqsimoti grafiklari keltirilgan. 2-3 ta guruh



9.9-rasm. Qoldiqlarning absolyut qiymatlarini mos qiymatlar ($\hat{y}_i$) bilan solishtirish doimiy dispersiya bahosi bo‘yicha og‘ishlarni aniqlashga yordam beradi.

bo‘lgan hollarda, qutili diagrammalar ko‘rsatilgan. Raqamli natijalar uchun ma’lumotlarga silliqlashtirilgan chiziq moslashtirilgan bo‘lib, ko‘rib chiqishni osonlashtiradi. Nihoyat, biz guruhlar o‘rtasidagi o‘zgaruvchanlikda sezilarli o‘zgarish yoki ma’lumotlarda biron bir tendensiya mavjudligini aniqlaymiz.

Ushbu grafiklarda quyidagi jihatlar muhim:

- Tasdiqlangan daromad guruhlari orasidagi o‘zgaruvchanlikda kichik farqlar mavjud.
- Qarzdorlik darajasi o‘zgaruvchisi uchun juda aniq tendensiya mavjud. Bundan tashqari, ushbu o‘zgaruvchi juda kuchli o‘ngga og‘uvchi ekanligi seziladi. Ya’ni qarzdorlik darajasi juda yuqori bo‘lgan kuzatuvlar kam.
- Kreditdan foydalanish va kredit tekshiruvi grafiklarining o‘ng tomonida pastga qaragan egri chiziq katta qiymatlar uchun bir oz noto‘g‘ri moslashtirishni ko‘rsatadi.

Diagnostik grafiklarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, ikkita variant mavjud. Birinchi variant - agar kuzatilgan masalalar bizni tashvishga solmasa, ushbu modelni yakuniy model sifatida qabul qilamiz. Agar ushbu yo‘nalishni tanlasak, diagnostika natijalaridagi har qanday g‘ayrioddiyliklarni qayd etish muhimdir. Ikkinchi variant - modelni yaxshilashga urinish, bu aynan ushbu modelga nisbatan qilmoqchi bo‘lgan harakatimizdir.


9.3.2 Modelni moslashtirishni yaxshilash uchun variantlar

Modelni yaxshilash uchun bir nechta variantlar mavjud. Masalan, o‘zgaruvchilarni transformatsiya qilish, model bo‘shliqlarini to‘ldirish uchun qo‘shimcha o‘zgaruvchilarni izlash yoki bashoratlovchi o‘zgaruvchilar va natija o‘rtasidagi chiziqsiz bog‘liqlik yoki noto‘g‘ri o‘zgaruvchanlikni hisobga oladigan murakkabroq usullarni qo‘llash.

Dastlabki model uchun asosiy muammo shundaki, qarzdorlik darajasi o‘zgaruvchisi va natija o‘rtasidagi aniq chiziqsiz bog‘liqlik mavjudligi 9.10-rasmda kuzatilgan. Ushbu muammoni hal qilish uchun, bashoratlovchi o‘zgaruvchi va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni sozlash uchun bir nechta strategiyalarni ko‘rib chiqamiz.

Keling, avval `qarzdorlik darajasi` uchun gistogrammani 9.11-rasmda ko‘rib chiqamiz. Ushbu o‘zgaruvchi juda og‘uvchi taqsimotga ega va yuqori qiymatlar moslashtirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Quyida bir nechta variantlar keltirilgan:


- log transformatsiyasi ($\log x$),
- kvadrat ildiz transformatsiyasi ($\sqrt{x}$),



9.10-rasm. Har bir bashoratlovchi o‘zgaruvchisi uchun qoldiqlarning diagnostik grafiklari. Qutili diagrammalar uchun biz o‘zgaruvchanlikda sezilarli farqlarni izlaymiz. Raqamli o‘zgaruvchilar uchun biz ma’lumotlarda tendensiyalar yoki boshqa tuzilmalarni tekshiramiz.

- teskari transformatsiya $(1/x)$,
- chegaralash (maksimal mumkin bo‘lgan qiymatni belgilash)

Agar ma’lumotlarni batafsilroq tekshirsak, ba’zi hollarda o‘zgaruvchining qiymati 0 ga teng bo‘lganligini kuzatamiz, va $\log(x)$ va $1/x$ transformatsiyalari $x = 0$ bo‘lganda aniqlanmagan. Shuning uchun ushbu transformatsiyalarni keyinroq ko‘rib chiqamiz.[13] Kvadrat ildiz transformatsiyasi ushbu o‘zgaruvchi qabul qiladigan barcha qiymatlar uchun amal qiladi. Katta kuzatuvlarning bir qismini chegaralash ham yaroqli yondashuvdir. Biz ushbu ikkala yondashuvni ko‘rib chiqamiz.



9.11-rasm. `qarzdorlik darajasi` uchun gistogramma, unda o‘ta og‘uvchanlik seziladi.

O‘zgaruvchini transformatsiya qilishni sinab ko‘rish uchun transformatsiya qilingan versiyalarni ifodalovchi ikkita yangi o‘zgaruvchi yaratiladi:

Kvadrat ildiz. Yangi o‘zgaruvchi, `sqrt_qarzdorlik darajasi`, yaratiladi, bunda barcha qiymatlar `qarzdorlik darajasi` qiymatlarining kvadrat ildizlari sifatida hisoblanadi va model avvalgidek qayta moslashtiriladi. Natijalar 9.12-rasmning chap panelida keltirilgan. Kvadrat ildiz yuqori qiymatlarni biroz kamaytiradi, lekin moslashtirish hali ham yaxshi ko‘rinmaydi, chunki silliqlashtirilgan chiziq hali ham egri.


50 da chegaralash. Yangi o‘zgaruvchi, `qarzdorlik darajasi_50`, yaratiladi. Bunda `qarzdorlik darajasi` dagi har qanday qiymatlar 50 dan katta bo‘lsa, aniq 50 ga qisqartiriladi. Model yana bir bor qayta moslashtiriladi va ushbu yangi o‘zgaruvchi uchun diagnostik grafik 9.12-rasmning o‘ng panelida keltirilgan. Bu yerda moslash juda oqilonadek ko‘rinadi, shuning uchun bu maqul yondashuv sifatida ko‘rib chiqiladi.

Transformatsiyalardan foydalanishning kamchiligi natijalarni tushunishni biroz murakkablashtiradi. Yaxshiyamki, chegaralash transformatsiyasi nisbatan oz sonli holatga ta’sir qilgani uchun, talqin qilishga jiddiy ta’sir o‘tkazmaydi.

Keyingi qadam sifatida, `qarzdorlik darajasi` ning chegaralangan versiyasidan foydalangan holda yangi modelni baholaymiz va oldingi barcha protseduralarni takrorlaymiz. 9.3.1-bo‘limda diagnostika davomida ko‘rib chiqilgan boshqa ikkita masala yangilangan modelda ham mavjud. Agar modelni o‘rganishni xohlasak, ushbu kamchiliklarni ham muhokama qilishimiz va ishimizda shaffof bo‘lishimiz kerak. Model nima uchun ishlatilishi kerakligiga qarab, ushbu masalalarni hal qilishga urinib ko‘rishimiz yoki ular jiddiy bo‘lmagani uchun to‘xtashimiz mumkin. Agar o‘zgaruvchan dispersiya biroz ko‘proq yomonroq bo‘lganida, bu ustuvorlikka aylangan bo‘lardi. Oxir-oqibat, model oqilona deb qaror qildik va uning yakuniy shaklini bu yerda keltiramiz:

$$\begin{aligned} \widehat{foiz\ stavkasi} = {} & 1{,}562 + 1{,}002 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{faqat manba}} \\ & + 2{,}436 \times \texttt{daromad tasdig‘i}_{\texttt{tasdiqlangan}} + 0{,}048 \times \texttt{qarzdorlik darajasi_50} \\ & + 4{,}694 \times \texttt{kredit ulushi} + 0{,}394 \times \texttt{bankrotlik} + 0{,}153 \times \texttt{muddati} \\ & + 0{,}223 \times \texttt{kredit tekshiruvi}. \end{aligned}$$

[13] Bu usullarni ishlashini ta’minlashning yo‘llari mavjud, ammo bu imkoniyatlarni keyingi kursga qoldiramiz.



9.12-rasm. `qarzdorlik darajasi` ning transformatsiya qilingan versiyalari uchun qoldiq grafiklari.

Kuchli kuzatuvchi shuni sezadiki, `qarzdorlik darajasi_50` o‘zgaruvchisi uchun koeffitsiyent avvalgi modeldagi `qarzdorlik darajasi` o‘zgaruvchisi uchun koeffitsiyentdan ikki baravar kattaroq. Bu yuqori qiymatlar nafaqat kuchli ta’sirga ega nuqtalar, balki koeffitsiyentga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan ta’sirchan nuqtalar ekanligini ko‘rsatadi.

“HAMMA MODELLARDA XATOLIK BOR, LEKIN BA’ZILARI FOYDALI” -JORJ E.P. BOX

Haqiqat shundaki, hech qaysi model mukammal emas. Ammo, mukammal bo‘lmagan modellar ham foydali bo‘lishi mumkin. Bunday holda kamchiliklari bor model haqida hisobot berish, buni ochiq-oydin bayon qilish va modelning zaif tomonlarini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘ladi.


Statistik shartlar qo‘pol ravishda buzilganda, tahlil natijalari haqida hisobot bermang. Model shartlarida biroz og‘ishlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lsa-da, me’yordan juda uzoqlashib ketmang. Agar model shartlari ochiq-oydin buzilgan bo‘lsa, hatto bu ko‘proq statistik usullarni o‘rganish yoki yordam bera oladigan mutaxassisni yollashni anglatsa ham, yangi modeldan foydalanishni ko‘rib chiqing. Sizga ishni boshlashda ko‘maklashish uchun OpenIntro veb-saytida topishingiz mumkin bo‘lgan bir nechta qo‘shimcha bo‘limlar ishlab chiqilgan. Ushbu bo‘limlar **o‘zaro ta’sir hadlari** deb ataladigan tushunchalar va ma’lumotlarga **egri chiziq**larni moslashtirish bilan qisqacha tanishtiradi:

www.openintro.org/d?file=stat_extra_interaction_effects

www.openintro.org/d?file=stat_extra_nonlinear_relationships


Mashqlar

9.13 Chaqqaloqlar vazni, 4-qism. 9.3-mashq regressiya modelini taqdim etadi, bu model chaqaloqlar tug‘ilgan paytdagi o‘rtacha vaznini onaning homiladorlik davomiyligi, tartibi, bo‘yi, og‘irligi va chekish holatiga asoslanib bashorat qilish uchun ishlatiladi. Quyidagi grafiklardan foydalanib, modelning taxminlari bajarilganmi yoki yo‘qligini aniqlang. Agar bajarilmagan bo‘lsa, tahlil bilan qanday davom etishni tasvirlang.



9.14 Kinofilm foydasi, 1-qism. FiveThirtyEight.com bir maqolasida shunday yozadi: “Qo‘rqinchli filmlar katta yozgi blokbasterlar yoki sarguzasht/harakat filmlari kabi kassada katta daromad keltirmaydi ... lekin studiyalarni ularni chiqarishni davom ettirishga undaydigan ulkan rag‘bat mavjud. Qo‘rqinchli filmlar uchun investitsiya qaytarilishining salohiyati nihoyatda katta.” Jangrlar o‘rtasida investitsiya qaytarilishi qanday solishtiriladi va ushbu munosabat vaqt davomida qanday o‘zgarganligini o‘rganish uchun kirish statistikasi talabasining modeli 2000-2018 yillar oralig‘ida chiqarilgan 1070 ta film uchun janr va chiqarilgan yil asosida filmning yalpi daromadi nisbatini bashorat qildi. Quyidagi grafiklardan foydalanib, ushbu regressiya modeli berilgan ma’lumotlar uchun mos ekanligini aniqlang.[14]

[14] FiveThirtyEight, Scary Movies Are The Best Investment In Hollywood.



9.4 Ko‘p o‘lchovli regressiya bo‘yicha ish: Mario Kart

Nintendo Wii uchun *Mario Kart* video o‘yini bo‘yicha Ebay savdolari ko‘rib chiqiladi. Savdolarning qiziqish o‘zgaruvchisi bu savdoning umumiy narxi, ya’ni eng yuqori taklif va yetkazib berish narxining yig‘indisi. Savdoning umumiy narxi har bir xususiyat bilan qanday bog‘liq ekanligini aniqlashga harakat qilamiz, shu bilan birga boshqa o‘zgaruvchilarni nazorat qilib turamiz. Masalan, barcha boshqa xususiyatlar o‘zgarmas holatda, uzoqroq davom etuvchi savdolar yuqori yoki pastroq narxlar bilan bog‘liqmi? Shuningdek xaridorlar, savdolarda qo‘shimcha Wii rulchalari (plastik rulchalar, ular Wii boshqaruvchiga ulanadi) uchun o‘rtacha qancha ko‘proq to‘lashga moyil? Ko‘p o‘zgaruvchili regressiya ushbu va boshqa savollarga javob berishda yordam beradi.

9.4.1 Ma’lumotlar to‘plami va to‘liq model

`mariokart` ma’lumotlar to‘plami 141 ta savdoning natijalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ma’lumotlar to‘plamidan to‘rtta kuzatuv 9.13-rasmda ko‘rsatilgan va har bir o‘zgaruvchi uchun tavsiflar 9.14-rasmda berilgan. Diqqat qiling, `holati` (`holati`) va `stok_fotosurat` (`stok_fotosurat`) o‘zgaruvchilari indikator o‘zgaruvchilar bo‘lib, `loan` ma’lumotlar to‘plamidagi `bankrotlik` o‘zgaruvchisiga o‘xshaydi.

	narx	holati	stok_fotosurat	davomiyligi	rullar
1	51,55	1	1	3	1
2	37,04	0	1	7	1
⋮	⋮	⋮	⋮	⋮	⋮
140	38,76	0	0	7	0
141	54,51	1	1	1	2

9.13-rasm. `mariokart` ma’lumotlar to‘plamidan to‘rtta kuzatuv.

o‘zgaruvchi	**tavsif**
`narx`	Yakuniy savdo narxi va etkazib berish narxi, AQSh dollarida (`narxi`).
`holati`	Agar savdoga qo‘yilgan o‘yin yangi bo‘lsa (`1`), ishlatilgan bo‘lsa (`0`) indikator o‘zgaruvchi (`holati`).
`stok_fotosurat`	Agar savdoning asosiy surati stock photo bo‘lsa indikator o‘zgaruvchi (`stok_fotosurat`)
`davomiyligi`	Savdoning davomiyligi, kunlarda, 1 dan 10 gacha qiymatlar oladi (`davomiyligi`)
`rullar`	Savdoda Wii rulchalari soni. *Wii wheel* - bu Wii boshqaruvchini ushlab turuvchi ixtiyoriy rulcha aksessuari (`rullar`).

9.14-rasm. `mariokart` ma’lumotlar to‘plamidagi o‘zgaruvchilar va ularning ta’riflari.

Y

9.21-YO‘NALTIRILGAN MASHQ

Biz savdo narxini bashorat qilish uchun o‘yin holati bashoratlovchi o‘zgaruvchisi sifatida ishlatilgan chiziqli regressiya modelini moslashtirdik. Ushbu model natijalari quyida keltirilgan:

	Baho	Standart xatolik	t qiymat	Pr(>|t|)
(Ozod had)	42,8711	0,8140	52,67	< 0,0001
holati	10,8996	1,2583	8,66	< 0,0001
				$ed = 139$

Model uchun tenglamani yozing, burchak koefitsiyenti nolga nisbatan statistik jihatdan farq qiladimi yoki yo‘qligini va koeffitsiyentning talqinini keltiring.[15]

Ba’zida bashorat o‘zgaruvchilari o‘rtasida asosiy tuzilmalar yoki bog‘liqliklar mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan, Ebay’da sotilayotgan yangi o‘yinlar ko‘pincha ko‘proq Wii rulchalari bilan birga sotiladi, bu esa ushbu savdolar uchun narxning oshishiga olib kelishi mumkin edi. Bashorat o‘zgaruvchisi va natija o‘rtasidagi bog‘liqlikni boshqa o‘zgaruvchilarning potentsial ta’sirini nazorat qilib baholash uchun barcha muhim o‘zgaruvchilarni bir vaqtning o‘zida o‘z ichiga olgan modelni moslashtirishni xohlaymiz.

9.21-yo‘natirilgan mashqdagi kabi o‘yin holatini hisobga oluvchi modelni tuzish bilan birga,

[15] Chiziq tenglamasi quyidagicha yozilishi mumkin:

